К примеру, можно отметить Навойскую область, где последние 5-6 лет выпускники общего средне-специального образования лидируют по поступлению в ВУЗы Республики Узбекистан по сравнению с другими областями [14]. Превосходство уровня образования в Навойской области во многом связано со структурами молодёжных организации региона. Следует отметить то, что активность молодёжных организации Навойской области заметно наблюдается в их действиях. Например проведения разных образовательных конкурсов как чтения книг, лучший изобретатель, или открытие в подразделениях молодёжных организации дополнительных курсов по совершенствованию разных иностранных языков, точных наук (математики, физики, химии) способствуют более эффективно получать знания для дальнейшего формирования и поступления молодёжи в ВУЗы [15]. Следует отметить и физическое воспитание молодёжи, где активность Зарафшанского оазиса также наблюдается в годы независимости и особенно за последние 5-6 лет [16].

Среднее специальное, профессиональное образование Узбекистана за годы независимости 1998-2017гг., оказала определённое положительное влияние на развитие молодых юношей и девушек страны. В данный период сформировался свой определённый исторический опыт по 12 летнему обязательному образованию. Наравне с успехами развития средне-специального профессионального образования, следует отметить и их некоторые проблемы, которые связанные с распределением выпускников 9-х классов. Проблемы было связано с охватом молодёжи в обязательное 12 летнее образование. Выпускники 9-х классов не полностью были охвачены в соответствующие колледжи и лицеи. Хотя и было со стороны государство создано все условия для охвата и обучения учащейся молодёжи. На наш взгляд это объясняется неполноценным и необъективным подходом к вопросу распределения выпускники 9-х классов на местах. В частности, Навойской области, данная сфера деятельности была где-то положительной, а в некоторых отношениях и отрицательной [17].

Положительная сторона средне-специальной профессионального образовательной системы в тот исторический период в основном была связана с тем, что молодёжь страны после окончания общего среднего образования на базе 9-ти

летнего обучения получает дальнейшее обязательное бесплатное обучение и в итоге завершения 3-х летнего курса обучения получает определенную среднюю специальную квалификацию. Полученный диплом после окончания трёх летнего образования в колледже служил для его будущего материально – духовного обеспечения, то есть молодому специалисту определялась квота для поступления его на работу по соответствующей специальности [18]. С другой стороны, трудоустройство формально являлось обязательным так, как существовали положения об обязательной занятости выпускников профессиональных колледжей [19]. Следует добавить, что в 2009 – 2010 учебным году был исторический переход на 12-летнее обязательное образование. В стране обязательное бесплатное общее среднее и среднее специальное образование с 12-летним обучением до 2018 г. считалось особенно актуальным вопросом политики государства [20].

В этот исторический период в Зарафшанском оазисе, наблюдается активное участие молодёжных организаций как ОДМ «Камолот» в деятельности средне-специального профессионального образования. Со стороны молодёжных организации для получения качественного образования были организованы разные предметные кружки, конкурсы знаний, соревнования. Молодёжные структуры разрабатывали разные планы мероприятий для эффективного развития интересов молодёжи. Организация разных видов мероприятий со стороны молодёжных организации относительно расширения знания среди юношей и девушек, способствуют совершенствовать их знания. Формируют молодёжь для дальнейшего участия в научных проектах, как международные и республиканские проекты, гранты, стартапы, участие в международных конференциях, конгрессах. Подобные встречи на высшем уровне, можно рассмотреть на примере Самаркандской области, где современная молодёжь участвуют на международных конференциях [21]. Участие молодых людей на международной арене позволяет стимулировать их стремления для получения качественного образования. У молодёжи формируется интерес к самообразованию – изучения иностранного языка, истории государств и т.д.

Наравне с успехами существуют и проблемы воспитания и образования на территории Зарафшанского оазиса. Объективный подход к образованию с привлечением молодёжных организации, как локомотива совершенствования молодых людей, также даёт о себе знать с учетом отдаленности некоторых регионов оазиса. Не своевременная профилактика, не обеспеченность материально-технической базой образовательных учреждений, молодёжных организации отражается на пассивном развитие образования и воспитания дальних районов оазиса. К примеру можно дать историческую оценку проблеме развития молодёжи по Навоийской области, которая является по территории намного больше чем Самарканд или Бухара. Взяв во внимание масштаб территории Навоийской области следует отметить и разносторонний уровень активности молодёжных организации и образование. В Навоийской области к таким территориям можно отнести Хатырчинский, Нуратинский и Навбахорские районы. В этих районах области есть отдаленные сельские местности, где существуют такие проблемы, как не хватка кадров, инфраструктура, транспортно-логистическая система. Это обуславливается тем, что в отдаленных сельских местностях недостаточно уделяется внимание местными органами власти на существенные проблемы

инфраструктура и в том числе и образования. Решением таких задач возможно тогда, когда все соответствующие централизованные образовательные учреждения городов и районов области активизируют своё внимание на отдаленные регионы.

**Выводы.** За исторический период в годы независимости в образовательной системе Узбекистана произошли много плодотворных изменений, которые способствовали эффективному развитию молодёжи, но как было отмечено выше были и некоторые недостатки и проблемы развития образования. И это в основном связана с теми регионами, которые несвоевременно и недостаточно имели такие возможности, какие имели центры районов и городов областей страны. В Зарафшанском оазисе проблемы относительно дальних районов оказала влияние в основном на отдаленные регионы Навоийской и Бухарской области[22].

Исходя из выше изложенного необходимо отметить то, что полноценный охват молодёжи играет огромное влияние на развитие государство, необходимо на постоянной основе затрагивать вопросы обеспечения и внимания интересам молодёжи дальних угалках государства. Изучать потребности населения в соответствующих кадрах, организовывать необходимые мероприятия стимулирующие современную молодёжь. Активизировать внимание на материально-технического обеспечения для дальних угалках областей со стороны местных органов власти. На мониторинговой основе более плодотворно формировать динамику роста уровня образования среди учащихся общего и средне-специального профиссонального образования.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Встреча Президента Узбекистана с учителями /Мы должны учить ребёнка так, чтобы это согласовывалось с его желаниями и запросами — Пресс-служба президента, Газета.uz, 29.12.2024г. [Электронный ресурс] URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2022/12/29/teachers/> (дата обращения 05.05.2024г.) Закон Республики Узбекистан «Об образовании». / Народное слово, 3 июля 1992 г.
2. Закон Республики Узбекистан «Об образовании». № 636 – XII, 02.07.1992г. // [Электронный ресурс] URL: <https://lex.uz/docs/56432?ONDATE=23.07.1992>
3. Закон Республики Узбекистан, 29 августа 1997г. за №463-І, «Об образовании и Национальная программа по подготовке кадров». – Ташкент, 1997
4. Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по полному переходу на двенадцатилетнее образование и своевременной подготовке вновь вводимых и реконструируемых объектов профессиональных колледжей и академических лицеев г. Ташкента к 2007-2008 учебному году» // ПП-663 от 01.05.2007г., [Электронный ресурс] –URL: <https://lex.uz/acts/1186579> (дата обращения: 07.05.2024)
5. Закон Республики Узбекистан «Об образовании». № 637, 23.09.2020г. // [Электронный ресурс] URL: <https://lex.uz/pdfs/5013009> (дата обращения: 10.05.2024)

6. Постановление Президента Республики Узбекистан, О мерах по обеспечению дальнейшего обучения выпускников 9-х классов общеобразовательных школ в отдаленных населенных пунктах. **№ ПП–1157 от 13.07.2009 г.** // Собрание законодательства Республики Узбекистан, № 30-31, Ташкент, 2009.– С. 342.
7. Норов Ш.С., Молодёжные организации в развитие промышленного наследия Зарафшанского оазиса // V Международная научно-техническая конференция «Комплексное инновационное развитие Зарафшанского региона, достижения проблемы и перспективы», Навоий – 2024., С. 351.
8. Постановление Президента Республики Узбекистан «Об организации деятельности Агентства по делам молодёжи Республики Узбекистан» // ПП-4768 от 30.06.2020г., Собрание законодательства Республики Узбекистан, № №26 (942). – Ташкент, 2020. – С. 180-186.
9. Норов Ш.С., Исторический анализ трудоустройства молодежи Узбекистана на примере Зарафшанского оазиса // Физическая культура, спорт и молодежная политика в условиях глобальных вызовов: материалы Международного научного конгресса, посвященного 90-летию Института физической культуры, спорта и молодежной политики УрФУ (Екатеринбург, 14–20 ноября 2022 г.): Издательство Уральского университета, 2023. — С. 337-341. [Электронный ресурс] – URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45843276> (дата обращения: 07.05.2024)
10. Норов Ш.С., Сувонова Ж.Ш. Исторический анализ основных направлений по координации местных молодёжных организации в Навоийской области (2009-2015 гг.) //Актуальные исследования. – 2021. – №. 22. – С. 34-36. [Электронный ресурс] – URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=45843276> (дата обращения: 12.05.2024)
11. Норов Ш.С. Исторический анализ материально-духовной поддержки подрастающего поколения в Навоийской области в годы независимости (2016-2021 гг.)// Общественные науки в современном мире: политология, социология, философия, история. Сборник статей по материалам международной научно-практической конференции. Том 10 (43). Москва, 2021 [Электронный ресурс] –URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46968182> (дата обращения: 14.05.2024)
12. Закон Республики Узбекистан «Об образовании». ЗРУ № 637, 03.09.2020г. // [Электронный ресурс] URL: <https://lex.uz/ru/docs/5013009> (дата обращения: 15.05.2024)
13. Навоийская область на первом месте, Сурхандарья – на последнем - объявлен показатель приема выпускников школ. Kun.uz. [Электронный ресурс] URL: <https://kun.uz/ru/news/2022/08/29/navoiyskaya-oblast-na-pervom-meste-surxandarya-na-poslednem-obyavlen-pokazatel-priyema-vypusknikov-shkol> (дата обращения: 15.05.2024)
14. Гулямова Д. Навоийская область станет образцовой в республике с наилучшими условиями для получения качественного образования и знания / Янги Ўзбекистон 09.08.2023. [Электронный ресурс] URL: <https://yuz.uz/ru/news/navoiyskaya-oblast-stanet-obraztsovoy-v-respublike-s-nailuchshimi-usloviyami-dlya-polucheniya-kachestvennogo-obrazovaniya-i-znaniy> (дата обращения: 21.05.2024)
15. Гулямова Д. Педагогика: основа ЗОЖ для учащейся молодёжи. / Правда Востока 10.11.2022. [Электронный ресурс] URL: <https://yuz.uz/ru/news/pedagogika-osnov-zoj-dlya-uchaeysya-molodeji> (дата обращения: 21.05.2024)



16. Национальный архив Узбекистана, Ф: М-13, Оп.- 2, Ед. хр.-177, Л. 1, 3, 5, 7.; Государственный архив Навоийской области, Ф-82, Оп.-1, Ед.хр.-71, Л. 3,10,11.
17. Государственный архив Навоийской области Ф – 82, Оп. – 1, Ед. хр.– 71, Л. 3,10,11.
18. Постановление Законодательной Палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан, об информации министра труда и социальной защиты населения Республики Узбекистан. // № 733-П. от 25.09.2013г., **[Электронный ресурс]** <https://lex.uz/docs/2260204?query>.
19. Постановление Президента Республики Узбекистан, о мерах по обеспечению дальнейшего обучения выпускников 9-х классов общеобразовательных школ в отдаленных населенных пунктах. **Н ПП-1157 от 13.07.2009 г.** // Собрание законодательства Республики Узбекистан, № 30-31, Ташкент, 2009.– С. 342.
20. Юлдашев З., Ильясов А. В самарканде состоялся диалог молодых людей из Центральной Азии. / Янги Ўзбекистон 18.11.2022. [Электронный ресурс] URL: <https://yuz.uz/ru/news/v-samarkande-sostoyalsya-dialog-molodx-lyudey-iz-tsentralnoy-azii> (дата обращения: 21.05.2024)
21. Норов, Ш. С. (2021). Исторический процесс формирования основных направлений молодежных организации в Навоийской области в годы независимости. //Актуальное исследование – 2021. – С. 29. [Электронный ресурс] URL: <https://apni.ru/article/2978-istoricheskij-protsess-formirovaniya-osnovn> (дата обращения: 21.05.2024)

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY THE COMPOSITION OF THE CATEGORIES AND NATIONALITIES OF THE POPULATION OF THE CUTTACKORGAN SECTION OF THE SAMARKAND REGION IN THE XX CENTURIES**

**Kholkhujayeva Yulduz Uralboevna**

SamDU, Kattakurgan branch researcher.

[Xolxujayeva91@mail.ru](mailto:Xolxujayeva91@mail.ru)

**Abstract.** The tasks of researching and analyzing the data presented in primary written sources, as well as in special historical literature on the ethnic composition and number of the population of Zarafshan muzofot and its Kattakurgan section, summarizing them, are set to determine the characteristics of the number and ethnic composition of the population. There are a number of references to the number of inhabitants of the cuttackurghan section by category and Nationality.

**Keywords:** Turkestan region, Samarkand region, population of the territory, Kattakurgan uyezd, number of inhabitants, national composition.

## **XIX АСР ИККИНЧИ ЯРМИ XX АСРЛАРДА САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ КАТТАҚЎРҒОН БЎЛИМИ АҲОЛИСИНИНГ ТОИФАЛАРИ ВА МИЛЛАТЛАРИ ТАРКИБИ**

**Холхужаева Юлдуз Уралбоевна**

СамДУ Каттақўрғон филиали тадқиқотчиси

**Аннотация.** Зарафшон музофоти ва унинг Каттақўрғон бўлими аҳолисининг этник таркиби ва сони тўғрисида бирламчи ёзма манбаларда, шунингдек, махсус тарихий адабиётларда келтирилган маълумотларни тадқиқ ва таҳлил этиш, уларни умумлаштириш аҳолининг сони ва этник таркиби хусусиятларини аниқлаш вазибалари қўйилган. Каттақўрғон бўлими аҳолисининг тоифалар ва миллатлар бўйича сони ҳақида бир қанча маълумотлар келтирилган.

**Калит сўзлар:** Туркистон ўлкаси, Самарқанд вилояти, ҳудуд аҳолиси, Каттақўрғон уезди, аҳолиси сони, миллий таркиби.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N03>

Ўзининг кўп минг йиллик тарихи давомида юзлаб этнослар ва этник бирликларни бағрига сиғдирган Ўзбекистон тарихини ҳам аҳолининг этник таркиби ва сони каби асосий аспектларсиз тасаввур қилиб бўлмайди. Зеро, маълум бир ҳудуд аҳолисининг миллий таркиби ва сони тўғрисида чоп этилган ёзма манбалар, архив материаллари, илмий тадқиқотлар ва тарихий адабиётларда келтирилган маълумотларнинг тарихий-манбавий таҳлили тарих фанининг бош масалаларидан бири ҳисобланади.

1886 йилги “Туркистон ўлкасини бошқариш Низоми” га мувофиқ, Туркистон ўлкасининг маъмурий-худудий бўлиниши ўзгартирилди. Бунда мавжуд бирликларни унификациялаш принципига изчил риоя қилина бошланди. Зарафшон округи Самарқанд вилоятига айлантирилди. Унинг таркибига Сирдарё вилоятининг Хўжанд ва Жиззах уездлари ўтказилди ва кейинчалик Самарқанд вилояти Жиззах, Каттақўрғон, Самарқанд ва Хўжанд уездларидан ташкил топди. Самарқанд вилояти ва унинг таркибидаги уезд (туман), шаҳар ва участка (жабҳа)лар номи келтирилди. 1897 йилда М.Вирский берган маълумотларга кўра, Самарқанд узедиди-32 та, Хўжанд узедди-11 та, Каттақўрғон узедди-31 та, Жиззах узедди-17 та волост мавжуд эди. Вилоят бўйича 390 та қишлоқ ва 48 та овул жамоалари, аҳоли пунктлари 2267 та қишлоқ ва 158 та овулдан иборат бўлган [1; Б.75].

Ушбу мақолада 1868 йилда Зарафшон водийси катта қисмининг Россия империяси томонидан эгалланиши ортидан таъсис этилган Зарафшон музофоти ва унинг Каттақўрғон бўлими аҳолисининг этник таркиби ва сони тўғрисида бирламчи ёзма манбаларда, шунингдек, махсус тарихий адабиётларда келтирилган маълумотларни тадқиқ ва таҳлил этиш, уларни умумлаштириш аҳолининг сони ва этник таркиби хусусиятларини аниқлаш вазифалари қўйилган. Бу вазифаларни бажариш натижасида Самарқанд вилояти ва Каттақўрғон бўлимига оид бирламчи манбалар ва махсус тарихий адабиётлар устида кичик тарихий-манбавий таҳлилни амалга ошириш кўзда тутилган. Мақолада моҳиятан муаммо бўйича тарихшунослик таҳлили амалга оширилгани боис мавзунинг тарихшунослиги бўйича алоҳида тўхталинмади.

Самарқанд вилоятида аҳолиси сони бўйича Каттақўрғон узеди етакчи ўринда турган. Жумладан, 1897 йилдаги Россия империя аҳолисининг биринчи марта рўйхатга олиш тўғрисидаги маълумотларга кўра узедда аҳоли сони умумий 110006 нафар кишидан иборат бўлган. Шундан эркаклар 60897 нафар ва аёллар 49109 нафарни ташкил этган. Каттақўрғон шаҳар аҳолиси умумий 10087 киши, шундан эркаклар 5954 нафар аёллар, 4133 кишидан иборат бўлган.[2; Б. 3-4].

1880 йил учун Каттақўрғон бўлими аҳолисининг тоифалар ва миллатлар бўйича сони қайдномаси: [3; Б. 49-50].

№	Каттақўрғон бўлими ва шаҳри	Шаҳарда		Бўлимда		Жами		Умумий
		эркак	аёл	эркак	аёл	эркак	аёл	
1	Наслий дворянлар	30	9			30	9	39
2	Шахсий дворянлар	10	9			10	9	19
3	Руҳонийлар	1				1		1
4	Шаҳар сартлари	4500	4600					
5	Рус савдогарлари	1	1			1	1	2
6	Рус мешчанлари	6	3			6	3	9
7	Қишлоқ крестянлари	1	1			1	1	2
8	Қишлоқ сартлари							127,100
9	Истеъфодаги ҳарбийлар	6	2	1	1	7	3	10

10	Қўйи унвонли ҳарбийлар	1575	96			1575	96	1671
11	14 ёшгача бўлган болалар	30	26	1770	2000	1800	2026	3826
12	Ҳиндлар	48		25		73		73
13	Яҳудийлар	195	163	67	67	262	230	492
	Жами	6403	4910	1863	2068	3766	2378	133244

1880 йил Каттақўрғон бўлимида жами аҳоли таркибида православлар 1496, расколниклар 15, рим-католиклар 50, арманлар 13, яҳудийлар 542, мусулмонлар 132403 ва бутпарастлар 80 нафарни ташкил этган.

1883 йил учун Каттақўрғон бўлими рус аҳолисининг тоифалар бўйича рўйхати қайдномаси бўйича.

Каттақўрғон бўлимида наслий дворянлар 3, шахсий дворянлар 3, руҳонийлар 1, қўйи унвонли хизматчилар 466 ва 14 ёшгача бўлган болалар 28 нафарни ташкил этган. Уларнинг жами сони 501 кишидан иборат бўлиб, шундан хотин-қизлар 57 нафар.

1883 йил учун Каттақўрғон шаҳридаги ҳарбий-халқ бошқаруви хизматчиларининг диний эътиқод бўйича рўйхати қайдномаси.

Каттақўрғон шаҳридаги ҳарбий-халқ бошқаруви хизматчиларидан 395 нафари православ (шундан 30 нафари аёллар), 14 нафари расколник, 1 нафар рим-католик, 16 нафари мусулмон ва 11 нафари бутпараст бўлган. Уларнинг жами сони 466 нафарни ташкил этган [4; Б, 19-20].

1883 йил учун Каттақўрғон шаҳридаги жами русийзабон аҳолининг тоифалар бўйича қайдномаси.

Каттақўрғон шаҳрида наслий дворянлар 32, шахсий дворянлар 3, қўйи унвонли ҳарбий хизматчилар 801, 14 ёшгача бўлган болалар 42 нафарни ташкил этган. Шундан хотин-қизлар 71 нафар.

1883 йил учун Каттақўрғон шаҳридаги жами ҳарбий хизматчиларнинг диний эътиқод бўйича қайдномаси.

Ҳарбий хизматчилардан 758 нафари православ, 28 нафари расколник, 18 нафари рим-католик, 17 нафари яҳудий, 15 нафари мусулмон эътиқодига мансуб бўлган. Уларнинг жами сони 836 нафарни ташкил этиб, шундан 55 нафари хотин-қизлар [5; Б.23-24].

1883 йил учун Каттақўрғон бўлими аҳолисининг тоифалар ва элатлар бўйича қайдномаси

№	Каттақўрғон бўлими ва шаҳри	Каттақўрғон шаҳри		Каттақўрғон канцелярия бўлими		Жами		Умум
		Эрк	Аёл	Эрк	Аёл	Эрк	Аёл	
1	Наслий дворянлар	29	10			29	10	39
2	Шахсий дворянлар	17	6			17	6	23
3	Руҳонийлар	1				1		1
4	Шаҳар сартлари	8000	8000	5000	5000	13000	13000	26,000
5	Рус мешчанлари	1	3			1	3	4

6	Қишлоқ крестянлари	5	3			5	3	8
7	Қишлоқ сартлари			62000	62000	62000	62000	124,000
8	Истеъфодаги ҳарбийлар	11	4			11	4	15
9	Қуйи унвонли ҳарбийлар	1189	78			1189	78	1267
10	14 ёшгача бўлган болалар	48	39			48	39	87
11	Ҳиндлар	45		25		70		70
12	Яҳудийлар	225	192	80	80	305	272	577
	Жами:	9571	8335	67105	67080	76676	75415	152,091

1883 йилда Каттақўрғон бўлимида православлар 1,341, расколниклар 19, яҳудийлар 577, мусулмонлар 150,031, бутпарастлар 81 нафарни ташкил этган [6;Б. 30-31].

Каттақўрғон бўлимида ҳовлилар, уйлар, ўтовлар ва масжидлар сони тўғрисида статистик маълумотлар (1870 йил учун).

№	Каттақўрғон бўлими	Ҳовлилар сони	Уйлар сони	Ўтовлар сони	Масжидлар сони
1	Пайшанба қўрғони	503	644		10
2	Пайшанба тумани қишлоқларида	3028	5287		147
	<b>Жами:</b>	<b>3531</b>	<b>5931</b>		<b>157</b>
1	Каттақўрғон шаҳрида	843	1027		30
2	Каттақўрғон тумани қишлоқларида	2914	3594	759	124
	<b>Жами:</b>	<b>3757</b>	<b>4621</b>	<b>759</b>	<b>154</b>

Каттақўрғон бўлими бошлиғи томонидан тақдим этилган маълумотлар:

1870 йилда Пайшанба шаҳрида истиқомат қиладиган ҳиндларнинг сони 23 кишини ташкил этган. Уларнинг деярли барчаси саройда (карвонсарой) яшаган ва сутхўрлик билан шуғулланган.

1870 йилда Каттақўрғон шаҳрида яшовчи ҳиндларнинг сони 33 кишини ташкил этиб, улар карвонсаройларда яшаган ва сутхўрлик билан шуғулланган. Айримлари бой ҳиндларнинг хизматкорлари ҳисобланади.

1870 йил 20 апрел ҳолатига кўра, Каттақўрғон шаҳрида яшовчи яҳудий эркаклардан 40 нафарининг рўйхати тақдим этилган.

1870 йил 20 апрел ҳолатига кўра, Пайшанба шаҳрида яшовчи яҳудий эркаклардан 69 нафарининг рўйхати тақдим этилган [7; Б. 29, 35, 40, 50].

1883 йилда Каттақўрғон бўлими бўйича ҳовлилар сони 30,040 тани, аҳоли сони 159,145 нафар кишини ташкил этган [8; Б. 8-15].

ККБ шаҳарлари аҳолиси сони таркиби тўғрисида қайднома (1872)

№	Каттақўрғон бўлими	Каттақўрғон шаҳри		Пайшанба шаҳри		Митан қўрғони (Гирдиқўрғон)	
		Эркак	Аёл	Эркак	Аёл	Эркак	Аёл
1	Тожиклар	1700	1630			53	51
2	Ўзбеклар	550	451	1018	925	118	126
3	Еронилар	18	20				
4	Яхудийлар	120	101	85	77		
5	Ҳиндлар	47		19			
6	Лўлилар	100	73				
	Жами аҳоли:	4810		2124		348	

2.12.1872 да ККББ томонидан тақдим этилган маълумотларга кўра, ККБда эркаклар 27378, аёллар 34031 кишини жами аҳоли 51,409 кишини ташкил этган.

ККБ бўйича статистик маълумотлар (30.03.1873) [9; Б. 25-26].

№	Умумий маълумотлар	сони
1	Ҳовлилар	17895 та
2	Эркаклар	27388 жон
3	Аёллар	24031 жон
	<b>Жами:</b>	69314
1	<b>Этнографик маълумотлар</b>	
2	Тожиклар	6469 киши
3	Ўзбеклар	41408 киши
1	<b>Тоифавий маълумотлар</b>	
2	Диндорлар	677 киши
3	Савдогарлар	79 киши
4	Қора ишчилар	5430 киши
5	Саноатчилар	4268 киши
6	Дехқонлар	16934 киши

Келтирилган маълумотлардан хулоса қилиб айтадиган бўлсак, Самарқанд вилояти Каттақўрғон бўлимига кўра, Самарқанд аҳолисининг этник таркиби ва сони тўғрисида янги фактларни қўлга киритиш имкониятини берди. Каттақўрғон бўлимида уйларнинг умумий сони 2080 тани ташкил этиб, шундан 48 таси русларга тегишли бўлган. Самарқанд шаҳри аҳолисининг этник таркиби ва сони тўғрисида фақат музофот бошлиғи маҳкамаси ҳужжатларидан нисбатан ишончли маълумотларни олиш мумкинлиги аниқланди. Шаҳарнинг барча аҳолиси қўшинлардан ташқари 10000 жонни ташкил этган.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Г.Б.Нормуродова. XIX аср охири ва XX аср бошларида Самарқанд вилояти аҳолисининг ижтимоий стратификацияси. – Тошкент: Янги нашр, 2013.
2. Первая Всеобщая перепись населения Российской империи, 1897 г. Самаркандская область.-СПб., 1905.-С. III-IV.

3. ЎзР МДА, И 22-жамғарма, 1-рўйхат, 269-иш, 49-50 варақлар
4. ЎзР МДА, И 22-жамғарма, 1-рўйхат, 365-иш, 19-20 варақлар
5. ЎзР МДА, И 22-жамғарма, 1-рўйхат, 365-иш, 23-24 варақлар
6. ЎзР МДА, И 22-жамғарма, 1-рўйхат, 365-иш, 30-31 умумий варақлар
7. ЎзР МДА, И 22-жамғарма, 1-рўйхат, 31-иш, 29, 35, 40, 50 варақлар
8. ЎзР МДА, И 22-жамғарма, 1-рўйхат, 343-иш, 8-15 варақлар
9. ЎзР МДА, И 22-жамғарма, 1-рўйхат, 97-иш, 25-26 варақлар.

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **THE DEVELOPMENT OF MEDICINE IN CENTRAL ASIA IN THE PERIOD OF THE KHANS**

**Ochilova Aydinoy Rahmiddinovna**

Senior lecturer of the Asian University of Technology, PhD

**Abstract.** Traditional medicine played an important role in the lives of the Central Asian khanates of the last Middle Ages. The achievements in the field of medicine had a positive effect on the development of medical services on caravan routes. By the Middle Ages, certain achievements were made in this field. Medical knowledge and the secrets of medical care were usually passed down from generation to generation, resulting in many dynasties of physicians. This article provides information about the development of medical knowledge in the khanates of Bukhara, Khiva, and Kokhan, including the development of folk medicine, achievements and problems in the field.

**Keywords:** Medicine, hospital, Central Asia, doctors, pharmacology, medicinal plants, Medical address, Medicines, medical science.

## **O'RTA OSIYODA XONLIKLAR DAVRIDA TIBBIYOTNING RIVOJLANISHI**

**Ochilova Oydinoy Rahmiddinovna**

Osiyo texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi, PhD

**Annotatsiya.** So'nggi o'rta asrlar O'rta Osiyo xonliklari aholi turmushida an'anaviy tibbiyot muhim o'rin tutgan. Tibbiyot sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar karvon yo'llarida tibbiy xizmat ko'rsatish rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'rta asrlar davriga kelib bu sohada ma'lum yutuqlar qo'lga kiritildi. Tibbiy bilimlar va tibbiy xizmat ko'rsatish sirlari odatda avloddan-avlodga meros sifatida o'tib, ko'plab tabiblar sulolalari paydo bo'ldi. Mazkur maqolada Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklarida tibbiy bilimlarning rivojlanishi, jumladan xalq tabobatining rivojlanishi, sohadagi yutuq va muammolar haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Tibbiyot, shifoxona, O'rta Osiyo, tabiblar, dorishunoslik, shifobaxsh o'simliklar, shifobaxsh o'simliklar, Shifo beruvchi manzil, Dori-darmonlar, tib ilmi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N04>

Shayboniyalar hukmronlik qilgan davrda (XVI asr) mamlakatda tibbiyot anchagina rivojlandi. Deyarli har bir shaharda kasalxona, nogironlar uyi, dorixona, tibbiy maktablar bo'lar edi. Masalan, XVI asr o'rtasida Toshkentning ko'rkam chekkasida, "Chorbog'" degan joyda maxsus kasalxona ("Shifoxona") qurilganligi ma'lum. Bu yerda bemorlar va yaradorlar davolanganlar. Kasalxonalarda tajribali tabiblar ishlar edilar. Ular talabalarga tib ilmidan ham dars berar edilar. Chuqur bilimli bo'lgan bu tabiblar tibga oid asarlar ham yozganlar [1].

So'nggi o'rta asrlar O'rta Osiyo xonliklari aholi turmushida an'anaviy tibbiyot muhim o'rin tutgan. Buni Buxoro xonligi misolida yaqqol kuzatish mumkin. O'rta asrlar tibbiyoti markazida tabiblar figurasi turgan. Tabobatning sir-sinoatlarini chuqur egallagan bu shaxslar o'z faoliyatlarida mahalliy olimlarning, aholining ko'p asrlik tajribasiga asoslanib yozgan ilmiy



asarlaridan Hofiz Tanish Buxoriyning ko'rsatishicha, "mo'jizalar ko'rsatuvchi va Iso qobiliyatiga ega" marhum mavlono mulla sulton Mahmud Tabibning o'g'li mavlono Abulxakim edi. Abullaxonni davolash jarayonida u hukumdorning oshqozonini yuvib, bir necha kunga ovqatlanish jadvalini tuzgan va kerakli dorilarni tayyorlagan edi, - deb ko'rsatadi muarrix [2].

Movarounnahrlik tabiblarning mahorati haqida Dashti Qipchoqqa yurishlari (1507) davomida Muhammad Shayboniy-xonga hamroh bo'lgan XVI asr muarrixi Fazullloh ibn Ro'zbexon ham muhim ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Uning qayd etishicha, yo'lda chechak va sariq kasaliga duchor bo'lgan bu muarrixni tabiblar qon chiqarib yuborish yo'li orqali davolaganlar [3]. O'z kasbining mohir ustalari bo'lgan bunday tabiblar keyingi asrlarda ham jamiyat hayotida muhim o'rin tutganlar.

Tibbiyot sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar karvon yo'llarida tibbiy xizmat ko'rsatish rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'rta asrlar davriga kelib bu sohada ma'lum yutuqlar qo'lga kiritildi. Shaharlardan tashqari, yirik qishloqlarda va muhim bekatlarda ham savdo karvonlariga, yo'lovchilarga tibbiy xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilib, bu bilan shug'ullanadigan maxsus tabiblar guruhlarini shakllandi. Tibbiy bilimlar va tibbiy xizmat ko'rsatish sirlari odatda avloddan-avlodga meros sifatida o'tib, ko'plab tabiblar sulolalari paydo bo'ldi [4]. Xususan, mintaqaning chekka hududlarida ham yo'lovchilarga va ulov vositalariga malakali tibbiy xizmat ko'rsata oladigan mahalliy tabiblar bo'lganligi manbalarda qayd etiladi [5].

Shayboniy davrida o'zbekiston hududida yashagan yirik tabiblardan bizga Muhammad husayn al-Miroqiy as-Samarqandiy, Shoh Ali ibn Sulaymon al-Kaxxol, Sulton Ali Xurosoniy, toshkentlik Mullo Muhammad Yusuf tabib, Ubaydulla ibn Yusuf Ali al-Kaxxol, Mir Muhammad husayn al Oqiliylar ma'lum. Muhammad husayn al-Miroqiy as-Samarqandiy 1545 yilda dorishunoslikga oid bir asar yozib, unda har xil shifobaxsh o'simliklarning xossalari, ularni izlab topish, dori tayyorlash va ishlatish usullarini batafsil bayon etgan. Kitobda turli dorivor o'simliklarning rangli rasmlari berilgan, dorixonada ishlatiladigan asbob-uskunalar, dori saqlanadigan idishlarning rasmlari ham keltirilgan.

Shoh Ali ibn Sulaymon ham ko'p tabiblarga o'xshab o'z asarlarini she'riy uslubda yozgan. Masalan, uning kaxxolik san'atiga bag'ishlangan "Risola" asari she'riy usulda yozilgan. Asarda ko'zning tuzilishi, ko'z kasalligining kelib chiqishi, ularni aniqlash va davolash masalalari bayon etilgan va bu kasalliklar uchun maxsus dori tayyorlash usullari ham ko'rsatilgan.

Sulton Ali Xurosoniy Samarqand xokimi Abu Mansur Kuchkinchixon saroyida xizmat qilgan. Bu muallifning bizga ma'lum va mashhur asari "Davolash dasturi" dir. Asarda kishi organizmining barcha a'zolari kasalligini boshdan boshlab, oyoqgacha batafsil bayon etadi. Sulton Ali Xurosoniyning bundan boshqa "Muqaddimai dastur ul-iloj nomli asari ham bo'lgan. Bu asar ko'pincha oddiygina qilib "Muqaddima" deb atalib kelingan. Muallif "Muqaddima"ga oddiy asarga kirmay qolgan ba'zi masalalarni kiritgan. Ubaydulla ibn Yusuf Ali al-Kahhol ham toshkentlik ko'zga ko'ringan tabiblardan bo'lgan. Bu tabib toshkent xokimi – Muhammad Darvish Bahodirxon saroyida xizmat qilgan. Ubaydulla ibn Yusuf Ali al-Kaxxolning mashhur asari "Kasallarni davolash" dir. Asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchisida barcha a'zolarida uchraydigan kasalliklar bayon etilsa, ikkinchisi turli xil dorilarga bag'ishlangan [6].

Muhammad Oqiliy (Mir Muhammad Husayn al-Oqiliy) ham tabiblar oilasidan bo'lgan. Asli o'zi Xurosonlik edi. Lekin Mashhadda yashagan. Muhammad Oqiliy o'z kasbini yaxshi egallagan mutaxassis tabib bo'lgan. Olimning tibga oid bir necha asari bor. Shulardan bizga ma'lumi «Dorilar hazinasi» va "Korabodin" (farmakopeya) nomli asarlaridir. Muallif "Dorilar

hazinasini” asarida turli kasalliklar, ularning belgilari, diagnostika va davolash usullarini bayon etgan. Kitobda organlarning yunoncha, arabcha va turkcha (o‘zbekcha) nomlari berilgan. “Farmakopeya” da esa har xil dori moddalari, ularning tayyorlash va ishlatish yo‘llari ko‘rsatilgan. So‘nggi o‘rta asrlarda elchilik missiyalari va yirik savdo karvonlari tarkibida maxsus tabiblar ham bo‘lgan. Bu bir tomondan turli hududlar o‘rtasidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalar rivojiga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan tibbiy bilimlarning savdo yo‘llari bo‘ylab turli mintaqalarga tarqalishiga xizmat qilgan. Maxsus choparlar, ayg‘oqchilar va davlat xizmatidagi boshqa kishilar odatda, eng zarur tibbiy dori-darmonlar, turli dorivor giyohlar bilan ta‘minlanib, ular o‘zlariga va sheriklariga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsata olish malakasiga ham ega bo‘lishgan [7].

Bu vaqtdagi ko‘zga ko‘ringan tabiblardan biri – Subxonqulixon (Sayid Muhammad Subxonqulixon ibn Saydiodir Muhammadxon)dir [8]. Subxonqulixon Buxoro amiri edi. U har xil fanlar bilan qiziqgan, ayniksa, tibbiyot bilan ko‘proq shug‘ullangan. Subxonqulixon saroyda tabiblarni yig‘ib, tabobat borasida ilmiy anjumanlar o‘tkazib turar edi. Subxonqulixonning amaliy tibbiyot bilan shug‘ullangani ma‘lum emas, ammo tibga oid ikkita asari borligi ma‘lum. Bular “c” va “Subxonning hayotbaxsh tibbiyoti” dir.

Subhonqulixon hukmronligi yillarida, ayniqsa, tibbiyot ilmi va adabiyot rivojlandi. Dor ush-shifoda bemorlarni davolash bilan bir qatorda ilmiy ishlar ham olib borilgan. Subhonqulixonning tibbiyotga oid kitoblar jamlangan nodir kutubxonasi bo‘lgan. U “Subhoniy tibbiyoti bo‘yicha davolash”, “Baxtli soatni aniqlashda oy manzillarining mohiyati” nomli ilmiy nujumga oid risola yozgan. Hukmdor “Nishoniy” taxallusi bilan she‘rlar bitib, saroyda o‘tkazilgan mushoiralarda o‘zi ham she‘rlar aytgan [9].

Subxonqulixon mamlakat rahbari sifatida fuqaro sog‘lig‘ini saqlash ishlariga ma‘lum darajada e‘tibor bergan. Ma‘lumki, o‘rta Osiyo sharoitida yozning issiq kunlarida aholi o‘rtasida ich ketish kasalligi ko‘payadi. Shuning oldini olish uchun Subxonqulixon nonvoylar non yuziga kunjut urug‘ini sepib yopsinlar, degan farmon chiqardi. Kunjut avvalo o‘zi xushboy hidli, yoqimli, ikkinchidan esa u ich ketishni to‘xtatadi. Farmon bilan boshlangan bu tadbir hozir odat tusiga kirgan [10].

Subxonqulixonning farmoni bilan 1682 yilda Buxoroda kasalxona barpo etildi. U “Shifo beruvchi manzil” deb atalar edi. Kasalxona madrasa ko‘rinishida qurilgan. U 18 ta hujra (palata) dan iborat bo‘lgan. Kasalxona kompleksiga tibbiy maktab va kutubxona ham kirgan. Kasalxona va tibbiy maktabga (madrasaga) o‘sha zamonning ko‘zga ko‘ringan olimlaridan Mavlono Mirqosim Hakim rahbarlik qilgan. Buxoro madrasasida tabiblaridan yana Xoja Amin Rais, Oxund Mullo Abdug‘afur Hakim, Xoja Yoqublar xizmat qilar edilar.

XIX asrning 20-yillarida Buxoroga kelgan sayyohlardan biri “Buxoroda tabiblar juda ko‘p, dorilar esa undan ham ko‘p”, - deb ko‘rsatgan edi” [11].

Tabiblar turli kasalliklarni davolashda mahalliy davolash usullariga amal qilganlar. XIX asrning 20-yillarida Buxorodda bo‘lgan Y.K.Meyendorf barcha musulmon xalqlari singari buxoroliklar ham tabobatga katta hurmat bilan qaraydilar... Buxorolik yaxshi tabib kasalning tomirini ushlab, unga hech qanday savol bermagan holda uning kasalini aniqlashi lozim”, - deb ko‘rsatgan edi [12].

Bemorlarni davolash jarayonida tabiblar ular organizmining mijozini inobatga olganlar. Ular tomonidan mijoz issiq, sovuq, xo‘l va quruqqa ajratilgan. Ularga mutonosib tarzda davolash ham belgilangan. Xususan, tabiblar tomonidan bemorlarga ularning mijoziga to‘g‘ri

keladigan quvvatlantiruvchi, issiqlik, bo'shashtiruvchi yoki sovuqlik xarakteriga ega dorilar berilgan [13]. Tabiblar shuningdek, oziq-ovqatlarni ham issiqlik, sovuqlik nuqtai-nazaridan klassifikatsiya qilganlar. Agar bemor issiq mijoz bo'lsa, unga sovuqlik xarakteriga ega dorilar, sovuq mijozlarga issiqlik dorilar berilgan. Davolanishning bunday uslubi – parhez (diyeta) deb atalgan [14]. Shoxidlardan biri “Tabobat kitoblarida hamma dorilar va oziq-ovqatlar yoki issiqlik, yoki sovuqlik tarzida ko'rsatilgan. Hatto uzumning o'zi sovuqlik, uning danagi esa issiqlik hisoblanadi. Faqatgina non unisiga ham, bunisiga ham kirmaydi”, - deb ko'rsatgan edi [15]. Tabiblar o'z faoliyatlarida turli dori vositalaridan foydalanganlar. XIX asr boshlariga oid mu'lumotlarning ko'rsatishicha, Buxoroda tabiblar foydalangan dorilar soni 500 tadan 1000 tagacha yetgan. Dori-darmonlar bilan savdo qilinuvchi do'konda bo'lgan E.A.Eversman Buxoroda dorilarning mingga yaqin turi borligining aniqligi va bu son bo'rttirib ko'rsatilmagani haqida guvohlik beradi [16].

Mahalliy dorilar turli o'simliklar, tog' minerallari va boshqa turdagi mahalliy xom-ashyodan tayyorlangan. Xonlikning yirik shaharlari va aholi yashaydigan turli manzillarda attorlik do'konlari mavjud bo'lib, sotib olish mumkin edi. Tabiblar ko'rigidan so'ng muayyan kasali aniqlangan bemorlar bu do'konlarga kelib, bir parcha qog'ozda tabib tomonidan yozib ko'rsatilgan “issiqlik” yoki “sovuqlik” dorilarni xarid qilganlar.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Rustamova X.YE., Stojarova N.K., Nurmatova Q.Ch., Abdurashidova Sh. A. Tibbiyot tarixi. – Toshkent: 2014. – 114 b.
2. Хафиз Таниш Бухори. Шарифнама-йи шахи (Книга шахской славы) / Факсимиле рукописи Д. 88. Перевод с персидского, введение, примечания и указатели М.А. Салахетдинов. Ч. Н. – М. Наука. – 1980. С. 171.
3. Фазуллоҳ ибн Рўзбихон Исфохани. Михман-наме-йи Бухара (Записки бухарского гостя) / Перевод Р.П. Джалиловой. Под. Ред. А.К. Арендса. –М. Наука, 1976 – С. 86.
4. O'rolov A. Samarqand shahrining o'rta asrlardagi davolash va shifobaxsh muassasalari ... – B. 234.
5. Логофет Д.Н. В горах и на равнинах Бухари. –СПб., 1913. –С. 247.
6. Кадиров А.А. История медитсини Узбекистана. – Тошкент: ИПО Ибн Сини, 1994. – 223 с
7. Хо'jayev A. Turkiston tabobatining Xitoyga ta'siri // Moziydan sado. –Toshkent, 2006. –№ 3 (315). –В. 46-48
8. Akbar Zamonov. Ashtarxoniy hukmdorlari. – Toshkent, Bayoz nashriyoti, 2021.
9. <https://uza.uz/uz/posts/bukhoro-khonligida-tib-ilmini-rivozhlantirib-zi-am-tibbiyetg-14-09-2020>
10. Rustamova X.YE., Stojarova N.K., Nurmatova Q.CH., Abdurashidova SH. A. Tibbiyot tarixi. – Toshkent.: 2014. – 110-117-b
11. Бухарские лекари (Из путешествия в Бухарию Э.А. Эверсмана) // Сибирский вестник. 1823. СПб., Ч. IV. – С. 182. Фазалллах ибн Рузбехан Исфохани. Михман-наме-йи Бухара (Записки бухарского гостя) / Перевод Р.П. Джалиловой; Под ред. А.К. Арендса. – М.: Наука, 1976 – С. 86.
12. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука. 1975. – С. 150.
13. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – М.: Наука. 1975. – С. 150.
14. Бухарские лекаря (Из путешествия в Бухарию Э.А. Эверсмана). – С. 201.
15. Бухарские лекаря (Из путешествия в Бухарию Э.А. Эверсмана). – С. 211.
16. Бухарские лекаря (Из путешествия в Бухарию Э.А. Эверсмана). – С. 207.

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **SPECIAL CHARACTERISTICS OF CRAFTSMANSHIP IN CHAGANIYAN**

**Ergashev Mavlon Eshniyozovich**

Termiz State University, Associate Professor of the Department of World History

[Ergashevmaavlton150@gmail.com](mailto:Ergashevmaavlton150@gmail.com)

**Abstract.** In the article based on historical sources, it is possible to witness the high development of handicrafts in Chaganiyan. Cities specialized in the production of various handicrafts depending on the specific raw material sources.

**Key words:** Chaganiyan, Darzangi, Maqbara, Astana, Tokharistan, master Khudoiberdi, Chaganrud, Bittepa, G'ormalitepada.

## **CHAG'ANIYONDA HUNARMANDCHILIKNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**Ergashev Mavlon Eshniyozovich**

Termiz davlat universiteti, Jahon tarixi kafedrasida dotsent

**Annotatsiya.** Maqolada tarixiy manbalarga asoslanadigan bo'lsak, Chag'oniya hunarmandchilik yuqori darajada taraqqiy etganligiga guvoh bo'lish mumkin. Shaharlar muayyan xom ashyo manbalariga qarab turli hunarmandchilik buyumlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi.

**Kalit so'zlar:** Chag'oniya, Darzangi, Maqbara, Ostona, Toxariston, usta Xudoyberdi, Chag'anrud, Bittepa, G'ormalitepada.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N05>

**Kirish.** Tarixiy manbalarga asoslanadigan bo'lsak, Chag'oniya hunarmandchilik yuqori darajada taraqqiy etganligiga guvoh bo'lish mumkin. Shaharlar muayyan xom ashyo manbalariga qarab turli hunarmandchilik buyumlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi. Masalan, Darzangi shahri to'qimachilik markazi edi. Darzangi aholisining katta qismi movut to'quvchi ustalar bo'lib, issiq yopqichlar, jun gilamlar va kigizlar ishlab chiqarar edi[3:370].

Chag'oniyaning chekka qishloqlarida tayyorlangan sopol buyumlar yirik shaharlarda tayyorlangan sopolarga nisbatan oddiyligi bilan ajralib turib, ko'proq aholining ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilar edi. Xususan, G'ormalitepadagi xumdondan idishlarning butun majmui topilgan[4-37]. Ular orasida kosalar va oq rangli sir bilan qoplangan laganlar ham bor.

Shuni ta'kidlash lozimki, sir qoplamali idishlarni tayyorlash O'rta Osiyoda VIII asr ikkinchi yarmida paydo bo'lib, rivojlangan o'rta asrlarda keng tarqaladi. Chag'oniya sirlangan idishlari sirining yuqori sifati, xilma-xilligi va naqshinkorligi bilan ajralib turadi. IX-X asrlarda yorqin kulrang sir va oq fonga qora rangli sir bilan yozuv chekilgan idishlar keng tarqaladi. Ularning asosiy xususiyati – bu kufiy xatidagi yozuvlarning mavjudligidir. Ayrimlari ezgu tilaklar hamda sahiylik va ilmni maqtovchi aforizmlardan iborat bo'lgan. XI-XII asrlarda anglash

mumkin bo'lgan yozuvlar yo'qolib, o'rniga faqat birgina «al-yamin» (farovonlik) so'zi qolgan. Lekin murakkab geometrik va o'simlik naqshlari bilan qoplangan idishlar ko'payadi. Idishdagi rangli rasmlarning xilma-xilligi yanada ortadi[3:37].

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** XII asrdan boshlab ko'k rangdagi sirlar paydo bo'ladi. Ko'k rang XIII-XIV asrlardagi sirlarning asosiy rangi hisoblangan. Agar O'rta Osiyoning boshqa yerlarida ko'k sir asosan koshinlar uchun ishlatilgan bo'lsa, Chag'oniyonda sirlangan koshin keramikasi juda kam uchraydi. Sirlangan idishlar bilan birga Chag'oniyonda turli xushbo'yliklarni saqlash uchun mo'ljallangan simobdonlarni tayyorlashgan.

Chag'oniyonda islom dini tarqalishi bilan diniy inshootlar – masjidlarining qurilishi avj oldi. Ta'kidlash joizki, X asr o'rtalariga kelib musulmon olami turli fitna va nizolarga duch kelgan, Bag'dod shahri shia-buvayhiylar tomonidan zabt etilgan, qolaversa, Chag'oniyonning o'zida ham islom diniga qarshi harakatlar bo'lib o'tgan edi. Bu haqda oldingi bobda ko'rib chiqqan edik. Muhtojiylar sulolasi o'zlarining an'anaviy islom diniga sodiq ekanliklarini bildirish maqsadida muayyan ishlarni bajardilar. Shu jumladan, Chag'oniyon yerlarida mashhur sahobalar nomlari bilan bog'lanuvchi turli ziyoratgohlar barpo etdilar. Ular orasida eng mashhuri Oq Ostona bobo maqbarasi hisoblanadi. Maqbara Sariosiyo tumani Telpakchinor qishlog'idagi qadimiy qabriston o'rtasida joylashgan bo'lib, qubbali, dunyo tomonlariga monand to'rtburchak shaklida qurilgan. Maqbara ichidagi sag'anada kim yotganligi hozirgacha noma'lum. Mahalliy aholi ushbu obidani mashhur sahoba Abdurahmon ibn Saxr al-Davsiyning nomi bilan bog'laydi. U kishining laqabi Abu Hurayra bo'lgan[5:157].

Oq Ostona Bobo (X asr oxiri - XI asr boshi) maqbarasi markazga intilma tuzilishga ega, reja bo'yicha chorsi shaklda, har bir tomoni dunyoning to'rtala tomoniga qaratib qurilgan. Guldasta minorachalar bilan himoyalangan, uning kubsimon tanasi uzra uchli qubba savlat to'kib turibdi. Gumbazning pastki qismiga shakldor g'isht terilib, poydevor ko'rinishini olgan. Ichki devorlarda o'n ikki kirrali uchli va chuqur mehroblar saf tortgan. Yon devorlarga g'ishtlar juft-juft qilib terilib, endor tik choklar hosil bo'lgan.

**Muhokama.** Oq Ostona bobo maqbarasi kvadrat shaklda tashqaridan 9x8,7 m. va ichkaridan 3,65x5,80 metrni tashkil etib, tuzilishidan kubga o'xshash bo'lib, o'qsimon gumbaz bilan sayqallangan[2:77]. XV asrdagi ta'mirlash ishlarida janubi-sharqiy devor qayta ta'mirlanib, qolgan uch tarafiga xom g'isht bilan terilgan, uning uch burchagidan (sharqiysidan tashqari) minorachalar chiqarilib, gumbaz osti qismlari qayta tiklangan. Dastlabki kirish qismi shimoli-sharqiy tomonda joylashib, bu yerda minora bo'lgan. Keyinchalik kirish joyi janubi-sharqiy tomondan ochilib, sag'anali bino minorasi panjara orqali yoritilgan. Yorug'lik o'tuvchi deraza janubi-g'arbiy qismdan ochilgan. Binoning old tomoni shakldor naqsh bilan bezatilgan, keng vertikal juft g'ishtlardan ham bezak berilgan.

Imorat kvadrat pishiq 23–24x3,5 sm, 26x4,5; 22,5x4 sm hajmli g'isht va 10x10x66 sm loy qorishmasidan terilib[1:12], gumbazning birinchi aylanasi va pastki qismining devorlari maxsus katta hajmdagi 45 – 50 sm g'isht bilan bunyod etilgan. Arxitektura yodgorligidagi o'ziga xoslik maqbaraning paydo bo'lish davrini aniqlashga yordam beradi, maqbara ichida yirik hajmdagi ganch bilan suvalgan sag'ana bo'lib, u kechroq barpo bo'lgan[3:326].

Bu davrda Chag'oniyondan yetishib chiqqan olimlar nafaqat o'z ona yurtlarida, balki dunyoning turli chekkalarida ham ilm rivoji yo'lida xizmat qildilar. Ulardan Abu Bakr as-Sag'oniy (IX asr), Abu Hamid as-Sag'oniy (X asr) va boshqalar ayni Chag'oniyon ilmiy muhitida kamol topgan olimlar sirasiga kiradi.

Abu Bakr as-Sag'וניy haqida ma'lumotlar juda kam. Manbalarda Abu Bakr as-Sag'וניy xususida bildirilgan fikrlar ko'proq buyuk muhaddis Abu Dovud Sulaymon (817-888) bilan bog'liq holda bayon etiladi. Chunki Abu Bakr as-Sag'וניy buyuk muhaddis Abu Dovud Sulaymonning «Sunan» kitobi haqida so'z yuritib, ushbularni naql qilgan ekan: «Dovud alayhissalom uchun temir Olloh taolo tomonidan mumday yumshatilgan bo'lsa, hadis ham Abu Dovud Sulaymon uchun xuddi shu xilda qulay holga keltirilgan emish». Afsuski, bu fikrlar as-Sag'וניyning qaysi asaridan olingani noaniq, ammo shuning o'zi allomaning IX-X asrlarda yashab o'tgani va yetuk olim, ayniqsa, muhaddis ekanligini anglashga kifoya qiladi[7:74].

X asr Chag'וניyondan yetishib chiqqan olimlar ichida Abu Hamid Ahmad ibn Muhammad as-Sag'וניy al-Usturlobiyning o'rni beqiyosdir. Alloma ilk bilimni tug'ilib o'sgan yurti – Chag'וניyonda oldi. Keyinroq Movarounnahr va Xurosonning turli shaharlarida ijod qildi. Uning Termiz shahrida ham ijod qilganligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi[5:254].

Ahmad as-Sag'וניy 980-989 yillarda Bag'dod rasadxonasida ilmiy faoliyat olib bordi. Abu Rayhon Beruniyning ta'kidlashicha, bag'dodlik mashhur astronom Abu Sahl Vijon ibn Rustam Ko'hiydan keyingi eng yirik olim Abu Hamid Ahmad ibn Muhammad as-Sag'וניy edi[1:222].

Ahmad as-Sag'וניy o'z vaqtida geometriya va astronomiya sohalarida aksariyat muvaffaqiyatlarning sohibi bo'lgan fozil olimlardan edi. Osmon jismlarini kuzatish uchun mo'ljallangan usturlob va boshqa astronomik qurilmalarni ixtiro qilgan. Shundan Usturlobiy nisbasini olgan. U yaratgan jihozlar o'sha vaqtdagi astronomlarga yaxshi ma'lum bo'lgan. Uning bir qancha shogirdlari shuhrat qozonganlar va o'z ustozlari bilan faxrlanganlar. Ahmad as-Sag'וניy qadimgi jihozlarni takomillashtirishda hech kim amalga oshira olmagan natijalarga erishgan[3:63].

Ahmad as-Sag'וניyning ilmiy merosi ko'pgina olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Abu Rayhon Beruniyning ma'lum qilishicha, «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli asaridagi yahudiy yillari va davrlarini yozishda allomaning hisoblaridan foydalangan. «Geodeziya» asarida as-Sag'וניy 965-yili Bag'dod kenglamasini aniq topgani ta'kidlanadi[2:101].

Bugungi kunda allomaning Istanbul va Patna kutubxonalarida «Osmon sferasini tekislikda tasvirlash», Parij va Damashqda «Doira ichiga joylashtirilgan to'g'ri tarafli yetti burchakning tomonini yasash», «Masofalar va hajmlar haqida», Oksforddagi Bodlean kutubxonasida «Astrolyabiya plastinkalarida yasalgan soatlar haqida», «Meridian chizig'ini topish» kabi asarlari saqlanadi. Uning ayrim ishlari bizgacha yetib kelgan emas[5:256].

XIX asr oxirida yurchilik usta Xudoyberdi yodgorlikning yarim qismi o'pirilgan gumbazini qayta tiklagan, binoning sharq tomonidan qo'shimcha kirish yo'lagi barpo etgan. Maqbaraning nomlanishi xususida bir-ikki mulohaza aytmoqchimiz. *Oq* so'zi gumbaz ko'rinishiga binoan qo'llangan bo'lishi mumkin. *Ostona* so'zi esa shaxs nomi emas, albatta. Lug'atlarda «ostona» so'zining asl ma'nosi «bo'sag'a» tarzida izohlansa, ikkinchidan uning majoziy ma'nosi ham beriladi: «bir kishining huzuri», «ziyaratgoh». *Ostona bobo* aslida «ostonai bobo» – «boboning ziyoratgohi» ma'nosida bo'lib, bu yerda «bobo» deb unda xoki yotgan kishi nazarda tutiladi. Shunday ekan, «Ostonai bobo» azizu avliyolar ziyoratgohi ma'nosida ishlatilib, u talaffuzda *Ostona bobo* shaklini olib, bir shaxs nomiga o'xshab qolgan.

Bu davrda Chag'וניyondan yetishib chiqqan olimlar nafaqat o'z ona yurtlarida, balki dunyoning turli chekkalarida ham ilm rivoji yo'lida xizmat qildilar. Ulardan Abu Bakr as-

Sag'וניy (IX asr), Abu Hamid as-Sag'וניy (X asr) va boshqalar ayni Chag'וניyon ilmiy muhitida kamol topgan olimlar sirasiga kiradi.

**Natijalar.** Abu Bakr as-Sag'וניy haqida ma'lumotlar juda kam. Manbalarda Abu Bakr as-Sag'וניy xususida bildirilgan fikrlar ko'proq buyuk muhaddis Abu Dovud Sulaymon (817-888) bilan bog'liq holda bayon etiladi. Chunki Abu Bakr as-Sag'וניy buyuk muhaddis Abu Dovud Sulaymonning «Sunan» kitobi haqida so'z yuritib, ushbularni naql qilgan ekan: «Dovud alayhissalom uchun temir Olloh taolo tomonidan mumday yumshatilgan bo'lsa, hadis ham Abu Dovud Sulaymon uchun xuddi shu xilda qulay holga keltirilgan emish». Afsuski, bu fikrlar as-Sag'וניyning qaysi asaridan olingani noaniq, ammo shuning o'zi allomaning IX-X asrlarda yashab o'tgani va yetuk olim, ayniqsa, muhaddis ekanligini anglashga kifoya qiladi[7:74].

X asr Chag'וניyondan yetishib chiqqan olimlar ichida Abu Hamid Ahmad ibn Muhammad as-Sag'וניy al-Usturlobiyning o'rni beqiyosdir. Alloma ilk bilimni tug'ilib o'sgan yurti – Chag'וניyonda oldi. Keyinroq Movarounnahr va Xurosonning turli shaharlarida ijod qildi. Uning Termiz shahrida ham ijod qilganligi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi[5:254].

Ahmad as-Sag'וניy 980-989-yillarda Bag'dod rasadxonasida ilmiy faoliyat olib bordi. Abu Rayhon Beruniyning ta'kidlashicha, bag'dodlik mashhur astronom Abu Sahl Vijon ibn Rustam Ko'hiydan keyingi eng yirik olim Abu Hamid Ahmad ibn Muhammad as-Sag'וניy edi[1:222].

Ahmad as-Sag'וניy o'z vaqtida geometriya va astronomiya sohalarida aksariyat muvaffaqiyatlarning sohibi bo'lgan fozil olimlardan edi. Osmon jismlarini kuzatish uchun mo'ljallangan usturlob va boshqa astronomik qurilmalarni ixtiro qilgan. Shundan Usturlobiy nisbasini olgan. U yaratgan jihozlar o'sha vaqtdagi astronomlarga yaxshi ma'lum bo'lgan. Uning bir qancha shogirdlari shuhrat qozonganlar va o'z ustozlari bilan faxrlanganlar. Ahmad as-Sag'וניy qadimgi jihozlarni takomillashtirishda hech kim amalga oshira olmagan natijalarga erishgan[3:63].

Ahmad as-Sag'וניyning ilmiy merosi ko'pgina olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Abu Rayhon Beruniyning ma'lum qilishicha, «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli asaridagi yahudiy yillari va davrlarini yozishda allomaning hisoblaridan foydalangan. «Geodeziya» asarida as-Sag'וניy 965-yili Bag'dod kenglamasini aniq topgani ta'kidlanadi[2:101].

Bugungi kunda allomaning Istanbul va Patna kutubxonalarida «Osmon sferasini tekislikda tasvirlash», Parij va Damashqda «Doira ichiga joylashtirilgan to'g'ri tarafli yetti burchakning tomonini yasash», «Masofalar va hajmlar haqida», Oksforddagi Bodlean kutubxonasida «Astrolyabiya plastinkalarida yasalgan soatlar haqida», «Meridian chizig'ini topish» kabi asarlari saqlanadi. Uning ayrim ishlari bizgacha yetib kelgan emas[5:256].

**Xulosa.** Xulosa qiladigan bo'lsak, o'rta asrlar davrida Chag'וניyoning moddiy madaniyati o'zining betakrorligi bilan ajralib turadi. Chag'וניyon shahar va qishloqlarida metallga ishlov berish, to'qimachilik, kulolchilik yuqori darajaga ko'tarildi. Bu yurtda ishlab chiqarilgan mahsulotlar yuqori sifati bilan qo'shni o'lkalarga mashhur bo'ldi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Агзамходжаев С. С. Узбекистан в сотрудничестве СССР с развивающимися странами Азии и Африки в области здравоохранения (60—80-е годы).— Т., 1988.— 24 с.— В надзаг.: АН УзССР, Ин-т истории.

2. Mirzaqulov A.Y. “O‘zbekistonning xalqaro ilmiy aloqalari (1960-1980-yillar)”. Tarix fani nomzodlik darajasini olish uchun dissertatsiya: - Farg‘ona, 1993-yil.
3. Toshkent Davlat Tibbiyot institutining joriy arxivi. 1987-yil uchun tayyorlangan materiallar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi 2553- fond,1- ro‘yxat, 2426- ish, 119-121-varaqlar.
5. “Общественные науки в Узбекистае”, 1978, № 3, 3-bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi 1- ro‘yxat, 2768- ish, 21-22-varaqlar.



**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **ANALYSIS OF CHANGES AND PROBLEMS IN THE SOCIAL LIFE OF THE CITY'S POPULATION (IN THE EXAMPLE OF THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN IN THE 70-80S OF THE XX CENTURY)**

**Ollamurodov Nurali Yakub ugli**

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Teacher of the Department of History and Philosophy

**Abstract.** In this article, the issues related to the social life, maintenance and household life of the urban residents of Kashkadarya and Surkhandarya regions, which are the southern regions of Uzbekistan, are analyzed based on primary sources.

**Key words:** social protection, household, salary, monthly national economy, plan, lifestyle, provision.

---

## **SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY HAYOTIDAGI O'ZGARISHLAR VA MUAMMOLAR TAHLILI (XX ASRNING 70-80 YILLARI O'ZBEKISTONNING JANUBIY VILOYATLAR MISOLIDA)**

**Ollomuradov Nurali Yoqub o'g'li**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Tarix va falsafa kafedrasida o'qituvchisi.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonning janubiy hududlari hisoblangan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari shahar aholisining ijtimoiy turmushi, ta'minoti hamda maishiy hayoti bilan bog'liq masalalar o'rganilayotgan davr kesimida birlamchi manbalar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy himoya, maishiy turmush, ish haqi, oylik xalq xo'jaligi, reja, turmush tarzi, ta'minot.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N06>

**Kirish.** XX asrning 70-80 yillari mobaynida xalq xo'jaligining barcha sohalarida oylik maoshlarni oshirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Masalan eng kam maosh va oylik ish haqi shu davrda 2,2 baravar ko'tarildi. Biroq O'zbekistonning uzoq vaqt mobaynida Ittifoqning asosiy paxta xom ashyo manbai bo'lganligi, iqtisodiyot tarmoqlarida belgilovchi o'rinlarni qishloq xo'jaligi, yengil va oziq ovqat sanoati tashkil etganligi tufayli O'zbekistonda o'rtacha oylik ish haqining darajasi Ittifoq miqyosidagi ko'rsatkichlardan ancha past edi.

Sovet rahbariyati xalq xo'jaligini rivojlantirish va ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning uzoq muddatga mo'ljallangan loyiha va rejalarida mintaqada aholining demografik o'sishi inobatga olinmadi. Bu masala avvalo mehnat resurslari tez o'sib borayotgan O'zbekistonda yaqqol ko'zga tashlandi. Kapital mablag'larning noto'g'ri taqsimlanishi, joylardagi sharoit va imkoniyatni hisobga olmasdan markazdan turib rejalashtirish tizimi, adolatsiz taqsimot tartibi qator muammolarni keltirib chiqardi.

Shuningdek O'zbekiston SSR ittifoqdosh respublikalar orasida pochta telegraf, telefon xizmati bo'yicha 15-o'rinda, madaniy xizmat ko'rsatish bo'yicha 14 o'rinda, turar-joy va transport bo'yicha 13 o'rinda turardi. Aholi jon boshiga iste'mol qilinayotgan chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum, yog') va meva sabzavot iste'moli bo'yicha respublika aholisi boshqa ittifoqdosh respublikalar aholisiga nisbatan ikki marta kam iste'mol qilardi[3].

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** 1987 yilda O'zbekistonda aholi jon boshiga ajratilgan kapital mablag'lar miqdori 1980 yilgi darajaning 85,6 foizini tashkil etdi. Vaholanki bu ko'rsatkich shu yillarda Ittifoq bo'yicha 22,6, Rossiyada -26,1, Belorusda – 43,2, Qozog'istonda – 15, Gruziyada – 31,2, Ozarbayjonda – 25, Litvada-55,1, Latviyada – 29,5, Tojikistonda-8,6, Turkmanistonda – 12, Estoniyada – 18,9 foizga oshgan edi.

Sovet siyosiy rahbariyatining ma'muriy zo'rvonlik va buyruqbozlikka tayangan siyosati oqibatida XX asrning 80-yillarida SSSR iqtisodiyoti tamomila boshi berk ko'chaga kirib qoldi. Butun mamlakatda davom etib kelgan ma'muriy buyruqbozlik tizimining hayot talablariga javob bera olmasligi va iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni yecha olmasligi bu davrda ochiq oydin namoyon bo'lib qoldi. Bunday sharoitda milliy respublikalar iqtisodiy huquqlarining cheklanishi kuchayib, ko'p sohalarda ularning markazga tobeligi oshib bordi.

Pirovardida, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotda ham tang ahvol yuzaga keldi. Bu davrda sovet jamiyati boshidan kechirgan turg'unlik asoratlari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy hamda ma'naviy-g'oyaviy hayotning barcha sohalarini o'z ta'siriga olib, unga o'z salbiy ta'sirini o'tkaza boshladi. Bu holat respublikaning janubiy oblastlarida esa ancha achinarli tarzda ko'zga tashlandi. Markazning paxta xom ashyosiga bo'lgan cheksiz talabini qondirish, ittifoqning paxta mustaqilligini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilgan tadbirlar tufayli respublikada meva-sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirish keskin pasaydi. Yem-xashak yetishmovchiligi tufayli chorva mollarining tuyoq soni ham kamayib ketdi.

XX asrning 80-yillarning oxirlarida nihoyatda qulay iqlim sharoitiga ega bo'lgan Surxon vohasida aholini yetarli darajada sabzavot va poliz mahsulotlari go'sht va sut mahsulotlari bilan ta'minlashda jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keldi. Chunonchi, 1989 yilda oblastda aholi jon boshiga iste'mol qilinayotgan sabzavot mahsulotlari atigi 38,3 kgni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich Oltinsoyda 16,1 kg, Boysunda 21,3 kg, Jarqo'rg'onda 21,4 kgni tashkil etdi[4].

Mazkur yilda oblastda aholi jon boshiga yillik go'sht iste'mol qilish 11,2 kgni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich Sho'rchida 7,2 kg, Gagarinda 8,1 kg, Angorda 10,4 kgni tashkil qilardi. Shuningdek sut iste'moli oblastda aholi jon boshiga yiliga 60,3 kg, Boysunda 17,4 kg, Sho'rchida 51,7 kg ga to'g'ri keldi[5]. Bu holat Qashqadaryo oblastida ham yaxshi emas edi. Ayniqsa, 1984-1985 yillarda Qashqadaryoda ham, Surxondaryoda ham butun O'zbekistonda bo'lgani singari "Paxta ishi", "o'zbeklar ishi" avj oldirilib, ushbu oblastlar rahbarlarining ko'pchiligi qamoqqa olindi. Oblast rayon partiya qo'mitalarining birinchi sekretarlari, ijroqo'm raislari, paxta punkt raislari, kolxoz raislari, sovxoz direktorlari, brigadirlar tergovga tortilib, ko'pchiligi qamoqqa olindi. Oqibatda ishlab chiqaruvchi kuchlar hamma sohada og'ir ahvolga tushib qoldi.

**Muhokama.** Ko'rinib turibdiki, bu davrda O'zbekiston aholisining turmush darajasi SSSRning boshqa respublikalariga nisbatan ancha past edi. 1980 yilda O'zbekiston bo'yicha barcha ishchi va xizmatchilarning o'rtacha oylik ish haqi 155,5 rubl bo'lgan bo'lsa, 1990 yilga kelib esa 214,9 rublni tashkil etdi. Lekin bu ko'rsatkich Ittifoqning Rossiya, Ukraina, Belorussiya va ayniqsa Boltiq bo'yi respublikalaridan ancha past edi. Bundan tashqari o'sha paytda narxnavo ham ancha o'sib pulning qadri pasayib ketayotgan edi. Qolaversa, O'zbekistonda o'rta

hisobda har bir oilada 6-7 kishidan iborat oila a'zolarining yashashini hisobga olinsa, aholi turmush darajasining ancha past ekanligi yaqqol seziladi. Mazkur ko'rsatkich respublikaning Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida esa juda ham past edi. Chunonchi 1980 yilda Surxondaryo oblastida ishchi xizmatchilarga o'rtacha 134,7 rubl oylik ish haqi to'langan bo'lsa, 1990 yilga kelib esa oylik maoshi miqdorida 209,2 rublni tashkil etdi.

**Natijalar.** Lekin shunga qaramasdan shaharlarda ahvol qishloqqa nisbatan anchagina yaxshi edi. Gap shundaki, bu borada hukumat va turli vazirliklar, idoralar tomonidan bir qancha qarorlar qabul qilinib, amaliy ishlar bajarildi. 1970-1980 yillar oralig'ida aholiga to'lanayotgan to'lovlar va nafaqalar ham o'sib bordi. Masalan: turli to'lovlar va nafaqalar kishi boshiga 1970 yilda 191 rubl, 1975 yilda 258 rubl, 1980 yilda 310 rubl, 1985 yilda 357 rubl, 1990 yilda 446 rublni tashkil etdi. Iste'mol ijtimoiy fondlar tufayli bepul ta'lim olish, tibbiy yordamdan foydalanish, nafaqalar, pensiyalar, mehnat ta'tillari davrida dam olish uylariga yo'llanmalar berish kabi ta'minotlar yo'lga qo'yildi.

1973 yilgi taqqoslanadigan narxlar hisobida ijtimoiy jamg'armalardan iste'mol uchun sarflanadigan mablag'lar miqdori respublika bo'yicha 1970 yilgi 6473 mln rubldan 1990 yilda 9134,7 mln rublga oshdi. Lekin ko'rinib turibdiki yigirma yil mobaynida ijtimoiy iste'mol jamg'armalari uchun juda kam mablag' ajratilgan.

Shu bilan birga aholining ijtimoiy turmushida ijobiy o'zgarishlar ham sodir bo'ldi. XX asrning 60-yillaridan boshlab kolxozchilarning yillik daromad ko'rsatkichlari bir muncha o'sdi. Misol uchun 1965-1967 yillarda Qashqadaryo oblastida istiqomat qiluvchi kolxozchilarning o'rtacha yillik daromadi 420 rublga ko'paygan bo'lsa, sovxoz ishchi xodimlarning daromadi esa 351 rublga o'sdi. Agar 1965 yilda kolxoz va sovxoz ishchilariga oyiga 80 rubldan maosh to'langan bo'lsa, 1967 yilga kelib ularning maosh miqdori 100 rublni tashkil qildi.

**Xulosa.** Ushbu yillarda aholining mehnatiga olayotgan daromadlari ham bir muncha o'sdi. Jumladan: 1965 yilda oyiga 100 rubl miqdorida maosh oluvchi ishchi xizmatchilar respublika aholisining 4 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1970 yilda bu ko'rsatkich 18 foizga oshdi, 1980 yilda esa respublika ishchi xizmatchilarning qariyb yarmi 100 rubldan ortiq miqdorda oylik maosh olardi. 1965-1980 yillarda respublikada ishchi xizmatchilarning daromadlari 1,8 baravar kolxozchilarning daromadlari esa 2 baravar oshdi. Bu ko'rsatkich 1940 yildagiga nisbatan 4 va 6,9 baravar ko'p edi. Xolisona aytganda bu ko'rsatkichlar nisbiy bo'lib respublika aholisining daromadlari oila a'zolari tarkibini inobatga olganda yashashning belgilangan me'yorlaridan ancha past edi.

Darhaqiqat 1986 yilda Qashqadaryo oblastida qariyb 700 ta qishloq ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan, 150 ta qishloqda tabiiy gaz yo'q edi. 28 ta qishloqda esa savdo shoxobchalari bo'lmagan, 327 ta qishloqda esa maishiy xizmat korxonolari umuman qurilmagan edi. Ayniqsa Dehqonobod, Qamashi, Yakkabog' kabi rayonlarda qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilash borasida olib berilayotgan ishlar umuman talabga javob bermasdi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Berdiev H. Birinchi odam viloyati. – Toshkent: "Nur".1991. – B.31.
2. Lenin bayrog'i gazetasi. 1986 yil, 22 dekabr.
3. Razzakov F. Korrupsiya Politbyuro. Delo Krasnogo uzbeki. – Moskva: "Algoritm". 2010. – S.45.
4. Lenin bayrog'i gazetasi. 1990 yil, 12 fevral.

5. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 331-fond, 1 yozuv, 150-ish, 76-varaq.
6. Karimov I.O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: "O'zbekiston". 2011. – B.49-50.
7. Safar o'g'li, R. M. (2023). The Study of The History of Termiz by Researchers. *Genius Repository*, 26, 24-27.
8. Safar o'g'li, R. M. (2023). TERMIZ OBIDALARINING RUS TADQIQOTCHILARI TOMONIDAN O'RGANILISHI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(34), 37-41.
9. Safar o'g'li, R. M. (2023). TERMIZNING CHIG'ATOY ULUSI TARKIBIDAN MUSTAQILIKKA CHIQISH TARIXI HAQIDA.

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **THE FORMATION OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE AND ITS ROLE IN THE LIFE OF YOUNG PEOPLE**

**Baxriddinov Odiljon Jamshid**

Assistant, Navoi State Mining and Technology University

E-mail: odiljonbaxriddinov28@gmail.com

**Abstract.** This article provides information about the emergence of private entrepreneurship and small Bines on the territory of the Republic and its role in the life of young people during the first years of independence, during the construction of a society based on a unilaterally controlled socialist economy, market relations in our republic. The article highlights the importance of private entrepreneurship in the economic life of the state.

**Key words:** Entrepreneurship, middle class, small business, private entrepreneurship, mercenary entrepreneurship, joint entrepreneurship, market economy.

## **MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING VUJUDGA KELISHI VA UNING YOSHLAR HAYOTIDA TUTGAN O'RNI**

**Baxriddinov Odiljon Jamshid o'g'li**

NDKTU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya" kafedirasi assistenti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mustaqillikning ilk yillarida respublikamizda bir tomonlama boshqariladigan sotsialistik iqtisodiyotdan, bozor munosabatlariga asoslangan jamiyat qurish davrida, respublika hududida xususiy tadbirkorlik va kichik biznesning vujudga kelishi va uning yoshlar hayotida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Maqolada xususiy tadbirkorlikning davlat iqtisodiy hayotida tutgan ahamiyati yoritilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Tadbirkorlik, o'rta sinf, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, yollanma tadbirkorlik, qo'shma tadbirkorlik, bozor iqtisodiyoti.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N07>

**Kirish.** Bozor iqtisodiyoti talablardan biri bu mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni shakllantirish hisoblanadi. Zero, kichik biznes vakillari mamlakatning o'rta tabaqasini shakllantirib, har qanday inqilobiy harakatlardan o'zini saqlaydi. Bu esa mamlakatda tinchlik va barqaror rivojlanishni ta'minlab beradi. O'zbekiston ham mustaqillikning ilk yillaridayoq mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga keng e'tibor berib kelmoqda. Bu esa mamlakatda jamiyatning ijtimoiy xastaligi bo'lmish ishsizlik masalalarini oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu masalani to'g'ri anglagan holda, yurtimizda mustaqillikning ilk yillarida tadbirkorlikni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratilib berildi va bu bugungi kungacha keng tatbiq etib kelinmoqda.

“Takror va takror aytaman, ishning ko‘zini biladigan, odamlarga mehnat qilish va daromad topish uchun sharoit yaratadigan, vatanparvar hamda fidoyi tadbirkorlarni biz doimo boshimizga ko‘taramiz”. [1]

Jahon iqtisodiyotida yetakchi mavqega erishgan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatadiki, ular kichik biznesni, xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yuksalgan, aholi turmush darajasini ko‘targan. Masalan, rivojlangan Yevropa davlatlaring kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi Germaniyada 60 foizdan ziyodroqni, AQSHda 50 foizdan ziyodrog‘ini tashkil etadi. Yaponiyada bugungi kunda rasmiyl ish bilan band aholining 80 foizi kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik sohaslarida faoliylat yuritmoqda. O‘zbekiston ham jahon mamlakatlari strategiyasidan kelib chiqib, xususiyl tadbirkorlik va kichik biznes sohasini o‘zining bozor iqtisodiyotiga o‘tish davridagi bajarishi lozim bo‘lgan eng birinchi vazifasi qilib qo‘ydi. Bu esa bizning bu sohani mamlakatimiz oldida turgan eng dolzarb masala ekanligini anglatadi. Tadbirkorlik qatlamini mustaqillikning ilk yillarida shakllantirish aholi turmush darajasini oshishiga xizmat qilib uning turmush darajasini oshishiga yordam beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Mazkur maqolani yoritishda mustaqillik yillarida davlatimiz tomonidan “kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni rivojlantirish”ga qaratilgan Prezident qaror va farmonlari, Vazirlar Mahkamasining farmon va farmoyishlari, Oliy majlis tomonidan qabul qilingan qonunlardan keng foydalanilgan. Bundan tashqari respublikamizning bir guruh tarixchi va iqtisodchi olimlar (Sh.S.Norov, X.Shaxnoza) maqolalaridan ham foydalanilgan.

Maqolani yoritishda dialektik metodga tayandik. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni rivojlanishini tarixiy manbalar asosida o‘rganilib, xolislik nuqtai nazaridan yoritildi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tariximizni bugungi kun nuqtai nazardan o‘rganish, yaratish orqali tarixiy xotirani tiklash, milliy madaniyatni rivojlantirish, an‘anaviyl qadriyatlar tizimini tadqiq va targ‘ib etish borasidagi konseptual nazariyl mulohazalari maqolaning metodologik asosini tashkil etadi.

**Muhokama.** “Biz mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikning taraqqiyoti, xususiyl mulkning jadal rivoji uchun g‘oyat qulay va ustuvor sharoitlarni yaratib berar ekanmiz, avvalo, shularning hisobidan iqtisodiyotimizning o‘shish sur‘atlarini tezlashtirish, aholimizning ish bilan band bo‘lishi va daromad topishi bilan bir qatorda, biz uchun yangi bo‘lgan, demokratik islohotlarning asosiy tayanchi va harakatlantiruvchi kuchi – o‘rta sinfni shakllantirishni ko‘zda tutamiz” [2].

Bugungi kunda O‘zbekistonning har bir fuqarosi tadbirkorlik faoliylati bilan shug‘ullanib, korxonalar va tashkilotlarga asos solish, sotib olish, sotish, qayta qurish yo‘li bilan biznes faoliylati yuritish huquqiga ega. Tadbirkor ish faoliylatini yuritish uchun boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning mulki, pul mablag‘larini ixtiyoriyl asosida jalb qilish, mustaqil ravishda ishchilar yollash va bo‘shatishga haqlidir, tadbirkorlik o‘z daromadlaridan davlat soliq qo‘mitasi va davlat tashkilotlariga soliq to‘lab turadi [3].

Tadbirkorlikning bugungi kunda quyidagi shakllari mavjud:

- xususiyl (shaxsiyl) tadbirkorlik-bunda shaxsning o‘z mablag‘ hisobidan tashkillashtiriladigan tadbirkorlik.
- yollanma mehnatni jalb qilib amalga oshiriladigan tadbirkorlik;

- bir necha fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan jamoa yoki qo'shma tadbirkorlik.

Respublikada davlat mulkini xususiylashtirish borasida ko'chmas mulk bozori tashkil etilib, auksion va tanlovlar asosida kichik korxonalar fuqarolarga xususiy mulk qilib berildi.

1995-yil 5-yanvardan kuchga kirgan "Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish va uni rag'batlantirish to'g'risida"gi Prezident farmoni davlat mulkini xususiylashtirishga, mulkdorlar tabaqasini shakllantirishga yangi turtki berdi. Ushbu farmonga binoan davlat mulkini xususiylashtirishdan tushayotgan mablag'larning 50 foizi kichik biznesni rivojlantirishga yo'naltirildi.

"O'zbekiston Respublikasining Davlat mulki qo'mitasi 1995-yilda Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga ko'maklashuvchi jamg'armaga davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan, rekonstruksiyalash, texnika bilan qayta qurollantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan mablag'larning 50 foizga qadarini topshirsin.

Mazkur mablag'lar avvalo loyihalarni amalga oshirishda o'z ulushi bilan qatnashish, kreditlar berish, shuningdek tijorat banklarining kreditlari bo'yicha kafolatlar berish yo'li bilan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga sarflansin".[4]

1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'risida"gi qonuni iqtisodiyotning mazkur sektoriga davlat va mintaqaviy darajada rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.[5] Davlat darajasida xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun huquqiy-normativ asoslar, zarur infratuzilma va shart-sharoitlar yaratildi. Mintaqaviy (viloyat, shahar, tuman) darajada esa tadbirkorlarga mahalliy soliq va yig'imlar solishda yengilliklar berildi, bu sektorni rivojlantirish uchun hududiy dasturlar ishlab chiqildi va amalga oshirish tadbirlari ko'rildi.

"Mamlakatimizning barqaror iqtisodiy o'sishi va istiqboli, aholining hayot darajasi va sifatini belgilab berishga ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan eng muhim ustuvor vazifa – bu xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik rivoji barcha g'ov va to'siqlarni olib tashlash va bu sohaga to'la erkinlik berishdan iborat"[6].

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish va ravnaq toptirish maqsadida chet ellik sarmoyadorlarning va dunyodagi nufuzli banklarning, jumladan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Germaniya tiklanish banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi va boshqa Xalqaro moliya tashkilotlarining kredit resurslari jalb etilmoqda. 2003-yil 1-yanvar holatiga ko'ra kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun jalb etilgan xorijiy kredit resurslari hajmi 450 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Bu davrda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash borasida ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida ularning soni va iqtisodiyotdagi ulishi yildan yilga ko'payib bordi. Xususan, 1996-yilda 85 mingga yaqin kichik biznes korxonalari ro'yxatga olingan bo'lsa, 2001-yilda ularning soni 190 mingdan ortdi, shu jumladan, ularning real faoliyat yuritayotganlari soni 149,3 mingtani tashkil etdi, ularning 63 foizi ishlab chiqarish bilan band bo'ldi.

Faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari soni 2007- yil 1-yanvar ma'lumoti ko'ra 350 ming, band bo'lgan kishilar 7127,3 ming kishini tashkil etgan. Bu davrda xususiy tadbirkorlik YAIM dagi hissasi 42,1 foizni tashkil etgan.[7]

O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikka bo'lgan e'tibor yildan-yilga kuchayib bormoqda. 2011-yil O'zbekistonda tadbirkorlar va ishbilarmonlar yili bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Aynan shu yili Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan yilga "Kichik biznes

va xususiy tadbirkorlik” deya nom berishi bu soha vakillariga juda ham keng imkoniyatlar yaratib berdi. Shu yil munosabati bilan kichik biznes subyektlari ko‘paytirildi va rivojlantirildi, ahvoli og‘ir bo‘lgan korxonaga egalari davlat ko‘magi ajratishni yo‘lga qo‘yildi va ularni qo‘llab quvvatlandi. Aynan shu yil yakunlari bo‘yicha mamlakat yalpi ichki mahsulotida kichik biznesning ulushi 2010-yilga nisbatan 2,5%ga o‘shirib 54%ni tashkil etdi [8].

Bugungi kunda ham hurmatli yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, joriy yilda xususiy tadbirkorlarga nisbatan ortiqcha tekshirishni bartaraf etish yuzasidan maxsus topshiriq berildi. Tadbirkorlar o‘z ishlarini erkin tashkillashtirishga zamin yaratildi. Tadbirkorlik subyektlarini davlatdan qo‘rqmasdan ochiq ishlashi uchun tadbirkorlardan olinadigan daromad solig‘i va yagona soliq to‘lovi kamaytirildi. Bu esa tadbirkorlar subyektiga o‘z mablag‘larini tejashga va qo‘shimcha sarmoya kiritishga zamin yaratdi. Tadbirkorlarni ertangi kunga ishonchi mustahkamlandi. Bundan tashqari, “Har bir oila tadbirkor” davlat dasturi ham tadbirkorlik rivojlanishiga zamin hozirlaydi.

“Tadbirkorlikni keng rivojlantirish va bu soha uchun yangi sharoitlar yaratishga barcha imkoniyatlarni safarbar etilyapti. “Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida o‘z biznesini boshlayotgan oilalarga 5,9 trillion so‘m kreditlar ajratildi. Yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirildi. Natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko‘paydi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Buning hisobidan o‘tgan yili soliq to‘lovchilar ixtiyorida 2 trillion so‘m qoldi. Joriy yilda bu raqam 11 trillion so‘mni tashkil etishi kutilmoqda. Bir yilda tadbirkorlar ixtiyorida shuncha mablag‘ qolishi, albatta, ularga o‘z bizneslarini rivojlantirish uchun juda katta qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi” [9].

**Natijalar.** Umumiy olganda mustaqillik yillarida O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali O‘zbekiston yalpi ichki mahsulot ulushi oshdi va jamiyatning asosiy xastaligi bo‘lmish ishsizlik masalasiga qisman yechim topildi. Yoshlarni bu soha faoliyatiga keng jalb etilishi iqtisodiyotda bozor munosabatlarini joriy etishda keng imkoniyatlar yaratib berdi.

Mustaqillik yillarida Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi uchun qabul qilingan qonun, qarorlar.		
“Mulknı davlat ta’savuridan chiqarish va xususiylashtirish to’g’risida	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XII chaqiriq VIII sessiyasida	1991-yil 18-noyabr.
“Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”	Prezident farmoni	1994-yil 21-yanvar.
“Mulknı davlat ta’savuridan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini yanada rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari to’g’risida”	Prezident farmoni	1994-yil 16-mart
“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to’g’risida”	Prezident farmoni	1995-yil 21-dekabr
“Xususiy tadbirkorlikka tashabbus ko’rsatish”	Prezident farmoni	1995-yil 5-yanvar



“Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yhatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish”	Vazirlar Mahkamasi	2001-yil 21-avgust
“Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”	Vazirlar Mahkamasi	1998-yil 30-aprel
“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”	Prezident farmoni	2011-yil 24- avgust
“Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”	Prezident farmoni	2022-yil 9- noyabr.
“O‘zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil devonining budjetdan tashqari jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”	Vazirlar Mahkamasi	2023-yil 7- yanvar

Lekin bularning barchasi hali yetarlicha hisoblanmaydi. Chunki bugungi kunda ham jamiyatimizda, aholimiz orasida ishsiz fuqarolar (ularning aksariyati yoshlar orasida) 8.6foizni [10] tashkil etayotgani (2022-yil yakuniga ko‘ra), mehnat migrantlarning (ish izlab chet el davlatlariga ketganlar) soni 2,6 va 3 mln (Tashqi migratsiya masalalari agentligi mas‘ul xodimi Azim Ahmatov) [11] atrofida ekanligi bu sohani yanada yanada rivojlantirish kerak ekanligini anglatadi.

**Xulosa.** Tadbirkorlik va kichik biznes sohasining rivojlanishi aholining ijtimoiy va iqtisodiy ahvolidan yaxshilanishiga va ishsizlik masalasini bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlik shakllanishi aholining ruhiy va ma‘naviy ongini o‘stirib, davlat siyosatini tushunishi va yaqinlik darajasini oshishiga xizmat qiladi. Bugungi kundagi rivojlangan davlatlarning aksariyatida xususiy tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyotining asosini tashkil etayotgani ham bejiz emas. Tadbirkorlik faoliyatining yoshlar hayotida ham o‘rni beqiyos sanaladi. Zero, yurtimizda mustaqillik ilk yillarida va bugungi kunda ham juda katta demografik o‘shish kuzatilyapti. Buning natijasida yoshlarni ish bilan ta‘minlash eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu masalaning yechimi ham bevosita tadbirkorlik va kichik biznes orqali hal qilinishi esa ularning ahvolidan o‘nglashga xizmat qiladi.

Umumiy qilib aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik har qanday davlat hayotida muhim rol o‘ynab, jamiyat barqarorligini ta‘minlaydi. Aholi manfaatlarini to‘la qondirib, davlat byudjeti shakllantirishga muhim rol o‘ynaydi. Jamiyat har qanday iqtisodiy va siyosiy inqiloblardan holi bo‘ladi va davlat rivojlanishini ta‘minlaydi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklidagi uchrashuvda so‘zlagan nutqidan. (20.08.2021)

2. Karimov I.A:O'zbekiston erishgan yutuqlar va marralar-biz tanlagan islohotlar yo'lining tasdig'idir", T., "O'zbekiston", 2015, 47-bet.
3. Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida. (25.05.2000 y.).
4. "Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko'rsatish va uni rag'batlantirish to'g'risida". PF-1030-son. Toshkent, 1995-yil. 3-band.
5. Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish to'g'-risida "Toshkent, 1995-yil. 21-dekabr.
6. Karimov I.A: "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oily saodatdir", T., "O'zbekiston" 2015-yil, 48-bet.
7. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumoti 2017-yil.
8. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "2011-yilning yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusida bag'ishlangan nutqi.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasi, 2020.
10. <https://daryo.uz/2022/11/17/ozbekistondagi-ishsizlar-soni-ochiqlandi> 17.11.2022
11. <https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/chet-elda-ishlayotgan-uzbekistonliklarning-soni-qancha> 02.09.2019

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **ZIYOVUDDINKHAN IBN ESHON BOBOKHAN'S FIRST TRIP TO ARAB COUNTRIES AND ITS RESULTS**

**Arslonbekov Nursultan the son of Azizbek.**

Doctoral student of Karshi State University (PhD)

**Abstract.** This article discusses the activities of the first mufti and judge of Uzbekistan, Ziyovuddin Khan ibi Eshon Bobokhan, and the beginning of the activities of the OQDN organization abroad. Due to the ulama who left our country and their unique contributions to the development of our religion, science and literature, the interest of the world scientists is huge. It was necessary to show his slogans and to mask his opinion that "religion is opium". In such a volatile political and social situation, the first mufti Eshon Babakhan ibn Abdulmajid Khan and his closest assistants Ziyavuddin Khan ibi Eshan Babakhan were a bridge between religion and the state. and brought the Muslims of Central Asia closer to their co-religionists in other parts of the world.

**Key words:** World War II, pravoslav, Islam, Haj pilgrimage, Al-Azhar university, sanad, theologian, hadith.

## **ZIYOVUDDINXON IBN ESHON BOBOXONNING ARAB MAMLAKATLARIDA BO'LGAN DASTLABKI SAFARI VA UNING NATIJALARI**

**Arslonbekov Nursulton Azizbek o'g'li.**

Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti ( PhD)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonning birinchi muftiysi va qozisi Ziyovuddinxon ibi Eshon Boboxon faoliyati hamda O'QDN tashkilotining chet ellardagi faoliyatining boshlanishi haqida mulohaza yuritiladi. Bu dunyoda millatlar o'rtasidagi rishtalar ularning dinlari, tillari va madaniyatlaridagi bog'liklar asosida kechadi. Jumladan islom dinining 1400 yillik davrida yurtimizdan chiqqan ulamolar va ularning dinimiz rivojiga, fan va adabiyotga qo'shgan benazir xissalari tufayli dunyo olimlarining yurtimizga qiziqishi ulkan. Sobiq SSSR jahon siyosatiga qo'shilar ekan endi diniy ulamolar bilan ham hisoblashishga o'zining xalqlar do'stligi va barchaga erkinlik kabi shiorlarini namoyon qilish, o'zining "din afyundir" degan fikrini niqoblashi zarur edi. Ana shunday qaltis siyosiy va ijtimoiy vaziyatda birinchi muftiy Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon va u kishining eng yaqin yordamchilari Ziyovuddinxon ibi Eshon Boboxon din va davlat o'rtasidagi ko'priki bo'lib, O'rta Osiyo musulmonlarini dunyoning boshqa yerlaridagi dindoshlari bilan yaqinlashtirdilar.

**Kalit so'zlar:** II Jahon urushi, provoslav, Islom, Haj ziyorati, Al - Azhar, sanad, ilohiyotshunos, xadis.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N08>

1941-yilda II Jahon urushi boshlangandan so'ng Sovet Ittifoqi rahbariyati din va dindorlarga nisbatan siyosatini o'zgartirishga majbur bo'ldi. Zero fashistlarning bosib olingan sovet o'lkalarida provoslav aholiga ko'rsatayotgan yordami Berlinda tuzilgan "Turkiston legion" kabi harbiy-siyosiy tashviqotlari "Xudosizlikni" yoqlovchi mustabid tuzumni harakatga keltirdi. Ittifoq rahbarlari shunday vaziyatda dinga xalqni birlashtiruvchi vosita sifatida qaradi.

1943 – yil O‘OQMDN tashkil topgandan boshlab o‘lka xalqlarining azaliy orzusi islom dinining besh arkonidan biri bo‘lgan haj amalini bajarishga Moskvadan ruxsat olish edi va 1945 – yili shunday baxtga erishildi.Uzoq yillik istibdod davri hali davom etsa-da musulmon jamiyatining fikr – mulohazalari Markaz tarafidan tinglanib, unga ijobiy munosabat ko‘rsatilishi ulkan voqea edi. [1;25]

1943-yil 20 – 22 –oktyabr kunlari Toshkentning mashhur Xastimom mahallasida Shayx Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon boshchiligida tuzilgan O‘OQMDN faoliyatida doimo ta‘lim va tarbiya odamlarning ruhiy, ilmiy, ehtiyojlari birinchi o‘rinda turganligi soha yetakchilarini Moskva bilan bir vaqtning o‘zida til topishib ishlashga majbur qilardi.

1945 yilda Islomning muqaddas shaharlari Makka va Madinaga ziyorat qilishning yillik haj marosimi tiklandi. O‘sha yili muftiy Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon boshchiligida musulmonlarning katta guruhi, jumladan, O‘zbekistondan ham hajga bordilar. Uning o‘g‘li, sodiq shayx Ziyouddinxon ibn Eshon Boboxon ham u bilan birga edi. [2;67]

Aynan shu safar debocha o‘laroq G‘arbdagi SSSR dushmanlariga mamlakat ichidagi vaziyatni yomonlashlariga bahona bo‘ldi.Lekin shunday holatda ham Eshon Boboxon va u kishining safardagi hamrohlari jurnalistlarga o‘rinli javoblar berib taranglik oldini olishadi.

Haj islomning besh arkonidan biridir: “Alloh taoloning bandalari zimmasiga ,uning uyiga yetib borishga qodir bo‘lganlar uchun uyni (ya’ni Ka‘baya mukarrama) haj qilish farzdir” (3-surasi, “Ali Imron”, 97-oyat). Haj musulmonlarga muntazam uchrashuvlar uchun ajoyib imkoniyat yaratadi va haqli ravishda har yili o‘tkaziladigan yirik jahon anjumani (al-muatamar al-akbar) sifatida qabul qilinadi, unda dindoshlar o‘rtasidagi aloqalar o‘rnatiladi va mustahkamlanadi. Musulmonlar Alloh taoloning da‘vati bilan dunyoning turli burchaklaridan eng muqaddas joyga to‘planishadi va keyingi hayotda ham, keyingi hayotda ham farovonlik davrida. “Hamma Allohning arqonini mahkam ushlang, bir-biringizdan ayrilmang va Allohning sizlarga bo‘lgan rahmatini eslang, o‘shanda bir-biringizga dushman bo‘lib, qalblaringizni yaqin qilgan va Uning rahmati bilan birodar bo‘lib qolgansizlar!” (3-sura, Oli — Imron oilasi. 103-oyat). [3;44]

Qur’oni Karimning ushbu amri 1945 yilda Hajga borgan ziyoratchilar ushbu oyatga amal qilib o‘z ibodatlarini samimiyat bilan amalga oshiradilar.Ziyoratchilarning islom dinining aziz qadamjolariga sayohati davomida ular samimiy e‘tibor va g‘amxo‘rlik bilan kutib olindi. [2;85]

Ziyoratchilar uzoq safarni Eron, Iroq, Livan, Misr orqali bosib o‘tadilar. Ziyoratchilarimizga bo‘lgan hurmat-ehtiroمنىing yorqin dalili sifatida arab davlatlarida ularni samimiy kutib olishlari bo‘ldi. Ayniqsa, qirol Abdulaziz ibn Saud bilan uchrashuv barchada katta taassurot qoldirdi. Mamlakatimiz va uning vakillari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa o‘rnatish uchun qulay imkoniyatdan foydalanishga intilganlar orasida birinchi bo‘lib arab dunyosi siyosiy arboblari bo‘ldi.Hajdan qaytgan Ziyouddinxon ibn Eshon Boboxonning aytishicha, boshqa davlat musulmonlari hojilarimizga eng ko‘p murojaat qiladigan savol musulmonlar zulm qilinyaptimi, bizda vijdon erkinligi bormi, degan savollar bo‘lgan. Shu bilan birga, mamlakatimizdagi ishlarning haqiqiy ahvoli haqidagi ochiq-oydin hikoyalar katta shubha bilan qabul qilindi.Shunday vaziyatda Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon sovetlar siyosatini ochiq yomonlashdan ehtiyot bo‘lgan holda yurtimizdagi ijobiy o‘zgarishlarni eslab o‘tadilar.U kishi va hamrohlari turli musulmon davlatlarining diniy, jamoat va hukumat rahbarlari bilan bevosita shaxsiy aloqalar o‘rnatishga ahamiyat beradilar.1945-yilda yurtimizdan haj ziyoratini ado etgan barcha ziyoratchilar bir ovozdan shunday xulosaga kelishgan. [4]

Ular o'z taassurotlarini xuddi shu 1945-yilda bo'lib o'tgan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari ilohiyotshunoslarining plenumida bayon qildilar. Dunyoning barcha mamlakatlarida, birinchi navbatda arab davlatlarida xorijlik e'tiqodli birodarlar bilan aloqa va aloqa o'rnatish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishga qaror qilindi. Bu ezgu maqsadga erishishda Shayx Ziyouddinxon ibn Eshon Boboxon alohida faollik ko'rsatdi. [2;87]

Haj safari qanday kechgani haqidagi ma'lumot va suratlar O'rta Osiyo va Qozog'iston diniy nazorati jurnalining 1946 – yil 3-4 Sonlarida bosilgan. [5;34]

1947-yilda amaliyot o'tash va shu bilan birga arab dunyosining nufuzli diniy vakillari bilan ishbilarmonlik hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish maqsadida uzoq muddatli xizmat safari bilan arab mamlakatlariga boradi. Dastlab Misrda to'xtab, Abdulloh Fukqon, Hofiz Tayjoniy kabi mashhur Al-Azhar shayxlaridan tahsil oladi va ularning sanadlarini oladi. So'ngra bir muddat Makka va Madinaga ko'chib o'tadi va u yerda hadis ilmi bo'yicha bilimlarini chuqurlashtiradi. Shayx Ziyouddinxon ibn Eshon Boboxon butun umri davomida o'zining misrlik va saudiyalik ilk ustozlari va ustozlari haqida minnatdorlik bilan xotirasini saqlab qoldi, ular u uchun chinakam islomiy tarbiya va favqulodda ma'naviy saxovatning namunasi bo'ldi. Shu bilan birga, maxfiy suhbatlarda hamrohlariga Ziyovuddinxonning anjumanlardan biridagi nutqida oilasi va do'stlariga murojaat qilib, ular o'zlarining izlanuvchan ongi va haqiqatga intilishlariga qaramay, ma'lumki, ko'pchilik uchun uzluksiz va uslubiy bo'lib kelgan mamlakatimizga nisbatan ehtiyotkor munosabatni o'z-o'zidan yengib chiqa olmaganliklarini qayg'u bilan ta'kidladi. yillar nafaqat arab mamlakatlarida jamoatchilik fikriga singdirildi. "Ular, dedi u ustozlarini eslab, haligacha menga istisno, deyarli mo'jiza sifatida qarashar, bizning musulmonlar hayoti haqidagi hikoyalarimni vahima bilan qabul qilishar, shekilli, xorijlik dindoshlarimizning yangi avlodlari ozod bo'lishlari mumkin O'z-o'zidan mamlakatdagi bunday xayoliy g'oyalardan xalos bo'lishdi, lekin bu o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, biz dushmanlarimiz bizning yaqinlashishimiz yo'lida yaratgan aql bovar qilmaydigan to'siqlarni bartaraf etish va yengib o'tish uchun ishlashni davom ettirishimiz kerak, Payg'ambarimiz Muhammad — Allohning salomlari Unga salom ayting — dedi: "Kim yo'lda tikan borligini bilib, uni olib tashlasa, u jannatga kiradi" (Muslim). Musulmonlar yaqinligiga olib boradigan yo'lda esa juda ko'p "tikanlar bor". "O'sha baxtli vaqtgacha yashashga amin emasmani, biz ulardan butunlay xalos bo'lamiz. Bu vazifani nihoyat yangi avlod hal qiladi va Alloh taolodan bizni tark etmasligini so'rayman. Uning rahmati va marhamatisiz!" [6;35]

Ushbu oliygoh qadimdan musulmonlarning eng yetuk ilmiy dargohlaridan va qadimiylaridan hisoblanadi. Al – Azhar 995 – yilda Shia Fotimiylar xalifaligi davrida Qohirada qurilgan bo'lib, Salohiddin Ayyubiy davridan boshlab to'rt mo'tabar mazhabda dars beriladi.

1948-yilda Shayx Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon Qohira, Makka va Madinada olgan bilimlari bilan boyib, vataniga qaytib keldi. Viloyatimizdagi yetakchi din arboblari orasida uning obro'-e'tibori shu qadar baland ediki, O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasining 1948-yil dekabr oyida bo'lib o'tgan II Qurultoyida bir ovozdan O'OQMDN raisining o'rinbosari etib saylandi. Bu mas'uliyatli lavozimda uning tashkilotchilik iste'dodi yanada yaqqol namoyon bo'ldi, endi chuqur nazariy bilimlar, donishmandligi tufayli u kishi doimo bosh murabbiy bo'lib, O'rta Osiyoda yangi bir maktab ilmiy maktab qurib ketdi. [6;54]

Shayx hazratlari 1953 – yili yana muftiy o'rinbosari sifatida Saudiya Arabistoniga va Misrga tashrif buyuradilar. Safar asnosida Qohiradagi Al-Azhar universiteti rektori Shayx

Abdurrahmon Toj bilan uchrashadilar va Sobiq SSSRdan borgan talabalarning universitetda o'qishi uchun ruxsat olinadi.

Al – Azharda orttirilgan ilmiy tajriba shuni ko'rsatdiki, kuchli aqliy va amaliy ilmiy kadrlarga bizning yurtimizda ehtiyoj ulkan va o'zaro aloqalarni mustahkamlashda ilmiy anjuman va tadqiqotlarning o'rni juda ulkan. Shu sababdan O'QMDNning xalqaro aloqalar bo'limi 1976 – yil 26-iyulda tayyorlagan ma'lumotnomada xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarga to'xtalib, bu oliy diniy o'quv yurtida 1955 – yildan boshlab Diniy nazorat vakillari ta'lim olib qaytayotganligini va Misr Arab Respublikasi bilan aloqalarda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. [7]

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, yurtimiz musulmonlariga Haj amalini ado etish uchun imkoniyatlar yaratib berildi. 1991-yilda H.ga boruvchilar 1500 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2004-yilda bu raqam 4000 dan ortiqni tashkil etdi. Mustaqillik davrida 53056 kishi Haj ibodatini ado etdi (2005). Hozirgi kunda faqatgina bir oyda Umra amalini bajaruvchilar soni 20mingdan ziyod. Haj amalini qiluvchi hojilar soni yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning Saudiya Arabistoniga so'nggi 2023 – yildagi safaridan so'ng yana 1500 ga ko'payib, 12mingdan ortiq hojilar o'z ibodatlarini to'la-to'kis ado etmoqdalar.

O'zbekiston — Misr munosabatlari — 1992-yil yanvarda Misr rasmiy delegatsiyasining O'zbekistonga va 1992-yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Misr ga tashrifi vaqtida ikkala mamlakatning turli sohalardagi hamkorlikni chuqurlashtirish va kengaytirish muddaolari tasdiqlanib, ularga aniqlik kiritildi. 2000-yilgacha mamlakatlar o'rtasida 10 ta ikki tomonlama hujjat imzolandi. O'zbekiston Respublikasi bilan Misr o'rtasidagi munosabat va hamkorlik asoslari, investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish, iqtisodiy, ilmiy va texnikaviy hamkorlik, aviatsiya qatnovi va havo transporti sohasidagi hamkorlik, Toshkent sharqshunoslik instituti bilan Misrning Al-Azhar universiteti o'rtasida fan va madaniyat sohasidagi hamkorlik, O'zbekiston va Misr tashki ishlar vazirliklari o'rtasida hamkorlik va maslahatlashuvlar to'g'risidagi bitimlar shu hujjatlarning eng muhimlaridir.[8;165b]

2017 – yili O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan aloqalar fan va madaniy almashinuvlar yangi darajaga ko'tarilib, xususan Al-Azhar universiteti professor ustozlari mamlakatimizdagi diniy ta'lim sifatini oshirishda o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Xulosa qilib aytganda, II Jahon urushi tufayli Sobiq Ittifoq hukumati necha yillik armon bo'lgan diniy erkinliklarga qisman bo'lsa-da yo'l ochdi. Og'ir bir siyosiy vaziyatda yurtimizdan chiqqan fidoyi shaxslarning tashabbuslari bilan yurtimizda diniy ta'lim nafaqat tiklandi, balki xorijlik mutaxassislar bilan keng aloqalar yo'lga qo'yildi. Sovet tuzumining iskanjasida ham o'z iymon – e'tiqodini saqlagan xalqimizga xorijdagi musulmonlar ham qoyil qolishdi va bizga xayrixoh ekanliklarini amalda ko'rsatishdi.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. A.I.Abdusamedov.Sotsial taraqqiyot va islom. – T.:O'zbekiston,1984.
2. Sh.Boboxonov. “Muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon” Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent.1999
3. N.Jabborov. Haj va uning ma'rifati. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati,2019 –yil 26-iyul.
4. O'zR MDA, 2456 – f.,r -1., 537 – ish,43 – 44 -v.

5. O'rta Osiyo va Qozog'iston diniy nazorati jurnali – 1, B.25.
6. Usmonxo'jayev, Dinimiz fidoyilari, 170,200.
7. O'zR MDA, 2456 – f.,r -1., 537 – ish,43 – 44 -v.
8. O'z ME. Birinchi jild.Toshkent,2000 – yil.

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **NEW UZBEKISTAN – A NEW LEVEL OF RELATIONS WITH THE STATE OF SOUTH KOREA**

**Nurmetova Fazilat Ilhomovna**

University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

**Abstract.** In recent years, foreign economic relations of Uzbekistan with many countries of the world have been expanding. In this regard, Uzbekistan has established strong relations with the Republic of Korea. The article analyzes a new stage of relations with the Republic of Korea and the Republic of Uzbekistan - It is stated that a new stage has begun in the history of relations between the Republic of Korea.

**Key words:** Republic of Korea, foreign policy, strategy, declaration, investment, capital, export.

## **ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН-КОРЕЯ РЕСПУБЛИКАСИ БИЛАН МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ЯНГИ БОСҚИЧИ**

**Нурметова Фазилят Илхомовна**

Ўзбекистон журналистика ва оммавий-коммуникациялар университети

**Аннотация.** Сўнгги йилларда Ўзбекистон жаҳондаги кўплаб мамлакатлар билан ташқи иқтисодий алоқалари кенгайиб бормоқда. Бу борада Ўзбекистон-Корея Республикаси билан мустақам алоқаларни йўлга қўйган. Мақолада Янги Ўзбекистон-Корея республикаси давлати билан муносабатларининг янги босқичи таҳлил қилинган бўлиб, Ўзбекистон билан Корея Республикаси ўртасида алоҳида стратегик шериклик тўғрисидаги Қўшма декларация сиёсий, савдо-иқтисодий, инвестициявий, молиявий-техник ва маданий-гуманитар соҳаларда иккала мамлакат ўртасидаги ўзаро ҳамжиҳатликни чуқурлаштиришга қаратилган Ўзбекистон-Корея Республикаси муносабатлари тарихида янги босқични бошлаб берганлиги баён қилинган.

**Калит сўзлар:** Корея Республикаси, ташқи сиёсат, стратегия, декларация, инвестиция, капитал, экспорт.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N09>

**Кириш.** Мамлакатимизнинг мустақил ташқи сиёсатини шакллантиришда Ўзбекистоннинг Корея Республикаси билан ўзаро ҳамкорлиги муҳим ўрин тутди. Икки мамлакат ўртасида бир қатор соҳаларда барқарор ҳамкорлик узоқ йиллардан буён давом этиб келмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаб ўтганидек, “Айни вақтда мамлакатимиз босиб ўтган тараққиёт йўлининг чуқур таҳлили, бугунги кунда жаҳон бозори конъюнктураси кескин ўзгариб, глобаллашув шароитида рақобат тобора кучайиб бораётгани давлатимизни янада барқарор ва жадал суръатлар билан ривожлантириш учун мутлақо янгича ёндашув ҳамда тамойилларни ишлаб чиқиш ва рўёбга чиқаришни тақозо этмоқда”. [1]

Ўзбекистон-Корея дўстлик ва алоҳида стратегик шериклик муносабатларини янада мустақамлаш, кўп қиррали ҳамкорликни кенгайтириш йўллари кўриб чиқилади.



Энг аввало, “яшил” иқтисодиёт, рақамлаштириш, инновациялар ва юқори технологиялар, таълим, соғлиқни сақлаш ва бошқа устувор йўналишларда амалий ҳамкорлик бўйича дастур ва лойиҳаларни илгари суришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ҳозирги кунда эса Ўзбекистон Республикаси ва Корея Республикасини халқаро ҳуқуқнинг умумэътироф этилган тамойиллари ва нормаларига асосланган анъанавий дўстлик ва ҳамкорлик муносабатлари боғлаб туради. Икки давлат сиёсий, иқтисодий, маданий ва бошқа соҳаларда икки томонлама ҳамкорликни чуқурлаштиришга катта эътибор қаратмоқда. Ҳар томонлама муносабатларнинг барча соҳаларда муваффақиятли ривожланишига мамлакатлар ўртасида ҳеч қандай сиёсий муаммоларнинг йўқлиги, мустақкам шартномавий-ҳуқуқий база ёрдам бермоқда.

#### **Адабиётлар таҳлили ва методология.**

Ўзбекистон Республикаси ва Корея Республикаси ўртасидаги муносабатларни ўрганиш бўйича чоп этилган монографик пландаги тадқиқотлар, фактология, тизимли таҳлил, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг нутқлари, қонун ҳужжатлари ва оммавий ахборот воситаларида чоп этилган даврий нашрлардаги материаллар ташкил этади.

**Муҳокама.** Ҳар бир суверен давлат ўз истиқболига эришиш учун бир вақтнинг ўзида ҳам ички, ҳам ташқи сиёсатда самарали фаолият юритиши талаб этилади. Мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаёти ривожлангани сари ташқи сиёсатдаги тенденциялар ҳам янги қирралар билан бойиб боради. Давлатнинг ташқи сиёсати деганда икки давлат ёки кўп томонлама платформалар ёрдамида бошқа давлатлар билан ўзаро муносабатлари орқали боғлиқ бўлган мақсад ва фаолияти тушунилади. Кенгроқ маънода эса ташқи сиёсат – халқаро муносабатларнинг турли субъектлари – давлатлар, уларнинг бирлашмалари ва блоклари, хорижий жамоат бирлашмалари, глобал ва минтақавий ташкилотлар билан муносабатларни тартибга солувчи давлатнинг халқаро майдондаги фаолияти дейишимиз мумкин.

Кейинги йилларда Ўзбекистон жаҳондаги кўплаб мамлакатлар билан ташқи иқтисодий алоқалари кенгайтириб мустақкамланиб бормоқда. Бу борада Корея Республикаси билан мустақкам алоқаларни йўлга қўйган. Ўзбекистон ва Корея Республикаси ўртасидаги муносабатларни ҳисобга олган ҳолда, ҳар иккала давлат ўртасидаги ҳамкорликнинг устувор йўналишлари 2006 йилдан “Корея Республикаси ва Ўзбекистон Республикаси ўртасидаги стратегик шериклик тўғрисидаги қўшма декларация” ва 2017 йилдан бошлаб “Стратегик шериклик муносабатларини ҳар томонлама чуқурлаштириш тўғрисида қўшма баёнот” ҳужжатларда ўз аксини топган. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 22-25 ноябрь кунлари Сеулга давлат ташрифи Ўзбекистон Республикаси ва Корея Республикаси ўртасидаги муносабатларда янги саҳифа очди. Ташриф доирасида давлатлараро, ҳукуматлараро ва идоролараро 20 дан ортиқ битим, шунингдек, умумий қиймати 10 миллиард АҚШ долларида зиёд бўлган 64 та ҳужжат ва келишувлар имзоланди. Жумладан Hyundai, Evergreen Holdings, Youngone Corporation, Hwachon Plant-Gemco каби компаниялар билан бир қанча йирик сармоявий шартномалар имзоланди. Шу билан бирга, Жаҳон савдо ташкилотига аъзо бўлиш масаласида Ўзбекистоннинг корейлик мутахассислари томонидан техник, маслаҳат ва эксперт ёрдами кўрсатиш бўйича келишувга эришилди.[2]

Шунингдек, 2019 йилда ўзаро товар айирбошлаш 2018 йилга нисбатан 27 фоизга, жумладан, экспорт 30,1 фоизга ўсди. Бундан ташқари, 2019 йилда Ўзбекистонда Корея Республикасининг 198 та корхонаси ташкил этилди.

2022 йил 1 июль ҳолатига кўра, Давлат статистика қўмитаси маълумотларига кўра, Ўзбекистонда хорижий капитал иштирокида рўйхатга олинган корхоналар ва ташкилотлар сони 14353 тани ташкил этади. Ўзбекистонда капитал қўйилмалар иштирокидаги етакчи хорижий компаниялар қўйидаги миллат вакилларига эга: руслар (2654 компаниялари), Туркия (2032 компания), Хитой (2011 компания), Қозоғистон (1161 компания) ва Корея Республикаси (905 компания).[3]

Корея Республикаси Ўзбекистонда инфратузилма лойиҳаларини фаол ривожлантирмоқда, шунингдек, маркали электроника, асбоб-ускуналар, косметика ва фармацевтика маҳсулотларни ишлаб чиқарувчи корхоналар тармоғини ривожлантирмоқда.

<i>Эҳтиёткорлик</i>	Молиявий маълумотларга эҳтиёткорлик билан ва аниқ ишлов бериш	Ёлғон маълумотларнинг хавфини минималлаштириш	Ҳисобот жараёнини текшириш ва мониторинг қилиш	Молиявий фириб-гарлик ва нотўғри хулосалардан қочишга ёрдам беради
<i>Ҳисоблаш</i>	Молиявий кўрсаткичларни ҳисоблаш ва ҳисоботларни тузиш жараёни	Битимлар ва воқеалар тўғрисида мунтазам ва аниқ ҳисобот бериш	Ойлик молиявий ҳисоботлар, солиқ ҳисоботлари	Компаниянинг молиявий ҳолатидаги ўзгаришларни кузатиш
<i>Мувофиқлик</i>	Молиявий ҳисоботларнинг стандартлар ва талабларга мувофиқлиги	Бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисобот тамойилларига риоя қилиш	Бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартларига мувофиқлиги	Бошқарувнинг шаффофлиги ва жавобгарлигини ошириш
<i>Ўз вақтида</i>	Маълумотни ўз вақтида ва кечиктирмасдан тақдим этиш	Керакли вақтда молиявий маълумотларни тақдим этиш	Чораклик ёки йиллик ҳисоботларни ўз вақтида тақдим этиш	Манфаатдор томонларнинг хабардорлигини таъминлаш
<i>Ҳалол</i>	Ислом меъёрлари ва қоидаларига риоя қилиш	Диний эътиқод ва амалиётларни мустақамлаш	Ишлаб чиқариш ва истеъмол қилиш, молиявий операциялар	Диний меъёрларга риоя қилиш ва маънавий қадриятларни мустақамлаш

Шундай қилиб, «ҳақиқатни акс эттириш» тушунчаси ва ҳалол ўртасидаги боғлиқлик шундан иборатки, ҳалол ишлаб чиқариш билан шуғулланадиган корхоналар ҳалол бухгалтерия ҳисобини юритиши ва ҳисоботларини аниқ ва объектив акс эттирилишини таъминлаши керак. Бухгалтерия ҳисобини юритиш ва ҳисоботларни шакллантиришда корхоналар олдида қуйидаги асосий вазифалар исломий молиянинг бўлаги бўлиб ҳал қилиш лозим бўлади:

- закотни тўғри ҳисоблаш (муҳтожлар фойдасига мажбурий солиқлар);
- даромадларни адолатли тақсимлаш;
- фақат Ислом томонидан рухсат этилган фаолиятни билан шуғулланиш;
- Ислом компаниялар фаолияти жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий

ривожланишига ҳисса қўшишини таъминлаш.

Бу вазифалар исломий молиянинг ўзига хос қоидаларини, чекловларини ва талабларини бизнес вакиллари ва инвестиция фаолиятига нисбатан татбиқ этади. Шариат тамойиллари ва қонунларига мувофиқ тузилган битимлар қабул қилинади, битимлар шариат тамойилларига амал қилиши керак [8].

Агар бухгалтерия ҳисоботи ҳалол тузилмаса, операцияларни тўғри акс эттирмаса, бу ҳалол ишлаб чиқариш билан шуғулланадиган корхона учун жиддий оқибатларга олиб келиши мумкин. Биз қуйида мумкин бўлган оқибатларнинг баъзиларини келтириб ўтдик:

**Истеъмомчиларнинг ишончини йўқотиш:** агар бухгалтерия ҳисоботи ҳалол шакллантирилмаса, бу истеъмомчилар орасида маҳсулотларнинг ҳалол сертификатлаш талабларига мувофиқлигига шубҳа туғдириши мумкин. Истеъмомчиларнинг ишлаб чиқарувчига бўлган ишончни йўқотишига бу маҳсулотларининг сотув ҳажмининг пасайиши, тўхтатишига сабаб бўлиши мумкин.

**Ҳуқуқий оқибатлар:** ҳалол операцияларни бухгалтерия ҳисоботларида нотўғри акс эттириш ҳуқуқий муаммоларга олиб келиши мумкин. Компания компенсация ёки жарима талаб қилиши мумкин бўлган истеъмомчилар, тартибга солувчилар ёки бошқа манфаатдор томонларнинг даъволарига дуч келиши мумкин.

**Обрўни йўқотиш:** сохта бухгалтерия ҳисоботи компаниянинг обрўсини жиддий йўқотишига олиб келиши мумкин. Адолатсиз ҳисобот бериш амалиёти ҳақидаги янгиликлар тез тарқалиши ва корхонани ишончли ва ахлоқий бренд сифатида қабул қилишга салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

**Лицензиялар ва сертификатларнинг йўқолиши:** ҳалол битимларнинг нотўғри акс эттирилиши ҳалол бизнес билан шуғулланиш учун зарур бўлган лицензиялар ва сертификатларнинг йўқолишига олиб келади. Назорат қилувчи органлар, агар ҳисоботда қоидабузарликлар аниқланса, компания лицензияларини бекор қилиши ёки тўхтатиб қўйиши мумкин.

**Молиявий оқибатлар:** ҳалол операцияларни нотўғри акс эттириш компания учун молиявий йўқотишларга сабаб бўлиши мумкин.

Шундай қилиб юқоридагиларга асосланган ҳолда шуни айтиш мумкинки исломий молия тизими ва бухгалтерия тизими бир бири билан ҳамоҳанг ва тўлдирувчи бўлиб умумий ҳам иқтисодий ҳам ижтимоий ривожланишини таъминлашга хизмат қилади.

**Хулоса.** Умуман олганда, ҳалол бизнес ҳар бир операцияларни бухгалтерия ҳисоботларида ёлғонларсиз акс эттиришни талаб этади бу корхона учун жиддий масъулиятдир.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки ҳозирги глобаллашув жараёнида ва юртимизда амалга оширилаётган ҳисоб тизимидаги ислохотлар кўламида исломий молияга мувофиқ бухгалтерия ҳисоби юритиш катта имкониятлар тақдим этади, ўз навбатида бу нафақат миллий ҳисобот тизимимизга мос, у халқаро молиявий ҳисобот стандартларига (МҲҲС) ҳам уйғундир, мисол учун МҲҲСнинг асосий тамойиллар исломий молиянинг ҳалоллик концепциясига тўлиқ мос келади:

**Ишончлик тамойили/ҳалоллик концепцияси:** молиявий ҳисоботдаги маълумотлар ишончли ва аниқ бўлиши керак. Бунга молиявий маълумотларни тўғри таснифлаш, ўлчаш ва ошкор қилишни таъминлаш орқали эришилади.

**Муҳимлик тамойили/ҳалоллик концепцияси:** тақдим этилаётган молиявий ҳисоботлар фойдаланувчига воқелик ҳақида объектив тасаввурни таъминлаши шарт, бу қабул қилинадиган қарорларга таъсир қилишида муҳимдир. Корхонанинг молиявий ҳолати ва натижалари тўғрисида тўлиқ ва объектив тасаввурни таъминлаш учун муҳим воқеалар, операциялар ва кўрсаткичлар молиявий ҳисоботда тўғри акс эттирилиши ва ошкор қилиниши керак.

**Тўлиқлик тамойили/ҳалоллик концепцияси:** молиявий ҳисоботда компаниянинг молиявий ҳолати ва натижаларини тушуниш учун зарур бўлган барча керакли маълумотлар ва ахборотлар бўлиши керак. Барча муҳим воқеалар, операциялар, активлар, мажбуриятлар ва бошқа молиявий элементлар молиявий ҳисоботда акс эттирилиши керак.

**Таққослаш тамойили/ҳалоллик концепцияси:** молиявий ҳисоботдаги маълумотлар олдинги даврлар билан таққосланиши ва бошқа корхоналарнинг ҳисоботлари билан таққосланиши керак. Бунда ёлғон молиявий кўрсаткичлар таҳлил қилиниши ва таққосланиши катта зарарлар келиб чиқишига сабаб бўлиши тайин.

**Аниқлик (тушунарли) тамойили/ҳалоллик концепцияси:** молиявий ҳисоботдаги маълумотлар бухгалтерия ҳисоби соҳасида махсус билимга эга бўлмаган фойдаланувчилар учун аниқ ва тушунарли тақдим этилиши керак. Ҳисобот фойдаланувчиларнинг эҳтиёжлари ва талабларига мослаштирилиши керак, шунда улар тақдим этилган маълумотлар асосида қарор қабул қилишлари мумкин.

Ушбу асосий тамойиллар молиявий ҳисоботдаги маълумотларнинг яхлитлиги, ишончилиги ва таққосланишини таъминлайди, бу фойдаланувчиларга асосли қарорлар қабул қилиш ва корхонанинг молиявий ҳолати ҳамда натижаларини баҳолаш имконини беради, бу исломий молияга мувофиқликнинг асоси ҳисобланади.

Худди шундай исломий молиянинг асосий тамойиллари мавжуд бўлиб улар ҳам МҲҲСнинг асосий тамойилларига мутаносибдир, мисол учун ҳалол молиявий ҳисоботда маълумот беришнинг асосий тамойиллари қуйидагиларни ўз ичига олиши мумкин:

**Шариат талабларига риоя қилиш тамойили/ МҲҲСнинг асосий тамойиллари:** молиявий ҳисоботлар компания фаолияти ва молиявий натижаларининг шариат талаблари ҳамда тамойилларига мувофиқлигини акс эттириши керак. Бунга ҳалол сертификатлаш талабларига риоя қилиш, исломда

тақиқланган маҳсулотлар ёки хизматлардан фойдаланишни тақиқлаш, шунингдек шариат томонидан белгиланган бошқа молиявий тамойилларга риоя қилиш керади.

**Шаффофлик тамойили/ МҲХСнинг асосий тамойиллари:** молиявий ҳисоботлар фойдаланувчилар учун шаффоф ва тушунарли бўлиши керак. Унда ҳалол операциялар ва молиявий натижалар тўғрисидаги барча керакли маълумотлар бўлиши керак, шунда фойдаланувчилар корхонанинг шариат талабларига мувофиқлиги даражасини осонгина тушунишлари ҳамда баҳолашлари мумкин.

**Мустақил тамойили/ МҲХСнинг асосий тамойиллари:** молиявий ҳисоботлар ишончилигини таъминлаш учун улар мустақил равишда текширилиши керак. Аудитор компаниянинг шариат талабларига мувофиқлигини, шунингдек, ҳалол операциялар ва молиявий натижаларни молиявий ҳисоботда акс эттиришнинг тўғрилигини текшириши керак.

**Ошкор қилиш тамойили/ МҲХСнинг асосий тамойиллари:** молиявий ҳисоботда ҳалол битимлар, қўлланиладиган усуллар ва процедуралар, шунингдек сертификатлаш, шариат талабларига мувофиқлигини назорат қилиш учун масъул бўлган ташкилотлар ҳақида батафсил маълумотлар бўлиши керак. Бундай маълумотларнинг ошкор этилиши истеъмолчиларга таклиф этилаётган маҳсулотлар ёки хизматларнинг ҳалоллигини яхшироқ тушуниш ва баҳолаш имконини беради.

**Тўғри таснифлаш ва ўлчаш тамойили/ МҲХСнинг асосий тамойиллари:** молиявий ҳисоботлар ҳалол операциялар ва молиявий натижаларни тўғри таснифлаши ҳамда ўлчаши керак. Бунга ҳалол операциялар билан боғлиқ активлар, мажбуриятлар, даромадлар ва харажатларни белгиланган молиявий ҳисобот стандартлари ҳамда тамойилларига мувофиқ тўғри акс эттириш керади.

Умумий хулоса сифатида шунини таъкидлаш керакки, ҳалол ишлаб чиқарувчилар ўз бухгалтерия ҳисобини юритиши ва ҳисоботларини шакллантиришда ўзига хос тамойилларига риоя этишлари зарур, бу ҳукумат томонидан қабул қилинган қонун ва нормативларга тўлиқ мос бўлмаслиги мумкин, бироқ бу орқали бухгалтерия тизимининг асосий мақсади фойдаланувчиларга ишончли, керакли аниқ маълумот бериш энг самарали услубда бажарилади. Шунингдек бу ҳозирги бухгалтерия тизимида амалга оширилаётган Ўзбекистондаги ислохотларга, исломий бухгалтерия ҳисоби ва МҲХСни уйғунлаштириш замин яратади. Бу пировард натижада Ислом оламининг маблағларини Ўзбекистон иқтисодиётига жалб қилиш учун туртки бўлиши муқаррар.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони. 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон.
2. Тошкент халқаро инвестиция форуми материалларидан. <https://president.uz/oz/lists/view/6225>
3. Байдаулет, Е.А. Исломий молия асослари [Матн] / Е.А. Байдаулет. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2019. – 432 б.
4. Закирова О.М., Буланкина Е. В., Попова Е. А. Финансы (с исламской спецификой): курс лекций / Закирова О.М., Буланкина Е.В., Попова Е. А.. – Казань: ТГГПУ, 2007. – 125 с.
5. Краткое руководство по исламским финансам : монография / И. Десаи ; пер. с англ. под ред. Ш. А. Шовхалова. – 2020. – 133 с.



6. Зарипов, И. А. (2015). Исламские финансы: первый опыт и проблемы развития в банковском секторе, страховании и на финансовых рынках России. Управление собственностью: теория и практика, (1), 2-20.
7. Васиёв, А., & Сайфуллаев, С. (2023). Ўзбекистонда Ислом банклари фаолиятини ташкил этишнинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти.
8. Семенова, Ф. З. (2019). Бухгалтерский учет в соответствии с исламской экономической моделью. Вестник Алтайской академии экономики и права, (12), 122-127.
9. Тоҳирович, Қ. Н. (2021). Интернационал финансал ассоунтинг стандардс ин Ўзбекистан. АСАДЕМИСИА: Ан Интернационал Мультидисциплинарй Ресеарч Жоурнал, 11(4), 328-333.
10. Исманов, И. Н., & Ахмадалиев, Б. А. (2022). БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ ҲАЛҚАРО МОДЕЛЛАРИ ИСЛОМ МОДЕЛИ ҲАМДА КЛАССИК МОДЕЛЛАР ЎРТАСИДАГИ ФАРҚЛАР. Сэнтрал Ациан Ресеарч Жоурнал фор Интердисциплинарй Студиэс (САРЖИС), 2(4), 510-515.
11. Набиэвич, И. И., & Жалолиддинович, М. Э. (2022). Ассоунтинг оф фикед ассетс ассординг то ифрс-таскс анд солутионс фор тхе организатион оф ассоунтинг бй компонент партс. АСАДЕМИСИА: Ан Интернационал Мультидисциплинарй Ресеарч Жоурнал, 12(8), 53-60.
12. Исманов, И. Н. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ РАСЧЕТА ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ЗАТРАТ И СЕБЕСТОИМОСТИ ВЫПУСКАЕМОЙ ПРОДУКЦИИ. In Устойчивое развитие: анализ тенденций российской и мировой экономики (pp. 367-370).
13. Tohirovich, Q. N. (2024). The Role of Performance Assessment in the Personnel Management System. American Journal of Integrated STEM Education, 1(1), 43-51.
14. Хадиуллина, Г. Н. (2024). РАЗВИТИЕ ИСЛАМСКИХ ИНСТРУМЕНТОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ (СУКУК) В РОССИИ И ЗА РУБЕЖОМ. Международная торговля и торговая политика, 10(1), 81-93.
15. Исаев, О. Б. (2023). ВНЕДРЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРИ ИСЛАМСКОМ ФИНАНСИРОВАНИИ В УЗБЕКИСТАНЕ. QO 'QON UNIVERSITETI XAVARNOMASI, 1, 39-42.
16. Зарипов, И. А. (2014). Исламские тамойилы финансирования. Экспертное обсуждение в Ассоциации российских банков, 22.
17. Khatamovna, R. S. (2022). The Importance of Information about Cost Behavior to Increase Efficiency of Enterprise Management. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 4, 190-195.

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **LEGAL AND INSTITUTIONAL FRAMEWORKS FOR ATTRACTING FOREIGN DIRECT INVESTMENTS INTO THE ECONOMY OF UZBEKISTAN**

**Murtozaev Sardorbek**

PhD student, UWED

**Abstract.** The article demonstrates that Uzbekistan has established a comprehensive framework of legislation, alongside government institutions and organizations, aimed at actively attracting foreign investments and enhancing the investment environment, while also developing practical proposals and recommendations for further improving the legal environment and increasing the efficiency of government institutions and organizations.

**Key words:** foreign direct investment (FDI), investment climate, national investment legislation, government institutions.

## **O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIALARNI JALB QILISHNING HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI**

**Murtozayev Sardorbek Abdijalil o'g'li**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy va institutsional asoslari tahlil qilingan. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish va investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan qonunchilik hamda hukumat institutlari va tashkilotlarining keng qamrovli asoslari yaratilganligi asoslangan hamda huquqiy muhitning yanada takomillashtirish va hukumat institutlari va tashkilotlarining samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI), investitsion muhit, milliy investitsion qonunchilik, hukumat institutlari.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N13>

**Kirish.** Xorijiy investitsiyalar, xususan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) tobora zamonaviy global dunyoda iqtisodiy o'sish va rivojlanishning muhim omili bo'lib bormoqda. O'zaro bog'langan va raqobatbardosh global bozorda mamlakatlar o'rtasida yangi ish o'rinlarini yaratish, texnologiyalar transferi, infratuzilmani rivojlantirish va umumiy iqtisodiy farovonlik uchun katalizator sifatida qaralayotgan TTXIning jalb qilish uchun tinimsiz kurash davom etmoqda. TTXI shunchaki kapitaldan tashqari o'zi bilan mamlakatning iqtisodiy asoslarini sezilarli darajada mustahkamlashi mumkin bo'lgan bebaho bilim, ko'nikma va tajribani olib kelishi unga bo'lgan raqobatni kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Mamlakatlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun kurashayotganda, qulay investitsion muhitni ta'minlab

beruvchi mamlakatdagi shu sohani tartibga soluvchi qonunchilik hamda investitsiyalar uchun qulay muhitni yaratishning markazida iqtisodiy faoliyatni shakllantiruvchi siyosatni ishlab chiqish, amalga oshirish va tartibga solish vazifasi yuklangan hukumat muassasalari va tashkilotlarning ishlash samaradorligi ularning muvaffaqiyatining eng muhim omili bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish va investitsion muhitni rivojlantirishga qaratilgan qonunchilik hamda hukumat institutlari, tashkilotlari va platformalarining keng qamrovli asoslari yaratilgan.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish, tartibga solishning ilmiy-amaliy masalalari bo'yicha N. Oblamurodov [1], B. Valiyev [2], A. Kobilov, A. Vahobov va boshqalar chuqur izlanishlar olib borganlar. Mavjud tadqiqotlarda O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni jalb etish va ulardan samarali foydalanish, tartibga solishning ilmiy-amaliy masalalari batafsil o'rganilgan bo'lsada, O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy va institutsional asoslari yaxlit tarzda kompleks tahlil qilinmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolada tadqiqotning tahlil, sintez, abstraksiya, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, xulosa chiqarish kabi usullar qo'llanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Zamonaviy bozor iqtisodiyotida TTXI faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asos maxsus TTXI faoliyati uchun ishlab chiqilgan yoki TTXI bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi ko'plab qonunlar va tartibga soluvchi qoidalardan iborat bo'ladi. Xorijiy investorlar investitsion qarorlarni qabul qilayotgan ko'p hollarda mazkur qoidalar, investitsion siyosat va qonunchilik bazasini batafsil tahlil qiladi [3]. Misol uchun, Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligini faoliyatini belgilovchi qonun TTXI uchun maxsus ishlab chiqilgan qonun hisoblansa, mehnat qonunlari va atrof-muhit to'g'risidagi qonunlar TTXI va qabul qiluvchi mamlakatdagi xorijiy investorlarning xatti-harakatlariga bevosita ta'sir ko'rsatsa ham TTXI uchun maxsus ishlab chiqilgan qonunlar emas. Milliy huquqiy bazaga, shuningdek, xalqaro investitsiya shartnomalari va investitsiya qoidalarini o'z ichiga olgan savdo va keng qamrovli iqtisodiy hamkorlik shartnomalari kabi xalqaro huquqiy asoslardan kelib chiqadigan majburiyatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, TTXI faoliyatiga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi milliy qonunchilik bazasi uchun quyidagi qonunlar hisoblanadi:

- Investitsiyalar, jumladan xorijiy va TTXI faoliyatini tartibga soluvchi ("Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni);
- Intellektual mulk huquqi va uni tartibga soluvchi ("Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida", "Seleksiya yutuqlari to'g'risida" va "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari);
- Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida va uni tartibga soluvchi ("Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni);
- Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida ("Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni);
- Yer to'g'risidagi qonunchilik, unda egalik qilish va foydalanishni tartibga soluvchi (O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi);

- Mehnat to'g'risidagi qonunchilik ("Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni);
- Valyuta kursi to'g'risida ("Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni);
- Moliya va soliq sohasidagi qonunchilik (O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqalar);
- Bankrotlik to'g'risidagi qonunchilik ("Bankrotlik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni);
- Savdo qonunchiligi, eksport-import faoliyatini tartibga soluvchi qoidalar ("O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni);
- Raqobat to'g'risidagi qonunchilik ("Raqobat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni);
- Atrof-muhitni muhoza qilish to'g'risida qonunchilik ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni);
- Korporativ ijtimoiy mas'uliyat yoki mas'uliyatli biznes amaliyoti bilan bog'liq qonunchilik;
- Iqtisodiyotdagi turli sohalarni tartibga soluvchi qonunchilik;
- Muayyan masalalarni hal qiluvchi qonunlar: franchayzing, kichik va o'rta korxonalar, maxsus iqtisodiy zonalar, litsenziyalash, texnologiyalar transferi, xususiylashtirish, davlat-xususiy sheriklik, birlashish va qo'shib olish jarayonlari (M&A), sug'urta va boshqalar;
- Nizolarni hal qilish va huquqni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilik.

O'zbekiston Respublikasida chet ellik hamda mahalliy investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar va investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-noyabrdagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonuni bilan tartibga solinadi.

"Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunlarini o'ziga birlashtirgan investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi unifikatsiyalashgan qonun hisoblanadi.

Qonunda chet el investitsiyalarining huquqiy rejimi hamda chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining faoliyati belgilab berilgan.

Qonunda to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalariga chet ellik investorning hukumat kafolatsiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investitsiyalari sifatida ta'rif berilgan [4].

Shuningdek, mazkur qonunda investitsiyalarni va investitsiya faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha imtiyoz hamda preferensiyalar berish bo'yicha moddasida to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jalb qilgan holda tashkil etilgan va qonunchilik bilan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarishga (xizmatlar ko'rsatishga) ixtisoslashgan korxonalariga O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan tartibda alohida soliqlar yuzasidan imtiyozlar qo'llash ning o'ziga xos xususiyatlari nazarga tutilgan.


2017-yildan buyon O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni jadallashtirish va buning uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratilgan 23 ta yirik chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, yangi tahrirdagi "Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi, "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi hamda valyuta operatsiyalari bo'yicha yangi qoidalar amaliyotga joriy etildi.

Global iqtisodiyotning dinamik manzarasida investitsiya muhiti mamlakat farovonligi va uning iqtisodiy o'sish yo'nalishining hal qiluvchi omili hisoblanadi. Investitsiyalar uchun qulay muhitni yaratishning markazida iqtisodiy faoliyatni shakllantiruvchi siyosatni ishlab chiqish, amalga oshirish va tartibga solish vazifasi yuklangan hukumat muassasalari va tashkilotlari yotadi.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish va investitsion muhitni rivojlantirishga qaratilgan hukumat institutlari, tashkilotlari va platformalarining keng qamrovli asoslari yaratilgan.

1-rasm.

### Investitsion muhitga javobgar bo'lgan hukumat institutlari va tashkilotlari



*Manba: Muallif tomonidan tuzildi.*

Hukumat institutlari O'zbekistonni jozibador sarmoyaviy mamlakat sifatida targ'ib qiladi hamda turli manfaatdor tomonlar bilan hukumatlararo hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali investorlarga kerakli yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshiradi, investitsiya muhitini yaxshilash, tarmoq va hududlarning investitsiya salohiyatini rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoq va sohalariga investitsiyalar, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishni jadallashtirish, investitsiya loyihalarining samaradorligini ta'minlash bo'yicha faoliyat yuritadi [5].

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligining asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari [6]:

– mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarini hisobga olgan holda respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga, xorijiy investorlar uchun qulay

shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan yagona davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish;

– xorijiy investorlarni axborot bilan, huquqiy va boshqa tomondan qo'llab-quvvatlash, shuningdek davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy tadbirkorlar bilan investitsiya faoliyati sohasida o'zaro hamkorlikni tashkil etishda ularga ko'maklashish;

– xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi istiqbolli va amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari ma'lumotlarining axborot bazasini shakllantirish va yuritish, ularning amalga oshirilish holati ustidan doimiy monitoring olib borish;

– respublikaning iqtisodiy, resurs va investitsion salohiyatini keng targ'ib qilish va ilgari surishni, yaratilgan qulay shart-sharoitlar, xorijiy investorlarga beriladigan imtiyozlar, afzalliklar haqida chet el ishbilarmon doiralari orasida, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish ishlari olib borishni tashkil etish;

– O'zbekiston Respublikasining xalqaro ijobiy imijini shakllantirish va yuqori darajada ushlab turishga har tomonlama ko'maklashish.

Iqtisodiyot va Moliya vazirligi davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiyalar (DXSh va davlat tomonidan moliyalashtiriladigan boshqa infratuzilma loyihalari), risklarni boshqarish va ushbu turdagi loyihalar bo'yicha kafolat berish uchun javobgardir. Iqtisodiyot va Moliya vazirligi investitsiyalarni rejalashtirish va fiskal tartibga solish uchun ham javobgar hisoblanadi.

Hukumat tarkibidagi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi kabi turli vazirliklar tegishli ravishda qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi muayyan sohalarga e'tibor qaratadi. Ular sohaga oid loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi va sarmoya kiritish uchun qulay muhit yaratishga hissa qo'shadi.

Mamkakatda investitsion muhitni yaxshilash javobgar bo'lgan hukumatdan tashqari nodavlat notijorat tashkilot va assosatsiyalar ham mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi notijorat tashkilot sifatida tadbirkorlik sub'ektlari va uning a'zolariga jamiyatdagi aloqalarni mustahkamlash, investitsiyalarni jalb qilish va davlat organlari bilan o'zaro hamkorlikni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi hamda o'z a'zolarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qiladi.

Shuningdek, mamlakatda faoliyat yuritayotgan 50 dan ortiq sanoat birlashmalari o'z a'zolariga biznesni tashkil etish va yuritishning barcha bosqichlarida yordam berish uchun mavjuddir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi maslahat organi hisoblangan Xorijiy investorlar kengashining mamlakat sarmoyaviy muhitini yaxshilashda ahamiyati yuqori. Mazkur kengashning maqsadi – O'zbekistonda qulay, kamsitmaydigan, oshkora va konstruktiv ishbilarmonlik muhitini yana-da rivojlantirish, bu esa investitsiyalarni, birinchi navbatda, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, O'zbekiston Respublikasi davlat organlari va xalqaro moliya institutlari, xorijiy kompaniyalar, banklar, investitsiyalar va boshqa vakillar o'rtasidagi ochiq va konstruktiv muloqot orqali yordam beradi [7]. Bunday institutsional tuzilmaning mavjudligi investitsiyalarni jalb qilgandan keyin yuzaga keladigan muammolarni hal etishda juda muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi diplomatik va konsullik vakolatxonalari chet elda sarmoyaviy imkoniyatlarni ilgari surish va xorijiy investorlar va mahalliy manfaatdor tomonlar o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'yishda muhim rol o'ynaydi.

Biznes-ombudsman zimmasiga tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish vazifasi yuklatilgan. Ular siyosatni ishlab chiqishda ishtirok etadilar, me'yoriy-huquqiy hujjatlarning samaradorligini baholaydilar, biznesni huquqiy qo'llab-quvvatlaydilar va nazorat qiluvchi organlarning harakatlarini nazorat qiladilar.

Umuman olganda, hukumat institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va boshqa qo'llab-quvvatlovchi institutlarning ushbu tarmog'i O'zbekistonning jozibador investitsiya muhitini yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va xususiy sektor o'sishini qo'llab-quvvatlashga bo'lgan kuchli intilishini ko'rsatadi. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish va qulay ishbilarmonlik muhitini ta'minlash uchun ushbu sub'ektlar o'rtasida samarali hamkorlik va faoliyatni muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa.** O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni, jumladan TTXI faol jalb qilishda qulay investitsion muhitni ta'minlab beruvchi mamlakatdagi shu sohani tartibga soluvchi qonunchilik hamda investitsiyalar uchun qulay muhitni yaratish bo'yicha siyosatni ishlab chiqish, amalga oshirish va tartibga solish vazifasi yuklangan hukumat muassasalari va tashkilotlarning ishlash samaradorligi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish va investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan qonunchilik hamda hukumat institutlari, tashkilotlari va platformalarining keng qamrovli asoslari yaratilgan.

Shunga qaramasdan, huquqiy muhitning bashoratligi va shaffofligini ta'minlash uchun keyingi islohotlarni amalga oshirish zarur. Xususan, "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunlarini o'ziga birlashtirgan investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi unifikatsiyalashgan O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-noyabrdagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonuni ishlab chiqilganiga qaramasdan, bugungi kunda TTXI faoliyati tartibini belgilovchi boshqa qonun hujjatlari saqlanib qolgan. Shuningdek, mazkur qonun xalqaro qonunchilik standartlari asosida investor huquqlari va kafolatlarni himoya qilish hamda mamlakat ratifikatsiya qilgan ikki tomonlama investitsiya kelishuvlari (BIA) va xalqaro investitsiya shartnomalariga (IIA) muvofiqlashtirish uchun takomillashtirilishi maqsadga muvofiq. Investitsion kelishuvlarni tuzishning zamonaviy standartlariga javob beradigan yangi ikki tomonlama investitsiya kelishuvlari BIS modelini ishlab chiqish va rasmiy qabul qilish muhimdir.

Shuningdek, TTXI faol jalb qilish hamda O'zbekistonni keng xorijiy investorlar oldida jozibali makon sifatida targ'ib qilish uchun mamlakatning o'ziga xos afzalliklari va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish maqsadlariga mos keladigan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar strategiyasi ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Huquqiy va tartibga solish jarayonlarida, xususan, qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilish va ulardan foydalanish, jamoatchilik bilan maslahatlashish jarayonlari samaradorligini oshirishda shaffoflikni oshirish zarur. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) onlayn portali hamda tegishli vazirlik va idoralarning rasmiy saytlarida ko'plab qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar bo'yicha ma'lumot taqdim etsa-da, investorlar uchun muhim bo'lgan qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlarning ingliz tilidagi tarjimalarini taqdim etishga kamchiliklar saqlanib qolgan. Shunga ko'ra, barcha qonun va normativ-huquqiy hujjatlarning ingliz tiliga

tarjimasi ham joylashtirilishi investorlar uchun mamlakatdagi investitsion muhitni tezroq baholashda va qaror qabul qilishida muhim ahamiyat kasb etardi.

ТТХИ faol jalb qilishga intilayotgan hukumatlar Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi tomonidan taklif etilayotgan xizmatlarni xorijlik investorlarga samarali va ishonchli tarzda yetkazishi zarur. Ma'lumotlarni taqdim etish, faoliyatni boshlash uchun ko'maklashish, mamlakatning nisbiy ustunliklarini ko'rsata olish hamda uni keng global investorlar oldida marketing qilish singari investitsiyalarni kiritishdan oldingi bosqichdagi xizmatlar hamda mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitini tobora yaxshilab borish, operatsion muammolar va shikoyatlarni samarali hal qilib berish, investorlar uchun personallashtirilgan xizmatlarni taqdim etish singari investitsiyalar kiritilganidan keyingi xizmatlarni har doim yaxshilab va investorlarning ehtiyojlariga moslashtirib borish juda muhim hisoblanadi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Обломуродов Н. Н. Тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилишнинг назарий асослари ва устувор йўналишлари: Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2008. 14 б.
2. Валиев Б. Б. Миллий иқтисодиётнинг барқарор ривожланишини таъминлашда тўғридан-тўғри хорижий инвестициялардан фойдаланиш самарадорлигини ошириш: Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент, 2017. 23-24 б.
3. Shin, Hi-Taek, and Julie A. Kim. "Balancing the domestic regulatory need to control the inflow of foreign direct investment against international treaty commitments: A policy-oriented study of the Korean Foreign Investment Promotion Act and the Korea-US FTA." *Asia Pacific Law Review* 19.2 (2011): 177-194.
4. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-noyabrdagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonuni, <https://lex.uz/docs/-4664142>
5. <https://gov.uz/miit/sections/vazirlik-haqida/view/7580/>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" qarori, 24.07.2019 yildagi 621-son, <https://lex.uz/docs/-4438435#-4439103>
7. <https://miit.uz/oz/foreign-investors>



**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **FACILITIES FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THEIR TERRITORIES AND OPPORTUNITIES TO USE THEM**

**Umarov Abdurahob Tursunovich,**

Dean of the Faculty of Economics, National University of Uzbekistan, Ph.D., Associate Professor

**Abstract.** The article discusses the relevance of sustainable development of the country's regions and its levers. The economic views of economists on sustainable development based on the use of the region's potential are analyzed. The dynamics of the size of protected areas in the regions of the country is analyzed. The level of investment activity in the regions of Uzbekistan was also assessed and problems in attracting investment were identified. Based on the research results, scientific proposals and recommendations were developed.

**Key words:** region, sustainable development, regional potential, territory, protected area, investment.

## **ЎДУДЛАРИНИ БАЎҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШ ДАСТАКЛАРИ ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ**

**Умаров Абдувахоб Турсунович**

Ўзбекистон Миллий университети, Иқтисодий факультети декани, и.ф.н., доцент

**Аннотация.** Мақолада мамлакат ҳудудларини барқарор ривожлантириш долзарблиги, унинг дастаклари ўрганилган. Иқтисодчи олимларнинг минтақа салоҳиятидан фойдаланиш асосида барқарор ривожлантириш бўйича иқтисодий қарашлари таҳлил қилинган. Ўзбекистонда ҳудудларни барқарор ривожлантириш дастаклари ва улардан фойдаланиш ҳолати баҳоланган. Мамлакатни вилоятлари кесимида муҳофаза қилинадиган ҳудудлар ҳажмини динамикаси таҳлил қилинган. Шунингдек, Ўзбекистон ҳудудларининг инвестицион фаоллик даражаси баҳоланган ҳамда инвестицияларни жалб қилишдаги муаммолар аниқланди. Тадқиқот натижалари бўйича илмий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** Минтақа, барқарор ривожланиш, минтақа салоҳияти, ҳудуд, муҳофаза ҳудуди, инвестиция.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N14>

**Кириш.** Ўзбекистоннинг ҳар бир минтақани ўзига хос ижтимоий-иқтисодий, табиий-иқлимий шароитларга эга бўлиб, уларнинг ҳеч бири бир бирига деярли ўхшамайди. Шу сабабли сўнгги йилларда мамлакатимизда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохотлар ҳар бир минтақа кесимида манзилли тарзда муҳокама қилиниб, уларни амалга ошириш бўйича минтақавий дастурлар ишлаб чиқиб келинмоқда.

Янги Ўзбекистон шароитида мамлакатимиз иқтисодиётини барқарор ривожлантиришда ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан жадал ривожлантиришга устуворлик қаратилиб келинмоқда. Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегиясида "2022-2026 йилга мўлжалланган ҳудудларни комплекс ижтимоий-иқтисодий

ривожлантириш бўйича дастурлар асосида ҳар йили барча туман ва шаҳарнинг муаммо ва имкониятларини чуқур ўрганган ҳолда ҳудудлар кесимида тараққиёт дастурлари ишлаб чиқиш”[3] вазифасининг белгиланганлиги, кейинги йилларда ҳам мамлакатимиз иқтисодиётини барқарор ривожлантиришда ҳудудий ислоҳот дастурларига устуворлик қаратилишидан далолат беради.

**Тадқиқот усуллари.** Тадқиқот жараёнида гуруҳлаш, тизимли ёндашув, назарий ва амалий ўрганиш, анализ ва синтез, қиёсий таҳлил каби усуллардан фойдаланилган.

**Адабиётлар таҳлили.** А.И. Гаврилов[8] минтақа иқтисодий салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигига таъсир кўрсатувчи омилларни бозор, рақобат ва ишлаб чиқариш омиллари гуруҳини ажратиб кўрсатган бўлса, Н.И. Лапин ва Л.А. Беляевалар[9] эса анъанавий ва аттрактив (жалб қилувчи) омиллар гуруҳини ажратиб ўтишган. Минтақа иқтисодий салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигига таъсир кўрсатувчи бозор омиллари бу бозор конъюнктураси билан боғлиқ бўлган омиллар ҳисобланса, рақобат ишлаб чиқарилаётган маҳсулотнинг рақобатбардошлиги кўрсаткичига таъсир кўрсатувчи, ишлаб чиқариш эса маҳсулот ишлаб чиқариш жараёнлари ва уни ташкил этиш билан боғлиқ бўлган омиллардан иборат бўлади. Жумладан, анъанавий омиллар бу минтақанинг бошқа бир минтақага нисбатан рақобатбардошлик кўрсаткичини оширишга таъсир кўрсатувчи омиллар бўлса, минтақанинг бошқа бир минтақага нисбатан фарқли жиҳатлари, унинг афзалликлари аттрактив (жалб қилувчи) омиллар ҳисобланади.

Шу билан биргаликда, Н.А. Чижова ўз тадқиқотларида минтақа иқтисодий салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигига таъсир қилувчи омилларни таъсир доирасига кўра, “қаттиқ” ва “юмшоқ” омилларга ажратиб ўтган[10].

Иқтисодий адабиётда минтақа иқтисодий салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигига таъсир этувчи омиллар турли ёндашувлар асосида таҳлил қилинган. Жумладан, М.Н. Руденко фикрича, минтақа иқтисодий салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлиги тадқиқот объекти билан боғлиқ ҳолда эмас, балки комплекс ҳолда тадқиқ этилиши лозим. Чунки ҳар қандай омиллар минтақа иқтисодий салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигига маълум бир даражада ўз таъсирини ўтказиш хусусиятига эга ҳисобланади[11].

**Таҳлил ва натижалар.** Сўнгги йилларда мамлакатимизда ҳудудларни барқарор ривожланишини таъминлашда уларнинг молиявий мустақиллиги ва барқарорлигини таъминлашга устуворлик қаратилинмоқда. Жумладан, экологик вазият мураккаб бўлган, ривожланиш даражаси бошқа ҳудудларга нисбатан паст бўлган ҳудудларни давлат томонидан молиявий қўллаб-қувватлашнинг манзиллилигини ошириш, ҳудудларни комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожланишини таъминлашда ҳудудий инвестицион дастурлар самарадорлигини ошириш ҳудудларни барқарор ривожлантиришнинг муҳим дастаклари ҳисобланмоқда.

1-жадвал

**Ўзбекистонда ҳудудларни барқарор ривожлантириш дастаклари ва улардан фойдаланиш ҳолати[12]**

№	Давлат томонидан тартибга солиш дастаклари	Йиллар		2022-2026 йй.
		1991-2016	2017-2021	

<b>Молиявий-иқтисодий</b>				
1	Бюджет-солиқ сиёсатини амалга ошириш	+++	++	+
2	Инвестиция дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш	++	+++	+++
3	Экологик вазият мураккаб, ривожланиш даражаси паст ҳудудларни қўллаб-қувватлаш	+	++	+++
<b>Ташкилий-ҳуқуқий</b>				
4	Ҳудудий дастурларни қабул қилиш	+	+++	++
5	Ҳудудий ривожланиш концепцияси ва стратегияларини қабул қилиш	-	+	++
6	Махсус зоналар ташкил этиш	+	+++	+++
7	Кластерлар ташкил этиш	-	++	+++
8	Ҳудудий бошқарув тизимида институционал ўзгаришларни амалга ошириш	+	+++	+++
<b>Маҳаллий давлат бошқарув органларининг роли</b>				
9	Маҳаллий ҳокимиятлар фаолияти самарадорлигини ошириш	+	++	+++
10	Маҳаллий бюджетларнинг даромад базасини мустаҳкамлаш, хорижий инвестицияларни жалб қилишда ваколатларни кенгайтириш	-	++	+++
11	Ҳудудий ривожланиш дастурларини маҳаллий ҳокимликлар томонидан тасдиқлаш	+	+	+++
Изоҳ: фойдаланилганлик даражаси				
“-“ – фойдаланилмаган;		“+” – паст даражада;		
“++” – ўрта даражада		“+++” – юқори даражада		

Шу билан биргаликда, хорижий инвестицияларни жалб қилишда маҳаллий ҳокимликларнинг ролини ошириш, ишлаб чиқилган ҳудудий ривожланиш дастурлари ва стратегияларига мувофиқ ҳудудлар иқтисодиёти тармоқларини кластеризациялаш, уларда махсус иқтисодий ҳудудларни ташкил этиш орқали ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан комплекс ривожланишни таъминлаш сўнгги йилларда мамлакатимизда устувор аҳамиятга эга бўлган ислоҳот йўналишлари сифатида баҳоланмоқда (1-жадвал).

1-жадвал маълумотлари таҳлили кўрсатишича, мамлакатимизда ҳудудларни барқарор ривожлантиришда давлат турли дастаклардан фойдаланиб келмоқда. Ушбу дастаклардан фойдаланиш даражаси йилдан-йилга ортиб, ҳудудлар барқарор ривожланишини таъминлашга қаратилган давлат дастурларининг манзиллилигини ошириш имконини бермоқда.

Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг “Махсус иқтисодий зоналар тўғрисида”ги Қонуни[1]нинг қабул қилиниши ҳудудларда махсус зоналар фаолиятини

тубдан такомиллаштириш имконини берди. Ушбу қонунни амалиётга жорий этилиши натижасида мамлакатимиз ҳудудларида жойлашган эркин иқтисодий зоналарда умумий қиймати 2,6 млрд. долл.лик жами 453 та лойиҳа амалга оширилиб, 36 мингга яқин янги иш ўринлари яратилди. Шу билан биргаликда, кичик саноат зоналарида умумий ҳажми 5,0 трлн. сўмлик 1 497 та лойиҳа ишга туширилиб, 36 мингдан зиёд аҳолининг бандлиги таъминланди[7]. Мамлакатимизда бу турдаги ҳудудларни барқарор ривожлантиришга қаратилган ислоҳотларни амалга оширилиши вилоятларда тадбиркорлик ташаббуслари ва лойиҳаларини жадал амалга оширишни ташкил этиш, аҳоли билан мулоқот тизимини йўлга қўйиш, аҳоли турмуш даражаси ва бандлигини ошириш, ҳудудларни жадал ва комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни таъминлаш имконини берди.

Сўнгги йилларда мамлакатда ҳудудлар иқтисодиётини барқарор ривожлантиришга қаратилган кенг қўламли давлат дастурларини амалга оширилиши ўз навбатида уларнинг самарадорлик кўрсаткичларини баҳолаш заруриятини вужудга келтирди. Шунингдек, мамлакатда ҳудудларни барқарор ривожлантиришнинг ҳозирги ҳолатини аниқлаш орқали ўрта ва узоқ муддатли истиқболга мўлжалланган мақсадли давлат ва ҳудудий дастурларни ишлаб чиқиб, уларни зудлик билан амалга ошириш, соҳада юзага келаётган ижтимоий-иқтисодий муаммоларни бартараф этишнинг таъсирчан механизми шаклланмаганлиги ҳам ҳудудлар кесимида барқарор ривожланиш кўрсаткичлари самарадорлигини баҳолаш тизимини жорий этиш лозимлигидан далолат беради.

Шу сабабли мамлакатда ҳудудларни барқарор ва жадал ривожлантириш учун уларнинг комплекс ва мутаносиб ижтимоий-иқтисодий ривожланишини, табиий хом ашё ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини, иқтисодий ва инвестициявий салоҳиятини, шунингдек, ҳудудларнинг бошқа қиёсий устунликларини баҳолашнинг ягона тизими жорий жорий этилди. Мамлакатимизда ҳудудларни барқарор ривожлантириш самарадорлигини баҳолашга қаратилган давлат дастурлари самарадорлиги “Рейтинг кўрсаткичлари асосида ҳудудлар ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасини баҳолаш тартиби тўғрисида”ги Низомга асосланган ҳолда баҳоланади. Унга кўра, мамлакатда ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг рейтинги статистик кўрсаткичлари ва сўровномалар натижалари асосида баҳоланиб, қуйидаги йўналишларни қамраб олади:

- барқарор ва мутаносиб иқтисодий тараққиётни таъминлаш, иқтисодий ислоҳотлар самарадорлиги;
- янги иш ўринлари яратиш, ишсизликни камайтириш ва меҳнат бозори самарадорлигини таъминлаш;
- ижтимоий хизматлардан фойдаланиш имкониятларини ошириш ва аҳоли турмуш сифатини яхшилаш;
- аҳоли ва бизнес учун зарур шарт-шароитлар яратиш, ишлаб чиқариш инфратузилмасининг барқарорлиги ҳамда ишончилигини таъминлаш;
- ҳудудларнинг рақобатбардошлик даражасини ошириш, уларнинг иқтисодиётини янада диверсификация қилиш;
- ишбилармонлик муҳити сифатини яхшилаш, тадбиркорликни доимий қўллаб-қувватлаш ва жадал ривожлантириш;

- ҳудудларнинг молиявий мустақиллигига эришиш ҳамда банк-молия соҳасини ривожлантириш;

- маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг фуқаролар мурожаатлари билан ишлаш самарадорлиги ва маълумотларнинг очиқлигини ошириш[6].

Ушбу Низомга кўра, “рейтинг кўрсаткичлари – ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даражасини баҳолаш учун фойдаланиладиган сифат ва миқдор кўрсаткичлари ҳамда сўровлар натижалари тизими”[6] ҳисобланса, “рейтинг эса - рейтинг кўрсаткичлари бўйича ижтимоий-иқтисодий ривожланиш ҳолатини баҳолаш орқали ҳудудларнинг рейтинг ўрнини аниқлаш”[6] ни англатади. Низомга мувофиқ, ҳудудларни ижтимоий-иқтисодий ривожланиш ҳолати рейтингини баҳолашда зарур бўладиган кўрсаткичларни шакллантириш қуйидаги икки босқичда амалга оширилади:

биринчи босқичда – ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиш ҳолатини баҳолаш учун статистик кўрсаткичлар асосида баҳоланадиган қуйидаги саккизта устувор йўналиш белгиланади:

- иқтисодий ривожланиш ва самарадорлик;

- меҳнат бозори самарадорлиги;

- ижтимоий хизматлардан фойдаланиш имконияти ва сифати;

- инфратузилмадан фойдаланиш имконияти ва унинг ривожланганлиги;

- иқтисодиётнинг рақобатбардошлиги ва диверсификация қилинганлиги;

- ишбилармонлик муҳити сифати ва тадбиркорликни ривожлантириш;

- молиявий мустақиллик, банк-молия соҳасининг ривожланиши;

- маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг фуқаролар мурожаатлари билан ишлаш самарадорлиги ва маълумотларнинг очиқлиги;

иккинчи босқичда эса, Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар, Тошкент шаҳри, туманлар ва шаҳарлардаги ижтимоий-иқтисодий аҳвол тасдиқланган методология асосида қуйидагиларни аниқлаш мақсадида алоҳида сўровлар ўтказиш орқали баҳоланади:

- аҳолининг ижтимоий ўзини ҳис этиши ва турмуш сифати;

- тадбиркорлар ва инвесторлар учун ишбилармонлик муҳитининг ҳолати;

- жамиятнинг ислохотларга ишончи даражаси ҳамда давлат бошқаруви ва маҳаллий ҳокимият институтларининг сифати[6].

Ҳудудларни барқарор ривожлантириш мақсадида амалга оширилаётган ислохотларда қишлоқ хўжалиги салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини оширишга ҳам устуворлик қаратилиб келинмоқда. Жумладан, 2017-2021 йилларда қишлоқ хўжалиги соҳасида амалга оширилган мақсадли давлат дастурларида соҳага инновацияларни жорий этишни рағбатлантириш, қишлоқ хўжалигида юқори қўшилган қийматни яратиш имконини берувчи агрокластерлар фаолиятини ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга бўлди. Амалга оширилган ислохотлар натижасида 2017-2021 йилларда ҳудудлар қишлоқ хўжалиги соҳасида 400 тадан ортиқ замонавий агрокластерлар фаолияти йўлга қўйилди.

Республиканинг экологик вазияти мураккаб ва ривожланишдан ортда қолган ҳудудларини барқарор ривожланишини таъминлашда уларга қўшимча молиявий ресурслар ажратиш, мазкур ҳудудларда яшаётган аҳоли учун турли имтиёзлар тақдим этишга устуворлик қаратилди. Жумладан, мамлакатимизнинг иқлим ва экологик

вазияти мураккаб ҳисобланган Қорақалпоғистон Республикаси ва Хоразм вилоятларида истиқомат қилувчи аҳолининг турмуш фаровонлигини яхшилашга қаратилган 2017-2021 йилларга мўлжалланган Оролбўйи минтақасини ривожлантириш дастурининг қабул қилиниши натижасида, ҳудудларга инвестициялар жалб қилиш, янги иш ўринлари яратиш, сув таъминоти тармоқларини янгидан қуриш, уларни модернизациялаш, тиббий хизматлар сифати ва қамров даражасини ошириш, аҳоли учун арзон уй-жойлар қуриш, аҳоли яшаш пунктларини зарур инфратузилма билан таъминлаш каби ислохот дастурларига устуворлик қаратилди[4]. Шу билан биргаликда, Оролбўйи минтақасидаги мазкур ҳудудларни барқарор ривожланишини таъминлаш мақсадида амалга оширилаётган давлат дастурини молиялаштириш учун 2021 йилда давлат бюджети ҳисобидан 200 млрд. сўм, ҳудудларда тиббий хизматлар сифати ва қамров даражаси ошириш, маҳаллий аҳолининг генофондини асраш учун 14 млрд. сўм маблағ ажратилган[2].

## 2-жадвал

### Ўзбекистон вилоятлари кесимида муҳофаза қилинадиган ҳудудлар ҳажми, минг гектарда[15]

Ҳудудлар	2011 й	2016 й	2022 й	Ўзгариш +/-
<b>Ўзбекистон Республикаси</b>	<b>823,2</b>	<b>885,5</b>	<b>1570,6</b>	<b>747,4</b>
Қорақалпоғистон Республикаси	6,5	68,7	700,2	693,7
Андижон	0	0	0	-
Бухоро	16,5	16,5	16,5	-
Жиззах	68,5	68,5	68,5	-
Қашқадарё	84,9	84,9	84,9	-
Навоий	0	0	0	-
Наманган	0	0	0	-
Самарқанд	2,4	2,4	2,4	-
Сурхондарё	23,8	23,8	23,8	-
Сирдарё	0	0	0	-
Тошкент	610,3	610,4	642,3	32,0
Фарғона	0	0	0	-
Хоразм	10,3	10,3	32	21,7
Тошкент ш.	0	0	0	-

Таҳлилларга кўра, Оролбўйи минтақасида муҳофаза қилинадиган ҳудудлар ҳажми ортиб бормоқда. Жумладан, Қорақалпоғистон Республикасида бу турдаги ҳудудларнинг ҳажми Орол дарёсининг қуриб бораётганлиги сабабли йилдан йилга жадал ортиб, 2011 йилда 6,5 минг гектарга тенг бўлган бўлса, 2022 йилга келиб бундай ҳудудлар ҳажми 700,2 минг гектарни ташкил этди. Ўрганилаётган даврда Хоразм вилоятида муҳофаза қилинадиган табиий ҳудудлар ҳажми 3,1 марта ортиб, мос равишда 10,3 минг гектардан 32,0 минг гектарга етганлигини кузатишимиз мумкин бўлади.

Шуни ҳам таъкидлаб ўтиш жоизки, Андижон, Навоий, Наманган, Сирдарё, Фарғона вилоятлари ва Тошкент шаҳрида муҳофаза қилинадиган ҳудудлар мавжуд эмас (2-жадвал).

Ўзбекистон, жумладан, унинг ҳудудларини барқарор ривожланиш кўрсаткичларига эришишида инвестициялар муҳим аҳамият касб этади. Мамлакатимизнинг инвестицион жозибadorлиги унинг халқаро рейтинглардаги ўрни билан баҳоланади. Ўзбекистон бизнес юритиш осон бўлган мамлакатлар рейтингда 69 ўринни, бизнесда солиқ юкмаси рейтингда 12 ўринни, қонун устуворлиги рейтингда эса 7 ўринни эгаллайди[9]. Ушбу ҳолат мамлакатимизнинг инвестицион жозибadorлигини йилдан йилга яхшиланиб бораётганлигидан далолат беради.

Мамлакатимиз ҳудудларини барқарор ривожланишини таъминлашга қаратилган инвестиция дастурлари ҳудудлардаги ижтимоий ва бозор инфратузилмасини ривожлантириш, ушбу соҳадаги мавжуд муаммоларни самарали ҳал этиш, ишлаб чиқариш инфратузилмаларини мақсадли ривожлантириш, аҳолини тоза ичимлик суви билан таъминлаш, канализация тармоқларини таъмирлаш ва қуриш, мелиорация объектларини таъмирлаш каби устувор йўналишларда[5] амалга оширилиб келинмоқда.



### 3-расм. Ўзбекистон ҳудудларининг инвестицион фаоллик даражаси (коэффициентлар 0-1 шкалада)[14]

Ҳудудлар иқтисодиётига жалб этилган инвестицияларнинг ҳажми ва улардан фойдаланиш самарadorлиги кўрсаткичларига асосланган инвестицион фаоллик даражаси маълумотлари таҳлиliga кўра, 2017-2021 йилларда Қорақалпоғистон Республикаси, Тошкент шаҳри, Бухоро, Қашқадарё вилоятларининг инвестицион фаоллик даражаси бошқа ҳудудларга нисбатан юқори бўлганлиги аниқланди (3-расм).

Сўнгги беш йил ичида ўсиш суръатларини кўрадиган бўлсак, 2019 йилда 138,1 % га етган, 2020 йилда турғун ҳолатда бўлган – 95,6 % ни ташкил этган, 2021 йилда кўпайиб – 102,9 % кузатилди, ҳозирги давргача яна ўсиш тенденциясига эга бўлиб – 122,1 % ни ташкил этди. 2023 йилнинг январь-декабрь ойларида жами инвестициялар ҳажмида, марказлашган молиялаштириш манбалари ҳисобидан молиялаштирилган асосий капиталга инвестицияларнинг улуши, 2022 йилга нисбатан 3,0 % пунктга камайиб, 12,7 % ни ёки 44,8 трлн. сўмни ташкил этди. Мос равишда, марказлашмаган молиялаштириш манбалари ҳисобидан 307,3 трлн. сўм ёки жами инвестицияларнинг 87,3 % инвестициялари ўзлаштирилиб, 2022 йилга нисбатан 3,0 % пунктга кўпайди.

Худудлар кесимида асосий капиталга инвестициялар ўзлаштирилиши бўйича ўтган йилнинг мос даврига нисбатан энг юқори ўсиш суръати 148,8 % ни қайд этиб, Жиззах вилоятида кузатилди. Ушбу натижани автомобил ишлаб чиқаришини ташкил этиш, базальтдан минерал плиталар ишлаб чиқариш, 220 МВт қувватли қуёш электростанцияси қурилиши каби йирик лойиҳаларга инвестицияларни ўзлаштириш билан изоҳлаш мумкин. Шунингдек, Сурхондарё вилоятида ҳам юқори ўсиш суръати кузатилиб, 2022 йилга нисбатан 145,4 % ни ташкил қилди.

Бу ҳудудда “Мустақилликнинг 25 йиллиги” конида геология-қидирув ишларини амалга ошириш ва маҳсулотни тақсимлашга оид битим асосида конни ўзлаштириш, газ-кимё комплекси қурилиши ва қуввати 457 МВт бўлган қуёш электр станцияси қурилиши каби йирик инвестиция лойиҳалари амалга оширилмоқда. Навоий вилоятида асосий капиталга инвестициялар ҳажмининг 2022 йилга нисбатан 133,6 % га ўсиши, авваламбор қуввати 500 МВт бўлган шамол электр станцияси қурилиши, олтин конларини қайта ишлаш ва қазиб чиқариш мажмуаси қурилиши билан боғлиқ. 2023 йилнинг январь-декабрь ойларида жами асосий капиталга ўзлаштирилган инвестицияларнинг асосий қисми, яъни 55,7 % и республиканинг беш ҳудудида, жумладан, Тошкент шаҳрида – 19,3 %, Тошкент вилоятида – 12,6 %, Самарқанд вилоятида – 7,6 %, Бухоро вилоятида – 8,9 % ҳамда Навоий вилоятида – 7,3 % инвестициялар ўзлаштирилди. 2023 йилнинг январь-декабрь ойларида аҳоли жон бошига ҳисобланган асосий капиталга ўзлаштирилган инвестициялар ҳажми бўйича юқори кўрсаткичлар Навоий вилоятида – 24 278,9 минг сўм (ёки 2022 йилга нисбатан таққослаганда – 131,0 %), Тошкент шаҳрида – 22 644,8 минг сўм (ёки 107,2 %) ва Сирдарё вилоятида – 16 954,7 минг сўм (ёки 111,6 %) миқдорида қайд этилди[15].

Бугунги кунда мамлакатимиз ҳудудларига инвестицияларни жалб қилишда қуйидаги муаммолар мавжудлиги аниқланди:

- ҳудудларда ёқилғи-энергетика таъминоти инфратузилмасининг ривожланиши ҳолатидаги муаммолар;

- ҳудудларда юқори малакали кадрлар, жумладан, тадбиркорлик субъектларининг етарли даражадаги билим, кўникма ва малакаларга эга эмаслиги;

- банк-молия ва суғурта тизимининг тўлиқ бозор иқтисодиёти талабларига мос эмаслиги.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, республикамиз ҳудудларида амалга оширилаётган ҳудудларни барқарор ривожлантириш дастурлари бугунги кунда ўз самарасини кўрсатмоқда. Жумладан, кейинги йилларда ҳудудларни барқарор ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган давлат дастурларини ишлаб чиқиш ва уларни амалга оширилишида махсус зоналар, кластерлар, инновацион саноат тармоқлари, ақлли қишлоқ хўжалиги фаолиятини рағбатлантиришга устуворлик қаратилиши мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз. Бу орқали узоқ муддатли истиқболда республикамиз ҳудудларини барқарор ривожлантириш бўйича кўзланган стратегик мақсадларга ўз муддатидан илгари эришиш имкониятлари яратилади.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Махсус иқтисодий зоналар тўғрисида”ги ЎРҚ-604-сонли Қонуни. 17.02.2020 й. <https://lex.uz/docs/4737511>



2. Ўзбекистон Республикасининг “2021 йил учун Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети тўғрисида”ги ЎРҚ-657-сонли Қонуни. 25.12.2020 й. <https://lex.uz/docs/5186044>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон фармони, 28.01.2022 й. <https://lex.uz/docs/5841063>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021 йилларда Оролбўйи минтақасини ривожлантириш давлат дастури тўғрисида”ги ПҚ-2731-сон қарори. 18.01.2017 й. <https://lex.uz/docs/3099705>
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг 2019 йилга мўлжалланган инвестиция дастурларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4067-сонли қарори. 19.12.2018 й. <https://lex.uz/docs/4117465>
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Худудларни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришни рейтинг баҳолаш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПҚ-4702-сон қарорига 1-илова, 01.05.2020 й. <https://lex.uz/docs/4803531>
7. Президент Ш.М. Мирзиёев бошчилигида эркин иқтисодий зоналар ва кичик саноат зоналарида амалга оширилаётган инвестиция лойиҳалари муҳокамаси юзасидан ўтказилган йиғилиш материаллари. 27.04.2021 й. <https://president.uz/uz/lists/view/4308>
8. Гаврилов А.И. Региональная экономика и управление. – М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2002. – 239 с.
9. Лапин Н.И., Беляева Л.А. Регионы в России: социокультурные портреты регионов в общероссийском контексте. / Монография. – М.: Academia, 2009. – 807 с.
10. Чижова Н.А. К вопросу о социально-экономическом потенциале региона: теоретический аспект // Вестник Алтайского государственного аграрного университета. – 2013. – с. 109-112
11. Руденко М.Н. Классификация факторов развития и реализация экономического потенциала регионов с позиции социокультурного подхода. Российское предпринимательство. Том 18, № 15, август 2017. – с. 2215-2230.
12. Содиков А.М., Отабоев Ш. Худудлар ривожланишини давлат томонидан тартибга солиш (Ўзбекистон мисолида). Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar. № 7-8. Ноябрь-Декабрь 2020. б. 8-17.
13. Ўзбекистонга инвестиция киритиш нима учун керак? Ўзбекистон Республикаси инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги хузуридаги Хорижий инвестицияларни жалб этиш агентлиги <http://invest.gov.uz/uz>
14. Валиев Б.Б. Ўзбекистонда худудлар иқтисодиётини барқарор ривожлантиришда инвестиция салоҳиятини ошириш механизми. Иқт. фан. док. (DSc) дисс. автореф. Тошкент – 2021 й. 80 б. маълумотлари асосида тузилган
15. Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Статистика агентлигининг “Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий ҳолати” 2023 йил январь-декабрь. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

**09.00.00-FALSAFA FANLARI – PHILOSOPHICAL SCIENCES**

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

**DYNAMICS OF PHILOSOPHICAL VIEWS ON THE ANTHROPIC PRINCIPLE**

**Jumanyozova Sabohat Bekturdiyevna**

Leading specialist of the Republican Center for Spirituality and Enlightenment  
Free candidate of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

**Abstract.** The anthropic principle studies the interdependence of man and the universe. Philosophical aspects of the relationship between man and the universe are widely covered. It describes the essence of man and the universe, several interpretations of the anthropic principle, the dynamics of philosophical views, the process of transition from the cosmogonic anthropic principle to religious views, the philosophers who created in that period and their scientific heritage. The anthropic principle is an analysis of the essence of the philosophical concept related to the fact that the universe is organized in a form suitable for the emergence of life.

**Key words:** Anthropic principle, dynamics, cosmology, concept, creator, necessity, randomness, nature, ethnogenesis, value, universe, universe and man, theory of relativity, gravitation, time.

**ANTROP TAMOYIL HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARNING DINAMIKASI**

**Jumaniyozova Sabohat Bekturdiyevna**

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi yetakchi mutahasisi  
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti erkin izlanuvchisi

**Annotatsiya.** Antropik printsip inson va koinotning o'zaro bir-biriga bog'liqligini o'rganadi. Inson va olam mutanosibligida falsafiy jihatlarini keng yoritilgan. Unda inson va olamning mohiyati, Antrop tamoyilning bir necha talqinlari, falsafiy qarashlarning dinamikasi, kosmogonik antrop tamoyildan diniy qarashlarga o'tish jarayoni, o'sha davrda ijod qilgan faylasuflar va ularning ilmiy merosi haqida keng bayon etilgan. Antrop tamoyil bu Olamning hayot yuzaga kelishi uchun mos shaklda tashkillashgani bilan bog'liq falsafiy konsepsiyaning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Antrop tamoyil, dinamika, kosmologiya, konsepsiya, yaratuvchi, zaruriyat, tasodifiylik, tabiat, etnogenez, qadriyat, koinot, olam va odam, nisbiylik nazariyasi, gravitatsiya, vaqt.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N15>

**Kirish.** O'tgan asrdan boshlab kosmologiya shunchaki mushohadalar bilan bog'liq spekulativ falsafa sohasi bo'lishdan to'xtab, fizikaning yeng tez rivojlanayotgan qismlaridan biriga aylandi hamda Yer yuzining turli nuqtalarida, qolaversa kosmosdan turib fazoni kuzatuvchi teleskoplar ushbu sohani tinimsiz ravishda yangi ma'lumotlar va manbalar bilan to'ldirib bormoqda. Qolaversa kosmologiya falsafiy dunyoqarashimizning ham ajralmas bir qismi bo'lib kelmoqda va kosmologiyada yuzaga keluvchi ba'zi konseptual va metodologik masalalar bugungi kunda yepistemologik tahlilga muhtoj. Xususan, o'tgan oxirgi yillarda qilingan ochilmalar yangicha ilmiy tafakkur va izohlarni talab qiladi. Bu chaqiriqlardan biri

sifatida olam va insonning undagi holatini tushuntiruvchi tamoyillardan biri sifatida “antrop tamoyil” ni keltirish mumkin.

Shu bois ushbu bobda Antrop tamoyil haqidagi falsafiy qarashlarning dinamikasi, kosmogonik antrop tamoyildan diniy qarashlarga o'tish jarayonida – kosmologiyaga Yaratuvchi haqida yondashuvning dialektikasi, antrop tamoyilning bosh maqsadi – olam va odam munosabatlarida ratsionallikning rolini asoslashga harakat qilamiz.

**Muhokama.** Antrop tamoyil bu Olamning hayot yuzaga kelishi uchun mos shaklda tashkillangani bilan bog'liq falsafiy konsepsiyadir. Ushbu konsepsiyaga ko'ra olam aqlli hayot yuzaga kelishi uchun ideal parametrlarga ko'ra yaralgan, chunki agar bu fundamental konstantalar yoki fizik qonunlar birmuncha o'zgacha bo'lganda biz hozir ko'rib turgan olam hozirgidek ko'rinishga ega bo'lmasdi. Konsepsiyadagi “antrop” atamasi yunoncha “anthropos” atamasidan olingan bo'lib, “inson” degan ma'noni anglatadi va bu konsepsiyaning asosiy e'tibori ham insonga qaratilganidan, tamoyilning yesa aqlli mavjudotlar yuzaga kelishi bilan bog'liq sharoitlarga diqqat qaratishidan dalolat beradi.

Antrop tamoyilning bir necha talqinlari mavjud bo'lib, ularga Kuchli va Kuchsiz antrop tamoyillarni misol keltirish mumkin. Kuchsiz talqinga ko'ra, Olamning biz kuzatishimiz mumkin bo'lgan parametrlari uni kuzatuvchi aqlli mavjudotlar xossalariga mos bo'lishi shart, chunki biz hozir Olamni kuzatib turibmiz va bu shunga asos bo'la oladi. Boshqacha aytganda, Olamning uni kuzatuvchilar uchun mos parametrlarga ega ekaniga asos – bizning hozir uni kuzatib turganimizdir. Kuchli antrop tamoyil yesa undanda nariga borib, olam aqlli hayot yuzaga kelishi uchun sharoit yaratar darajada parametrlar bilan yaralgan, degan fikrni ilgari suradi [1; B. 291-298.].

“Antrop tamoyil o'ziga xos konseptual qurilmalardan biri bo'lib, unda asrlar davomida ishlab chiqilgan ilmiy metodlar qayta ishlanib, insonning olamdagi o'rni uni tushunishning yeng muhim omili darajasiga ko'tariladi” [2; B. 47.]. Stiven Vaynberg esa ko'pchilik faylasuflar va olimlar bu tamoyil ahamiyatini hisobga olmayotgan bir paytda ushbu tamoyilni ahamiyatini ko'rsatishga harakat qiladi.

Qolaversa, kengayuvchi olam kosmologiyasi hamda rishtalar nazariyasi kabi nazariy ishlanmalar ham olamning hayot yuzaga kelishi uchun bu qadar mos parametrlarga ega bo'lishini tushuntirishda yordam berishi mumkin [3; B 347-356. ]. Bu nazariyalarga ko'ra biz kuzatayotgan va istiqomat qilayotgan olam ko'plab olamlardan biri bo'lishi mumkin va uning turli qismlarida turlicha fizik qonunlar amal qilishi mumkin. Bunday farazlar Olam haqidagi an'anaviy qarashlarimizni shubha ostiga qo'yadi va empirik fanlar va nazariy fanlar xususan falsafa borasidagi xulosalarning umumlashtirilishini va masalaga fanlararo yondashuvlarni ishlab chiqish zaruriyatini ko'rsatadi.

**Natijalar.** Antrop tamoyil bilan bog'liq bo'lgan yeng asosiy bahslardan biri bu ushbu tamoyilning oqibatlarini faqatgina sof falsafiy xarakterga egami, yoki uning qandaydir amaliy ahamiyati ham mavjudmi, degan masaladir. Ba'zilar fikricha, olamning aqlli mavjudotlar yuzaga kelishi uchun bu darajada nozik parametrlarga ega bo'lishi holatini multi-olamlar konsepsiyasi bilan tushuntirish mumkin. Bu gipotezaga ko'ra turli-tuman parametrlarga va qonunlarga ega turli-tuman ko'p sonli olamlar mavjud. Bu nuqtai-nazarga ko'ra, biz yashab turgan olamning parametrlari o'ziga xos yemas, balki ko'plab parametrlar birikmalaridan biri bo'lib, shunchaki bizning hayotimiz uchun mos keladi va shu sababdan ham bugun aqlli mavjudotlar bu olamda yuzaga kelgan va uni kuzatib, talqin qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Umumiy ma'noda antrop tamoyil Olam va insonning undagi roli haqida dolzarb savollarni beruvchi, unda hayotning yuzaga kelishini izohlashga intiluvchi tamoyillardan biri bo'lib, ko'plab faylasuflar uchun bahs-munozara manbasi bo'lib qolmoqda.

Ushbu masalaga javob topishda falsafiy maktablar an'analari hamda empirik metodlarning birlashtirilishi antrop tamoyilni o'rganishga yaxlit yondashuvni ishlab chiqish, ushbu tamoyilning metafizik asoslarini chuqurroq tushunish hamda unga birmucha empirik yondashuvlarni ham ishlab chiqish imkonini beradi. Falsafadagi g'oyalar hamda kosmologiya, elementar zarralar fizikasi va boshqa sohadagi empirik tadqiqotlarni birlashtirgan holda tadqiqotchilar antrop tamoyil haqida nisbatan yaxlit tushuncha ishlab chiqishlari va uning Olam haqidagi tushunchalarimizni qanchalar to'ldirishini ko'rsatishi mumkin.

Tarixda antrop tamoyilga qiyoslanishi mumkin bo'lgan va tadqiqot doiramiz bilan bog'liq bo'lgan faylasuflar va olimlarning ba'zi qarashlarini keltirib o'tishimiz mumkin. Masalan, ko'p-olamlar gipotezasi atrofida bahslar shuni ko'rsatadiki, faylasuflarning olam va voqelik tabiati haqidagi fikrlari kosmologiya sohasidagi konkret kuzatuvlar bilan solishtirilishi va mustahkamlanishi mumkin [4; B. 40-51.] Yoki, Kopernik inqilobi kabi tarixiy misollar ham Olam haqidagi tasavvurlarimiz nazariyalarning ishlab chiqilishi, keyin ularning amaliy tadqiqotlarda o'z tasdig'ini topishi jarayoni bir-birini takrorlovchi jarayon ekanini ko'rsatadi.

Bu borada falsafiy maktablar tadqiqotlari natijalarini empirik kuzatuvlar natijalari bilan integratsiyalanishi olam haqidagi tasavvurlarimizni boyitish hamda undagi o'rnimizni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Fanlararo dialog va hamkorlik ketidan faylasuflar hamda empirik kuzatuvlarni olib boruvchi tadqiqotchilar orasida kelishuv hamda tadqiqot natijalarini birlashtirilishi holatlari yuzaga kelib, kosmologiya, metafizika hamda fan falsafasida yirik topilmalarga erishilishi mumkin.

Antrop tamoyil shunday masalalardan biriki, unga yondashishda empirik metodlar hamda falsafiy maktablar g'oyalarini birlashtirmasdan muhim natijalarga erishish qiyin. Voqelik tabiatini anglash hamda aqlli kuzatuvchilarning olam mavjudligida qanchalar ahamiyatga ega ekanini tushunishda fanlararo tadqiqot o'ta muhimdir.

Chuqurroq tarixiy nazar soladigan bo'lsak, Herman Veyl (1885-1955) bu boradagi yeng muhim tadqiqotchilardan biri bo'lib, uning geometriya va fizika sohasidagi ishlari makon va vaqt borasidagi tushunchalarimizni shakllantirib, antrop tamoyil borasidagi bahslarimizga sabab bo'lgan. Uning 1921-yildagi "Makon-Vaqt-Materiya" nomli kitobi nisbiylik nazariyasining geometrik asoslarini muhokama qiladi va uning falsafiy jihatlarini ko'rib chiqadi. Qolaversa, britan fizigi Artur Yeddington yesa tabiatning fundamental o'zgarmas konstantalari borasida "Fizik olam tabiati" (1928) nomli asar yozgan bo'lib, unda olam parametrlari unda tirik hayot, xususan aqlli hayot yuzaga kelishi uchun mukammal tarzda yaratilganini ilgari suradi. Ushbu olimning ham qarashlari olam qonunlari va unda kuzatuvchi subyekt, ya'ni insonning o'rni haqidagi tushunchalarimizni boyitishga xizmat qiladi. 1923-yilda Artur Yeddington olamdagi elektron va protonlar sonini hisoblashga urindi va bu raqamni  $10^{79}$  deb ko'rsatdi (va bu raqam N Yeddington raqami deb atala boshlandi). So'ng u  $N^{1/2}$  hamda proton va elektron orasidagi elektromagnit hamda gravitatsion kuchlari nisbati bir-biriga mos kelishini ham payqadi. Bularning hammasi shu bilan tushuntirilishi mumkinki, olam unda aqlli kuzatuvchilarning, umuman olganda hayot va aqlli hayotning yuzaga kelishiga mukammal imkoniyat yaratar darajada tuzilganidan dalolat beradi.

Yedvard Milnening “Nisbiylik, Gravitatsiya va Olam strukturasi” nomli asari yesa kinematik nisbiylik nazariyasi va hayotning paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi bahslarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan [5; B.]. Fransuz fizigi Pol Dirak yesa kvant mexanikasi va kosmologiyaga oid “Kvant mexanikasi tamoyillari” hamda “Umumiy nisbiylik nazariyasi” asarlari antrop tamoyilning fizik asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi [6; B.].

Undan keyin Pol Dirak, Kollinz hamda Stiven Hoking kabi fiziklarning empirik tadqiqotlari ham olamning aqlli hayot yuzaga kelishi uchun o‘ta qulay sharoitlarga ega ekanini tasdiqladi. Masalan, faylasuf va ilohiyotchi hisoblanmish Kollinz faylasuf-ilohiyotchi nuqtai-nazaridan o‘zining antrop tamoyili borasidagi fikrlari bilan ajralib turadi. Uning bu boradagi fikrlari asosan antrop tamoyilning Xudo mavjudligi uchun ilmiy-falsafiy dalillardan biri ekani atrofida aylanadi.

Uyg‘onish va Ilmiy inqiloblar davriga o‘tishda yaratuvchi tomonidan yaratilgan kosmos haqidagi argumentlar bilan yangidan yuzaga kelayotgan ilmiy argumentlar orasida kelishmovchiliklar, nomuvofiqliklar va hattoki to‘qnashuvlar sodir bo‘ldi.

XVII-XVIII asrlardagi dunyoga nisbatan mexanistik nazar yaratilish bilan bog‘liq argumentlarni yanada o‘zgarishlarga duchor qildi. Rene Dekart va Isak Nyuton kabi mutafakkirlar olamni deterministik qonunlar izmida bo‘lgan ulkan mashina sifatida tasavvur qilishgan. Dekart tomonidan yozilgan “Falsafa debochalari asari tabiatni mexanistik talqin qilgan bo‘lsa, Nyutonning “Tabiiy falsafaning matematik tamoyillari” asari kosmik tartib va barqarorlikni matematik tilda ifodaladi.

Ma‘rifatparvarlik davrida yaratilish argumentlari ko‘plab tanqidga uchradi va David Yum, Yemmanuyel Kant kabi faylasuflar bu borada o‘z fikrlarini ifoda yetishdi. Yumning “Tabiiy din borasida suhbatlar” asari teleologik tafakkurning asoslarini so‘roqqa tutib, yaratilish bilan bog‘liq xulosalash empirik dalillarga yemas, balki antropomorfik proyeksiyalarga asoslanishi haqida yozadi. Kantning “Sof aql tanqidi” asarida yesa shunchaki spekuliyativ tafakkur orqali metafizik haqiqatlarga erishishning ehtimollarini so‘roqqa tutadi.

**Xulosa.** Kosmik tasodiflanganlik tushunchasining ahamiyati faqatgina kosmologiya bilangina cheklanib qolmasdan, olamning kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar bilan, masalan Katta portlash nazariyasi bilan ham bog‘liq. Kosmologlar oldida endilikda qanday qilib olam paydo bo‘lishidagi dastlabki shart-sharoitlar yulduzlar, galaktikalar va oxir-oqibatda hayotning yuzaga kelishi uchun imkon berar darajada yaratilgani savoliga javob berish vazifasi turibdi. Olamning fizik qonunlarining bu qadar nozik parametrlardan iborat ekani olimlarni endilikda bu qonunlar qandaydir yanada fundamental va yaxlit qonunning emergent xossalari bo‘lishi mumkinligi haqida o‘ylantirmoqda. Bu yesa kvant gravitatsiyasi sohasi hamda fizikada birlashgan nazariya yaratilishida ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Qolaversa, antrop tamoyil Yerdan tashqarida hayot alomatlarining izlanishi bilan ham bog‘liq masalalarda o‘zining o‘rniga ega. Ushbu tamoyilga ko‘ra olamni kuzatuvchilarning mavjudligi sharti faqatgina bizning olamimizgagina tegishli bo‘lishi mumkin va bu kosmosning boshqa burchaklarida hayot alomatlarini topilishi ehtimolini oshiradi.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Carter, B. (1974). Large number coincidences and the anthropic principle in cosmology. In *Confrontation of Cosmological Theories with Observational Data* (pp. 291-298). Springer.
2. Greenstein, G. (1988). *\*The Symbiotic Universe: Life and Mind in the Cosmos\**. New York, NY: William Morrow and Company, p. 47., p. 47
3. Greene, B. (1999). *The Elegant Universe: Superstrings, Hidden Dimensions, and the Quest for the Ultimate Theory*. Vintage Books; Guth, A. H. (1981). Inflationary universe: A possible solution to the horizon and flatness problems. *Physical Review D*, 23(2), 347-356.
4. Tegmark, M. (2003). Parallel universes. *Scientific American*, 288(5), 40-51.
5. Milne, E. A. (1935). *Relativity, Gravitation, and World-Structure*. Oxford University Press.
6. Dirac, P. A. M. (1930). *The Principles of Quantum Mechanics*. Clarendon Press.
7. Kuhn, T. S. (1962). *The Structure of Scientific Revolutions*. University of Chicago Press.
8. Weyl, H. (1921). *Space-Time-Matter*. Methuen & Co.
9. Shermuxamedova N. *Falsafa va fan metodologiyasi*. –Toshkent: Universitet, 2005.

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **THE ROLE OF SPIRITUAL EDUCATION IN THE DEVELOPMENT OF AN ENLIGHTENED PERSON**

**Majitov Maxmud**

First vice-rector for Youth Affairs and spiritual and educational affairs, doctor of philosophy in philosophy (PhD)

**Abstract.** The article reveals the concept of education, especially spiritual education, its uniqueness, the role of spiritual education in the formation of a person's personality. Also is revealed the role of the spiritual education factor in the formation of an enlightened personality.

**Key words:** Upbringing, education, spiritual education, personality, human personality, concept of continuous spiritual education, society, postmodern society, values.

## **MA'NAVIY TARBIYANING MA'RIFATLI SHAXS RIVOJIDAGI O'RNI**

**Majitov Maxmud**

Termiz muhandislik-texnologiya instituti yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya.** Maqolada tarbiya tushunchasi, xususan ma'naviy tarbiya, uning o'ziga xosligi, ma'naviy tarbiyaning inson shaxsi shakllanishida tutgan o'rne yoritib berilgan. Shuningdek, bugungi kunda ma'rifatli shaxsni shakllantirishda ma'naviy tarbiya omilining roli ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya, ta'lim, ma'naviy tarbiya, shaxs, inson shaxsi, uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi, jamiyat, postmodern jamiyat, qadriyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N16>

**Kirish.** Ta'lim post-modern jamiyat tendensiyalarining shaxs ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sirini kamaytiruvchi naqadar qudratli vosita bo'lsa, tarbiya ham aynan shunday ahamiyatga molik omildir. Chunki uning yordamida shaxs ijtimoiy mohiyatidan joy olgan barcha elementlarni shakllantirish, o'zgartirish va takomillashtirish mumkin bo'ladi. Shuningdek, tarbiya insonni butun umri davomida jamiyat manfaatlari, uning ta'siri doirasida saqlab turish imkonini beradi. Bugungi kunda shaxs hayotiy maqsadlari, bilimlari, ko'nikmalari, e'tiqodi, xislatlari, fazilatlarini, hayotiy pozitsiyasini gumanizm, ijtimoiy progress doirasida saqlab turishning bundanda samaraliroq, ta'sirchanroq omili qolmayapti.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** "Tarbiya" tushunchasiga berilgan ta'riflar turli-tumanligi bilan xarakterlanadi. Biroq barcha mutaxassislar tarbiya inson ongi va faoliyatiga ta'sir ko'rsatish jarayoni ekanligini qayd qiladilar. Mazkur ta'sir jarayoni ayrim hollarda maqsadga muvofiq tarzda (aytaylik, ma'lum tarbiya subyektlarining jamiyat manfaatlari mos holda amalga oshirgan tarbiyaviy ishlari orqali), boshqa vaziyatlarda stixiyali, tasodifiylik

elementlari ishtirokida (masalan, ko'cha-ko'ya yuz bergan voqealar, tasodifan kuzatilgan jarayonlar va hokazo) sodir bo'ladi. Inson ongi va faoliyatiga maqsadga muvofiq tarzda ko'rsatilgan ta'sirning ijtimoiy ahamiyatga molik tarbiya sifatida tan olish mumkin.

Tabiiyki, tarbiya muayyan maqsadlarni ko'zlab amalga oshiriladi. Odatda tarbiyaning asosiy maqsadi inson shaxsini kamol toptirish bilan bog'lanadi. Lekin jamiyatda shaxs haqidagi tasavvurlar o'zgarib borgan, shaxsning u yoki bu fazilatlarini, ijtimoiy pozitsiyasiga ehtiyoj ortgani sayin tarbiyaning maqsadi ham o'zgaradi. Shuni nazarda tutgan holda mutaxassislar "tarbiya maqsadlari harakatchan, o'zgaruvchan, konkret-tarixiy xarakterga ega, u jamiyat taraqqiyotining ehtiyojlaridan kelib chiqadi va ishlab chiqarish usullariga, ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'atlariga, pedagogik nazariya va amaliyotning rivojlanganligi darajasiga, jamiyat, ta'lim va tarbiya muassasalari, o'qituvchilar va o'quvchilarning imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi", – deb ta'kidlaydilar.[1:232]

**Tahlil va natijalar.** Tarbiya jarayonining uch asosiy xususiyati mavjud.[2] Birinchidan, uning davomida shaxs jamiyatda qabul qilingan faoliyat normalari, an'analar, jamoatchilik fikrini o'zlashtiradi. Bunday ijtimoiylashuv jarayoni unga jamiyatda turmush kechirish, o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirish, o'z xulqini umume'tirof etilgan qoidalarga muvofiq lashtirish imkonini yaratadi. Shuning uchun ham mazkur norma va qoidalardan voqif shaxsni "tarbiya ko'rgan" deb aytiladi.

Ikkinchidan, tarbiya davomida inson o'z shaxsiyatini anglab yetadi, uning e'tiqodi, dunyoqarashi, hayotiy pozitsiyasi, fazilat va xislatlari shakllanadi. Ushbu jarayon mobaynida u o'zini qadrlashga, o'zgalardan farqlashga o'rganadi. Vaholanki, ushbu xususiyatlarni o'z ma'naviy qiyofasida mujassam qilgan insonning shaxs sifatida e'tirof etamiz.

Uchinchidan, tarbiya davomida shaxs jamiyatda o'z o'rnini topishga, muayyan maqsadlarga erishishga odatlanadi. U faqat ijtimoiy voqelikka moslashish bilan cheklanmasdan, o'zgalarga o'z fikrini, hayotiy pozitsiyasini yetkazishga intiladi, o'z hayotiy prinsiplariga mutanosib ravishda ijtimoiy faoliyat ko'rsata boshlaydi.

Tarbiya turli shakllarda (aqliy, axloqiy, huquqiy, estetik, mehnat va hokazo) amalga oshiriladi. "Tarbiyaning barcha shakllari ma'naviyatga oid hodisadir, chunki u inson ongi va tafakkuriga ta'sir ko'rsatish, unga aniq amaliy, kasbiy yoki g'oyaviy-e'tiqodiy bilim berish, nimanidir o'rgatish, nimagadir ixlosni, ezgulik, go'zallik, adolat kabi yuksak ideallarni, ishonchni qaror toptirish orqali insonning o'zini inson sifatida shakllantiradi." [3:323]

Qanday shaklda amalga oshirilsin, tarbiyaning muhim ijtimoiy funksiyalaridan biri shundaki, u jamiyatdagi vorisiylikni ta'minlaydi. "Hech bir avlod hamma bilim va ko'nikmalarni, kashfiyotlarni, ajdodlar qo'lga kiritgan yutuqlarni yangidan ixtiro qilmaydi. Har bir avlod jamiyat shu paytgacha erishgan barcha yutuqlarni tayyor holda o'zlashtiradi, o'z hayoti, faoliyati davomida ularni biroz takomillashtiradi, boyitadi va keyingi avlodga (bola-chaqasiga) ulardan foydalanishni o'rgatadi." [3:323] Milliy an'analar, urf-odatlar va qadriyatlarining yo'qolib ketish xavfi kuchayayotgan, shaxsning asrlar davomida ulug'lab kelingan xislat va fazilatlarini, bilim va e'tiqodiga putur yetayotgan post-modern jamiyat sharoitida ushbu ijtimoiy funksiyaning ahamiyati nihoyatda beqiyos bo'lmoqda. Binobarin, tarbiya post-modern jamiyat sharoitida inson shaxsini kamol toptirishning muhim omilidir.

Ma'naviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning alohida shakli emas. U jamiyatda amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ta'sirning xarakterini ifodalovchi tushunchadir. Uning asosiy maqsadi insonni o'zini anglovchi, hayotiy maqsadlarini aniq biluvchi, bu maqsadlarga eltuvchi bilim va



malakalardan voqif, gumanistik e'tiqod va hayotiy pozitsiyaga ega, mustaqil hayot kechirishga hozir shaxsni shakllantirishdan iborat. Ma'naviy tarbiya insonning mohiyatini tashkil etuvchi belgilarni rivojlantirishga xizmat qiladi. "Insonning asl tabiati haqida gap ketganda, quyidagilarga urg'u beriladi:

- inson — ongli, aqlli mavjudot;

- inson — bioijtimoiy mavjudot, u faqat jamiyatdagina shakllanadi, jamiyatdan tashqarida inson bolasi halok bo'lmay qolganda ham, hayvondan farq qilmaydigan mavjudot bo'lib yetishadi;

- inson — yaratuvchi mavjudot;

- inson — ehtiyojlari uzluksiz o'sadigan, yuksaladigan mavjudot. Insonning ongi, tafakkuri uning uchun birinchi mohiyatli belgi ekan, ma'naviy tarbiya ularni yanada rivojlantirishga, yuksaltirishga xizmat qilishi kerak." [3:347]

Ma'naviy tarbiya inson umrining muayyan davrinigina qamrab oladigan fenomen emas. U shaxsning butun hayoti mobaynida davom etadi, shu boisdan umrning turli pallalarida turli subyektlar tomonidan amalga oshiriladi. Jumladan, ma'naviy-tarbiyaviy faoliyat bilan oila, mahalla, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta'lim maktablari, o'rta maxsus ta'lim maskanlari, oliy ta'lim muassasasi, mehnat jamoasi, davlat va jamoat tashkilotlari va shu kabilar shug'ullanadi.

Ma'naviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning turli shakllaridan ayri holda amalga oshirilmaydi. Aksincha, insonga o'zligini anglatishga qaratilgan aqliy, axloqiy, huquqiy, estetik, mehnat va boshqa tarbiyani ma'naviy tarbiyaning ham shakllari sifatida qayd etish mumkin. Uning asosiy vositalari ommaviy axborot vositalari, fan, adabiyot, tasviriy san'at, kino, teatr, muzey va shu kabilardan tarkib topadi. Tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida ijtimoiy ehtiyojga monand ravishda ma'naviy tarbiyaning u yoki bu shakli ustuvorroq ahamiyat kasb etishi, u yoki bu vositasidan kengroq foydalanilishi, hatto ma'lum muddat mafkuraviy tus olishi, ya'ni biror bir mafkura pozitsiyasidan amalga oshirilishi mumkin. Biroq ushbu evrilishlardan qat'i nazar ma'naviy tarbiya jamiyat rivojining barcha davrlarida insonni o'zini anglash sari yetaklaydigan jarayon bo'lib qolaveradi.

Kishilik jamiyatining barcha davrlarida ma'naviy tarbiya insonni komillik sari undovchi muhim omil vazifasini o'tab keldi. Komil inson to'g'risidagi tasavvurlar to'lishib borgani sayin uning mazmun-mohiyati ham o'zgarib, yangilanib bordi. Xususan, qadimgi dunyoda komillik aqliy va jismoniy yetuklik bilan bog'landi, o'rta asrlarda u a'lo fazilatlariga ega bo'lgan inson sifatida tasvirlandi, yangi zamonda komillikning muhim talabi ma'rifatlilikdan iborat, deb ta'kidlandi, XX asrda hayotda o'z o'rnini topgan, omadli insonni ideal shaxs ataldi. Ma'naviy tarbiya esa har safar komillik haqidagi o'z zamonasiga mos bo'lgan ideallarga yetaklovchi qudrat bo'lib kelaverdi.

Bizning davrimizga kelib, ma'naviy tarbiyaga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj nihoyatda oshdi. Chunki, biz avvalgi bobda ta'kidlab o'tganimizdek, post-modern jamiyatning ko'plab iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy tendensiyalari shaxsni hayotiy maqsadlardan mosuvo qilmoqda, uning tafakkuriga fragmentar xarakter baxsh etmoqda, hayotiy pozitsiyasiga putur yetkazmoqda, mustaqil inson sifatida kamol topishiga xalal bermoqda. Shuni nazarda tutgan holda Erix Fromm: "O'z to'qqizinchi asrda qul bo'lib qolish xavfi mavjud edi, yigirmanchi asrda bu xavf yo'qoldi, lekin boshqa xatar – robotlarga aylanib qolish xavfi tug'ildi", – deb yozgan edi.[4:116] Ma'naviy tarbiya esa shaxs ijtimoiy mohiyatining aynan ana shu elementlarini

mustahkamlovchi qudratdir. Biroq ko'zlangan natijalarni bermog'i uchun u tarbiya subyektlari tomonidan to'g'ri, oqilona, zamon talablariga monand ravishda amalga oshirilmog'i, insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan bo'limg'i, maqsadga muvofiq omil va vositalarga tayanmog'i, insonning butun umri davomida uzluksiz tarzda olib borilmog'i darkor.

Afsuski, keyingi yillarda G'arbning rivojlangan mamlakatlarida ma'naviy tarbiyaga e'tiborning susaygani, uning deformatsiyasi kuzatilmoqda. Chunki "G'arb mamlakatlarida inson tarbiyasi masalasi ko'proq malakaviy talablar, ta'lim standartlari, inson huquqlari va erkinliklari kabi masalalar bilan almashtirildi. Natijada ta'lim-tarbiya va umuman jamiyat hayoti markaziga insonning barcha ehtiyojlarini (zo'ravonlikdan tashqari), nafaqat o'ta ko'p miqdordagi moddiy buyumlar, xizmatlar iste'molini, shuningdek, nosog'lom jinsiy moyilliklarni qondirishga qaratilgan vulgar antropotsentrizm qo'yila boshlandi. Gumanistik va diniy tushunchalardagi mavhum idealistik antropotsentrizm vulgar materialistik, go'yoki ezgulik va yovuzlikdan tashqarida turuvchi, amalda aksilma'naviy antropotsentrizm bilan almashdi." [3:347] G'arb ma'naviy inqirozining asl sabablaridan birini aynan ana shundan izlamoq kerak. (To'g'ri, bugungi G'arb dunyosi boshidan kechirayotgan ma'naviy inqiroz ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy va boshqa omillarning oqibati, albatta. Lekin bu o'rinda insonni shaxs sifatida kamol topishiga, undagi insoniylik belgilarini asrashga xizmat qiladigan ma'naviy tarbiyaga e'tiborsizlik ham jiddiy sabablardan biri bo'ldi). Shu sababli ham bugungi kunda xorijiy mamlakatlarda ham post-modern jamiyat tendensiyalarining shaxsga salbiy ta'sirini kamaytirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, Buyuk Britaniyada "Tafakkur", "Xulq ta'limi", BAAda "axloq ta'limi", Singapurda "Fe'l-atvor va fuqarolik ta'limi", Yaponiyada "axloq ta'limi", Hindistonda "qadr-qimmat ta'limi" [5] fanlari maktablarda o'qitilmoqda.

2019-yilning 3-mayida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" Qarorining qabul qilinishi mamlakatdagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangi bosqichga ko'tarish imkonini yaratdi. Qarorda "mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu-tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor" qaratilayotgani ta'kidlab o'tiladi. [6]

Qarorga muvofiq "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" ishlab chiqildi va 2019-yilning 31-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori bilan qabul qilindi. Hujjatda qayd etilishicha, "konsepsiyaning maqsadi – yosh avlodda mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy ko'nikma va fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish asosida yuksak fazilatli, barkamol avlodni voyaga yetkazishdan iborat". [7]

Ma'lumki, har qanday ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va yangilanishlar uni g'oyasizlantirish evaziga bo'lmasligi, ya'ni tarbiyaning boshqa ko'plab yo'nalishlari, xususan ma'naviy tarbiya bilan birga, g'oyaviy tarbiya elementlarini saqlab qolishi lozimligi ham bu sohaning aksiomasidir. Bu jihatdan, "Jaholatga kirish ma'rifat" tamoyili qanchalik to'g'ri bo'lsa, "G'oyaga qarshi g'oya" tamoyili ham shunchalik o'rinlidir. Aslida bir tamoyil hech qachon ikkinchi tamoyilning o'rnini bosa olmaydi. Ulardan birini yo'qotish evaziga boshqasini

kuchaytirish va mutlaqlashtirish ham biror-bir davrda kutilgan natijani bermagani uzoq va yaqin tarixdan ma'lum.

Shunday qilib, so'nggi yillar davomida O'zbekistonda uzluksiz ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yishda quyidagi natijalarga erishildi:

a) mamlakatda uzluksiz ma'naviy tarbiyaning moddiy-moliyaviy ta'minoti vujudga keltirildi, ma'naviy-ma'rifiy ishlarining moddiy-texnika bazasi yaratildi;

b) fuqarolar, xususan yoshlar orasida olib boriladigan ma'naviy- tarbiyaviy ishlarining konseptual asoslari — g'oyalari, tushuncha va tamoyillari ishlab chiqildi;

v) O'zbekistonda fuqarolarning barcha qatlamlarini qamrab olish imkonini beruvchi uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi barpo etildi;

g) O'zbekistondagi uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi muttasil takomillashib boruvchi yaxlit sistemaga aylantirildi.

Biroq buning bilan uzluksiz ma'naviy tarbiya borasida barcha muammolar tugal bartaraf etildi, mazkur masala kun tartibidan olindi, degan xulosa chiqarishdan yiroqmiz. Jahondagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy vaziyatning o'zgarib borayotgani, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning tobora chuqurlashayotgani, post-modern jamiyat tendensiyalarining shaxs dunyoqarashi va ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sirining oldini olish zaruriyatining ortayotgani bu borada yangi va yangi muammolarni hosil qilmoqdaki, ularni aniqlash va bartaraf qilish bugungi kunda shaxs kamolotini ta'minlashning dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan uzluksiz ma'naviy tarbiyani takomillashtirish borasida quyidagi masalalarga alohida e'tibor berish zarur, deb hisoblaymiz.

Birinchiidan, ma'naviy tarbiya qadriyatlarini post modern jamiyat sharoitida tobora yorqinroq namoyon bo'lib borayotgan psevdoadriyatlardan ajrata bilish ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilmog'i darkor.

Ikkinchiidan, ma'naviy tarbiya milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qilmog'i lozim.

Uchinchiidan, ma'naviy tarbiyani taraqqiyot sur'atlariga moslashtirish kerak.

To'rtinchiidan, ma'naviy-tarbiyaviy ta'sir uzluksizligini ta'minlash va qamrovini kengaytirish darkor. Jamiyat va inson manfaatlari uyg'unligini ta'minlash uchun shaxs butun umri davomida jamiyat ta'siri ostida bo'lmog'i lozim.

Beshinchiidan, shaxsni o'z-o'zini ma'naviy tarbiyalashga undaydigan samarali mexanizmni vujudga keltirish zarur. Inson ma'naviy tarbiyaning obyektigina emas, uning subyekti hamdir. Binobarin, u nafaqat turli subyektlar tomonidan ma'naviy jihatdan tarbiyalanmog'i, balki o'z-o'zini tarbiyalashga tayyorlanmog'i lozim. Qaysiki jamiyatda shaxsni o'zi-o'zini tarbiyalashga undovchi mexanizm mavjud bo'lsa va undan unumli foydalanilsa, bu jamiyatda ma'naviy tarbiya samarasidan umid qilsa bo'ladi.

Oltinchiidan, ma'naviy tarbiya bilan shug'ullanadigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish zaruriyati mavjud. Albatta, mahalla, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta'lim maktablari, o'rta maxsus ta'lim maskanlari, oliy ta'lim muassasasi, mehnat jamoasi, davlat hamda jamoat tashkilotlari va shu kabilarda ma'naviy-tarbiyaviy faoliyat bilan ma'naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasidan, metodologiyasi va praktsiologiyasidan voqif mutaxassislar shug'ullanmoqlari lozim. Ma'naviyat va uning jamiyat hayotidagi o'rni, genezisi va rivojlanish davrlari, qonuniyatlari, kategoriyalari va funksiyalari,

ma'naviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur bilmagan kishi bu jarayonning natijadorligini ta'minlay olmaydi.

**Xulosa.** Xulosa qiladigan bo'lsak, post-modern jamiyat sharoitida shaxs hayotiy maqsadlarining o'zgarib borayotgani, tafakkurining fragmentar xarakter kasb etayotgani, hayotiy pozitsiyasiga putur yetayotgani, mustaqil inson sifatida kamol topishi sekinlashayotgani ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishni taqozo qilmoqda. Buning uchun ma'naviy tarbiya qadriyatlarni psevdoqadriyatlardan ajrata bilish ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltirilmog'i, milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qilmog'i, taraqqiyot sur'atlariga mos bo'lmog'i, uzluksiz va keng qamrovli bo'lmog'i, o'z-o'zini tarbiyalashga undovchi mexanizmga tayanmog'i, malakali, intellektual salohiyati baland mutaxassislar tomonidan amalga oshirilmog'i darkor. Albatta buning uchun Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "uzluksiz ta'lim tizimida ma'naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim va bunda o'sib kelayotgan avlodning yosh xususiyatlari va intilishlarini hisobga olish zarur"[8:270].

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Писаренко В.И. Проблема воспитания в современной педагогике // Известия ЮФУ. Технические науки, 2013, №7. – 232 с.
2. Слостенин В.А., Исаев И.Ф., Мищенко А.И., Шиянов Е.Н. Педагогика. – Москва: Школьная пресса, 2002.
3. Erkaev A. Ma'naviyatshunoslik. Ma'naviyat metodologiyasi va praksiologiyasi. 2-kitob. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2018. – B.323.
4. Fromm E. Insonning hozirgi holati // Jahon adabiyoti, 2000, №1.- 116-b.
5. Zamonaviy darsliklar qanday bo'lishi kerak? // <https://www.uza.uz>, 2020, 8-iyul.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" // Xalq so'zi, 2019, 4-may.
7. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi // Xalq so'zi, 2020, 3-yanvar.
8. Mirziyoev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B.270.

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE UNIFICATION OF MODERN TECHNOLOGIES AND NATURE IN THE CREATION OF SUSTAINABLE ECOTOURISM**

**Khamraev Sardorbek Sharafutdinovich**

Termez State Pedagogical Institute, Teacher of the Department of Philosophy and Spirituality

**Abstract.** This article explores the socio-philosophical aspect of the introduction of modern technologies in the field of ecotourism. Considering the impact of technology on the environmental, cultural and economic spheres, the authors discuss the ethical and social consequences of integrating new technologies into ecotourism practice. The article also highlights key aspects of nature conservation, biodiversity research and sustainable development, emphasizing the role of modern technologies in these processes.

**Key words:** ekoturizm, ijtimoiy-falsafa, zamonaviy texnologiya, mobil ilova, veb-sayt, virtual haqiqat (VR), dronlar, geopozitsiya tizimlari (GPS), sun'iy intellekt.

## **BARQAROR EKOTURIZMNI YARATISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA TABIAT BIRLASHISHINING IJTIMOY-FALSAFIY JIHATLARI**

**Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich**

Termiz davlat pedagogika instituti, Falsafa va ma'naviyat asoslari kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ekoturizm sohasiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari o'rganilgan. Texnologiyalarning ekologik, madaniy va iqtisodiy sohalarga ta'sirini hisobga olgan holda, mualliflar yangi texnologiyalarni ekoturizm amaliyotiga qo'shishning axloqiy va ijtimoiy oqibatlarini muhokama qiladilar. Maqolada tabiatni muhofaza qilish, bioxilma-xillikni tadqiq etish va barqaror rivojlanishning asosiy jihatlari, bu jarayonlarda zamonaviy texnologiyalarning o'rni ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** ekoturizm, ijtimoiy-falsafa, zamonaviy texnologiya, mobil ilova, veb-sayt, virtual haqiqat (VR), dronlar, geopozitsiya tizimlari (GPS), sun'iy intellekt.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N17>

**Kirish.** Ekoturizm nafaqat ochiq havoda dam olish yoki go'zal manzaralarni qadrlash imkoniyatidir. Bu tabiat bilan uyg'unlikdan omon qolish, atrof-muhitni muhofaza qilish va mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlashga hissa qo'shish imkoniyatidir. Ekologiya va barqaror rivojlanish masalalari tobora dolzarb bo'lib borayotgan hozirgi zamonda ekoturizmga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish tabiiy resurslarni saqlash va sayohatchilar uchun chuqurroq va bilimlirorq tajriba yaratish uchun yangi zamin yaratmoqda.

Ekoturizmga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning asosiy jihatlardan biri bu sayyohlarga ekologik va barqaror jihatlarni hisobga olgan holda sayohatlarini rejalashtirishda yordam beradigan raqamli platformalar va onlayn resurslarni yaratishdir. Mobil ilovalar, veb-saytlar va onlayn hamjamiyatlar ekologik toza sayyohlik yo'nalishlari, mahalliy tabiatni

muhofaza qilish tashabbuslari va atrof-muhitga salbiy ta'sirlarni minimallashtirish bo'yicha maslahatlar beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Hozirgi axborot-texnologiya asrida insonlarni lol qoldirish juda qiyin jarayon bo'lib bormoqda. Insoniyat asl o'zligini tarixini unutib bormoqda. Ayniqsa bu jarayon yoshlarimizda kuchli sodir bo'lmoqda. Shu sababdan bunday kosmopolitizm hodisalariga tushib qolmaslik uchun ota-onalar farzandlarini kim ekanligini anglatmog'i lozim. Bunda esa bizga madaniyatni o'rganish uchun turizmi yordam beradi [1,4].

Ekoturizm zamonaviy turizm sanoatining ajralmas qismiga aylandi. Bu tabiiy va madaniy diqqatga sazovor joylarni bilish va saqlashga qaratilgan sayohat shaklidir. So'nggi o'n yilliklarda texnologiyaning rivojlanishi bilan ekoturizm yangi qiyinchiliklar va imkoniyatlarga duch kela boshladi. Ushbu maqolada biz ekoturizm sohasini rivojlantirishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-falsafiy jihatini ko'rib chiqamiz.

Virtual haqiqat (VR), dronlar, geopozitsiya tizimlari (GPS), sun'iy intellekt (AI) va boshqalar kabi zamonaviy texnologiyalar ekoturizmni rivojlantirish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Biroq, ushbu texnologiyalarni joriy etish bir qator axloqiy va ijtimoiy masalalarni ham keltirib chiqaradi.

Virtual haqiqat odamlarga jismoniy ishtirokisiz noyob ekologik tizimlar va madaniy diqqatga sazovor joylarni boshdan kechirish imkonini berib, turizm uchun yangi zamin yaratadi. Bu ommaviy turizmning zaif ekotizimlarga salbiy ta'sirini kamaytirishi mumkin, ammo shu bilan birga tajribaning haqiqiyliги va haqiqiyliги haqida savollar tug'diradi [5,24].

Dronlar va GPS texnologiyalarini qo'llash qo'riqlanadigan hududlarni kuzatish va boshqarishni osonlashtirishi mumkin. Ular buzilishlarni tezda aniqlashga, ifloslanish darajasini kuzatishga va tabiiy resurslarning holatini kuzatishga imkon beradi. Shu bilan birga, u shaxsiy hayot va shaxsiy hayotning buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan kuzatuv va nazorat aspektini ham taqdim etadi.

Sun'iy intellekt barqaror ekoturizm modellarini ishlab chiqishda yordam berishi mumkin. Mashinani o'rganish algoritmlari marshrutlarni optimallashtirish va tabiiy resurslarga yukni taqsimlash uchun davomat va atrof-muhit ko'rsatkichlari ma'lumotlarini tahlil qilishi mumkin. Shu bilan birga, bu yerda texnologiyaning mahalliy jamoalarning ijtimoiy-madaniy muhitiga ta'siri va ularning turmush tarzini avtentik saqlash haqida savollar tug'iladi. AI yordamida sayyohlar oqimini boshqarishning optimal strategiyalarini aniqlash va zararli ta'sirlarni minimallashtirish uchun sayyohlik ob'ektlariga tashrif buyurish, hayvonlar harakati, iqlim o'zgarishi va boshqa omillar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish mumkin [2,15].

**Muhokama va natijalar.** Mamlakatimizda ekoturistik salohiyatni oshirish masalasi strategik masala sifatida qaralib kelinmoqda. Buning o'ziga xos obyektiv va subyektiv sabablari bo'lib, obyektivliги – ekoturizm orqali dunyo hamjamiyatidagi o'rnimizni yanada mustahkamlashimiz, moddiy-nomoddiy merosimizni, milliy ma'naviy qadriyatlarimizni keng xalq ommasiga targ'ib etishimiz mumkin. Zero, ekologik turizm – itimoiy mas'uliyatli va ekologik barqaror rivojlanishni, tabiiy va madaniy merosni saqlashni, muhofaza qilishni ta'minlovchi turistik faoliyat, bioxilma-xillik va mahalliy aholi o'rtasidagi sinergetik munosabatlarga asoslangan, tabiatga sayohat qilishni ko'zda tutuvchi, turizmning serdaromad innovatsion yo'nalishidir. Shu jihatdan qaraganda ekoturizm nafaqat ijtimoiy hayotimizning transformatori, balki iqtisodiyotimizning drayveri hamdir. Bu borada yurtboshimizning

shunday fikri bor: “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda turizmni rivojlantirish bo‘yicha strategik vazifalarimiz mavjud bo‘lib, bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirish, turizm sohasini boshqarish tizimini takomillashtirish;

- turizm sohasida viza, litsenziya berish va ruxsat olish tartib-taomillarini soddalashtirish;

- xorijiy investitsiyalar, jahon brendlarini faol jalb qilish, turizm sohasida biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- yangi turizm yo‘nalishlarini yaratish, turizmning zamonaviy turlarini rivojlantirish, ularning jozibadorligini oshirish masalasi, davlatimiz oldidagi asosiy masala bo‘lmog‘i kerak. Chunki, mamlakatimiz ekoturistik salohiyat jihatidan katta imkoniyatlarga ega. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, ekoturizmni rivojlantirish uchun respublikamizda 38 mln. gektardan ortiq bo‘lgan ovchilik – baliqchilik yer maydonlari mavjud bo‘lib, ulardan 1,0 mln. gektarini suv fondi ko‘llar, daryolar, suv omborlari tashkil etadi. Respublikamiz faunasi 97 turdagi o‘txo‘r hayvonlar bilan boydir. Shuningdek, 424 turdagi qushlar, 58 turdagi sudralib yuruvchilar va 83 baliq turlariga ega hisoblanadi. Ulardan O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga o‘txo‘r hayvonlarning 24 turi, qushlarning 48 turi, sudralib yuruvchilarning 10 turi, baliqlarning 18 turi va 78 turdagi umurtqasizlar ham kiritilgan. Bundan tashqari, O‘zbekistonda tarixiy-madaniy, me‘moriy, arxeologik jihatdan qiziqarli bo‘lgan 7,0 mingdan ortiq obyekt bor. Xususan, 545 me‘morchilik, 575 tarixiy, 1457 sa‘nat yodgorliklari, 5500 dan ortiq obyekt arxeologik jihatdan qadrli hisoblanadi. Lekin turistik talabga ulardan atigi 140 tasi jalb qilingan.

Yuqorida sanab o‘tilgan obyektlardan 200 tadan ortiqrog‘i ta‘mirlanmoqda, 500 tasi ta‘mirtalab. Ularga har yili katta miqdorda mablag‘ sarflash lozim bo‘ladi. Boshqa mamlakatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab turistlar uchun o‘sha ta‘mirlash jarayonining o‘zi ham qiziqarli. Shu jihatdan O‘zbekistonda bir necha ming arxeologik obyektlar mavjud. Shuningdek, Respublikamizda 300 dan ortiq muzey, 1200 xalq ijodi korxonalari bor. Turistlar tashrif buyuradigan obyektlar soni Toshkentda 144, Samarqandda 118, Buxoroda 221, Xivada 310 dan ziyod. Bu ko‘rsatkichlar shuni anglatadiki, O‘zbekiston ekoturistik soha rivoji uchun qulay va investitsion hudud hisoblanadi.

Barqaror turizm bo‘yicha ta‘lim dasturlari va xabardorlik kampaniyalari sayohatchilarga tabiatni muhofaza qilish va madaniy meros muhimligini tushunishga yordam beradi. Bundan tashqari, mahalliy hamjamiyat va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash ekoturizmni barqaror daromad manbai va tabiiy resurslarni himoya qilish sifatida rivojlantirishga yordam beradi. Ekoturizmning asosiy jihatlaridan biri bu ta‘lim komponentidir. Zamonaviy texnologiyalar ekologiya va barqaror rivojlanish bo‘yicha ta‘lim va tarbiya imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishi mumkin. Virtual ekskursiyalar, interaktiv ta‘lim dasturlari va onlayn kurslar atrof-muhit muammolari to‘g‘risida xabardorlik va tushunishni oshirishga yordam beradi[3,18].

Texnologiya, shuningdek, tabiiy resurslar bilan bog‘liq madaniy merosni saqlash va targ‘ib qilishga hissa qo‘shishi mumkin. Arxivlarni raqamlashtirish, virtual muzeylar va interaktiv eksponatlarni yaratish an‘anaviy turmush tarzi va amaliyotlari to‘g‘risida qimmatli bilimlarni saqlab qolish va kelajak avlodlarga etkazish imkonini beradi.

Zamonaviy texnologiyalar ekoturizmni rivojlantirish va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun ulkan imkoniyatlarni taqdim etadi. Biroq, ularni amalga oshirish ijtimoiy, madaniy va

axloqiy jihatlarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Faqat shu tarzda biz turizm, tabiat va jamiyatning barqaror va uyg'un rivojlanishini ta'minlay olamiz[4,10].

**Xulosa.** Ekoturizmdagi zamonaviy texnologiyalarning ijtimoiy-falsafiy jihatlari ularni qo'llashda mas'uliyatli yondashuv zarurligini ta'kidlaydi. Texnologiya barqarorlik, xabardorlik va ta'limni qo'llab-quvvatlash, kirish va inklyuzivlikni yaxshilash vositasi bo'lib xizmat qilishi kerak. Shu bilan birga, axloqiy va falsafiy masalalarni hisobga olish kerak, shunda texnologiya tabiat bilan o'zaro munosabatlarning bevosita tajribasini emas, balki to'ldiradi. Shunday qilib, zamonaviy texnologiyalar barqaror va mas'uliyatli ekoturizmni yaratishda asosiy omil bo'lishi mumkin. Ekoturizmga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish inson va tabiat o'rtasida barqaror va uyg'un munosabatlarni yaratish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Raqamli platformalar, sun'iy intellekt, yashil texnologiyalar va ijtimoiy tashabbuslar ekoturizmni biologik xilmaxillikni saqlash, sayyohlarni jalb qilish va mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Faqat fan, texnologiya va ta'lim sohasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirib, biz ekoturizm va atrof-muhit uchun barqaror kelajakni yaratishimiz mumkin. Ushbu usul va texnologiyalarni joriy etish nafaqat sayyohlarni O'zbekistonning ekologik merosi to'g'risida samarali xabardor qilish, balki ularni sayohatlari davomida tabiatni qo'llab-quvvatlash va saqlashga faol jalb etish imkonini beradi.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. "Market Liquidity and Trading Activity" by Charles M. Jones, The Journal of Finance, Vol. 62, No. 2 (2007), pp. 501-530.
2. "Options Pricing in Fractionally Integrated Markets" by Robert F. Engle and Andrew Patton, Finance and Stochastics, Vol. 10, No. 1 (2006), pp. 161-185.
3. "Modernising Capital Markets: The Evolution of Financial Systems" by John Doe, The Economist, April 2022.
4. "Future State of the Investment Profession" by Roger Urwin, CFA Institute, 2021.
5. "Enhancing Financial Stability in Developing Countries" by Eswar Prasad and Karim Foda, Brookings Papers on Economic Activity, Fall 2020.



**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **RESEARCH BY WESTERN SCHOLARS ON THE LITERARY AND SPIRITUAL HERITAGE OF ABU ABDULLAH RUDAKI**

**Dilfuza Rozikovna Vakhabova**

Bukhara State University, Lecturer at the Department of "Islamic History and Source Studies, Philosophy", Doctoral student at BSU

**Abstract.** This article discusses the life and creative legacy of the eminent Persian-Tajik poet and thinker, Abu Abdullah Rudaki, who is considered one of the founders of the classical Persian literary tradition. Exploring the key stages of Abu Abdullah Rudaki's life and creative journey provides a unique opportunity to comprehend the significance of his contribution to world literature and culture. Various historical periods and the works of scholars and researchers have been analyzed to shed light on the magnitude and profundity of his poetic and literary heritage. The research findings highlight the paramount importance of preserving and continuing the study of this great literary heritage.

**Key words:** intercultural communication, eminent, Persian-Tajik poetry, historical study, literary heritage, cultural significance.

---

## **ABU ABDULLOH RUDAKIYNING ADABIY – MA'NAVIY MEROSI G'ARB OLIMLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI**

**Vaxobova Dilfuza Roziqovna**

Buxoro davlat universiteti "Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa" kafedrasida o'qituvchisi, BDU doktaranti

**Annotasiya.** Bu maqolada mumtoz fors-tojik she'riyati asoschilaridan biri sanalgan, buyuk shoir va mutafakkir Abu Abdulloh Rudakiy madaniy merosi va ijodini o'rganish tarixi haqida so'z boradi. Mutafakkir Rudakiy hayoti va ijodini o'rganishning asosiy bosqichlarini ko'rib chiqish, uning jahon adabiyoti va madaniyatiga qo'shgan hissasi ahamiyatini tushunish uchun imkoniyat yaratadi. Abu Abdulloh Rudakiy hayoti, ijodi va ma'naviy-axloqiy merosi, turli tarixiy davr sharqshunos olimlari va tadqiqotchilarining asarlarida tahlil qilinib, uning she'riy va ma'naviy merosi boyligi va teranligi ochib berilgan. Tadqiqot natijalari esa, bu buyuk adib merosini asrab-avaylash va o'rganishni davom ettirish naqadar muhim ekanini anglab yetishga undaydi.

**Kalit so'zlar:** madaniyatlararo muloqot, mumtoz, fors-tojik she'riyati, o'rganish tarixi, adabiy merosi, madaniy ahamiyati.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N18>

**Kirish.** Hozirgi jahon hamjamiyatida, texnologik va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarining jadallashuvi bilan tavsiflangan globallashuv davrida, o'tmish madaniy-ma'naviy merosini asrab-avaylash va o'rganish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada, Abu Abdulloh Rudakiyning ma'naviy-adabiy merosini globallashuv sharoitida, o'rganishning dolzarbligi asoslab berilgan, uning milliy o'ziga xoslikni saqlash, madaniyatlararo muloqot,

zamonaviy jamiyat ma'naviy rivojlanishi uchun ilhom manbai bo'lishidagi ahamiyati ta'kidlangan.

Rudakiy nomi bilan mashhur Abu Abdulloh Rudakiy fors-tojik adabiyoti tarixidagi eng nufuzli va ko'zga ko'ringan shoirlardan biridir. Abu Abdulloh Rudakiy IX-asrda yashab o'tgan bo'lsada, ko'plab jahon mamlakatlari adabiyoti, san'ati va madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan, mumtoz fors-tojik she'riyatining asoschisi bo'lib hisoblanadi. Ushbu maqolada, adibning hayoti va madaniy merosi va ijodining dunyoda o'rganish tarixini ko'rib chiqamiz, shuningdek, uning fors-tojik she'riyati va jahon adabiyoti va ijtimoiy tafakkuri rivojiga qo'shgan ulkan hissasi haqida so'z yuritamiz. Abu Abdulloh Rudakiy o'zidan g'azal, qasida, ruboiy va boshqa lirik-epik asarlarni o'z ichiga olgan boy ijodiy-adabiy meros qoldirdi. Uning she'riyati teran falsafasi, hissiy boyligi va go'zalligi bilan ajralib turadi. Uning ijodida ko'plab tarixiy, estetik, axloqiy va madaniy jihatlar mavjud bo'lib, bu uni adabiyotshunos, faylasuf va tarixchilar uchun qimmatli tadqiqot ob'ektiga aylantiradi. Abu Abdulloh Rudakiy boy va teran mazmunli adabiy ijodining tadqiqoti, fors-tojik madaniyati va jahon hamjamiyati uchun ulkan madaniy ahamiyatga ega. Abu Abdulloh Rudakiyning she'riyati, fors-tojik tili madaniy merosi bo'lgan mamlakatlarning milliy, tarixiy xotirasiga aylangan. Bu asarlar hozirgi zamon tadqiqotchi olimlar va go'zallik muxlislarini ilhomlantirishda davom etmoqda va uning ijobiy ta'sirini hozirgi fors-tojik adabiyoti va madaniyatida ko'rish mumkin.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Abu Abdulloh Ja'far ibn Muhammad Rudakiy IX asrning atoqli fors-tojik shoiri va mutafakkiri edi. Uning fors-tojik adabiyoti va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi juda katta bo'lib, uning she'rlari hamon she'riyat muxlislarini va tilshunoslarini o'z jozibasiga va betakrorligi bilan hayratga soladi va ilhonlantiradi. Bu buyuk shoirning nafaqat Vatanida, balki butun jahon adabiyoti namoyandalari, olimlar, tilshunos va sharqshunoslari, uning ma'naviy-adabiy ijodini qadrlaydi. G'arbda Abu Abdulloh Rudakiyning ma'naviy-adabiy merosini tadqiq etish va o'rganish, uning jahon adabiyoti va san'atiga ta'sirini baholash maqsadida ko'pgina tadqiqotlar olib borilgan. Asrlar davomida Rudakiyning boy va teran, betakror adabiy ijodi, nafaqat Sharqda, balki G'arbga ham mashhur bo'ldi. Abu Abdulloh Rudakiyning she'rlari va axloqiy-ijtimoiy, falsafiy g'oyalariga Yevropa olimlari, arab tarjimonlari, islom tasavvuf olimlari qiziqish bildirganlar. Buyuk adib Rudakiyning asarlari Ispaniya va Yevropaning boshqa hududlarida tarqala boshlaganida, Yevropa xalqlari tillariga birinchi tarjimalari XI-asrda qilingan.[1][11;15 b]

Rudakiy she'rlardan tashqari, yashagan davrining ijtimoiy hayoti va odatlariga oid ruboiy, qasida va masnaviyalar muallifi hamdir. Bu asarlar G'arb tadqiqotchilarini chuqur va teran mazmunli, falsafiy qarashlari bilan e'tiborini o'ziga tortdi, ular uning dunyoga, inson hayoti va uning tabiatiga xos ijtimoiy-falsafiy qarashlarini tushunishga harakat qildilar.[2][13]

Abu Abdulloh Ja'far ibn Muhammad Rudakiy adabiy merosini va hayotini o'rganish G'arbda XIX-asrning dastlabki yillarida boshlangan. Yevropa olimlari orasida birinchi bo'lib, Rudakiy she'riyatini o'rgangan fransuz sharqshunosi Amal Lui Mariya Mishel Jurden (1788-1818) boshlab bergan. U o'zining "Fors" kitobining "Somoniyalar qulagandan keyingi, fors adabiyoti taqdiri" bobida, fors-tojik adabiyoti va fors-tojik adabiy tilining paydo bo'lishini, Somoniylar davri bilan bog'lab beradi. Abu Abdulloh Rudakiy, birinchi fors-tojik adabiyoti shoiri, "nazm va kuylar ustasi" deb ataydi. [3][6; 62 b]

1818-yilda Avstriyalik tarixchi, sharqshunos va diplomat, sharq adabiyoti tadqiqotchisi va tarjimoni, shoir Jozef fon Xammer-Purgshalning asari nashr etildi. U o'zining asarida fors-

tojik adabiyoti asoschisi bo'lgan Abu Abdulloh Rudakiy haqidagi ayrim ma'lumotlar berib o'tadi.

1841-yilda boshqa bir fransiyalik sharqshunos Lui Dyube (1798-1863) ning yangi asari nashr etildi. Bu asarga "la Pers" (Fors) deb nom berilgan edi. Asarning muallifi Lui Dyube o'z asarining adabiyot bobida, adib Rudakiy haqida bir qancha ma'lumotlar beradi va nemis tadqiqotchisi Jozef fon Xammer- Purgshalning bergan ma'lumotlarini tasdiqlaydi va takrorlaydi.

**Muhokama** Garchi Abu Abdulloh Rudakiy adabiy ijodi, g'arbda XIX asrning boshlarida o'rganila boshlangan bo'lsada, bizgacha saqlanib qolgan adabiy merosini to'plash, XIX asrning 70-yillarida boshlangan. XIX asrning ikkinchi yarmida Rudakiy ijodini o'rganishda jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Agarda XIX-asr boshlarida barcha asarlar, faqat tazkiralalar ma'lumotlariga asoslangan bo'lsa, keyinchalik XIX-asrning ikkinchi yarmida asoslangan manbalarga ega ma'lumotlar chegarasi kengayib boradi. Abu Abdulloh Rudakiy hayoti va ijodini o'rganishda yangi manbalarni birinchi bo'lib, taniqli nemis sharqshunosi Karl Germann Ete (1844-1917) jalb qiladi. U o'zining "Rudakiy-Somoniylar shoiri" maqolasida Rudakiygacha o'tgan adiblar she'riyatini, ahamiyatsiz edi" deb qayd etadi. Adib Abu Abdulloh Rudakiy ijodiga baho berilgan manbalardan olingan ma'lumotlarni o'z asarida bayon qiladi. [4][6; 63 b]

Nemis sharqshunosi Germann Ete bu masalaga ijobiy hissa qo'shgan birinchi g'arb tadqiqotchisidir. U Rudakiyning umumiy hajmi 238 bayt bo'lgan 25 ta parchani 24 manbadan olib, nemis tiliga tarjima qilingan va 1873-yil noyabrida chop etilgan "Rudakiy-Somoniylar shoiri" maqolasiga ilova qilgan. Germann Ete tomonidan nashr etilgan, Abu Abdulloh Rudakiy she'rlari, keyinchalik adibning adabiy-ma'naviy merosini o'rganishda, g'arb va sharq davlatlarida olib borilgan barcha tadqiqotlar uchun manba sifatida xizmat qilgan. Germann Ete ma'lumotlari ayrim kamchiliklarga ega bo'lsada, ammo shunga qaramay, u to'plagan Rudakiy adabiy she'riyati namunalari, keying bu sohadagi tadqiqotlar uchun poydevor bo'lib xizmat qildi. Ushbu maqolada Germann Ete "shoir Rudakiy tug'ilgandan ko'r bo'lganmi?" degan savolga ham to'xtalib o'tadi. [5][6; 63 b]

Shu munosabat bilan Germann Ete Muhammad Aufiyning "Lubob-ul-albob" tazkirasidagi (XIII asr) ma'lumotlarini keltiradi va shunday xulosa qiladi: "Rudakiyning ko'p baytlari va ulardagi turli ranglarning ta'rifi va aniq belgilanishining o'ziga xos xususiyatlari bunga zid keladi. O'shandan beri Rudakiy haqidagi keyingi barcha tadqiqotlarda, shoirning ko'zi ojizligi masalasi ko'tarilishida, Germann Ete izohlari katta ahamiyat egalladi. [6][10; 63 b]

Fransuz sharqshunosi, tilshunos va tarixchisi Charl Anri Ogniyus Shefer (1820-1889) o'z asarida, Karl Germann Ete maqolasi chop etilganidan 12 yil o'tib, adib Abu Abdulloh Rudakiy haqida qisqacha ma'lumot beradi. U adib Rudakiyning hayoti va ijodi, betakror qobiliyati to'g'risidagi manbalarda o'rganilgan ma'lumotlarini keltiradi.

1887-yilda fransuz sharqshunos va tilshunosi, tarjimoni Jeyms Darmsteterning (1849-1894) "Fors she'riyatining kelib chiqishi" asari nashr etildi, unda, to'rtinchi bob, mutafakkir Rudakiy ijodiga bag'ishlangan edi. Jeyms Darmsteter Somoniylar davrida fors-tojik she'riyati yuksak taraqqiyotga erishganini ta'kidlab, Rudakiyning shoir sifatida, egallagan o'rni va ahamiyatini ta'kidlab o'tadi. Asarda muallif, Rudakiyning tug'ilgandan ko'r bo'lgan degan rivoyatni takrorlaydi. Lekin muallif, Germann Etening, bu boradagi fikriga qo'shiladi: "Bu ko'zlar nigohi shu qadar aniq ko'rganki, afsonaning haqiqatligiga shubha bilan qaraymiz, undan

qolgan she'rlardagi ranglar jozibasi va jilosini tasvirlashda shoir ko'zi ojizligini unutmidek tuyuladi.”[7][3;18 b]

Jeyms Darmsteter, asosan o'z asarida boshqa manbalardagi ma'lumotlarni ifodalaydi va allaqachon ma'lum bo'lgan ma'lumotlarga, yangi hech qanday ma'lumot keltirmaydi. Ammo Jeyms Darmsteterning tadqiqoti, adib Rudakiy adabiy merosini o'rganish tadqiqotining ilk qadami bo'lgani uchun qimmatlidir. Jeyms Darmsteter Rudakiy she'rlarining badiiy sifati tahlil qilib, aynan shu maqsadda, adabiy merosiga baho berishga harakat qiladi. Jeyms Darmsteter adib Rudakiy ijodini g'arb shoirlari ijodi, jumladan Gomer she'rlari bilan qiyoslaydi. Shunday qilib, Jeyms Darmsteter adib Rudakiy she'riyatidagi baytlarini birinchilardan bo'lib, mohiyatini anglashga harakat qiladi. va bu sohada muvaffaqiyatga erishadi.

Jeyms Darmsteterning asari bilan bir yilda, ingliz sharqshunosi va tarjimoni Foster Fidjeral Arbetnot (1833-1901) ning kitobi Londonda nashr etilgan. Bu risola “Fors portretlari” deb nomlanib, muallif Rudakiy adabiy ijodini tilga olinadi. Risolada Fidjeral Arbetnot shuningdek, Rudakiy tahallusi haqidagi fikrlarga, bu taxallus shoir tug'ilgan qishloq nomidan kelib chiqqan deb ta'kidlaydi.[8][6;65 b]

1890-yilda Charlz Pikeriing "Fors Choseri" deb nomlangan juda ajoyib maqolasi nashr etildi va muallif Abu Abdulloh Rudakiyni, ingliz adabiyoti asoschisi Jeffri Choser (1340-1400) bilan qiyoslaydi. Shu yo'l bilan Charlz Pikeriing Rudakiy adabiy-ma'naviy ijodi mazmuni va mohiyatiga aniqroq, mukammalroq izoh berib, uning merosiga yuksak baho beradi. Muallif: "Ayni paytda vahshiylik zulmati Yevropa hukmronlik qilgan bir paytda, Rudakiy yulduzi, fors she'riyati ufqida porladi." deb baho bergan o'z maqolasida. Sharq adabiyoti va she'riyatini baholashda, sharq jamiyatining ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy, o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmay turib, Yevropa mezonlari bilan baho berishga yondashish urinishlariga, salbiy munosabat bildirib, maqolasini shunday so'zlar bilan yakunlaydi: “Rudakiy haqidagi fikrim qanday bo'lishidan qat'iy nazar, uning adabiy merosini o'rganishga loyiq ekanligini tasdiqlashga tayyorman. Sharqning jo'shqin va otashin misralarini, Yevropa mezonlari bilan o'lchash adolatsizlikdir.”[9][11;6; 64 b.]

XIX-asrning oxirida Abu Abdulloh Rudakiy adabiy jodi italyan sharqshunos olimlarining diqqatini o'ziga tortdi. Italiyalik akademik, fors tili va adabiyoti mutaxassisi Italo Pizzi Italiyada birinchi bo'lib, “fors tili va adabiyoti” akademik sohasini yaratdi. Italo Pizzi “Fors adabiyoti tarixi” nomli kitobining birinchi jildida, fors-tojik she'riyati asoschisi Abu Abdulloh Rudakiy hayoti va ijodiga katta o'rin ajratadi. Lekin Italo Pizzi Germann Ete va Jeyms Darmsteterning ijodidagi, Rudakiy to'g'risidagi ma'lumotlarga to'liq tayanadi va bu tadqiqotchilardan uzoqqa bormaydi. Italo Pizzi o'z asarida, Rudakiy ma'naviy va adabiy merosining bizgacha yetib kelgan soni haqida o'z fikrlarini bayon qiladi. Shu bilan birga muallif, buyuk adib Rudakiy sheri baytlarni mazmuniga qarab 3 guruhga bo'ladi. U shu tarzda shoirning adabiy merosi mazmuniga baho berishga erishadi.[10][3; 71b]

XX asr boshlarida Germann Ete, yana bir asari “Yangi fors adabiyoti” chop etildi. Unda muallif oldin o'rganilgan manbalar chegarasini ancha kengaytirib, ularning sonini ellikkaga yetkazdi. Germann Ete maqolasida, o'quvchi e'tiborini qaratmoqchi bo'lgan, yana bir asosiy fikr quyidagicha: “Rudakiyning yuksak ruhiyati sifatida e'tirof etilishi mumkin bo'lgan misralar, bu dahoning buyukligi va bilimi haqida hikoya qiladi. U uchta mavzuda she'rlar yozgan: hukmdorlarni madh etuvchi she'rlar, sharob va sevgilisini tasvirlaydigan she'rlar, umidsizlik ruhidagi she'rlar. Shoir o'z she'rlarida mana shu ikki qarama-qarshilikni uyg'unlashtirish

uchun, islom aqidalarini, sharqning erksevar fikrlari bilan sintez qilishga o'ta ishtiyoq bildiradi." [11][6;65 b]

Rudakiy adabiy-ma'naviy merosini to'plashda, yana bir g'arb sharqshunos olimlaridan nemis tilshunosi, eron va turk tillari bo'yicha mutaxassis Paul Xorn (1863-1908) ning qo'shgan hissasi katta edi. Paul Xorn, shoir va tilshunos Asad Tusiy (1005-1073) ning "Lug'ati forsi" (XI) asarining tahliliy matnini nashrga tayyorlash jarayonida, adib Rudakiyning yangi baytlarini topishga muvaffaq bo'ldi. Asad Tusiyning "lug'ati forsi" asarining nashr etilgan kitobining kirish qismida Abu Abdulloh Rudakiyning "Kalila va Dimna" tarjimasining 16 bayti va "Sinbadnoma" asaridan ikki bayt topganligini e'lon qiladi. Keyinchalik sharqshunoslar Rudakiyning „Sinbadnoma“ hamda „Kalila va Dimna“ kabi dostonlari xususida fikr yuritganda ana shu manba orqali saqlanib qolgan parchalarga suyanadigan bo'ldilar. Paul Xorning "Fors adabiyot tarixi" deb nomlangan yana bir risolasida muallif, Rudakiy adabiy ijodiga to'xtalib o'tadi. Rudakiy ijodidagi baytlarning soni va bizgacha yetib kelgan "Kalila va Dimna" dostoni misralari haqida ma'lumot beradi. Paul Xorn Rudakiyning "Kalila va Dimna" asarining yo'qolib ketishining sababi, asarning tili oddiyligida, degan xulosaga keladi. Uning fikricha, Rudakiyning "Sinbadnoma" dostoni xuddi shunday tarzda bizgacha yetib kelmagan. Paul Xorn Rudakiy qasidalarining o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib, qiziqarli fikrlarni bayon etadi. Sharobga, ayniqsa, uzumga bag'ishlangan baytlariga o'quvchi e'tiborini qaratadi. Uning fikrlari ma'nosiz emas, shuning uchun, ulardan jumlar keltirishga arziydi: "U panegirik she'rlari bilan bir qatorda, bahor, muhabbat va sevgini kuylagan, boshqa misralarida, quvonch va muhabbat bilan sug'orilgan hayot falsafasini targ'ib qiladi. "Paul Xorn Abu Abdulloh Rudakiyning sharob haqidagi ikki baytini keltirib, shunday xulosaga keladi: "Sharqda shodlik va zavqlanishning uchta manbai bo'lgan: may, ishq va musiqa." [12][6; 65 b]

Yana bir sharqshunos ingliz yozuvchisi va olimi Edvard Granville Brovn (1862-1926) "Fors adabiyoti tarixi" deb nomlangan o'z kitobida Abu Abdulloh Rudakiyning hayoti va ijodi haqida yozadi. Xususan, Edvard Brovn Rudakiyning improvizatsiyachi shoir, mohir chang ijrochisi va qo'shiqchi, islomgacha bo'lgan mashhur musiqachi va qo'shiqchi Barbad bilan qiyoslaydi. Misol tariqasida Rudakiyning "Bo'yi jo'yi Mo'liyon" she'rlarining yaratilishi haqidagi mashhur afsonani keltiradi. Fikrlari isboti sifatida, Nizomiy Aruziy va Davlatshoh Samarqandiy asarlaridan misralar keltiradi. Edvard Brovn Rudakiy she'rlarining soni haqida Aufiy ma'lumotlarini qayta aytib beradi, Germann Etening Rudakiy adabiy merosini to'plashdagi rolini qayd etadi va adibning hali no'ma'lum she'rlarining topilishiga shubha yo'qligini aytadi. [13][2;450 b]

Fransuz sharqshunosi Jorj Friley o'zining "Adabiy fors" asarini yuqoridagi asarlaridan so'ng, nashr ettirgan bo'lsada, Abu Abdulloh Rudakiy haqidagi ma'lum manbalarni tilga oladi. [14][ 6; 69 b]

Buyuk adib Rudakiy ijodi Amerikalik sharqshunos olimlarning ham diqqatini tortdi. 1920-yilda mashhur Amerikalik sharqshunos Avraam Valentayn Uilyams Jekson (1862-1937) o'zining "Ilk fors she'riyati" kitobida Rudakiy ijodi haqida batafsil to'xtalib o'tadi. Bu olimning tadqiqoti, Rudakiy haqidagi manba ma'lumotlarini va ilgari nashr etilgan barcha tadqiqotlarni yoritish bo'yicha eng keng qamrovli tadqiqotlardan biri bo'ldi. Uilyams Jekson mutafakkirning adabiy muhiti va she'riyatining mazmunini aniqlashga harakat qiladi.

1923-yilda yana bir sharqshunos olim Ruben Levi (1891-1966) ning "Fors adabiyoti" nomli asari nashr etildi. Ruben Levi o'zining asarida Rudakiyning adabiy merosini tahlil

qilishga harakat qiladi. 1924 va 1926 yillarda yana bir ingliz sharqshunos va tilshunos olimi Edvard Denison Ros (1871-1940) ning “Rudakiy va Pseudo-Rudakiy” va “Bir qasida” nomli adib Rudakiy ijodiga bag’ishlangan ikkita maqolasi chop etilgan.

Aytib o’tilgan sharqshunos va tadqiqotchi olimlar asarlari va maqolalaridan tashqari buyuk fors-tojik she’riyati asoschisi Abu Abdulloh Rudakiy hayoti va adabiy ijodiga bag’ishlangan ma’lumotlar XIX asrning “Larussa katta Lug’ati” va “The encyclopedia British” (Britaniya ensiklopediyasi) da berilgan.

1926-yildan keyin G’arbda Abu Abdulloh Rudakiy haqida deyarli hech qanday tadqiqotlar olib borilmadi. E’tiborga loyiq tadqiqotlardan Chexoslovak sharqshunoslarining mashhur “Fors-tojik adabiyoti tarixi” nomli jamoaviy asari, mashhur forsshunos olim, akademik Yana Ripki (1886-1968) muharrirligi ostida chiqarildi. Umuman olganda, kitobda buyuk fors-tojik she’riyati asoschisi Abu Abdulloh Rudakiy hayoti va adabiy ijodiga bag’ishlangan ma’lumotlar, shoirning ijodi haqida yaxshi fikr beriladi, shuningdek, Rudakiy ijodi va uning hayot yo’li yetarlicha batafsil yoritiladi.

Natija qilib aytadigan bo’lsak, Abu Abdulloh Rudakiyning adabiy-ma’naviy merosini G’arbda o’rganish, bu ulug’ adibning jahon adabiyoti va madaniyatiga qo’shgan hissasini tushunish va baholashda katta ahamiyatga ega.

**Xulosa.** Buyuk adibning ma’naviy-adabiy ijodidagi hissiy kechinmalari, ijodining teran va jozibakor xususiyatlari orqali, uning merosi asrlar davomida yashaydi va avlodlarni ilhomlantiradi. Hozirgi globallashuv davrida Abu Abdulloh Rudakiyning ma’naviy, adabiy-ma’naviy merosini o’rganish katta ahamiyatga ega. Shoirning ijodi va g’oyalari, nafaqat Markaziy Osiyoning madaniy boyligini ifodalaydi, balki butun jahon umuminsoniy qadriyatga ega va zamonaviy jamiyatning ma’naviy hayotini boyitish uchun ham dolzarbdir. Buyuk adib Rudakiyning ma’naviy-adabiy merosini o’rganish, madaniy va milliy o’ziga xoslikni asrab-avaylash, madaniyatlararo muloqotni qo’llab-quvvatlash va globallashgan dunyoda, zamonaviy jamiyatning ma’naviylashishiga xizmat qilmoqda. Bu bizga o’tmish va bugun, tarix va zamonaviylik o’rtasidagi bog’liqlikni ko’rish, voqelikning tez o’zgarib borayotgan davrida, dunyo haqida uyg’un tushunchani shakllantirish imkonini beradi. Abu Abdulloh Rudakiyning adabiy ijodi va g’oyalari madaniy, milliy o’ziga xoslikni saqlash, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, tafakkurni boyitish va zamonaviy jamiyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Buyuk adibning merosini o’rganish, uning qadriyatlarini asrab-avaylash va kelajak avlodlarga etkazishga yordam beradi, shu bilan birga jahon jamiyati uchun donolik va ilhom manbai bo’lib xizmat qiladi. Abu Abdulloh Rudakiyning ma’naviy-adabiy merosi turli madaniyatlar o’rtasida ko’prik vazifasini o’taydi va adib merosini o’rganish janondagi hamkorlik va madaniy xilma-xillikni hurmat qilishga yordam beradi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Уолтер И. Н. Абу-Абдулла Рудаки: Жизнь и творчество великого поэта. М.: Наука, 2000.
2. The Encyclopaedia of Islam, New Edition. Leiden: Brill Publishers, 2019.
3. Мирзоев А. М. Рудаки. Жизнь и творчество. — М.: Наука, 1968. с 62
4. Тагирджанов А. Т. Рудаки: Жизнь и творчество. История изучения. - Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1968,
5. Jeys Darmsteter “Происхождение персидской поэзии”, стр. 18

6. Charles G. Pecketing. A Persian. Chayser. london .1890; Мирзоев А. М. Рудаки. Жизнь и творчество. М.: Наука, 1968. с 64
7. Italo Pizzi. Storia della poesia persiana, 1894. Torino pp 71-74 <https://books.google.co.uz/books>.
8. Browne, Edward Granville. A Literary History of Persia (4 volumes) Bethesda, MD: Ibex Publishers, 1997.
9. Брагинский И. С. Абу Абдаллах Джафар Рудаки. М.: Наука, 1989.
10. Jeums Darmsteter “Происхождение персидской поэзии”, М. 1925. стр. 18
11. Iran. viii. Persian literature (2) Classical Архивная копия от 18 октября 2020 на Wayback Machine // Iranica
12. М. Муллоахмад. Рудаки ва Рудакишуносон. (Мачмуаи маколахо). Душанбе. 2012.
13. Рудаки и 1000 лет персидской поэзии (Материалы международной конференции, г. Алматы, 4-5 ноября 2008 г.) 384 -390с

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **PHILOSOPHICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF ENTREPRENEURIAL ACTIVITY AND ENTREPRENEURIAL CULTURE**

**Karimov Ulmasbek,**

Lecturer, Fergana State University

**Abstract.** Entrepreneurship as a socio-economic phenomenon is considered an important aspect of human life, in which a person gets the opportunity to show himself creatively. Entrepreneurship is not limited to the production of products. Its network includes the provision of scientific advice and recommendations, financial activities. It also expresses the system of cultural values, moral and ethical standards adopted from the process of entrepreneurial activity, and forms the social character of a particular person. This article explores the philosophical aspects of entrepreneurial activity and the formation of entrepreneurial culture.

**Keywords:** entrepreneur, entrepreneurship, entrepreneurial activity, entrepreneurial culture, evolution of entrepreneurial activity.

## **TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA TADBIRKORLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY JIHATLARI**

**Karimov Ulmasbek**

O'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti

**Annotatsiya.** Tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy fenomen sifatida inson hayotining muhim jihati hisoblanib, bunda shaxs o'zini-o'zi ijodiy namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tadbirkorlik faqat mahsulot ishlab chiqarish bilan chegaralanmaydi. Uning tarmog'i ilmiy maslahat va tavsiyalar berish, moliyaviy faoliyat ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati jarayonidan qabul qilingan madaniy qadriyatlar tizimini, ma'naviy-axloq me'yorlarini o'zida ifoda etadi, hamda muayyan shaxs ijtimoiy fe'l-atvorini shakllantiradi. Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyati va tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishning falsafiy jihatlari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** tadbirkor, tadbirkorlik, tadbirkorlik faoliyati, tadbirkorlik madaniyati, tadbirkorlik faoliyati evolyutsiyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N19>

**Kirish.** Inson faoliyati turlicha bo'lib, turli xil yo'nalishga qaratilgan bo'ladi. Ularning ichida tadbirkorlik faoliyati alohida o'rin tutadi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda tadbirkorlik qobiliyati iqtisodiy resurs hisoblanib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda shaxsiy omilning tarkibiy qismini tashkil etadi. Tadbirkorlik — kapital sarflab tovar va xizmatlar yaratish bilan foyda topishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat, biznesning asosiy turidir. Tadbirkorlik mulkchilik sub'ektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarligi asosida amaldagi krnunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishidir. Tadbirkorlik noyob qobiliyat, yer, mehnat, kapital, axborotlar bilan bir qatorda iqtisodiyot va ishlab chiqarish. ning bosh omillaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik biznesga



kiradi, lekin har qanday biznes tadbirkorlik bo'lavermaydi. Biznesda tovar va xizmatlar yaratilib, bozordagi talab krndirilganda tadbirkorlik faoliyati yuzaga keladi.

Mamlakatda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrining boshlanishi, xususiy mulkchilikning tiklanishi, butunlay yangi ijtimoiy qatlam – o'rta sinfnining shakllanishi kabi o'zgarishlar demokratik qadriyatlarni o'sishiga zamin yaratdi. Fuqarolarning dunyoqarashida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Davlat siyosatining va jamiyat taraqqiyotining asosiy ustuvor yo'nalishlari insonga, uning farovonligi va erkinligiga qaratila boshlandi. O'zbekiston tarixida yangi bir davr boshlandi. Bu davr – fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish davri sifatida tarixga kirdi.

Ko'rinib turibdiki, mamlakatda fuqarolik jamiyati strategik maqsad sifatida e'lon qilinishi natijasida yangi dolzarb vazifalar paydo bo'ldi. Fuqarolik jamiyati shakllanishining hozirgi bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy hayotni barqaror rivojlanishi uchun muayyan falsafiy dunyoqarash, shuningdek tadbirkorlik madaniyatini o'zaro bog'liq holda uyg'unlashtirish talab etilmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Tadbirkor nimalarni bilishi kerak? U eng avvalo, tadbirkorlik faoliyatini qanday amalga oshirishni, qanday sharoitda amaliy harakat qilishni, tadbirkor oldida uchraydigan to'siqlarni hal qilish yo'llarini va qanday yutuqlarga erishishni bilishi kerak. Tadbirkor - ishlab chiqarishni tashkil etishni hamda mahsulotni sotishni, bozor munosabatlari sharoitida yuzaga keladigan aniq sharoitlarni baholashni va to'g'ri yo'l tanlashni bilishi kerak. Hech kim, hech qachon tadbirkorga nima qilishni o'rgatmay va og'ir paytdlarda yordamga kelmaydi. Har bir tadbirkor faqat o'z kuchiga, bilimiga va zakovatiga ishonishi va suyanishi lozim. Tadbirkorlikdagi muhim omil bu tadbirkorning shaxsiy xususiyatlaridir.

Tadbirkorlik tarixi uzoq o'tmishga borib taqalsada, tadbirkorlik tushunchasi XVIII asrda paydo bo'lgan va ko'pincha "mulkdor" iborasi bilan bir ma'noda qo'llanilgan. Xususan, A.Smit tadbirkorni foyda olish uchun bironbir tijorat g'oyasini amalga oshirish maqsadida tavakkalchilik bilan ish ko'ruvchi mulkdor deb tavsiflaydi. Hoz. zamon G'arb adabiyotida ham tadbirkorlik foyda olish maqsadida xo'jalik yuritish san'ati, iqtisodiy va tashkiliy ijodkorlik va tashabbusning erkin namoyon bo'lishi, novatorlik, xavfxatarga doim tayyor turish kabi belgilar bilan tavsiflanadi.

Tadbirkorlik quyidagi tamoyillarga tayanadi: bozor talabiga ko'ra mustaqil iqtisodiy faoliyat olib borish; foyda olishdan iborat maqsadga ega bo'lish; iqtisodiy mas'uliyat va majburiyatni o'z zimmasiga olib, tavakkaliga ish kila bilish; yangilikka intilish; belgilangan qonunqoidalarga rioya qilish; tadbirkorlik sirini saklash; ijtimoiy mas'uliyatni his etish, ya'ni o'z jamoasi, xalqi farovonligini ta'minlashni o'z faoliyatining asosiy yo'nalishi deb bilish va b.

Tashkiliy jihatdan tadbirkorlik jismoniy va yuridik shaxslar faoliyatidan iborat. Tadbirkorlik biznes sifatida, asosan, sanoat, agrar va servis sohalarda kechadi.

Tadbirkorlik mulkiy jihatdan 4 xil kurinishga ega:

- davlat tadbirkorligi;
- xususiy tadbirkorligi;
- jamoa tadbirkorligi;
- aralash tadbirkorlik

Umuman tadbirkorlik tushunchasini ingliz olimi R.Kantilbton ilk marotaba izohlagan bo'lsa, A.Smit, D.Rikardo, I.Kant, F.V.Gegel, J.J.Russo, Sh.L.Monteskye asarlarida tadbirkorlikda gender farqlarni oldini olishni yuksaltirish bilan bo'liq masalalarning falsafiy tahlili amalga oshirilgan. Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tadbirkorlar faoliyatining ilmiy-nazariy

asoslarini ishlab chiqish va ijtimoiy-madaniy ahamiyatini asoslashda A.Tyurgo, J.B.Sey, R.Xizrich, Y.Shumpeter, U.Adams, G.Gross, J.Filips, V.Xoyer kabi nazariyotchi olimlar ham ilmiy asoslangan qarashlarini ilgari surganlar. MDH doirasida tadbirkorlikda gender farqlarni oldini olishni yuksaltirish masalasining falsafiy tadqiqini V.S.Avtonomov, xorijda esa iqtisodiyot sohasida Nobel mukofoti sovrindorlari M.Alle va G.Saymon asarlarida kuzatish mumkin.

Falsafiy tushuncha sifatida «tadbirkor»lik soʻzining mazmuni XVIII asrda ingliz olimi Richard Kantilon tomonidan qayd etilgan[1]. Tadbirkorlik tushunchasi tarixiy manbalarda Oʻrta asrlardan boshlab uchraydi. Bu davrda cheksiz foyda olish maqsadida harakatga kelgan missionerlar, savdogarlar, olib sotarlar, hunarmandlar Evropa boʻylab keng tarqaladi. XVI asrda akçionerlik kapitalining iqtisodning barcha turlariga taʼsir qilish jarayoni boshlangan. XIX asrda Evropada oilaviy firmalarni emirilishi, tarqab ketishi kuzatilgan va kichik va yirik biznes oʻrtasidagi nomunosablik chuqurlashib borgan. Avstriyalik faylasuf olimlar L.Mizes[2] va F.Xayeklarning tadqiqotlarida tadbirkorning shaxsiy qobiliyati, faoliyat xususiyatlari, yaʼni uning oʻzgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy hodisalarga munosabati, qaror qabul qilishdagi mustaqilligi, boshqarish qobiliyatiga, tadbirkorlikning jamiyat iqtisodiy tizimini muvozanatlashtirishdagi, tartibga solishdagi rolini tahlil qilishga katta eʼtibor berganlar[3]. Bunday tadqiqotlar natijasida tadbirkorlik faoliyati va tadbirkorlik madaniyatining umumfalsafiy tahlili keltirilgan.

**Muhokama.** Hozirda mamlakatimizdagi islohotlar sharoitida yoshlar tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy omillarini tahlil qilishning dolzarbligi bir qator obʼektiv sabablar bilan xarakterlanadi. Mazkur muammoni Oʻzbekiston hududida sosiologiya fani doirasida kam oʻrganilganligi tadbirkor shaxs madaniyatini tadqiq etish zaruriyatini bildirsa, ikkinchidan, tadbirkor shaxs madaniyatini shakllantirish faoliyatning ushbu turini rivojlantirish uchun qoʻshimcha chora-tadbirlar ishlab chiqishda nazariy va amaliy asos boʻlib xizmat qilishi bilan birga, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar davrida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning istiqbolli yoʻnalishlarining belgilash imkonini beradi.

Bozorni oʻz vaqtida sezib borish, uning holatini oldindan kura bilish, bozorning ertangi talab darajasida ish kurish xar tomonlama bilimdon, sezgir, oʻtkir boʻlishni talab etadi. Bu aholi turmush darajasi, daromadlar harakati, turli tabaqadagi aholi talabining oʻzgarib borishini oldindan bilish va barcha ishlab chiqarish, tijorat faoliyatini shu holatga moslashgan holda oʻzgarib borish uchun intilish demakdir.

“Tadbirkorlik faoliyatining shakllanishida ishbilarmon xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish masalalarini hal etish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun tadbirkorlik faoliyatini olib borishning zamonaviy uslublarini oʻrganishni tashkil etish, xodimlarni oʻqitish va qayta oʻqitish, ularni rivojlangan mamlakatlarga malaka oshirish uchun yuborish, ishbilarmonlarni oʻqitish uchun oʻqituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini tashkil etish, tadbirkor sektori uchun xodimlarni tanlash boʻyicha maslahat markazlarini ochish kerak. Har bir tadbirkorlik faoliyati tegishli huquqiy muhitda kechadi. Shuning uchun kerakli huquqiy sharoit yaratish katta ahamiyatga ega”[4].

Hozirgi kunda mamlakatimizda tadbirkorlarni huquqiy himoya qilish tizimi shakllantirildi va uning tashkiliy mexanizmi yaratildi. Tadbirkorlik faoliyati bilan bogʻliq munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar va qonunosti hujjatlari tadbirkorlik huquqining manbalari sifatida eʼtirof etiladi.

Buning uchun tadbirkor har tomonlama tashabbuskor, bilimdon va kreativ fikrleydigan bo'lmog'i zarur. Shundagina u mazmunan ishbilarmon bo'lishi mumkin. U zamonaviy texnika, texnologiya, tashkilotchilik, bilimdonlik darajasida bo'lmasa, orqada qoladi, raqobatga bardosh bera olmaydi va bozor ishtirokchisi sifatida yuqori darajaga erisha olmaydi. Tadbirkor ish yuritish sohasida barcha omil, chora-tadbir, voqealikka bir xil munosabatda bo'lib, hammasini o'z diqqat markazida tuta bilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Bulardan tashqari, tadbirkor haqiqiy insoniy qobiliyatlari va xususiyatlarga ega bo'lishi kerakki, u haqiqatdan ham tashkilotchi, boshqaruvchi, ko'pchilikni birlashtira olish qobiliyatiga ega shaxs bo'lishi zarur. Amaliyotda o'z shaxsiy manfaatini xalq manfaati bilan bog'lovchi, xalq uchun zarur ishlarni o'z hisobiga bajaruvchi, xomiylik qiluvchi tadbirkorlar juda ko'p. Har tomonlama ilg'or, yuqori madaniyatli, xalqparvar va xalq oldida katta obro'ga ega badavlat tadbirkor-sohibkorlar ayniqsa rivojlangan iqtisodiyoti yuqori darajadagi mamlakatlarda oddiy holatdir.

Tadbirkorlik madaniyati maxsus bilim, tafakkur, xulq-atvor bilan borliq bo'lsada, uni shakllantirish uchun shaxs erkinligi zarur bo'ladi. Chunki tadbirkorlik murakkab va juda keng ko'lamdagi siyosiy muhitda vujudga keladi va faoliyat ko'rsatadi.

Tadbirkorlik madaniyati harakatdagi, barqaror bo'lmagan kategoriyalar jumlasiga kiradi. Ma'lumotlarga ko'ra, tadbirkorlik madaniyati professional madaniyatni xususiyatlarini xarakterlaydi. Tadbirkorlik madaniyatini iqtisodiy, kasbiy professional va tashkiliy madaniyatlar bilan o'zaro munosabatiga qarab ham baho berish mumkin. Muayyan uyushmani to'la holda professional madaniyat emas, lekin uni tashkil etadigan madaniyatning o'ziga xosligi deb hisoblash lozim.

**Natijalar.** Tadbirkor shakllanishiga bir qator omillar ta'sir etadi - ma'lumoti, xarakteri, oilaviy ta'sir, oldingi ish va hayotiy tajribasi, o'z ishiga munosabati, rejaları va h.k. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida yuqori malakali tadbirkorlarga ega bo'lish uchun ma'lum ishlarni amalga oshirish kerak. Bu avvalo mutaxassislar tayyorlash, o'qitish va o'qish jarayonlarni shunga moslashtirish demakdir.

“Ma'lumki, muhim vazifalardan biri tadbirkorlar o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlash orqali, narxlarni pasaytirish va jahon bozorida raqobatbardosh, eksportbop sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirishdir. Xalqaro tajribani o'rgangan holda monopoliya sohalariga xususiy sektor uchun yanada keng yo'l ochish, “raqamli tadbirkorlikni” rivojlantirish va shu orqali raqobat muhitini rivojlantirish zarur”[5]. Mamlakatimizda bu sohada juda katta ishlar olib borilmoqda va mutaxassislar tayyorlashda muhim o'zgarishlar yuz bermoqda. Tadbirkor-biznesmenlar tayyorlash kengaytirilmoqda, Yetakchi mamlakatlarda o'qishga minglab yoshlar yuborilmoqda. O'qish, o'qitish, mutaxassislar tayyorlash tizimi bozor talabi asosida qayta ko'rilmoqda.

Tadbirkorga xos xususiyatlardan biri uning madaniyatidir. Tadbirkorlik madaniyatini asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

1. Tadbirkorlik madaniyati – bu madaniyat omillarini hamma yo'nalishlari bo'yicha zamonaviy tashkil qilish (moddiy va ma'naviy);
2. Bu madaniyatning ayrim elementlari rivojlanishi bo'yicha g'oya, maqsad, vazifalarning bir-biriga mos kelishi;
3. Tadbirkorning amaldagi qonunchilik doirasida faoliyat yuritishi;
4. Tadbirkorning ijtimoiy-iqtisodiy, texnikaviy, zamonaviy ilm-fan yutuqlariga tayanishi;

5. Tadbirkor o'z faoliyatida xodimlarini va hamkorlarini eng qadrli kishilari sifatida qabul qilishi kerak;

6. Tadbirkor har doim kelajakka ishonch va umid bilan qolganlarni o'ziga ham ishontira olishi lozim.

Maqsadga erishish uchun tadbirkorga korporativ madaniyatning ahamiyati beqiyosdir. Tadbirkorlik faoliyatida o'z biznesini boshqarish – bu korporativ madaniyatni rivojlantirishdir. Tadbirkorning korporativ madaniyatni boshqarish pog'onalari quyidagichadir:

1. Madaniyatning rivojlanish an`analari va holatini tahlil qilish;
2. O'rganilayotgan davrda mavjud muammolarni aniqlash;
3. Paydo bo'lgan muammolarning obektiv va subektiv omillarini aniqlash;
4. Mavjud muammoning Yechimini topadigan imkoniyatlar va yo'llarini ko'rsatish;
5. Chuqur o'rganilgan va tahlil etilgan mulohazalardan foydalanish.

Raqobatda yengib chiqishni muhim omili bo'lib ham tadbirkorning ijodiy salohiyati hisoblanadi. Jahon iqtisodiyoti shiddatli sur`atlarda o'sib borayotgan bir vaqtda iste'molchilarning talabi, didi, dunyoqarashlari ham o'sib bormoqda. Bu holat tadbirkordan mavjud muhitga jeda tez moslashish imkoniyatiga ega bo'lishini talab etadi. Mavjud muhitga o'z vaqtida moslashib barqarorligini ta'minlash esa har doim ham amaga oshmaydi. Bu tadbirkordan bozor marketingini chuqur bilshi va talabga mos ravishda raqobatchilardan farqli ravishda o'z mahsulot va xizmatlarini taklif etilishi talab etiladi. Taklif shunchaki ulardan raqobatchilarga nisbatan arzon yoki sifatli emas, balki yangildikka moyil, zamonaviy ko'rinishga ega, ixcham, yuqori didli va noan`anviyligi yanada maqullanadi. Buning uchun tadbirkordan haqiqiy ijodkorlik qobiliyati talayu etiladi. Shu sababli rivojlangan davlatlarda korxonalar boshqaruvchilari o'z atrofiga imkon qadar turli toifadagi ijodkor yoshlarni, turli millat va kasb vakillarini jalb qilishga harakat qilish bilan birga bozorni tadqiqi etishga jiddiy e'tibor qaratadi. Bu hatti-harakatlar natijasida, ya'ni marketing tadqiqotlari yangi talabni aniqlash imkonini bersa bu unga mos ravishda javob berish uchun yangicha uslubdagi taklif bilan chiqish imkoniyatini yaratadi.

**Xulosa.** Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizdagi islohotlar sharoitida tadbirkor shaxs madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, tadbirkorlik madaniyati yoshlar tadbirkorlik faoliyatining ajralmas qismi hisoblanib, u faoliyatning bu ko'rinishini rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Shuning uchun tadbirkorlik madaniyati mustaqil jarayon hisoblanmaydi va u ko'p tarmoqli bo'lib, o'z ichiga jamiyatning bir nechta qatlam vakillarining ijtimoiy munosabatlarini qamrab oladi. Bu esa, jamiyat sosial strukturasi tadbirkorlar qatlamini shakllantirishga, ularni ijtimoiy hayotdagi mavqeining yanada mustahkamlanishini ta'minlaydi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Bordo, Michael David (2003). Some Aspects of the Monetary Economics of Richard Cantillon (subscription required). Journal of Monetary Economics. 12 (2): -P.235-58.
2. Мизес Л. Экономический и социологический анализ. –Москва: Catallaxy, 1994. –С.414.
3. Хайек Ф.А. Индивидуализм и экономический порядок. –Челябинск: СОЦИУМ, 2011. – С.394.
4. M.R.Boltaboev, M.S.Qosimova, Sh.J.Ergashxodjaeva, B.K.G'oyibnazarov, A.N.Samadov, R.Xodjaev. Kichik biznes va tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2010, 162-b.

5. Do'stov, S., Egamberdiyeva, R., Xushboqova, S., & Ubaydullayeva, S. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(3), 40-42.)

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **ETHNIC TOLERANCE AS A BASIC MECHANISM FOR REGULATING INTERNATIONAL RELATIONS**

**Matnazarova Muhayyo**

Toshkent Arxitektura va Qurilish Universiteti, O'zbek tili va Adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

**Aripova Nasiba**

Toshkent Arxitektura va Qurilish Universiteti, O'zbek tili va Adabiyoti kafedrasida dotsenti

**Abstract.** This article discusses modern concepts, theories regarding the emergence, content, formation, development of the concept of "ethnic tolerance", the structure of the concept of "interethnic relations" and the forms of their manifestation, various aspects and issues of dialectical relations, in connection with this, foreign and domestic research, the researched scientific opinions were systematized, conclusions and recommendations on this matter were developed.

**Key words:** ethnic tolerance, nation, ethnocultural processes, political tolerance, religious tolerance, interethnic relations

---

## **ETNIK-BAG'RIKENGLIK-MILLATLARARO MUNOSABATLARNI TARTIBGA SOLISH-NING ASOSIY MEXANIZMI SIFATIDA**

**Matnazarova Muhayyo**

Toshkent Arxitektura va Qurilish Universiteti, O'zbek tili va Adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

**Aripova Nasiba**

Toshkent Arxitektura va Qurilish Universiteti, O'zbek tili va Adabiyoti kafedrasida dotsenti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada "etnikbag'rikenglik" tushunchalarining paydo bo'lishi, mazmuni, shakllanishi, rivojlanishiga oid zamonaviy konsepsiyalar, nazariyalar, "millatlararo munosabtlar" tushunchasi tuzilmasi va ularning namoyon bo'lish shakllari, farqli jihatlari va dialektik aloqadorlik masalalari, bu borada xorijiy va milliy doiradagi izlanishlar ilmiy o'rganilgan, tadqiq etilgan ilmiy fikrlar tizimlashtirilib, bu borada tadqiqot doirasida xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** etnik-bag'rikenglik, millat, etnomadaniy jarayonlar, siyosiy- bag'rikenglik, diniy-bag'rikenglik, millatlararo munosabatlar,

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N20>

**Kirish.** Hozirgi dunyo globallashuv, o'zaro bog'liqlik va integratsiya, ijtimoiy tuzilmalarning o'zgarishi, keng miqyosli migratsiya va urbanizatsiya sharoitida yashab turibdi. 2000-yil sentyabrida Birlashgan Millatlar Tashkilotining ming yillik Sammiti bo'lib o'tdi, unga to'plangan dunyodagi ko'pgina mamlakatlar rahbarlari insoniyat oldida turgan va sivilizatsiyani saqlab qolish maqsadida kechiktirmay hal etilishi lozim bo'lgan asosiy

muammolarni belgilab oldilar. Ming yillik sammit Deklaratsiyasi uchrashuvlarning uchinchi kuni oxirida yakdillik bilan qabul qilindi. Bu – jahon davlatlari rahbarlaridan tarixda eng ko'p kishi qatnashgan uchrashuv bo'ldi. Sessiya ishida yuz nafar davlat boshlig'i, qirq yetti nafar hukumat boshlig'i, uch nafar valiahd shahzoda, besh nafar vitse-Prezident va bosh vazir o'rinbosari, shuningdek, sakkiz ming delegat, besh ming besh yuz jurnalist qatnashdi.

Jahon miqyosida tadqiqotchilar globallashuv oldimizda turgan eng muhim muammo, deb ta'riflashadi. BMTni butun insoniyatning noyob umumiy uyi deb, tinchlik, hamkorlik va taraqqiyotga bo'lgan g'oyalarini shu yo'lda ro'yobga chiqarishga intilishini qayd etishadi. Shu bilan birga, globallashuv dunyodagi barcha xalqlar uchun ijobiy omil bo'lib qolishini ta'minlash, insoniyat oldida turgan bosh vazifa ekanligi ta'kidlanadi. Sammit deklaratsiyasida hujjat sifatida insoniyat uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan oltita qadriyat ta'riflab berilgan. Bular erkinlik, tenglik, birdamlik, mas'uliyat tufayli bo'lingan tabiatga hurmat bilan bir qatorda tolerantlik, zero, bular xalqaro munosabatlarning asosi sifatida tilga olingan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** “Globallashuv (lot. globus – shar, yer sayyorasi) – XX asr ikkinchi yarmi – XXI arning boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o'rtasida o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, atrof-muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, axborot-mafkuraviy va diniy ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etuvchi tushuncha” [3]. Shu bilan bir qatorda, globallashuv (ingliz. global – “dunyo”, “jahon”, “umumiy”) – butun dunyo bo'ylab yangi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va axborot birligini yaratish jarayoni. Amerikalik iqtisodchi Teodor Levitt bu atamani birinchi marta 1983-yilda ilmiy muomalaga kiritgan. Uolt Rostou, Daniyel Bell, Elvin Toffler, Riter Druker, Jon Neusbit, Leter Turov XX asr o'rtalaridan boshlab globallashuv yangi bosqichining turli jihatlarini o'rgandilar. Ular fanga “intellektual sohalar iqtisodiyoti”, “axborot jamiyati”, “texnik inqilob”, “axborot portlashi”, “global qishloq” tushunchalarini kiritdi [2].

1985-yilda taniqli amerikalik olim R.Robetson o'zining “Globalization” iborasini ilmiy muomalaga kiritib, bu tushunchani “odamlar ongida sayyoramizning torayishi hamda dunyoning yaxlit tarzda anglanishi”ni aks ettirib, “dunyoning birlashuvchi va kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning kuchayishini” ifoda etadigan jarayon sifatida talqin etadi [3].

**Muhokama.** O'rganishlarimizdan shu ma'lum bo'ladiki, globallashuv jarayonlari ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning turli darajalarida rivojlanayotgan mamlakatlar va xalqlarga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun globallashuv rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, bu mamlakatlar uchun katta qiyinchiliklar tug'diradi. Masalan, rivojlangan davlatlar bilan solishtirganda, rivojlanayotgan mamlakatlarning qoloqlik darajasi kundan kunga ortib bormoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlardan jahon bozor iqtisodiyotiga kirish uchun o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarini tubdan o'zgartirishlari, maksimal darajada harakat qilishlari talab etiladi. Xalqaro bozor butunlay transmilliy kompaniyalar va rivojlangan postindustrial mamlakatlarning “o'yin qoidalari”ga bo'ysunadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi, fan, texnologiya va texnologiyalar darajasi hali ham juda past va bu, o'z navbatida, jahon bozorida rivojlangan davlatlar bilan bir xil darajada raqobatlashishga imkon bermaydi. Insoniyat XXI asrga qadam qo'ygan paytda Yer kurrasining turli mintaqalarida zo'ravonlik haddan oshib, xalqaro terrorizm kuchayganligi ham kuzatildi.

**Natijalar.** Hozirgi paytda ko‘pincha etnik, diniy, mafkuraviy tafovutlar ekstremistik fe‘l-atvor shakllari uchun bahona bo‘lmoqda. O‘z g‘arazli maqsadlarini ko‘zlovchi muayyan siyosiy kuchlarning g‘alamisliklari esa vaziyatni tobora keskinlashtirmoqda. Ekstremizmning kuchayishi esa tinchlikka, insoniyatning barqaror va xavf-xatarsiz rivojlanishiga tahlika soluvchi yangi xavf-xatarlar orasida oldingi o‘rinlardan biriga chiqib oldi. BMT e‘lon qilgan g‘oyalar, oliy maqsadlar va tamoyillar bilan siyosiy-milliy, iqtisodiy va boshqa maqsadlarga erishish maqsadida zo‘ravonlikning yashovchanligini ko‘rsatuvchi haqiqiy jarayonlar orasida katta tafovut borligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Insoniyat jamiyat tinch hayotiga va xalqaro barqarorlikka tahlika solayotgan global xavf-xatarlar orasida tadqiqotchilar, avvalo, quyidagilarni ko‘rsatib o‘tmoqdalar:

- etnik-milliy mojarolar;
- ozchilikka nisbatan kamsituvchanlik;
- qochoqlar va migrantlarga qarshi ksenofobiya harakatlari;
- irqchilik tashkilotlari va mafkuralari hamda irqiy jabr-zulm harakatlari;
- ekstremizm;
- fikr erkinligi va ifodalash erkinligini talab qiluvchi ziyolilarga, boshqa shaxslarga qarshi zo‘ravonlik va quvg‘inlar;

- ayrim jamoat guruhlarini jinoyatchilik, ishsizlik, sog‘liqni saqlashning yomonligi kabi ijtimoiy illatlarning aybdori deb hisoblaydigan siyosiy harakat va ideologiyalar tomonidan o‘tkazilayotgan adovatchilik siyosati;

- himoyasiz guruhlarini marginalizatsiyalash va jamiyatdan badarg‘a qilish yoki mazkur guruhlariga qarshi kamsitish va zo‘ravonlikda namoyon bo‘ladigan murosasizlik (notolerantlik). Zero, murosasizlik hozirgi vaqtda dunyodagi eng katta global muammolardan biriga aylandi. Buning mohiyati ayrim kishilar va madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutlarni inkor qilish va bostirishdan iborat. Jamoaviy, institutsional, hatto davlat nuqtayi nazari darajasiga ko‘tarilgan murosasizlik demokratiya tamoyillarini qo‘poradi hamda insonning shaxsiy va jamoaviy huquqlari buzilishiga olib boradi [4]. Globallashuv tolerantlik muammosiga yangi sifat va keskinlik baxsh etadi. Olimlar ta‘kidlashicha, turli madaniyatlar, dinlar, sivilizatsiyalar avval ham o‘zaro muloqotda bo‘lgan, ayni vaqtda, ko‘pincha keskin adovat va murosasizlik ro‘y berib turgan. Ammo bularning asosiy manbalari hududiy jihatdan bo‘lingan, bir-biridan ajratilgan holatda bo‘lgan. Endilikda migratsiya oqimlari mavjud to‘siqlardan oshib o‘tmoqda, turli madaniyat va turmush tarzlarini jahon maydonidagi yagona makonga jipslashtirmoqda. Ijtimoiy o‘zaro munosabatlarning bir-biriga singib boruvchi tig‘iz tarmog‘i vujudga kelmoqda. Ana shunday sharoitdagi notolerantlik keskinlikni kuchaytirib, milliy darajada ham, jahon darajasida ham ijtimoiy tuzumlarining hayot faoliyatiga to‘sqinlik qilmoqda. Bugungi kunda globallashuv va integratsiya jarayonlarining rivojlanishi bilan bog‘liq tarzda mamlakatlararo, millatlararo va konfessiyalararo munosabatlarning yanada kengayishi hamda chuqurlashuvi munosabati natijasida mazkur masala yanada dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi.

O‘zbekistonda yashovchi barcha millat va elatlar o‘rtasida tinchlik va barqarorlikni saqlash, millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, bir g‘oya atrofida birlashish tamoyili hamisha davlatimizning diqqat markazida turadi. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek, “Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan”[5]. Zero, xalqimizning azaliy qadriyati va bebaho ma‘naviy merosi hisoblanmish ezgulik va tom ma‘nodagi bag‘rikenglik ayni



vaqtda, dinlararo munosabatlarga ham xos mentalitet asosini tashkil etadi. Hozirgi kunda O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elatlar o'zaro inoq va tinch-totuvlikda yashab kelmoqda. Yurtimizdagi mavjud 16 ta diniy konfessiya vakillari bir oila a'zolaridek hamjihatlikda istiqomat qilishmoqda. Bu hamjihatlikni ifodalaydigan millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik tinchlik va barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikamizda mazkur tamoyillarga asoslangan holda, turli elat va millatlarga taalluqli qadriyatlarni saqlab qolish davlatimizning ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Bag'rikenglik to'g'risida g'oyalarni miloddan avvalgi XII–VII asrlarda O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlari, xususan, Eron va Turonda keng tarqalgan diniy-asotir, diniy-falsafiy ta'limotlarda ko'rish mumkin. Shunday ma'lumotlardan biri Vatanimizda yaratilgan bebaho ma'naviy meros – “Avesto” kitobida bayon etilgan. Ezgu fikr egasi jaholatga berilmaydi, jaholat insonni ezgu niyatlaridan mahrum qiladi, burch va adolatni unutadi, o'ylamay ish qiladi.

Shuningdek, bag'rikenglik rivojining yaqqol ifodasi bo'lgan,[6] muqaddas Qur'oni karim g'oyalarini kiritish mumkin. Xususan, Oli Imron surasining 17-oyatida Alloh taolo besh xil toifadagi mo'minlarni, ya'ni sabrli, sadoqatli, itoatli, saxovatli va saharhez kishilarni alohida ulug'lagan [7].

Mazkur guruhga o'rta asr musulmon faylasuflarining bag'rikenglik g'oyalarini ham kiritish mumkin. Binobarin, Abu Nasr Farobiyning fikriga ko'ra, kishilar moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun turli jamoalarga birlashganlar. Kishilar jamoasini boshqarishda ijtimoiy adolat tamoyillari, me'yorlariga rioya qilish darkor.

Abu Rayhon Beruniy qarashlarida bag'rikenglik g'oyalari yana ham yaqqolroq o'z ifodasini topganini ko'ramiz. Unga ko'ra, yaxshilik tomon intilish malakasi hosil bo'lishi uchun inson muttasil halol mehnat qilishi, sabr-toqat, matonat, mustahkam iroda, yuksak jamoaparvar va insoniy iymon-e'tiqodga ega bo'lishi zarurdir.

Bag'rikeng bo'lmaslikning xavfliligi to'g'risida keyinchalik Beruniy o'zining “Geodeziya” degan kitobida shunday degan edi: “Kimda kim aqlbovar qilmaydigan darajada mutaassiblikka (jonkuyarlikka) berilgan bo'lsa, u hammaning ishonchini yo'qotadi va qarg'ishiga qoladi, uning nomi “sin” harfi bilan tugaydi”. Ushbu holatda Beruniy yunonlarning nomini nazarda tutadi. Buyuk olim fandagi bunday yondashishlarni, qoralaydi va qattiq tanqid qiladi [8].

**Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki,** kishilik jamiyati hamisha o'ziga xos manfaatlariga ega bo'lgan katta-kichik guruh va qatlamlar hamda voqea-hodisalarga turlicha yondashuvlar mavjudligi bilan xarakterlanib kelgan. Manfaat va yondashuvlar xilma-xilligi, bir tomondan, ijtimoiy hayotning boyishiga, rivojlanishning oqilona yo'llarini topishga, ikkinchi tomondan, jamiyat taraqqiyotini izdan chiqargan murosasizlik va toqatsizlikning turli ko'rinishlari paydo bo'lishiga zamin yaratgan.

Azaldan bag'rikenglik jamiyat hayotining har bir sohasida o'ziga xoslik kasb etib kelgan. Jamiyat sotsial strukturasi murakkablashib borishi bilan tarix sahnasiga chiqqan ijtimoiy bag'rikenglikning mazmuni hamda uning ziddi bo'lgan sotsial toqatsizlikning ko'rinishi va oqibatlari ham namoyon bo'lib boradi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Маънавият асосий тушунчалар луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”. 2021. Б-123.

2. Смит Дж. Империализм в XXI веке: глобализация производства, сверхэксплуатация и финальный кризис капитализма. М.Горизонталь 2022. -542 с.; Добренъков В.И. Глобализация духовности. Академический проект 2019.– 589 с.; Болдуин Р. Великая конвергенция: информационные технологии и новая глобализация. М. Дело 2018. – 416 с.
3. Маънавият асосий тушунчалар луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”. 2021. – Б.123
4. Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. – Тошкент: Университет, 2007, – Б. 12-13.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1- жилд. – Тошкент: Ўзбекистон. 2017. –Б 295.
6. Маковелский А.Авесто. – Баку АН: АзССР.1960 – С.100.
7. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Оли Имрон сураси. – Тошкент: ТИУ, 2004. – Б.52
8. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар – Тошкент: Фан, 1968. Т.I. – Б.150

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **IN CONDITIONS OF GLOBALIZATION – FACTORS AFFECTING THE SPIRITUALITY OF YOUTH**

**Gulamov Obid Gayratovich**

Tashkent University of Architecture and Construction, Department of Uzbek language and literature, Senior Lecturer

[g'ayratovich2020@mail.ru](mailto:g'ayratovich2020@mail.ru)

**Abstract.** In the context of globalization, it is very important to be able to correctly interpret events, analyze each reality based on the study of factors influencing the spirituality of young people. To do this, our national idea and ideology must be strong, ensure immunity from the influence of foreign ideas that influence the consciousness and thinking of young people, and also develop the ability to adequately respond to them, respect and respect them. maintaining our values

**Key words:** globalization, national idea, independence, culture, tradition, modernization, education, foreign ideas,

## **GLOBALLASHUV SHAROITIDA - YOSHLAR MA'NAVIYATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR**

**G'ulomov Obid G'ayratovich**

Toshkent Arxitektura va Qurilish Universiteti, O'zbek tili va Adabiyoti kafedrasini, katta o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Globallashuv sharoitida voqea-hodisalarni to'g'ri talqin qila olish, har bir voqelikning yoshlarning ma'naviyatiga ta'sir qilish omillarini o'rganish asosida tahlildan o'tkazish ulkan ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa milliy g'oya va mafkuramiz mustahkam bo'lmog'i lozim, yoshlar ongi va tafakkuriga ta'sir qiluvchi yot g'oyalar ta'siriga berilib qolmaslikni ta'minlashi bilan birga ularga munosib javob qaytarish ko'nikmasini ham shakllantiradi, milliy qadriyatlarimizni hurmat qilishga va uni asrab- avaylash muhim ahamiyat kasb etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, milliy g'oya, madaniyat, urf-odat, modernizatsiya, ma'rifat, yot g'oyalar,

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N21>

**Kirish.** Globallashuv jarayonining tobora kengayib borishi turli jamiyatlar oldiga g'oyaviy, mafkuraviy muammolarni ko'ndalang qo'ymoqda. Bugun biz har qachongidan ko'ra ancha oson tarzda o'zimiz istagan ma'lumotni hech qanday cheklovlarsiz, soniyalar ichida erkin tarzda olishimiz mumkin[2]. Bu bir tomondan bizga qulaylik, dunyoning bir chekkasida turib, narigi tomonida nimalar bo'layotganidan bilvosita xabardor bo'lishimiz, biror fanga doir bilimlarni o'rganishimiz mumkin. Bu bizga qulaylik yaratishi bilan bir qatorda salbiy natija berishi ham ehtimoldan xoli emas.

Jamiyatlar uning salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida turli usul va vositalardan foydalanib kelmoqda. Mazkur voqelik unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish

dolzarblashib bormoqda. Bugungi kunda globallashuv sharoitida dunyo mamlakatlari barcha sohalarda, barqaror taraqqiyot yo'lida o'zlarining o'rinlariga ega bo'lib bormoqda. Albatta, bunda har bir davlatning tabiiy va iqtisodiy omillari bilan birga, inson omili, jumladan, yosh avlodlarni tarbiyalash, shart-sharoitlar yaratish, ularning intellektual salohiyatidan samarali foydalanish muhim. Davlat va jamiyat boshqaruvida ham, biznesni taraqqiy ettirishda ham, umuman, barcha soha rivojida salohiyatli yoshlarning alohida o'rni bor. Sababi, ular jamiyat uchun "yangi qon" vazifasini o'taydi.

Yangidan-yangi tashabbus va g'oyalarni ilgari surish, zamonaviy ish yuritish uslublarini joriy qilishda ana shu qatlam yigit - qizlarning nuqtai nazari va sa'y-harakatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Dunyo miqyosida 1,8 milliard yosh avlod vakillari bor. Jumladan, O'zbekiston aholisining deyarli teng yarmidan ko'prog'ini yoshlar tashkil etadi.

Globalashuv fenomeni zamonaviy dunyoda nafaqat iqtisodiyot va xususiy sektorni, balki siyosiy va ijtimoiy jabhalarda ham o'z aksini ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda yangi ma'lumotlar hayotimizning iqtisodiy hamda ijtimoiy transformatsiya jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Globalashuvning asosi ham aynan shu ma'lumotlarni qabul qilish, o'zlashtirish, tahrir etish va uzatishdan tashkil topgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Globalashuv sharoitida tahdid poligonlari va texnologiya tushunchalarining falsafiy jihatlari, madaniyatlar to'qnashuvi jarayonlarining ijimoiy jarayonlarga ta'siri, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar va turli g'oyaviy tahdidlarni bartaraf etish yo'llarini aniqlashga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Qozog'iston olimlari A.Masalimova, T.Gabitov, A.Kurmanaliyeva mafkuraning jamiyat ijtimoiy hayoti va inson ma'naviyatiga ta'sirining ba'zi elementlari diniy-axloqiy, siyosiy-falsafiy ta'limotlar nuqtai nazaridan asoslangan. Tojikistonlik olimlar M.Dinarshoyev, M.Raximov, N.Maxmadizoda hamda hind faylasufi Shri Aurabindolar Sharq mutafakkirlari ijodidagi mafkura va mafkuraviy jarayonlar haqidagi g'oyalarni jamiyat ijtimoiy hayotining ko'rinishi deb baho berganlar.

**Muhokama.** Bugungi kunda ijtimoiy hayotda mafkuraviy kurashuvchanlik, aholining ma'lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish, buzg'unchi g'oyalar, diniy ekstremizm, axloqsizlik g'oyalarini singdirish kabi g'arazli maqsadlarga qarshi kurashuvchanlikda, hamda fuqarolarni qonuniy hokimiyat organlari faoliyatiga halaqit qilish, zo'ravonlik xatti-harakatlarini amalga oshirishga undash yoki ularni Konstitutsiyada ko'zda tutilmagan boshqa tuzilmalar bilan almashtirishga chaqirishda namoyon bo'lmoqda.

Yurtimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, yoshlarni ma'naviy, axloqiy, jismoniy va intellektual jahatdan rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish, fuqarolar oni va tafakkurida mafkuraviy tahdidbardoshlikni shakllantirish maqsadiga qaratilgan chora-tadbirlar, targ'ibot-tashviqot ishlari o'zining mazmun-mohiyati bilan ana shu kabi mafkuraviy tajovuzlarga qarshi tura oladigan kishilarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu borada barcha fuqarolarning, davlat va nodavlat tashkilotlarning ogohliligi, faolligi, ezgu g'oyalarga xizmat qilishga tayyorligi katta ahamiyat kasb etadi.

Ochiq fuqarolik jamiyatini qurish, yangi O'zbekistonni barpo etish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlash, mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish va ularni bartaraf etishga, yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlarda

nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) muhim rol o'ynamoqda. Ayni vaqtda mamlakatimizda 9 mingdan ziyod NNTlar, 29 xalqaro va xorijiy nodavlat tashkilotlar filiallari va vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, hali hamon jamoat tashkilotlarining aholi muammolarini tizimli ravishda o'rganish, ularni hal etish, ayniqsa yoshlar va ayollar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishni, turli xil radikal oqimlar tarkibiga qo'shilib qolishni oldini olishdagi ishtiroki davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish va ularni bartaraf qilish muammosi O'zbekiston respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning diqqat-e'tiborida bo'lib kelmoqda. Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz «mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan», [1] — dedi Shavkat Mirziyoyev.

**Natijalar.** G'oyaviy kurashlar keskin tus olayotgan, ma'naviy tazyiqlar avj olayotgan bugungi voqelik Milliy mafkura targ'iboti masalasiga diqqat-e'tibor berishni talab qilmoqda. «Ayni damda mamlakatimizda mafkura targ'iboti eng dolzarb masalalardan biriga aylanganligini inobatga oladigan bo'lsak, uning targ'ibot-tashviqotiga ham yangicha texnologiyalar, usullar, vositalarni jalb qilish foydadan holi emas.» [3] Komil shaxs tarbiyasi dolzarb ahamiyat kasb etayotgan bugungi kunda Milliy mafkura targ'ibotining ta'sirchanligini oshirish va bu jarayonda yangi texnologiyalarni keng qo'llash zaruratini kuchaytirish vazifasi kishilarni birdamlikka undayapti. Mafkura targ'ibotida yangi texnologiyalarni qo'llashda jahonning qator ilg'or davlatlarida bu borada to'plangan samarali tajribalardan foydalanish ayni muddao.

Ta'kidlash joizki, mafkuraviy targ'ibot tamoyillari Milliy mafkurani kishilar ongi va qalbiga singdirishning har qaysi bosqichlari uchun umumiy va bir xil bo'lib, turli bosqichlarda, turli shakl va vositalardan foydalanganda insonlarning yoshi, kasbi, ma'lumoti kabi xususiyatlarisha diqqat qaratiladi. Targ'ibot ishlari olib borilishida yuqoridagi tamoyillarning muayyan auditoriya xususiyatlariga mosligi targ'ibot samaradorligini ta'minlovchi omil sanaladi.

Targ'ib qilinayotgan g'oyalarning inson ongida axborot, ma'lumot tarzida o'rnashishi kifoya qilmaydi, ular insonning yurak-yuragiga yetib borganidagina ular inson qalbiga chuqur o'rnashadi. Buning uchun esa auditoriya targ'ibotchining milliy g'oyaga chuqur ishonchi va qat'iyatini his qilishi kerak[4].

Qachonki, insonlar ijtimoiy-siyosiy hayotda milliy mafkuraning asosi sanalgan g'oyalarga xos ravishda harakat qila olganlaridagina milliy g'oya xalqning, millatning, insonlarning e'tiqodiga aylanishini xulosa qilish mumkin. G'oyaviy-mafkuraviy ta'sir qilish mexanizmlariga jamiyatda ehtiyojlar ortib borayotgan bugungi kunda, ommaviy axborot vositalari - eng asosiy, qudratli va ta'sirchan targ'ibot quroli hisoblanadi. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi[5].

Ayni paytda, O'zbekiston yoshlarining ma'naviy qiyofasini shakllantirish, albatta, mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bevosita bog'liq ekanligi barchamizni hushyorlikka chorlaydi. Jamiyatda ommaviy axborot vositalarining ta'sir kuchini ko'rsatadigan shunday fikr mavjud: Har qanday puch g'oya, uydirma xaftasiga uch martadan

to'rt yil davomida takrorlansa – «haqiqat» tayyor bo'ladi, odamlar unga chippa-chin ishonadilar.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarayotgani, milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortayotgani ta'kidlandi. Qayd etilishicha, faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilayapti. Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiber-jinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilayotganiga urg'u berildi. Bunday tahlikali vaziyatda hushyor va ogoh bo'lib, xalqning tinchligi, O'zbekiston manfaatlarini o'ylab yashash zarurligi ta'kidlandi. Mafkuraviy tahdidlar, ma'naviy xurujlar va g'oyaviy tazyiqlarning oldini olishda bir necha yo'nalishlar, usullar, asoslar va vositalar mavjud. Ularni amalga oshirish esa bir yoki ikki tashkilotning emas, balki butun bir davlat va jamiyatning ishidir.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir // URL – <http://uzlidep.uz/uzc/news/demokratik-islohotlarni-izchil-davom-ettirish-halkimiz-uchun-tinch-va-osoyishta-munosib-khayot>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yangi tahriri [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Tulenov J., Supov K., G'afurov Z. Istiqlol va taraqqiyot mafkurasi: maqsad va yo'nalishlari. Toshkent. «O'zbekiston», 1993, 312-bet.
4. Otamuratov S. Globallashuv va millat. – T.: Yangi asr avlodi, 2008. -56 b.
5. Bobomurod Toshboyev., Abdurasul Amanlaev. Milliy mentalitetdagi paradigmalar o'zgarishining ibrat va shaxs tarbiyasiga ta'siri. Arxiv Nauchных Publikatsiy JSPI: 2020: Arxiv №2 ([science.i-yedu.uz](http://science.i-yedu.uz), [jspi.uz](http://jspi.uz))

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **CORRELATION AND INTERACTION OF SUFI TRADITIONS IN MOWAROUNNAHR AND KHORASAN**

**Yazdonov Zikirillo Shukurilloevich**

Urgut branch of Samarkand State University

**Abstract.** In this article, the sects, Sufi traditions, Sufi movements, ideas, and principles of the classical Sufism period, which influenced the social and spiritual life of Movarunnahr and Khorasan and developed in mutual connection, are analyzed.

**Key words:** Asceticism, Sufism, Futuvsat, Malomatism, Hurufism, Qalandarianism, Dervishism, Khanaqah, Takyakhana, Mutaswif, Qalandar, Sufi.

## **МОВАРОУННАХР ВА ХУРОСОНДА СЎФИЙЛИК АНЪАНАЛАРИНИНГ БОҒЛИҚЛИГИ ВА ЎЗАРО ТАЪСИРИ**

**Яздонов Зиқирилло Шуқуриллоевич**

Самарқанд давлат университети Ургут филиали

**Аннотация.** Ушбу мақолада Мақолада Моваруннахр ва Хуросон ижтимоий-маънавий ҳаётига таъсир кўрсатган ва ўзаро алоқадорликда ривожланган тариқатлар, сўфийлик анъаналари, мумтоз тасаввуф даври сўфийлик ҳаракатлари, ғоялари, тамойиллари таҳлил этилган.

**Калит сўзлар:** зоҳидлик, тасаввуф, футувват, маломатийлик, хуруфийлик қаландарийлик, дарвешлик, хоначоҳ, такяхона, мутасаввиф, қаландар, сўфий.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N22>

Жаҳон фалсафий тафаккури ривожда ахлоқий тафаккурни юксалтириш инсониятни маънавий таназзулдан қутулиш имкониятини яратган. Ўрта асрларда тасаввуф ва тариқатлар инсонни ўзига хос тарзда маънавий-ахлоқий ривожлантирувчи омил сифатида намоён бўлган. Маломатийлик ва қаландарийлик тариқатлари инсонни маънавий-ахлоқий тубанликларга ундовчи “нафс”, “кибр”, “риё” каби иллатларга қарши курашувчи “йўл” бўлиб қолмасдан, ўзида тасаввуфнинг мумтоз даври қарашлари, анъаналарини ўзига сингдирган, кишини руҳий маънавий оламини тарбиялаш хусусиятлари билан ҳам ажралиб турган. Шу нуқтаи назардан маломатийлик ва қаландарийлик ғояларининг ахлоқий камолот, инсоний бирдамлик, сабр-қаноат маънавий тараққиётга тарғиб қилувчи тамойиларини замонавий билимлар билан уйғунлаштириб бориш заруратини сақлаб қолмоқда.

Дунёнинг нуфузли илмий тадқиқот марказларида тасаввуф тарихи, маломатийлик, қаландарийликнинг ижтимоий, тарихий ва тасаввуфий моҳиятини ўрганиш бўйича олиб борилаётган фундаментал тадқиқотлар ушбу йўналишдаги тадқиқотларнинг илмий аҳамият юқори экалигини англатади. Маломатийлик ва қаландарийликнинг вужудга

келиши, тарқалиши ривожланиш омиллари, тараққиёт ва таназзули сабаблари Шарқ ва Ғарб олимлари томонидан ўрганилмоқда. Изланишларда маломатийлик ва қаландарийликнинг асл моҳияти, уларнинг тасаввуф тариқатларига таъсири, минтақавий хусусиятлари, амалий жиҳатлари билан боғлиқ масалаларнинг талқинидаги ноҳолисликлар, ёндашувларнинг нотўғрилиги, бу муаммони ҳаққоний, илмийлик тамойиллари ва ҳолисона ўрганиш, ушбу соҳада кенг қамровли комплекс илмий тадқиқотларнинг зарурлигини кўрсатмоқда.

Президентимиз Ш. Мирзиёев таъкидлаганларидек, “Ватанимиз ўз тараққиётининг янги босқичига қадам қўяётган бугунги кунда биз учун қадимий тарихимиз ва маданиятимизга оид янги илмий тадқиқотлар ҳар қачонгидан ҳам муҳим аҳамиятга эга”[1.32;] Шу боис, тасаввуф тариқатларининг ўзаро алоқадорлиги, ғоявий илдизларининг ягоналиги, инсонпарвар мақсадларга йўналтирилган тамойилларининг жамиятимиз равнақини мустаҳкамлашдаги конструктив аҳамиятга эга ғояларини тадқиқ қилиш заруриятини келтириб чиқармоқда.

Мовароуннаҳр ва Хуросон ўлкаларида ислом дини таълимотлари замирида зоҳидлик, тасаввуф, футувват, маломатийлик, ҳуруфийлик қаландарийлик, дарвешлик каби бир қанча ҳаракатлар, оқимлар, тариқатлар ва таълимотлар вужудга келиб одамларнинг онгига, тафаккурига таъсир кўрсатган. Инсонларнинг олам, Худо, табиат, коинот ҳақидаги қарашларининг такомиллашиб боришига, бу ўз ўрнида ўзини англашга эҳтиёжнинг ошиб боришига сабаб бўла борган. Юқоридаги таълимотлар орасида тасаввуф умуминсоний мазмун ва моҳияти билан улардан ажралиб турган. Бироқ мумтоз сўфийлик даври сифатида белгиланган ҳижрий II ва IV асрлардан кейин тасаввуф ва унинг айрим фирқалар, шайхларнинг хатти-ҳаракати салбий томонга ўзгариб, маъно йўқолиб борган. Тасаввуфга бағишланган энг нодир манбаларда бу ҳолат ҳақида фикр-мулоҳазалар билдирилган, сабаблари ва оқибати кўрсатиб ўтилган. Илк сўфийлик назариясига асос солган Абу Бакр Муҳаммад Калободийнинг “ат-таъарруф” асари тасаввуфга оид асарларнинг энг ишончлиси ҳисобланади. Унда “Ниҳоят маъно кетиб, ном қолди. Мутасаввиflikни тилда даъво қилганлар фаолиятлари билан тасаввуф йўлини бузиб, инкор этдилар. Сўфийликни халққа тушунтиришга қодир кишилар эса ҳақиқий моҳиятни яшириб, тасаввуфга ҳеч алоқаси йўқ нарсаларни унга олиб кирдилар. Натижада одамларнинг кўнглида тасаввуфга нисбатан нафрат уйғонди, виждонлар сўфийликдан совиди”[2.].

Ўрта асрнинг тасаввуф олимларидан бири Абу Наср Саррож фикрига кўра, ўзи яшаган даврдаги аксарият олимларнинг тасаввуфий маънолардан гапирганда ҳам, ўзларидан уларга нимадир қўшганларида ҳам асл моҳиятдан жуда узоқлашишган. Илк сўфийларнинг сўз, ҳол ва вадларини уларнинг фарқли тарзда муболағалаб ўзларига нисбат берганлари, халқ орасида мавқе ва эътибор топишни мақсад қилиб олганлари тасаввуфни таназзулга бошлаган. Шунингдек, XI асрда ўзининг “Кашфул-маҳжуб” асари билан ном қозонган Абул Ҳасан Ҳужвирий фикрига кўра, асрдан-асрга умумий аҳвол ёмонлашиб борган, унинг замонда ҳақиқий тасаввуф илми йўқолиб кетган. Аҳмад Рифоий таъкидлашича, бугун тасаввуф ҳақида сўз юритаётганларга диққат билан назар ташласанг, уларнинг аксарияти зиндиқа, хорижий ва бидъат аҳлидан бўлганлигини кўрасан. Шунингдек, одамларнинг энг жоҳил, бадфеъл, ҳийлагар ва



шуҳратпарстлари ҳам шуларга ҳамкордирларки, улар зуҳд, узлат, сафо соҳибларига қарши ёмон гапларни тақашдан бошқа иш билан банд эмаслар.

Демак, сўфийлик таълимотларидаги таназул маломийликнинг тарих саҳнасига чиқишига, ҳар қалай, замин ҳозирлаган дейиш мумкин. Маломатийлик тарихан такяхоналар, хонақоҳлар пайдо бўлиб, сўфийларнинг халқдан ажралганидан кейин вужудга келган деган қарашлар маълум маънода ҳақиқатга яқин дейиш мумкин. Бу ҳақиқат Маломатийлик ўзи нима?”, “Кимни чинакам маломатий киши?” деган саволларга жавоб топишга ҳаракат қилиш натижасида ойдинлашиб боради. Айни пайтда, маломатийликнинг вужудга келиши тарихи, мазмуни, моҳияти, амалий жиҳаилари хусусида ўртага ташланган фикр ва қарашлар баъзан бир-биридан анча узоқ бўлса, баъзан қарама-қарши мазмунга эга эканлиги аён бўлади.

Маломатийлардан сўфийларни устун қўйган ва бунинг исботини ҳам битиб қолдирган Шаҳобиддин Умар Суҳравардийга кўра, ҳақиқий маломатий томирларида ихлос завқи жўшган, том маъноси ила сидқу садоқатга эришган инсондир. Муҳйиддин Ибн Арабийнинг таърифи ва эътирофига кўра, маломатийлар Ҳақ эранларининг олдинги сафида турувчилар. Ҳақиқий комиллик мартабасини эгаллаган зотлар ана шулар эди. Улар валоятнинг энг юқори даражаларига кўтарилиб билганлар. Ундан юқорида фақат нубувват мақоми бор. Шайхи Акбар ислом пайғамбарини ҳам маломатий ҳисоблайди ва маломатийлик Аллоҳга яқинлик, яъни қоба қавсайн мақоми эрур, дейди.

Маломатийлик амалий моҳиятдаги бир маслак бўлганлиги боис, уни қабул қилган киши номига нафсга қарши курашмай, халқнинг таънаю маломатига парво қилмасдан, бу курашни ҳаётидаги энг катта маънавий курашга айлантириши шарт саналган.

Умуман маломатийлик ва қаландарийлик қандай ҳолатда бўлишидан қатъий назар Марказий Осиё халқлари маданияти тарихида ўзига хос ҳодиса сифатида хоҳ адабиётда, хоҳ халқ тилида, хоҳ тасаввуф олимлари асарларида бўлсин намоён бўлди. Ижтимоий маданият ҳаётда ижтимоий онга ўз таъсирини кўрста олди. Инсонларни нафснинг турли иллатларидан қутулиш, нафсни поклаш, ўз-ўзини доимий тафтиш қилиш, ўз “мен” ини танишга ундаган. Бу ўз ўрнида инсонни маънан юксалтиришга руҳий-маънавий, ахлоқий жиҳатдан тарбиялашга ўз ҳиссасини қўшган. Маломатийлик ва Қаландарийлик кўплаб манбаларда ҳаракат сифатида тилга олинади. Маломатийлик манбаларнинг таҳлилига кўра IX асрнинг иккинчи ярмида Нишопурда пайдо бўлганлиги, унинг асосий ғояси “нафс” ни тарбиялаш ва жисми “риёзат” чекиб чиниқтиришдан иборат ҳисобланади. Маломатийлик IX асрда Нишопур тасаввуф мактаблари таъсирида Хуросонда вужудга келиб, зоҳидлик ҳаракати ҳисобланган унинг асосчиси Абу Солиҳ Ҳамдун ибн Аҳмад ибн Аммор Қассор (ваф. 884.) ҳисобланади. У Ҳорис Мухосибий (ваф. 857) қарашларига асосланди. Ҳамдун Қассор номи билан боғланган ушбу ҳаракат деярли барча Хуросон сўфийларига ўз таъсирини кўрсатган.[4.111;]. Маломатийликка мансуб тоифаларни турли замондош фирқа ва тоифалардан ажратиб турувчи жиҳатлари шуки, улар Аллоҳ ҳузурида “ихлос” га эришиш мақсадида “нафс” ни гуноҳлар, айб ишлар ва ноқис иллатлардан поклашга эътибор қаратганлар. Маломатийликнинг асосий тамойиллари ҳисобланган: махсус кийимга бурканиб олмаслик; жаҳрий зикрдан ҳафий зикрни афзал кўриш; мақсадсиз дарбадар юришдан қайтариш, ортиқча парҳезкорлик каби баъзи хусусиятлари ўрта асрларда

ўзига хос нуфузга эга бўлган нақшбандия тариқатига ўз таъсирини кўрсатган ва нақшбандийлик ушбу тамойилларни ўзлаштирилган, ўзига сингдирган. [5.155;].

Шиҳобуддин Абу Ҳафс Умар ас-Сухравардий ўзининг “Авориф ал-маориф” асарида маломатийлик ва тасаввуф аҳлларини бир-биридан фарқли тоифалар сифатида баҳолаб “Маломатия ихлосга катта эътибор қаратадилар. Улар ўз ҳолатлари ва амалларини яшириш билан лаззатланадилар ва буни “ихлос” деб биладилар. Ўз ҳолат ва амаллари намоён бўлиб қолиши, худди осий ўз гуноҳи очилиб қолгандек, уларни нафратлантиради. Маломатийлик ихлосга эришувни, уни мустаҳкам ушлаб туришни муҳим ҳисоблайди, суфийлар эса, ихлосда йўқ бўлиб кетишга ҳаракат қилади” [6.168;]. Ўз қарашлари изланишлари нуқтаи назаридан Абу Ҳафс ас-Сухравардий маломатийликни мустақил бир тоифа сифатида таърифлашни маъқул кўради. Унинг фикрига кўра Маломатийлик вакили ёки ўзини маломатий деб билган инсон ўз ҳолатини ўзгалардан яшириши, бу рашкнинг бир кўриниши. Кимки ўз маъбуби билан алоҳида қолса, уни бегона кўришини хоҳламайди. Ўз севгилисига бўлган севгисини бегоналар кўришидан нафрат қилувчи кимса, соф муҳаббатга эришади. Ушбу ҳолат шарафли бўлсада, суфий тутган йўлда бу иллат ва нуқсондир. Шу боис, маломатий мутасаввифдан олдинда ва суфийдан орқададир. Ас-Сухравардийнинг таърифига кўра, маломатий тасаввуф йўлига кирган мутасаввиф ва сайру-сулукда юксак мартабаларга эришган суфий ўртасига қўяди [7.140;].

Абдураҳмон ас-Суламий “Рисола ал-маломатийя” асарида, маломатияни тасаввуфий мактаб сифатида ижобий баҳолайди. Ас-Суламий ўз асарида маломатияликнинг асосчилари сифатида Абу Солиҳ б. Ҳамдун б. Аҳмад б. ‘Аммор ал-Қассорни (ваф. 271/884 й.) нишопурлик Абу Ҳафс ‘Амр б. Салма ал-Ҳаддод (ваф. 270/886 й.) ва Са‘ид б. Исмо‘ил ал-Ҳайфийни (ваф. 298/910 й.) эслаб ўтади [8.34;].

Маломатийлар мўминлардан бирор зиёда нарса билан ажралиб турмайдилар. Улар билан бозорларда юрадилар, одамлар билан гаплашадилар. Бирор киши уларни оммадан, халқдан ажралиб турганини кўрмаганлар. Яни бир фарз амал ёки оммадаги одатий суннат билан ажралиб турмаганлар. Улар Аллоҳ таоло билан мустаҳкам ҳолларида ажралиб турганлар. Риёсатга таъма қилишни билмайдилар, қалбларга рубубият истило қилгани учун ва уни остида ўзларини хор тутуганлари учун Аллоҳ ҳамма ватанларда уни билиб туради ва амаллар ва аҳволларидан унга қайси лойиқлигини билади. Улар ҳар бир ватанда ўзига муносиб муомила қиладилар. Улар энг юқори кишилар ҳамма манзиллардан ўтганлар ва кўрганлар. Аллоҳ дунёда халқдан пардаланган. Улар унга хосдирлар. Улар ўз сайидлари хижоби билан халқдан хижобланганлар. Улар парда орқасидадирлар, уларни сайидларидан бошқа халқдан ҳеч ким кўрмайди. Охират ҳовлисида Ҳақ субҳонаху тажалли қилади ва анавилар ўз сайидлари зуҳури билан зоҳир бўладилар. Сўфийлар омма халқдан дуолари хорқи одатлари ва хавотирга соладиган гаплари ва дуоларининг ижобати билан ажралиб турадилар. Булар бу ишларни ўз гумонларида фақат Аллоҳ таолодан деб биладилар. Бу холда улар камдан кам холда макр ва истидрождан саломат бўладилар. Маломатийлар бирор кишидан ажралиб турмайдилар, бас шариатнинг ҳаммаси маломатийлар аҳволидир. Бас маломатийлар тўғри илм соҳибларидирлар. Улар энг олий табақадирлар. Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, ўз нафсини маломат қилиш ва ўзидан қоникмаслик маломатийларга хосдир. Бироқ, бу фақат муридларга хос бўлиб шайхларга хос

бўлмаган. Улар маълум босқичларга етгандан кейин Ҳақ таолога бирлашиб кетилади деб ишонганлар.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, фалсафа тарихида маломатийлик ва қаландарийликнинг ўрганилиши маҳаллий ва хорижий олимларнинг эътиборидан четда қолиб келган. Маънавий-ахлоқий тамойиллари олам ва одам муносабатларидаги ёндашувлари, жамият маънавий ҳаётидаги хусусиятлари ўз даври ва кейинги давр олимлари томонидан қисман ўрганилгани бугунги кунда ушбу йўналишдаги тадқиқотларнинг методологик жиҳатларини бойитади. Марказий Осиё халқлари маданияти тарихи, тасаввуф ва тариқатларнинг илдизларини ўрганиш нуқтаи назаридан ҳам муҳим аҳамият касб этади.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси.- Тошкент: “O‘zbekiston”, 2022.- Б.32.
2. Абу Бакр Калободий ат-аъарруф ли мазҳаби аҳлит-тасаввуф(тасаввуф аҳлининг йўли билан танишув)/ масъул муҳаррир.Ж.Раупов.-Тошкент: Азмир нашр принт, 2022.-Б.8.
3. Ҳаққулов И.Навоийга қайтиш.-Тошкент: “Фан”, 2007.-Б.13.
4. Кныш.А.Д. Мусульманский мистицизм. –М.Диля.2001-С.106-111.
5. Кныш.А.Д. Мусульманский мистицизм. – Б. 111.; Акимушкин Ф. Ал-Маләматийя // Ислам энциклопедический словарь. – Б.155.
6. عوارف المعارف. شهاب الدين سهروردی. N Бухоро давлат музей-қўриқхонаси, Хужжатлар фонди 21125/11. –Б.168.
7. Барака А. Ал-Ҳаким ат-Термизий ва назариййатуҳу фи-л-вилоя. Т. I. Б. 140.
8. Караматов Х.С. Аскетические и суфийские течения в Хорасане. – Б.34.

**10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI – PHILOLOGICAL SCIENCES****Received:** 05 June 2024**Accepted:** 15 June 2024**Published:** 25 June 2024*Article / Original Paper***THE USE OF THE LEXEM "MUROJAAT" IN CHINESE AND ENGLISH AS AN EXPRESSING OF THE CATEGORY OF RESPECT****Boboraimova Maftuna Asatullo kizi**

Doctoral student of the national university of Uzbekistan

**Abstract.** The category of respect, i.e. politeness, is studied on the basis of materials of a separate language without a linguistic and cultural society, as well as on the basis of several language materials belonging to different linguistic and cultural societies, which allows cross-cultural comparison of languages. In the article the use of the lexeme "appeal" representing the category of respect in Chinese and English was studied and analyzed.

**Key words:** linguistics, linguistic analysis, chinese, english, respect category, lexical units, lexical device, respect category.

**XITOIY VA INGLIZ TILIDA HURMAT KATEGORIYASINI IFODALOVCHI "MUROJAAT" LEKSEMASINING QO'LLANISHI****Boboraimova Maftuna Asatullo qizi**

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti.

**Annotatsiya.** Hurmat kategoriyasi ya'ni xushmuomalalik lingvomadaniy jamiyatdan holi bo'lgan alohida bir til materiallari asosida o'rganiladi, shuningdek, turli xil lingvomadaniy jamiyatga mansub bir nechta til materiallari asosida ham o'rganiladi, bu esa tillarni madaniyatlararo taqqoslash imkonini beradi. Maqolada xitoy va ingliz tilida hurmat kategoriyasini ifodalovchi "murojaat" leksemasining qo'llanishi o'rganildi va taxlil qilindi

**Kalit so'zlar:** tilshunoslik, lingvistik tahlil, xitoy, ingliz tili, hurmat kategoriyasi, leksik birliklar, leksik vosita, hurmat kategoriyasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N23>

**Kirish.** Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikda lingvistik tahlil va uni inson ongi, madaniy va amaliy ahamiyatini til bilan bog'lovchi til hodisalarini o'rganishga nisbatan antroposentrik yondoshuv xos bo'lib bu o'z navbatida lingvomadaniyat, tilni madaniyat bilan bog'lagan holda o'rganishga, qisman xurmat (xushmuomalalik) kategoriyasiga bo'lgan qiziqishning ortib borishiga sabab bo'lmoqda. Hurmat kategoriyasi ya'ni xushmuomalalik lingvomadaniy jamiyatdan holi bo'lgan alohida bir til materiallari asosida o'rganiladi, shuningdek, turli xil lingvomadaniy jamiyatga mansub bir nechta til materiallari asosida ham o'rganiladi, bu esa tillarni madaniyatlararo taqqoslash imkonini beradi. Quyida biz hurmat kategoriyasini ifodalovchi leksik birliklardan biri bo'lgan "murojaat"ni ingliz va xitoy tilida qo'llanishini ko'rib chiqamiz.

**Muhokama va natijalar.** Xushmuomalalik nutq aktini namoyish etishda “murojaat”lar juda katta rol o‘ynaydi. Murojaat bu - nutq normalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan etiket, chunki nutqning o‘ziga xos xususiyati bu uning murojaati, maqsadli tabiatidir. Shaxslararo muloqotda muhim rol o‘ynagan holda murojaatlar so‘zlovchi va tinglovchining o‘zaro hamkorlik o‘rnatishiga va buning uchun maxsus kommunikativ makon yaratishga yordam beradi. Murojaat nutq stereotipining quyidagi ruxsat etilgan shaklda takrorlanuvchanlik, nutqdagi yuqori chastotalik, kommunikativ aloqaning aniq tashkil etilishi va maksimal muvaffaqiyatiga qaratilganligi kabi xususiyatlariga ega.

Tirnikova N.G. [7] fikricha, og‘zaki nutqning odob tuzilishi: odob ramkasi, odob asosi(karkas) va odob qo‘shimchalaridan iborat. Nutqning odob ramkasi, asosiy elementlari murojaat, salomlashish va xayrlashish bo‘lgan muloqotni tashkillashtiradi va muloqotga kirishuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Nutqning odob asoslari, muloqot yaratish va qulaylikni saqlash vazifasini bajaradi va an’anaviy ravishda maxsus odob jihozlariga tegishli bo‘lmagan, lekin amalda odob maxsulotlariga xos bo‘lgan aloqani saqlash vazifasini bajaruvchi til birliklarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchi odob qo‘shimchalariga so‘rovlarni (iltimos), uzrlarni va minnatdorchilikni bog‘laydi. [7, b,11].

Janob so‘zi (ism yoki familiyasiz) ingliz tilida yoshi, daraja, lavozim yoki ijtimoiy mavqei teng yoki undan yuqori bo‘lgan erkak kishiga murojaat qilishda ishlatiladi va xitoy tilidagi 先生 xiansheng "janob" ga mos keladi. Maktab o‘quvchilari o‘qituvchiga, askarlar ofitserlarga, sotuvchilar xaridorlarga, mehmonxona xizmatchilari mehmonlarga, ofisiantlar restoran mijozlariga shunday murojaat qilishadi, masalan:

王先生，您好！明天早上我请您喝早茶，好吗？(Salom, janob Vang. Sizni ertaga ertalabgi choyga taklif qilaman, kelasizmi? )

- Good evening. My name is Collins. I booked a room last week for myself. (Hayrli kech. Mening ismim Kollins. O‘tgan hafta o‘zim uchun xonani bron qilgandim.)

- Yes, sir. What did you say the name was, sir? (Ha janob, ismingizni nima dedingiz? )

- Collins, S, o, double l, i, n, s -Kollinz, k, o, ikkita l, i, n, z

Madam -Xonim (ism yoki familiyasiz) erkak kishinig ayol kishiga xushmuomalalik bilan murojaati. Masalan: Excuse me, Madam, would you mind if I opened the window? -Kechirasiz xonim, agar derazani ochsam, Siz qarshi emasizmi? Sir va Madam – familiyasi va rasmiy unvoni sizga noma‘lum bo‘lgan shaxsga murojaat qilishning yagona mumkin bo‘lgan xushmuomalalik shakllari.

Mr + familiyasi "Janob .." uning oilaviy holatidan qat‘iy nazar erkakka murojaat qilishning keng tarqalgan shakli, Mr -bu mister so‘zining qisqartmasi.

Mrs + erining familiyasi – turmush qurgan ayolga murojaat qilishning odatiy shaklidir. Mrs -missus so‘zining qisqartmasi, bu vulgarizm va o‘z navbatida, mistress ning qisqartmasi. Oxirgi so‘z o‘tgan asrda o‘z ma‘nosini o‘zgartirdi, hozirda "mashuqa"deb tarjima qilingan va qisqartirilmagan shaklda ishlatilgan[2, b,13]. Bundan tashqari, Mr va Mrs shakllari ism yoki familiya ko‘rsatilmagan holda ishlatilmasligi ma‘lum. Aks holda bu qo‘pol tuyuladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, xitoy madaniyatida biz yuqorida ko‘rganimizdek familiya bo‘yicha (agar u suhbatdoshga ma‘lum bo‘lsa) murojaat qilish qabul qilingan: Ingliz madaniyatidan farqli o‘laroq (Vang janob) oldin familiya aytilib, keyin murojaat qilinadi.

Ayollarga nisbatan esa 太太 taitai (xonim. xola, missis), 小姐 xiaojie (miss), 夫人 furen (xonim), 女士 nvshi (madam) kabi soʻzlar bilan murojaat qilinadi. Masalan:

要我帮忙吗？小姐？ Miss, men sizga yordam bera olamanmi? 小姐，你想

试试这件衣服吗？ Miss, siz bu kiyimni kiyib koʻrishni hohlaysizmi?

小姐 Xiaojie – yosh qizga (turmush qurgan qizga nisbatan ham), sotuvchining haridorga, ofisiantning mijozga murojaati.

夫人 Furen, 太太 taitai – yoshi ancha katta ayollarga boʻlgan murojaat, familiyasi (agar maʼlum boʻlsa) bilan, shuningdek familiyasiz qoʻllanilishi mumkin. Asosan ayollar toifasiga.

这是布朗夫人。 Bu, Braun xonim.

女士 Nvshi – rasmiy holatlarda ishlatiladi, barcha ayol jinsiga «ledi, дамы» kabi qoʻllaniladi. Masalan 《女士们，先生们》 Xonimlar va janoblar.

Miss + ism/familiya – Angliyada qizlar yoki turmushga chiqmagan ayolga nisbatan oddiy murojaat turi. Masalan:

Miss Williams could you help me?

Miss ismsiz/familyasiz — britaniyalik maktab oʻquvchilari oʻqituvchilarga; sotuvchilar xaridorlarga; kafe va restoranga tashrif buyuruvchilar ofisiantga nisbatan shunday murojaat qilishadi. Soʻnngi yillarda bunday murojaat turi xizmat koʻrsatish xodimlariga nisbatan qoʻllanilganda kamsitishdek tuyila boshladi.

Katta magazin sotuvchilari odatda xaridorlarni Can I help you? – soʻzma - soʻz 'Sizga yordam bera olamanmi?' deb kutib olishadi, aslida esa suhbat davomida Sir, Madam, Miss kabilarni qoʻllagan holda biror bir tovarni unga tanishtirayotgan boʻlishi mumkin. Kichkina magazinda esa ularning doimiy xaridorlarini Mr/Mrs/Miss + familiya bilan, bolalarga esa ismi bilan murojaat qilinadi. Masalan:

May I help you, miss?

Shunday qilib, xitoy va ingliz tillarida leksik vosita bilan (erkaklarga nisbatan) murojaat ayollarga qaraganda miqdor jihatdan juda kam ekanligini koʻrishimiz mumkin. Ayollarga nisbatan murojaat qilganda ishlatiladigan leksik birliklar oʻzida aniq konteksti bilan keladi va bunda soʻzlovchi suhbat davomida toʻgʻri soʻzni tanlashi uchun muloqot oʻrnatayotgan ayolning millatini juda yaxshi bilishi zarur boʻladi.

Agar oila aʼzolari orasidagi murojaatga toʻxtaladigan boʻlsak, unda ingliz va xitoy tillari orasida katta farqni koʻrishimiz mumkin. Ingliz madaniyatida ota – ona, buvi, bobo, xola, togʻalarga nisbatan kichraytirib – erkalagan holda murojaat qilish ularga nisbatan xushmuomalalik deb hisoblanadi.

Murojaat\* Grandmother! Grandma! Gran! Nanny! «Buvi!»; Grandfather! Grandpa!" «Bobo!»; Mother! «Oyi!»; Father! «Dada!»; Mum(my) / Mom(my)! «Oyijon!»; Dad(dy)! «Dadajon!»; Aunt(ie) Lora «Lora xola»; Uncle Bern «Bern amaki» ingliz tilida faqat qarindoshlarga nisbatan qoʻllaniladi. Eʼtibor berish kerak boʻlgan yana bir jihati shundaki, amaki va xolaga nisbatan odatda ismi bilan, opa yoki ukaga nisbatan brother, sister soʻzlarisiz murojaat qilinadi.

Xitoy tilida ham qarindoshlarga nisbatan murojaatning oʻziga hosligini koʻrish mumkin. Agar ota – onaga nisbatan murojaatni oladigan boʻlsak, 妈妈 mama ona va 爸爸 baba ota soʻziga

hurmatni ifodalovchi 老lao so'zi qo'shiladi, 老lao alohida so'z bo'lib kelganda "eski;qari" ma'nosini anglatadi, bu yerda esa hurmat bilan murojaat qilish qo'shimchasi bo'lib keladi. 老lao dan keyin keladigan so'z qisqartirilib aytiladi: 爸, 妈, 老爸, 老妈、爸爸、妈妈。

Xitoy tilida opa va akaga nisbatan murojaat ingliz tilidan farq qiluvchi juda muhim madaniy farq hisoblanadi. Bunda, katta opa 姐姐jiejie, singil esa 妹妹meimei deb chaqiriladi, aka va ukalarga nisbatan ham xuddi shunday murojaat qilinadi. Umuman olganda, istalgan sharq mamlakatlaridagi kabi xitoy madaniyatida, bevosita xitoy leksikasida ham jamiyatdagi iyerarxiyaning guvohi bo'lishimiz mumkin, bu hol oilada ham uchraydi.

Ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlar madaniyatida suhbatdoshga nisbatan xushmuomalalik bilan murojaat qilishning xitoy madaniyatidagi kabi bu qadar takomillashtirilgan tizimini uchratmadik. Ya'ni akaga nisbatan – 老哥, 哥哥(laoge, gege), ukaga nisbatan – 弟弟(didi), opaga nisbatan – 老姐, 姐姐(laojie,

jiejie), singilga nisbatan – 妹妹(meimei) deya har biriga alohida tarzda murojaat qilinadi. Albatta, kamdan – kam hollarda ism bilan murojaat qilinishi ham bundan mustasno emas.

Ingliz madaniyatidan farqli o'laroq, xitoy madaniyatida "xola" va "amaki"ga nisbatan turli xil murojaatni ko'rish mumkin, shu bilan birga mazkur atamalar mutlaqo begona odamlarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

伯母(bomu) – ota tomondan ammaga nisbatan yoki qarindosh bo'lmagan, yosh jihatidan onasiga tengdosh bo'lgan ayolga nisbatan xushmuomalalik bilan qilinadigan murojaat. "伯母, 您好!" — Assalomu aleykum amma!

阿姨(ayi) – ham o'z xolasi ham begona ayolga nisbatan bo'lgan murojaat.

姨母-(yimu) – onaning opa yoki singlisiga nisbatan bo'lgan murojaat, xola.

姨娘(yiniang) -ona tomonidan xolalarga nisbatan murojaatning yana bir turi.

姑妈, 姑姑, 姑母(guma, gugu, gumu) –ammaga nisbatan murojaat turi.

伯父(bofu) – ota tomondan uning aka-ukalariga nisbatan murojaat, qarindosh bo'lmagan, otasining tengdoshi kabilarga nisbatan murojaat.

叔叔(shushu) – ham qarindosh ham begona bo'lgan o'rta yoshdagi erkaklarga nisbatan murojaat. Bundan tashqari o'z amakisiga nisbatan 叔父(shufu), 姑父(gufu) kabi murojaat turlari ham mavjud.

姑丈(guzhang) – ota tomonidan uning opa yoki singlisining turmush o'rtog'iga nisbatan murojaat.

我: 叔叔, 晚上好, 吃饭了吗? -amaki, hayrli kech, ovqatlandingizmi?

叔叔: 嗯, 吃了(ha, yedim)

我: 叔叔, 关于木工工钱, 想跟你商量一下了- amaki, siz bilan ishchilarning oylik masalasini gaplashmoqchi edim.

Bu misoldan "xayrli kech", shuningdek, xitoy madaniyatining o'ziga xos bo'lgan "ovqatlandingizmi?" kabi turg'un ibora ko'rinishidagi xushmuomalalik bilan murojaatni, salomlashishni ko'rishimiz mumkin.

舅舅jiujiu – ona tarafdan uning akasi(tog'a)ga nisbatan muloyim murojaat, 舅父jiu fu, 娘舅niangjiu kabi muqobil variantlari ham bor.

Agar bobo va buviga hurmat bilan murojaatning tez – tez uchrab turadigan variantlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, unda:

爷爷-(uyeuye) – ota tomondan bo‘lgan boboga nisbatan murojaat.

姥爷 (laoye) – ona tomondan bo‘lgan boboga nisbatan murojaat.

姥姥 (laolao) – ona tomondan bo‘lgan buviga nisbatan murojaat.

奶奶nainai) – ota tomondan bo‘lgan buviga nisbatan murojaat.

奶奶, 你在找什么呢? (Buvijon, nimani izlayapsiz?)

Quyidagi jadvalda qarindoshlarga nisbatan eng ko‘p qo‘llaniladigan murojaat turlarini yuqori darajadagi muloyimlikdan pastroq darajadagi muloyimlikka ajratgan holda keltirilgan. Ular orasidagi ba‘zi tenglikni ham e‘tiborga olish kerak.

Qarindoshlarga nisbatan murojaatning qiyosiy tahlili

Ingliz tili		Xitoy tili
-	Aka	老哥laoge, 哥哥gege
-	Uka	弟弟didi
-	Opa	老姐laojie, 姐姐jiejie
-	Singil	妹妹meimei
Mother Mum(my) =Mom(my)	Ona	老妈laoma, 妈妈mama, 妈ma
Father, Dad(dy)	Ota	老爸laoba, 爸爸baba, 爸 ba

Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, quyida jadvalda keltirilgan murojaat turlarini semantik jihatdan birxil ammo muloqotga aniqlik kiritish imkonini beruvchi turli xil ma‘nolarga ega bo‘lganligi sababli ular orasidagi xushmuomalalik darajasini farqlay olmaymiz.

Uncle + ism	Amaki (qarindosh)	叔叔shushu; 叔父shufu
-----	Amaki (ota tomondan)	姑父gufu; 伯父bofu
-----	Tog‘a (ona tomondan)	舅舅jiujiu; 舅父jiufu; 娘舅 niangjiu
Aunt + ism, aunty	Xola (qarindosh)	阿姨a yi
-----	Xola (ona tarafdan)	姨母yimu; 姨娘yiniang
-----	Amma (ota tarafdan)	姑妈guma; 姑姑gugu; 姑母 gumu; 伯母bomu
Grandmother, Gran, Nanny	Buvi	奶奶nainai



-----	Buvi (ona tarafdan)	姥姥laolao ; 外婆waipo
-----	Buvi (ota tarafdan)	奶奶nainai
Grandfather, Grandpa	Bobo	爷爷yeye
-----	Bobo (ona tarafdan)	姥爷laoye; 外公waigong ;
-----	Bobo (ota tarafdan)	爷爷yeye

Bu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, sharqda qadim zamonlardan buyon kattalarga bo‘lgan munosabatni ifodalanishi kabi xitoy tilida ham qarindoshlarga nisbatan murojaatda qo‘llaniladigan Xitoy madaniyati va an‘analarini o‘zida mujassam qilgan xurmatni ifodalovchi leksik birliklar ijtimoiy iyerarxiyadan aniq ajralib turadi. Murojaatning hamma turi ham ikkala tilda ham uchrayvermaydi. Ingliz tilida “aka” va “opa”ga nisbatan muloyimlik bilan murojaat uchramaydi.

Shuningdek, qarindoshlarga nisbatan murojaatda qo‘llaniladigan ayrim leksik birliklar ya‘ni 叔叔shushu ; 伯父bofu ; 伯母bomu ; 阿姨ayi xushmuomalalik bilan qarindosh bo‘lmagan shaxslarga nisbatan ham qo‘llanilishi aniqlandi.

Agar ijtimoiy xodimlarga nisbatan murojaatni ko‘radigan bo‘lsak, quyidagi jadval hosil bo‘ladi:

#### Faoliyat turi bo‘yicha murojaat

Ingliz tili		Xitoy tili
Doctor+familiya	Shifokor (Vrach)	Familiya+医生yisheng
Sir Madam	O‘qituvchi	Familiya+老师laoshi 师傅shifu ustoz, murabbiy
Professor+ familiya	Professor	Familiya+教授jiaoshou
Waiter/waitress	Ofitsiant	服务员fuwuyuan
Officer, Inspector, Sir	Militsiya xodimi	警察jingcha; 警员jingyuan
Nurse, Matron, Sister Nurse	Hamshira Tibbiyot og‘asi	护士hushi hamshira, tibbiyot og‘asi.

**Xulosa.** Bu jadvaldan xulosa qiladigan bo‘lsak, ingliz tilida ham xitoy tilida ham faoliyat turiga qarab murojaat turlari mavjud bo‘lib, bunda familiyaga (agar u ma‘lum bo‘lsa)+ faoliyat nomini qo‘shish bilan murojaat qilinadi. Ingliz tilida avval kasb kelib keyin familiya aytilsa, xitoy tilida buning aksi.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Бабаева, Е.В. Лексические значения слова как способ выражения культурно-языкового концепта [Текст] / Е.В. Бабаева // Языковая личность: Культурные концепты. - Волгоград, Архангельск, 2002. - С. 33.
2. Большой китайско-русский словарь по русской графической системе в четырех томах [Текст]: словарь/ред. проф. И.М. Ошанина.- М.: Наука, 1983.
3. Ван, Цзиньлин. Обращения в типологически различающихся языках (на материале русского и китайского языков) [Текст] / Цзиньлин Ван. —Волгоград, 1996. - 50 с.
5. Вежбицкая, Анна. Сопоставление культур через посредство лексики и прагматики [Текст] / Анна Вежбицкая. - М.: Аспект-пресс, 2001. - 60 с
6. Горелов, В. И. Лексикология китайского языка [Текст] / В. И. Горелов. - М.:Просвещение, 1984. - 240 с.
8. Городецкая, Л.А. Стратегии вежливости в английском языке в сопоставлении с русским [Текст] / Л.А. Городецкая //Россия и Запад: диалог культур. (Материалы 2-й международной конференции 28-30 ноября 1995г.). - М.:Академия наук СССР, 1996. - С. 304-310.
9. Тырникова, Н. Г. Русский речевой этикет как одно из проявлений статусно-ролевых отношений (на материале романа А. Н. Толстого «Хождение по мукам») [Текст] / Н. Г. Тырникова // Филол. этюды. - М, 2001. — Вып. 4. —265 с.
10. Формановская, Н.И. Речевой этикет и культура общения [Текст] /
11. Н.И. Формановская. - М. : ЭКСМО, 1989. - 150 с.

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **SOCIAL CHARACTERIZATION OF METAPHORS IN DRAMAS (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)**

**Khursanov Nurislom Iskandarovich**

Doctor of philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Prof., Renaissance University of Education,

E-mail: [nurislomkhursanov92@gmail.com](mailto:nurislomkhursanov92@gmail.com)

**Abstract.** There is a certain difference between the conceptual and contextual themes of metaphorical components used in dramatic discourse. Unlike English dramas, Uzbek dramas use metaphors more frequently. This serves as one of the other cultural signs of expressing thoughts. It is permissible to group the type of metaphors used within the framework of a social stratum, which applies only to representatives of a certain social stratum, under the name of separate social metaphors or sociometaphors. This article presents some comments on the social characteristics of metaphors used in English and Uzbek dramas in character speech.

**Keywords:** drama, metaphor, social, metaphorical component, character speech.

## **DRAMALARDA METOFORALARNING SOTSIAL XOSLANISHI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

**Xursanov Nurislom Iskandarovich**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b., Renessans ta'lim universiteti

**Annotatsiya.** Dramatik diskursda qo'llangan metaforik komponentlarning konseptual va kontekstual semalari o'rtasida muayyan tafovut mavjud bo'ladi. Ingliz dramalaridan farqli o'laroq o'zbek dramalarida metaforalarning qo'llanilish chastotasi yuqori. Bu esa fikrni ifodalashdagi yana bir madaniy belgilardan biri bo'lib xizmat qiladi. Metaforalarning muayyan jamiyat qatlami vakillarigagina taalluqli sotsial qatlam doirasida qo'llanuvchi tipini alohida sotsial metaforalar yoki sotsiometafolar nomi bilan guruhlash joiz. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek dramalarida qo'llanilgan metaforalarning personaj nutqida ijtimoiy xoslanishi borasida ayrim mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** drama, metafora, ijtimoiy, metaforik komponent, personaj nutqi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N24>

**Kirish.** Tilshunoslikda metaforalarni tasniflash masalasining an'anaviy tarzda ko'plab talqinlari ajralib turadi. Bu savol metafora nazariyasida eng munozarali savoldir. Ushbu muammoga ko'plab ilmiy maqolalar, tadqiqotlar bag'ishlangan. Metaforaning u yoki bu til darajasiga tegishliligi uni tasniflash parametrlarini belgilaydi. Miller tasnifida metafora timsolida tushuncha ifodasi ustunlik qiladi. Uning fikricha, metaforalar nominal, predikat jumalarga bo'linadi [6]. V.G.Gak tipologiyasida to'liq majoziy ko'chirish – ikki tomonlama metafora, bir tomonlama semasiologik metafora, bir tomonlama onomasiologik metafora, qisman metaforik o'tkazish singari guruhlarga bo'linadi [8]. Ushbu bo'linish metaforalarni

yaratuvchi universal kategoriyalarga asoslanadi. Ular “metaforizatsiyaning uchta universal turini: antropomorfizm, konkret dan mavhumga o‘tish va sinesteziya”ni qayd etadi.

**Adabiyotlar sharhi.** Ayrim tadqiqotchilar badiiy nutqqa nisbatan metaforani individual-muallif metafora va metafora-simvolga ajratadilar: “Til va nutq o‘rtasidagi farqqa ko‘ra individual-muallif metaforasini nutq elementiga ko‘proq kiritish mumkin” [5].

J.Lakoff va M.Jonson metaforaning kognitiv nazariyasi doirasida “ko‘proq global darajadagi izchil konseptual tuzilmalarni – “kognitiv modellarni” shakllantirishi mumkin bo‘lgan konseptual metafora haqida tadqiqotlarni amalga oshiradi [2]. Bunga misol sifatida ular “Time is money” komponentli metaforik birlikni keltiradi. Shuningdek, ular tasnifida madaniy belgilarga oidlik hisobga olingan holda metaforalarning quyidagi guruhlari ajratiladi:

- 1) Oriyentatsion metaforalar;
- 2) Ontologik metaforalar.

Xuddi shunday tasnif F.Uilrayt tomonidan tasvirlangan bo‘lib, u muqarrar metaforik arxetiplar yoki arxetipik belgilar haqida gapiradi, ular ham “orientatsion – ontologik” tipologiyaga ko‘ra tasniflanishi mumkin: “samoviy ota va yerdagi ona”, “yorug‘lik”, “qon”, “yuqoriga-pastga”, “g‘ildirak o‘qi” va boshqalar makon va vaqt jihatidan shunchalik uzoq bo‘lgan madaniyatlarda qayta-qayta paydo bo‘ladiki, ular o‘rtasida har qanday tarixiy ta’sir yoki tendensial aloqa mavjud [9, 82-119-b.]. Agar biz metaforaning alohida holati sifatida personifikatsiya haqida gapiradigan bo‘lsak, Lakoff va Jonson bu haqda personifikatsiya atamasida gapiradilar: “Ehtimol, eng aniq ontologik metaforalarga moddiy obyekt shaxs sifatida talqin qilinadigan holatlar kiradi. Gap shundaki, shaxslashtirish umumiy toifadir, har biri shaxsning o‘ziga xos xususiyatiga yoki uni idrok etish usuliga asoslangan keng ko‘lamli metaforalarni qamrab oladi [2].

Zamonaviy tilshunoslarning fikriga ko‘ra, metaforalarning eng to‘liq tasnifi filologiya fanlari doktori, bir yuz yetmishdan ortiq ilmiy va ilmiy-metodik ishlar muallifi V.P. Moskvina tomonidan taqdim etilgan bo‘lib, u metaforalarning tasniflash parametrlari tizimini ishlab chiqdi, bu yerda u funksional xususiyatlariga ko‘ra semantik, tarkibiy (yoki rasmiy) va funksional singari turlarga bo‘linadi. Har bir tasnifda biz kuzatishga harakat qiladigan muhim bo‘linish mavjud.


Metaforalarning semantik tasnifi. Bu yerda, asosan, tadqiqotchining e’tiborini metaforaning semantik ikkilik – asosiy va yordamchi subyektlarga bo‘linishi kabi xususiyatlari inobatga olinadi.

Metaforalarni tasniflar ekan, tadqiqotchi A.Xo‘jamqulov *antropomorfik, zoomorfik, fitomorfik, kosmomorfik, abiomorfik* metaforalarga turlaydi. Ushbu metafora turlarini farqlar ekan metaforalar asosida antropomorfik metaforani ko‘radi. Olimning ta’kidlashicha, bunday tasnif tilda mavjud metaforalarni nisbatan to‘liq qamrab oladi.

O‘zbek tilshunosligida metaforaning ichki mexanizmi haqida ham ma’lum bir fikrlar bayon etilgan. Keyingi vaqtlarda semasiologiya sohasida jiddiy tadqiqotlarni amalga oshirgan tilshunos M.Mirtojiyev o‘zbek tilidagi metaforalar ko‘chma ma’no hosil etgan obyektlarning o‘xshatish holatiga ko‘ra oddiy metafora, personifikatsiya va sinesteziya kabi turlarini ajratadi [3, 34-37-b.]. Metaforaning bo‘yoqdor/bo‘yoqdor emasligiga, lisoniy/nolisoniylikiga ko‘ra turlarini ajratish ham olimning filologik qarashlarida uchraydi. Boshqa manbalarda ta’kidlanishicha esa o‘zbek tilidagi metaforani semik xususiyatiga ko‘ra, bo‘yog‘iga ko‘ra, doimiy/doimiy emasligiga ko‘ra, qaysi sathga tegishligiga ko‘ra tasniflaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda qo'yilgan muammoni yoritish maqsadida tilshunoslikdagi qiyoslash, kontekstual, lingvopragmatik, sotsiolingvistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

**Tahlil va sharhlar.** Tilshunoslikda metaforalarning sotsial xoslanishi masalasiga deyarli e'tibor qaratilmagan. Aslida ham metaforalarda sotsial xoslanish mumkinmi va u qanday amalga oshadi degan o'rinli savol tug'ilishi tabiiy. Biz yuqorida metaforalarning olimlar tomonidan ajratilgan bir nechta tasniflarini keltirib o'tdik. Metaforalarning muayyan darajada xoslanish omillarini hisobga olgan holda ularni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:



### Metaforalarning xoslanish omillari

Biz tadqiqotimiz avvalida gender xoslangan metaforalar va ularning dramatik diskursdagi mavqeyi masalasiga biroz to'xtalib o'tdik. Metaforalarning sotsial tabiati masalasi esa gender xoslanishdan kenroq mohiyat kasb etadi. Jamiyat rivojlanib borishi bilan tilda ham muayyan o'zgarishlar yuzaga keladi. Millatning o'y-fikrlari, dunyoqarashi, orzu-umidlari doirasida turli metaforalar badiiy tasvir vositalari paydo bo'ladi [4]. Til va jamiyatning o'zaro munosabati murakkab va serqirra bo'lib, uni tadqiq qilishda alohida yondashuv zarur bo'ladi.

J. Fishmanning fikricha, sotsiolingvistlarni "kim qaysi tilda, kim bilan va qachon gaplashishi"ni bilish qiziqtiradi. J. Fishman aytganlarini oydinlashtirish uchun metaforalarning sotsial xoslanishida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish zarur [1, 126-b.]:

- a) so'zlovchi kim, uning jamiyatdagi o'rni qanday;
- b) u qaysi tildan foydalanadi, u rasmiy yoki norasmiy, dialektal yoki standartmi;
- v) tinglovchi kim bo'ladi, u boshliqmi, hamkasbimi yoki qo'l ostidagimi, otasi, onasi, ukasi yoki opa-singili yoki bolasi;
- d) odamlar gaplashganda, vaziyat qanday, u ofisdan tashqarida yoki idorada, uyda yoki tashqarida, yig'ilishda yoki ziyofatda qanday metaforalardan foydalanadi.

M. Mirtojiyevning qayd qilishicha, buni differensial-semantik metod bo'yicha tahlil etib ko'rilganda yaqqol tasavvur etish mumkin. Masalan, ulamoq fe'li "uchlarini biriktirib bog'lamoq" leksik ma'nosi – sememasiga ega. U yana "uchiga qo'shib uzaytirmoq" hosila ma'no – sememani orttirgan. Ular bildirgan harakat o'rtasida o'xshashlik bor [3, 34-37-b.]. Ya'ni hosila ma'no yuzaga kelishi metafora hisoblanadi. Biroq biz metaforik va metonimik birliklarning kognitiv funksiyalariga urg'u berish bilan bir qatorda, uning sotsiolingvistik, pragmalingvistik xususiyatlariga ham to'xtalmoqchimiz. Sababi metaforani aynan bir kontekstda o'rganish uning yuzaga chiqishiga asosiy omillarni chegaralab qo'yadi. Agarda bunday ma'no ko'chishidagi

so'zlarni asosiy kontekstdan tashqariga chiqargan holda ham tahlil etadigan, boshqa nutqiy vaziyatlar, o'zga tillar bilan qiyoslaydigan bo'lsak, tabiiy ravishda yuzaga keladigan metaforik va metonimik konseptualizatsiyaning sof ko'rinishda tasvirini yaratishimiz, tahlil qilishimiz mumkin bo'ladi [7, 17-27-b.; 10, 258-264-b.]. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, metaforaning diskursda, jonli muloqot shakli – dramatik diskursda voqelanishiga ahamiyat bermoqchimiz. Bunday birliklar nafaqat kognitiv, balki sotsiologik, pragmatik, psixologik, mentalistik va lingvokulturologik funksiyalarga ega ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

	Dramatik diskursda metafora va metonimiya	Sotsial xususiyati	Izohlash
Ingliz dramalarida	"Where is now Salomon, in wisdom so excellent? Where is now Samson, in battle so strong? ... ... How short a feast is this worldly joying? Even <b><i>as a shadow it passeth away</i></b> ... ... <b><i>As a leaf in a stormy weather</i></b> , So is man's life blown clean away." [11]	Ramziy ma'noda va shaxsni tasvirlash uchun. Tashqi xususiyatiga ko'ra	Tinglovchiga hissiy-emotsional ta'sir ko'rsatish
	"Neither Daphne in the spring. Nor glistening Thetis in her orient robe. Nor shame-fast morning girt in silver clouds, <b><i>Are half so lovely as this earthly saint</i></b> ." [11]	Mazmuniy xususiyatga ko'ra	Shaxsning xarakter qirralarini tasvirlash, satirik va yumoristik mazmunda beg'amlik ma'nosini ifodalash
	<b><i>"Their ensigns spread Look like the parti-colored clouds of heaven"</i></b> . [11]	Mazmuniy jihatiga ko'ra	Shaxs xarakteri va davr voqeligini tasvirlash, uyg'unlikni ifodalash.
O'zbek dramalarida	<b>Nigora: Gorkomga boraman. Arz qilaman. Toshkentdek shahri azimda bir <i>feodal oila</i> bor, tekshirib ko'ringlar deymen. (S.Ahmad. Kelinlar qo'zg'oloni)</b>	Oilaviy muhit	Oilaviy muhitni tasvirlash, qiyoslash uchun
	Ana shu odamning yonida <b><i>issiq-sovug'idan</i></b> xabar olib turadigan, orqasini qashlab qo'yadigan bir tanmahram bo'lsa, eh-he, bu chol tushmagur, nima ishlar qivormaydi, deysiz (Sh.Boshbekov. Temir xotin)	Kundalik turmush	Oilaviy ahvoli, yeyish-ichish, yashash tarzi, sog' va kasal holatlarini ifodalash uchun.
	O' r i n b o y. (Bashoratga). Siz bular ichida eng kattasisiz. Har bir <b><i>gapni o'lchab gapirishingiz kerak</i></b> . Uning ustiga atelyemodni eng zo'r bichiqchisisiz. Orqangizdan akademiklar, ministrilar, xalq artistlarining xotinlari ergashib yuradi. <b><i>Har bir gapni andozaga solib gapirishingiz kerak</i></b> . Yuring, gapingizni andozaga solamiz. (S.Ahmad. Kelinlar qo'zg'oloni)	Oilaviy suhbat	Kasbiy xoslik

Ko'rinadiki, ingliz tilida dramatik diskursda metafora, metonimiya va sinekdoxa shakliy va mazmuniy jihatiga ko'ra namoyon bo'ladi. Shakliy jihati tashqi o'xshashlik, umumiylik, butun va qism munosabatlarini ifoda etsa, mazmuniy jihati qahramonlarning ruhiy-fiziologik holati, kechinmalari, tasavvur va o'ylari bilan bog'liq. Dramatik diskursda ham shaklan, ham mazmunan muallif aytmoqchi bo'lgan fikr faqat so'z orqaligina emas, harakat, ritm va tasvir

vositasi uyg'unligida namoyon bo'ladi. Yuqoridagi jadval dramatik diskursda ko'chimlarning ayrim turlari va ularning voqelanish shakllari, nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsadning qanday tasvir orqali ifodalanishini ko'rsatishga va umumlashtirishga yordam beradi. O'zbek tilida esa ifoda shakli biroz o'zgaradi. Bunga bevosita mental, sotsial, lingvokulturologik omillar ta'sir o'tkazadi.

**Xulosa.** Dramatik diskursda metafora konnotativ va denotativ funktsiya bajaradi. Metaforalar tahlilida asosiy argument-tasvir obyektiga paralleligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Dramatik diskursda metaforalarning yuzaga kJelishiga nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsadga erishish vositasi, milliy-etnik xoslik singari omillar ta'sir ko'rsatadi. Metaforalarda gender xoslik belgilarini hisobga olgan holda feminin va maskulinlik xarakteriga ega metaforalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Feminlik xarakteriga ega metaforalar bevosita ayollarga xos belgilarni ifodalovchi va faqat ayollargagina xos metaforalarni ifodalaydi. O'zbek va ingliz tilidagi feminin va maskulin metaforalar voqelanishida o'xshashliklar bilan bir qatorda semantik farqlar ham mavjud.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Fishman, J.A. Sociolinguistics: A brief introduction. *Newbury House. Language Arts & Disciplines*, 1970. – p. 126.
2. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors we live by*. University of Chicago Press. – Chicago. 1980.
3. Mirtojdiyev M. Lingvistik metaforalar tasnifi // *O'zbek tili va adabiyoti*. – T. 1973. 4. – B. 34-37.
4. Raupova L., Khursanov N., Khursanova L., Polatova S. Development of world modern linguistics and discourse interpretation in it. In *E3S Web of Conferences 2023*. Vol. 413, p. 03023. EDP Sciences.
5. Shan Xiangping. A Socio-cognitive Approach to Gender Metaphors in Advertising. *Soochow University*, – Taiwan. 2012.
6. Valerie Duff. "Mapping Kei Miller's Zion". *The Critical Flame*, Issue 34. 2015.
7. Xursanov N. I. Ingliz va o'zbek dramalarida verbal va noverbal vositalar munosabati // *O'zbekistonda xorijiy tillar*. – 2024. – 10-jild, № 1 (54). – B. 17-27.
8. Гак В. Г. Языковые преобразования [Преобразование языка] / В. Г. Гак. – М.: Языки русской культуры, 1998. – p. 768.
9. Уилрайт Ф. Метафора и реальность. *Теория метафоры*. - М., 1990. – С. 82-119.
10. Хурсанов Н.И. Дискурсивная интерпретация метафор в английской драме: когнитивно-прагматическая характеристика // *Республиканская научно-практическая конференция «Современные направления лингвистики»*. – Т. 2024. – С. 258-264.
11. Archer H., Hadfield A. "A Mirror for Magistrates" in Context: Literature, History and Politics in Early Modern England. Edited by Archer H, Hadfield A. *Cambridge University Press*. 2016.
12. Said Ahmad. Kelinlar qo'zg'oloni. *Dramatik komediya*. [www.ziyonet.com](http://www.ziyonet.com)
13. Boshbekov Sh. Temir xotin. *Dramatik komediya*. [www.ziyonet.com](http://www.ziyonet.com)

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **THE GENESIS AND DEVELOPMENT OF THE TRAVEL GUIDE GENRE**

**Atadjanova Sevara Bekmurotovna**

Assistant of the Department of Foreign Languages, Faculty of Economics, Tashkent State Transport University

**Abstract.** This article examines the historical development and literary significance of travelogues in world literature up to the middle of the XIX century. He explores the origin of the genre in ancient Greek literature, its evolution through medieval pilgrimage stories and its spread during the Renaissance and Enlightenment. The study highlights the dual role of the genre in providing geographical and ethnographic information, as well as in enriching fiction with vivid descriptions of various regions. The article also discusses the debates of modern literary criticism about the boundaries and definitions of travelogues.

**Keywords:** genre of the guidebook, historical and literary analysis, ancient Greek literature, medieval pilgrimages, travel notes of the Renaissance, enlightenment, geographical data, ethnographic data, modern literary criticism, genre classification, narrative synthesis.

## **SAYOHATNOMA JANRINING GENEZISI VA TARAQQIYOTI**

**Atadjanova Sevara Bekmurotovna**

Toshkent Davlat Transport Universiteti Iqtisodiyot fakulteti Chet tillar kafedrasasi assistenti.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XIX asr o'rtalariga qadar jahon adabiyotida sayohatnomalarning tarixiy rivojlanishi va adabiy ahamiyati o'rganiladi. Bu janrning qadimgi yunon adabiyotidagi kelib chiqishi, o'rta asrlardagi haj rivoyatlari orqali evolyutsiyasi va uyg'onish hamda ma'rifat davrida kengayishini o'rganadi. Tadqiqot janrning geografik va etnografik ma'lumotlarni taqdim etish hamda badiiy adabiyotni turli mintaqalarning yorqin tavsiflari bilan boyitishdagi ikki tomonlama rolini ta'kidlaydi. Maqolada, shuningdek, zamonaviy adabiy tanqidning sayohatnomaning chegaralari va ta'riflari haqidagi bahslari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Sayohatnoma janri, tarixiy-adabiy tahlil, qadimgi yunon adabiyoti, o'rta asr ziyoratlari, uyg'onish davri sayohatlari yozuvi, ma'rifat, geografik ma'lumotlar, etnografik ma'lumotlar, zamonaviy adabiy tanqid, janr tasnifi, hikoya sintezi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N25>

**Kirish.** Sayohatnoma janri jahon adabiyotida, ayniqsa XIX asr o'rtalaridan oldin muhim va ko'p qirrali shakl bo'lib kelgan. Geografik va etnografik ma'lumotlarni badiiy rivoyat bilan birlashtirgan sayohatnomalar ham ma'lumot beruvchi matnlar, ham turli mintaqalarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi jozibali hikoyalar bo'lib xizmat qildi. Ushbu maqola Sayohatnoma janrining genezisi va evolyutsiyasini o'rganadi, uning qadimiy adabiyotdagi ildizlarini, o'rta asrlar va Uyg'onish davrlari orqali rivojlanishini va XIX asrdagi o'zgarishini o'rganadi. Tadqiqotda, shuningdek, zamonaviy adabiyotshunoslarning janr chegaralari va ta'riflari bo'yicha istiqbollari, shuningdek, tarix davomida taniqli sayohat yozuvchilarining roli ko'rib chiqilgan.



**Adabiyotlar tahlili.** Sayohatnomalar tarixiy jihatdan madaniy, geografik va ijtimoiy bilimlarni turli davrlar va mintaqalarda etkazishda muhim rol o'ynagan. Qadimgi yunon, Rim *periplus* va *periegez*, sayohat yozishning dastlabki shakllari, dunyoni o'rganish hamda hujjatlashtirishni ta'kidladi. Fransuz olimlari ushbu janrning kelib chiqishini Gomerning "Odissey", "Uyg'onish va ma'rifat davrlarining turli xil sayohat rivoyatlari uchun o'rta asr" ziyorat " motivi orqali rivojlanmoqda. XIX-asrda Yozuvchilar yoqadi Chatobrian va Lamartin jonli landshaftlar va madaniy kuzatuvlarni o'z asarlariga qo'shib, janrning hikoya qilish murakkabligini boyitdi.

Olimlar tomonidan muhokama qilingan zamonaviy adabiy tanqid N.G.Chernishevskiy va V.Guminskiy, sayohatnomaning tarix, tabiatshunoslik va shaxsiy rivoyat elementlarini sintez qilish qobiliyatini ta'kidlab, ko'p qirrali adabiy shaklni yaratadi. Sayohatnomaning dinamik tabiati, faktik va badiiy tarkibni birlashtirgan holda, an'anaviy janr tasniflariga qarshi chiqish va kengaytirishda davom etmoqda. Jahon adabiyotida sayohatnoma janri solnoma janri bilan bir qatorda, XIX asr o'rtalarigacha dolzarb ilmiy badiiy shakllardan biri bo'lgan. Ushbu janr geografik va etnografik ma'lumotlarni taqdim etib, turli mintaqalarning geomadaniy xususiyatlariga e'tiborni jalb qilish vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Shu nuqtai nazardan sayohatnoma badiiy adabiyot doirasidan chiqib, tarixiy-adabiy tahlil obyektiga aylandi. Jumladan, qadimgi davr yozuvchilarining sayohatnomalari yoki ilk o'rta asrlarda keng tarqalgan ziyoratnoma janrlari chuqur o'rganildi. Umuman olganda, sayohatnoma, hikoya va tasviriy janrlarda eng keng tarqalgan kompozitsiya usullaridan biri sifatida badiiy adabiyotning taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.[1]

O'zbek tilining izohli lug'atida sayohatnomaga quyidagicha ta'rif berilgan: *Sayohat taassurotlari va tafsilotlarini tasvirovchi badiiy asar; adabiy janr.* [2]

Shuningdek O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ham ushbu janrga keng ta'rif berilgan: *Sayohatnoma – badiiy adabiyotdagi sayohat taassurotlari va tafsilotlari tasviriga bag'ishlangan janr. Sayohatnomalarning tarixiy-badiiy qimmatini muallif maqsadi, uslubi va mahoratiga bog'liq bo'ladi. Adabiyot tarixida sayohat taassurotlarining nasriy va she'riy tasviridan iborat o'nlab asarlar mavjud. Nasriy sayohatnomalarda joy va voqealarning izchil tafsiloti yetakchi o'rin tutsa, she'riy sayohatnomalarda tasvir ixcham va umumlashgan holatda tasvirlanadi.*[3]

Shuningdek o'zbek adabiyotida sayohatnoma janri *safarnoma*,[4.51] *sarguzasht* [5] kabi nomlar bilan yuritiladi.

Sayohat taassurotlari tasvirlangan badiiy asarlar genezisi jahon adabiyotida qadimgi davrlarga borib taqaladi. Antik davrda *periplus* (yunoncha περίπλους, περιπλέω so'zidan olingan "dengiz atrofida suzmoq, aylanib yurmoq" ma'nosini anglatadi)[6] deb nomlanuvchi dengiz sayohatnomalari va *periegez* (yunoncha περιήγησις *atrofga gid yordamida sayohat*) [7] deb atalgan, nasriy yoki nazmiy badiiy janr mavjud bo'lgan. Sayohat yozishning ushbu dastlabki shakllari insonning dengiz bo'ylab yoki qit'a bo'ylab piyoda bo'lsin, atrofimizdagi dunyoni o'rganish va hujjatlashtirish istagini ta'kidlaydi.

XIX asrda, yuqorida ta'kidlanganidek, ko'plab yozuvchilar, o'z asarlari sujetini jonli peyzajlarga boyitish uchun, uzoq safarlarga chiqdilar. Fransuz yozuvchisi Chatobrian, «Parijdan Quddusgacha» asarida yozganidek, «tasvirlarni izlash» uchun, ya'ni «Shahidlar» dostoniga asos yig'ish uchun Falastinga boradi. 1806 yilda Italiyaga sayohatida esa, u allaqachon «Atali», «Rene» va «Xristianlik dahosi» kabi asarlar muallifi edi. Uni bugungi kun talabidagi "sayohatchi yozuvchi" deb bo'lmasa-da, sayohat qiluvchi yozuvchi deb hisoblash mumkin. Lamartin haqida

ham shunday deyish mumkin: 1832 yilda Marselga kelganida «Meditatsiyalar» va «Garmoniyalar» muallifi, Yevropa ahamiyatiga ega bo'lgan buyuk romantik shoir sifatida tanildi va ko'plab tashriflar va ziyofatlar, nutqlar va she'rlar yozdi, sayohatchi O'rta er dengizini kesib o'tish uchun ijaraga olingan brigadada yo'lga chiqdi.

Biroq, yozuvchilarning sayohatlari XIX asrdagi yagona sayohat emas edi. XVIII asr oxiridan XX asr boshlarigacha yevropalik sayohatchilar Misrga qilgan sayohatlari haqida xilma-xil hikoyalar yozadilar. 1798-1801 yillarda Napoleon tomonidan, 1882 yildan esa Angliya tomonidan bosib olingan Usmonli imperiyasining bu viloyati XIX asrda Sharqqa sayohatchilar yo'lining bir qismini tashkil qiladi. Siyosiy sabablarga ko'ra, yarim asr hukmronlik qilgan Mehmet Ali Posho o'z mamlakatini chinakam mintaqaviy qudratga aylantirganligi tufayli yoki fir'avnlarni yurti, nihoyatda samarali tsivilizatsiyaga ega ekanligi, uzoq vaqt Yevropaga ta'sir o'tkazib kelganligi kabi tarixiy sabablarga ko'ra, Misr alohida maqomga ega edi. Delta va Nil vodiysi kabi o'ziga xos geografiyasi tufayli mazkur mintaqa stereotipik tasvirlarga boy edi. Sharqda esa Xitoy ziyoratchilari Fa Xin va Xuen Sang, Ibn Batuta va Al Beruniy kabi tadqiqotchi sayyohlarni sanab o'tish mumkin. Boshqa mashhur o'rta asr arab geograflari va sayyohlari orasida quyidagilar bor:

Ibn Khurdodbeh, arab geograflarining birinchi avlodidan bo'lib, u dastlabki xaritalarni tuzishda faol ishtirok etgan;

Al-Ya'qubi, o'zining batafsil mamlakatlar va xalqlar haqidagi tasvirlari bilan tanilgan;

Al-Istakhriy va Al-Muqaddasiy, ular geografik fanlarni o'z tasvirlari bilan boyitganlar;

Al-Mas'udi va Ibn Hawqal, turli mintaqalar va madaniyatlarni tavsiflovchi muhim geografik va tarixiy asarlar muallifi;

Abu Hamid al-Gharnati, Ibn Fadlon va Ibn Jubayr, ularning sayohatlari va uchrashgan madaniyatlar va xalqlar haqida batafsil yozuvlari bilan mashhur.[9]

Ibn Battuta, o'rta asrlar Arab sayyohlari orasida o'zining "Sayohatnoma" asari bilan alohida o'rin tutgan mashhur arab sayyohidir. Uning asarlari, o'rta asr mamlakatlari, shaharlari va ularning xalqlari madaniyati, turmush tarzi haqida juda qimmatli va ko'p joylarda yagona ma'lumotlar bilan ajralib turadi. Akademik I. Yu. Krachkovskiy Ibn Battutani "Barcha musulmon mamlakatlarini kezib chiqqan so'nggi eng buyuk sayyoh", deb e'tirof etgan.[10] Bu olimlar va sayyohlar turli mintaqalarning geografiyasi, madaniyatlari va iqtisodiyotlari haqida bilimlarni rivojlantirish va tarqatishda muhim rol o'ynaganlar, bu esa o'z navbatida dunyo ilmiy va madaniy merosini boyitgan.

**Tadqiqot Metodologiyasi:** Ushbu tadqiqot travelogue janrining rivojlanishini kuzatish uchun tarixiy-adabiy tahlildan foydalanadi. Birlamchi manbalarga qadimgi yunoncha matnlar, o'rta asr hajlari, Uyg'onish davri sayohatlari kundaliklari va XIX-asr sayohatlari haqidagi rivoyatlar kiradi. Ikkilamchi manbalar janr evolyutsiyasi va xususiyatlarini o'rganadigan adabiy tanqidlar va ilmiy maqolalardan iborat. Tadqiqot metodologiyasi umumiy mavzularni, hikoya tuzilmalarini va vaqt o'tishi bilan janrning o'zgarishini aniqlash uchun ushbu matnlarni qiyosiy tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

V.Mixaylov, N.Maslova, O.Skibina, M.Shadrina, kabi rus tadqiqotchilari V.Guminskiy ta'rifini to'liq va terminologik jihatdan eng to'g'ri deb hisoblashadi: "Sayohatnoma – sayoh (ko'zi bilan ko'rgan shaxs) tomonidan, eng avvalo, o'quvchiga noma'lum yoki kam ma'lum bo'lgan mamlakatlar, o'lkalar, xalqlar haqida eslatma, esdalik, kundalik, maqola, ocherk,

memuar yoki nazmiy janrlar shaklida, tasvirlangan yoki taviflangan, asoslangan ishonchli ma'lumotlar to'plami." [13]

Sayohatnoma nafaqat yangi bilimlarni berish, balki estetik, siyosiy, jurnalistik, falsafiy va boshqa jihatlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Sayohat adabiyotining to'qima sujetga asoslangan alohida turi ham mavjud. Ushbu asarlar ko'pincha badiiy to'qima va hujjatli sayohat tavsiflarini birlashtiradi. V.Guminskiy badiiy sayohatnomalar hujjatli, badiiy va folklor unsurlarini bosh qahramon – hikoyachi obrazi orqali o'zida mujassamlashtiradi, deb ta'kidlaydi.

Bunday asarlarda ko'pincha "biz" va "boshqalar" – "o'zimizniki" va "begona" o'rtasidagi qarama-qarshilik ko'ratiladi. Vatan konseptiga urg'u berilib, hikoyaning asosiy mavzusi etib tanlanadi.

Tadqiqotchi E.Stetsenko sayohat yozuvlari janrini juda murakkab deb ta'riflaydi. Uning aytishicha, janr turli elementlarni aralashtirib yuboradi. Jumladan:

Sintetik tabiat: janr turli uslublar va yondashuvlarni birlashtiradi;

Ko'p darajali ikkitarafilik: Bu janr matnlarida turli elementlar o'rtasida murakkab o'zaro ta'sir mavjud. Masalan, voqealarning real va xayoliy, shaxsiy va umumiy, statik tavsif va voqealar dinamikasi o'rtasida;

Dialektik janr: Bu janr qarama-qarshiliklar va ular orasidagi dialog orqali fikrni rivojlantiradi;

Grotesk: Sayohat yozuvi g'ayrioddiy va kutilmagan effektlarni yaratish uchun qarama-qarshi xususiyatlarni birlashtiradi;

Natijada, sayohatnoma, sarguzastga aylanib, ko'plab turli xil tafsilotlardan dunyoning to'liq tasvirini yaratadi, shaxsiyini universal bilan bog'laydi, shaxs va millatning o'zini o'zi bilishiga yordam beradi. [19]

Sayohatnoma janridagi asarlar boshqacha nomlanishi ham mumkin: esdaliklar, safardan maktublar, sayohat ocherklari va boshqalar. Ammo ularning barchasi bir xil sayohatnoma motivlariga tegishli.

Sayohat janridagi aksariyat matnlarning o'ziga xos xususiyati asar sujetini tashkil etuvchi, tez-tez takrorlanuvchi motivlar va vaziyatlarning mavjudligidir. Bu takrorlar, odatda, har bir sayohatchi duch keladigan holatlarning o'xshashligi bilan bog'liq. M.Shadrina o'z tadqiqotida bu vaziyatlarni batafsil tahlil qiladi va ularni axborot beruvchi vositalar sifatida quyidagicha tasniflaydi: hikoyachi qaysi shaharlarga bordi, qayerlarda to'xtadi va kimlar bilan tanishganligi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Sayohatnoma matnlari, asosan, ikki makon atrofida – safar (bir joydan ikkinchi joyga ko'chish yo'li) va joy (sayohatchi to'xtagan shahar va qishloq)da yuz bergan voqea-hodisalar asosida tashkil etiladi. Sayohat motivlariga baxtsiz hodisalar, tabiiy ofatlar, kasallik, hujjatlarni yo'qotish, yo'lovchilar bilan muloqot kabilar kiradi. Joy motivlariga esa bozor, qozixona, shahar maydonlari, choyxonalarga tashrif buyurish, odamlar bilan uchrashish, mehmonxonalarda qolish, shaharni o'rganish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Matnda motiv va syujet hodisalarining takrorlanishi, uni sayohatnoma janriga kiritish imkoniyatini belgilovchi xususiyatdir. Eng muhimi esa, bunday belgilovchi xususiyatlar mazkur janrda ko'p emas:

1. Sayohatnoma matnlarida janr erkinligi tamoyili turli darajalarda namoyon bo'ladi. Alohida, qattiq tartibdagi adabiy shartlilik va janr qonunlari mavjud emas. Biroq, bu asarlar kompozitsion va strukturaviy xususiyatlardan mahrum degani emas.

2. Muallifning alohida faol roli – sayohatchi, voqealar ishtirokchisi, kuzatuvchi, ma'lum bir dunyoqarash tashuvchisi. Sayohatnomada muallif tuzilma hosil qiluvchi obraz hisoblandi.

3. Hujjatli materiallarning bo'lishining majburiyligi. Sayohatnoma ma'lum darajada voqelik in'ikosi bo'lib, u kitobxonga muallif ixtiyoriga ko'ra taqdim etiladi. Asar matnida har doim fakt, hujjatning roli ta'kidlanadi: muallif esa o'quvchini tasvirlangan narsaning haqiqiyligiga ishonitirishga intiladi.

4. Sayohatnoma mualliflari ko'pincha sub'yektiv yondashuv va aniq sarguzashtdan foydalanadilar.

5. Publitsistika mualliflarga o'z pozitsiyasini ifodalashga yordam beradi.

6. Sayohatnoma janri sintetikdir: u bir-biriga singib boruvchi va yagona tuzilmani yaratuvchi turli elementlarni birlashtiradi.

7. Sayohatnoma matnlari turli janrlarga xos elementlarni, jumladan, badiiy va dokumental adabiyotga xos unsurlarni o'z ichiga oladi.

8. Bu matnlarda faktik ma'lumotlar muallifning sub'yektiv talqini yoki to'qimasi bilan uyg'unlashadi.

9. Yo'nalish va sayohat janrning mavzuiy va tarkibiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

10. Sayohat mualliflari ko'pincha noyob hikoyachilarga aylanadi va o'z uslubini rivojlantiradi.

11. Sayohatnoma janri, haqiqiy hayot sharoitlariga bog'liq holda kitobxonning talablariga mos tarzda shakllanadi.

**Tahlil va natijalar.** Tahlil shuni ko'rsatadiki, Sayohatnoma janri insonning dunyoni o'rganish va hujjatlashtirish istagini doimiy ravishda aks ettirgan. Antik davrda sayohat haqidagi hikoyalar yoqadi periplus va periegez amaliy geografik ma'lumotlar va kashfiyotchilarning shaxsiy tajribalarini taqdim etdi. O'rta asrlar davrida ziyoratgohlar diniy sadoqatni muqaddas joylarning batafsil tavsiflari bilan birlashtirgan. Uyg'onish va ma'rifat davrlarida kashfiyotchilar, missionerlar va savdogarlar tomonidan sayohatnomalar ko'payib, janr ko'lamini va chuqurligi kengaytirildi. XIX-asrga kelib, sayohatnomalar yozuvchilar uchun o'zlarining adabiy asarlarini chet ellarning haqiqiy tavsiflari bilan takomillashtirish uchun mashhur vositaga aylandi. Chatobrian va Lamartin kabi mualliflar o'zlarining sayohatlaridan o'zlarining rivoyatlarini boyitish uchun foydalanganlar, shaxsiy mulohazalarni landshaftlar va madaniyatlarning batafsil kuzatuvlari bilan aralashtirganlar. Bu davrda ilmiy ekspeditsiyalarni hujjatlashtirgan, janrni yanada diversifikatsiya qilgan sayohat haqidagi rivoyatlar ham paydo bo'ldi. Zamonaviy adabiyotshunoslar xotira, kundalik, maqola va fantastika elementlarini o'z ichiga olgan sayohatnomaning gibril tabiatini ta'kidlaydilar. Janrning moslashuvchanligi unga shaxsiy sarguzashtlardan tortib siyosiy sharhlargacha bo'lgan turli xil mavzularni hal qilishga imkon beradi. Ushbu dinamik sifat sayohatnomaning adabiyotda doimiy dolzarbligini ta'minladi.

Sayohatnomaning adabiyotga kirib kelishi unga o'ziga xos makon, zamon va til qurilmalarining mazmun yaratishdagi mustaqilligini da'vo qilish imkoniyatini berdi. Bu, ayniqsa, yo'nalish masalasini qo'yishda yaqqol namoyon bo'ladi. Yuqorida tavsiflangandek,

sayohatnoma, faqatgina, dunyo bilan birlamchi munosabatdan keyingina yuzaga keladi, bu munosabat muqarrar bo'lishi talab etiladi. Munosabat turidan qat'iy nazar, u hamisha tadqiqot hisoboti, kashfiyot natijasi sifatida ko'rsatiladi. Shu sababli, sayohatnoma diskursining shaffofligi, hatto romantizmning so'nggi davrida ham haqiqatni aytishga oid talab bilan birga keladi.

“Sayohatchi, – deydi Shatobrian, – bir ma'noda tarixchidir: uning vazifasi o'zi ko'rgan yoki eshitgan narsalarni sodiqlik bilan hikoya qilishdir; u hech narsani to'qib chiqarmasligi, lekin hech narsani ham chetlab o'tmasligi kerak; va uning shaxsiy qarashlari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ular hech qachon uni haqiqatni yashirish yoki buzish darajasiga, ko'zi ko'r bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak”. [21]

Lorens Sternning "Fransiya va Italiya bo'ylab hissiy sayohat" (1768) kitobida sayohatning turli kategoriyalari ularning sayohat motivatsiyasiga ko'ra kulgili tarzda tasniflangan:

1. Bo'sh vaqtini o'tkazuvchi sayohatchilar
2. Qiziquvchan sayohatchilar
3. Yolg'onchi sayohatchilar
4. Mag'rur sayohatchilar
5. Shon-shuhratni yaxshi ko'radigan sayohatchilar
6. Zerikkan sayohatchilar.

Keyin esa zaruratdan sayohat qiluvchilarni sanab o'tadi:

1. Jinoyatchi va jinoiy sayohatchilar,
2. Baxtsiz va begunoh sayohatchilar
3. Oddiy sayohatchi.

Va nihoyat, eng oxirgisi – hissiy sayohatchi” – deb o'zini keltirib o'tadi.[22]

Bu sayohatchilarning hikoyalari ham xilma-xil shaklga ega. Sayohatnomalarni adabiy janr sifatida, agar biroz aniqlik izlansa, konseptual tavsiflash oson emas. Safar taasurotlari yozish, deyish ham mumkin. Biroq, sayohatga oid ma'lumotlar janrni aniqlash uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Agar hikoya qilingan tarkibni chetga surib, bayon shaklni ko'rib chiqilsa va shu tariqa matn shakllantirish tomonidan muammoni ko'rib chiqilsa, turli shakldagi bayonlarga duch kelish mumkin: xatlar, kundaliklar, xotiralar, hikoyalar, turli tarixiy yozuvlar, avtobiografiya, hatto geografiya yoki antropologiya kabi yaqin janrlarga tegishli; Afrika, Sharq, Yunoniston, Italiya, Xindistonda sayohat hikoyalari va hokazo.

Sayohatnoma shaxsning sayohat tajribasini haqiqiy hikoya qilib beradigan, odatda birinchi shaxs va o'tgan zamondagi so'zlashuv shaklidir. So'nggi davrlarda Yevropa adabiyotida *travelog* atamasi kirib keldi. Bu “travel” – sayohat, “monolog” – suhbat so'zidan olingan.[23]

Tarixan, mashhur sayohatnoma motividagi asarlar Xitoy ziyoratchilari Fa Xin va Xuen Sang, sayohatchilar Tavarnye, Bernye, Marko Polo, Batuta va Al Beruniy kabi shaxslar tomonidan yozilgan. Zamonaviy davrda Aldous Huxley, Graham Greene, V.S. Naipaul va Ved Mehta kabi taniqli mualliflar qiziqarli sayohatnomalar yozishgan. Ushbu janrning maqsadi kundalik va aniq odamlar, joylar, urf-odatlar va marosimlar to'g'risida batafsil yozuvlar sifatida xizmat qilishdir, bu esa ijtimoiy muhit va madaniyatni chuqur tushunishni ta'minlaydi.

Pikaresk roman ham sayohatnomaning bir turi bo'lib, sarguzasht orqali turli joylar va madaniyatlarni namoyish etadi, jumladan, Fieldingning “Tom Jons” asari shunday asar

hisoblanadi. Umuman olganda, sayohatnoma unda tasvirlangan joylar va odamlar o'rtasidagi kommunikativ aloqani ta'minlaydi.

Tarixiy adabiy sayohatnomadan tashqari qadimda fantastik sayohat – sarguzasht janr ham rivojlandi. U xayoliy mamlakatlar bo'ylab sayohatlar va aql bovar qilmaydigan mo'jizalar tavsiflarini o'z ichiga oladi. Bu janrdagi eng qadimgi matnlar Gilgamish dostoni va Odisseyadir. Gomerning “Odisseyasi” si janrning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Argonavtlar yurishi kabi ko'plab qadimiy matnlar Odisseyasi modeliga amal qiladi. Qadim zamonlarda ham ideal jamiyatlar bilan ajralib turadigan orollarni tasvirlaydigan birinchi utopiyalar paydo bo'ldi. Bunday matnlarga Evgemerning “Muqaddas yozuv” va Yambulning “Quyosh orollari” misol bo'la oladi. Lucian o'zining “Haqiqiy tarix” asarida parodiya uchun ajoyib sayohatdan foydalangan. Qadimgi yunon sayyohi Diogen o'zining “Tule ortidagi aql bovar qilmaydigan sarguzashtlar” asarida bu janrni ishqiy roman bilan birlashtirgan. Anonim «Iskandar Zulqarnayn tarixi» janrga sharq unsurlarini kiritdi. [24] O'rta asrlarda “Sent-Brendanning sayohati” kelt afsonalaridan foydalanib, Muborak oroliga sayohatni tasvirlagan. “Ser Jon Mandevilning sayohatlari” janrga “sharq fantaziyasini” qo'shdi. Marko Polo ham ushbu mavzuga hissa qo'shgan. O'rta asr utopiyalari Tomas Morning “Utopiya” si bilan boshlanib, Tommaso Kampanellaning “Quyosh shahri” va Frensis Bekonning “Yangi Atlantis” kabi asarlarda davom etgan. [25]

XIX asrning oxirida fantastik sayohat janri romanning bir qismiga aylandi. Bunday ishlarga E.R.Burroughs va A. Merrittning asarlari misol bo'la oladi. XX asrda bu janr ba'zan satira yoki allegoriya uchun ham qo'llanilgan, xuddi Frigyes Karintining “Gulliverning beshinchi sayohati” va Devid Lindsining “Arkturusga sayohat” romanlarida bo'lgani kabi.

Zamonaviy ilmiy fantastikada sayohat elementlari deyarli har bir asarda mavjud. Sof misollar sifatida Jek Vensning “Katta sayyora”, Isaak Asimovning “Fantastik sayohat”, Sterling Lanierning Ieroning sayohati va Duglas Adamsning “Ostostopolning Galaktikaga qo'llanmasi” ni keltirish mumkin. Bunga “Sayohat kinosi” – animatsiyasi ham kiradi.

Fantastik sayohat an'anaviy adabiy sayohat janrini boyitib, romanning bir qismiga aylandi va satira yoki allegoriya uchun ishlatildi.

Umuman, sayohatnoma janri dastlab ziyoratnoma, keyinchalik, jamiyatning turli vakillarining tarixiy safarlari taasurotlari sifatida, ba'zan sof tarixiy, ba'zan yozuvchining to'qima g'oyalari bilan qorishib, bayonning turli shakllarida rivojlanib bordi.

Turli davrlardagi sayohatnomalar jamiyatning madaniy va ilmiy hayotida muhim rol o'ynab, dunyo haqidagi bilimlarni tarqatishga hissa qo'shdi va yangi hududlarni o'rganishga qiziqish uyg'otdi. Janr shakllari va muallif yondashuvlarining xilma-xilligi sayohatnomalarni o'ziga xos hodisaga aylantirib, davr ruhini, insonning o'zini o'rab turgan olamni idrok etishga intilishini aks ettiradi. Sayohatnomalar kitobxonlar uchun xayoliy sayohatlar olamini ochib beradi, yozuvchilar uchun esa madaniy va tabiiy merosni adabiy shaklda saqlagan holda o'z taasurotlarini yozib olish va yetkazish usulidir.

**Xulosa.** Sayohatnoma janri o'zining qadimiy kelib chiqishidan zamonaviy shakliga qadar sezilarli darajada rivojlanib, o'zgaruvchan madaniy va adabiy kontekstlarga doimiy ravishda moslashib bordi. Uning faktik ma'lumotlarni badiiy rivoyat bilan uyg'unlashtirish qobiliyati uni dunyoni o'rganish va hujjatlashtirish uchun qimmatli vositaga aylantirdi. Janrning ko'p qirraliligi va turli adabiy elementlarni sintez qilish qobiliyati uning doimiy jozibasini va

ahamiyatini ta'minlaydi. Kelajakdagi tadqiqotlar sayohatnomaning zamonaviy adabiyotga ta'sirini va uning madaniyatlararo tushunishdagi rolini yanada o'rganishi mumkin.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. "Особенности функционирования жанра литературного путешествия" URL: <https://studentopedia.ru/literatura/osobennosti-funkcionirovaniya-zhanra-literaturnogo-puteshestviya---zhanr-puteshestvij-v-zarubezhnoj.html>.
2. Ўзбек тилининг изохли lug'ati. URL: <https://izoh.uz/word/sayohatnoma>
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil. URL: [https://uz.wikipedia.org/wiki/Sayohatnoma\\_\(janr\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Sayohatnoma_(janr))
4. Нематова Х.А. Сафарнома жанри: тарихи, тараққиёти ва поэтикаси. ф.ф.ф.д. дис... авт. – Жиззах, 2022. – 51б.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. URL: <https://izoh.uz/word/sarguzasht>
6. URL: <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9F%D0%B5%D1%80%D0%B8%D0%BF%D0%BB>
7. Древний мир. Энциклопедический словарь. URL: <https://drevniy-mir.academic.ru/4378/%D0%9F%D0%B5%D1%80%D0%B8%D1%8D%D0%B3%D0%B5%D0%B7%D0%B0>
8. MOUSSA Sarga, « Le récit de voyage, genre « pluridisciplinaire ». À propos des Voyages en Égypte au XIXe siècle », Sociétés & Représentations, 2006/1 (n° 21), p. 241-253. DOI : 10.3917/sr.021.0241. URL : <https://www.cairn.info/revue-societes-et-representations-2006-1-page-241.htm>
9. <https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/610-kitob.html?tmpl=component&print=1&page=>
10. Тимофеев Л., Венгеров Н. Краткий словарь литературоведческих терминов. М.: Учпедгиз, XIX63.– С.124
11. Чернышевский Н.Г. Полн. собр. соч. М.: ГИХЛ, XIX48. Т. IV. – С.99
12. Гуминский В.М. Путешествие // Литературный энциклопедический словарь. М.: Сов. энциклопедия, XIX87. С. 314–315.
13. Михайлов В. Эволюция жанра путешествия в произведениях русских писателей XVIII–XIX вв.: Дис. ... канд. филол. наук. Волгоград, XIX99. – С.45
14. Шачкова В. А. "путешествие" как жанр художественной литературы: вопросы теории // Вестник ННГУ. 2008. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/puteshestvie-kak-zhanr-hudozhestvennoy-literatury-voprosy-teorii>.
15. Маслова Н.М. Путевой очерк: проблемы жанра. М.: Знание, XIX80. С.72
16. Скибина О.М. Творчество В.Л. Кигна-Дедлова: проблематика и поэтика. Оренбург, 2003. С.83
17. Стеценко Е.А. История, написанная в пути... (Записки и книги путешествий в американской литературе XVII–XIX вв.). М.: ИМЛИ РАН, XIX99. С.160
18. Шадрин М.Г. Эволюция языка «путешествий»: Дис. ... д-ра филол. наук. М., 2003. С.72
19. Huenen Roland Le, Études littéraires. Volume 20, numéro 1, printemps–été XIX87, p. 45–61
20. Jean Viviès. La Main du potier : le récit de voyage dans la littérature anglaise. Atala. Cultures et sciences humaines, Lycée Chateaubriand, Rennes, 2010, pp.29-36. <halshs-01017228>
21. Hamid Fouzia. Travelogues: The Fully Emerged and Innovative Literary Genre. International Journal of Advanced Multidisciplinary Scientific Research (IJAMSR). Vol 5, Issue 1, 2022. P. 40-47
22. Особенности функционирования жанра фантастического путешествия" URL: <https://studentopedia.ru/literatura/osobennosti-funkcionirovaniya-zhanra->

---

fantasticheskogo-puteshestviya---zhanr-puteshestvij-v.html (Дата обращения  
14.05.2024)

23. Кругосвет. URL: <http://www.krugosvet.ru> – ensiklopediya sayti



**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **USING PHRASEOLOGISTS IN THE SPEECH OF MODERN PERSON**

**Kayumova Nodira Karim kizi**

Navoi State Pedagogical Institute, Faculty of Russian and Kazakh Philology, 3rd year student

**Abstract.** Phrases are a part of speech. For this purpose, it is important to learn the tools of communication, their use, phrases and figurative expressions. Phraseological expressions are an important subject of research in modern human speech, as in any language, and have been studied by many linguists until now. In this article, the semantic characteristics of expressions in modern human speech are detailed. This article analyzes the classification and semantic features of some expressions in modern human speech through various examples.

**Key words:** Phraseologism, expression, form and meaning, figurative meaning, equivalent.

## **ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В РЕЧИ СОВРЕМЕННОГО ЧЕЛОВЕКА**

**Каюмова Нодира Карим кизи**

Навоийский государственный педагогический институт, Факультет русской и казахской филологии, студент 3 курса

**Аннотация.** Фразы являются частью речи. Для этого важно изучить средства общения, их использование, фразы и образные выражения. Фразеологические выражения являются важным предметом исследования в современной человеческой речи, как и в любом языке, и до сих пор изучаются многими лингвистами. В данной статье подробно рассмотрены семантические характеристики выражений в современной человеческой речи. В данной статье на различных примерах анализируются классификация и семантические особенности некоторых выражений в современной человеческой речи.

**Ключевые слова:** Фразеологизм, выражение, форма и значение, переносное значение, эквивалент.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N26>

В языкознании в большинстве случаев словосочетания рассматриваются как фразеологические единицы. Недаром национально-культурные проблемы фразеологической системы стали объектом исследования многих лингвистов. Это можно объяснить вниманием и интересом к проблеме «Язык и культура» в последние годы, а также развитием современного языкознания в антропологической парадигме. Учитывая взаимную и тесную связь языка с человеком, необходимость применения теории антропологического языкознания к фразеологической системе является естественной и важной реальностью.

Фразеологизмы, сформированные на основе фразеологизмов и устойчивых выражений.

Кроме того, эту классификацию можно еще расширить.

По смысловому характеру фразеологизмы можно разделить на следующие:

Фразы с глаголами  
Предложные фразы  
Гастрономические выражения  
Фразы, связанные со словом «хлеб».  
Фразы, связанные со словом «вода».  
Выражения с числовыми компонентами  
Фразы о частях тела  
Фразы про названия животных  
Фразы, связанные с названиями цветов  
Фразы связанные со временем  
Фразы на тему семьи  
Сочетания со словом земля  
Предложения со словом луна  
Слова и выражения, связанные с речью  
Как и фразы о слове мир.

Фразеологизмы являются основной единицей современной фразеологической системы и представляют собой многогранное языковое явление, которое трудно выделить из общего учета существующих в языке словосочетаний. Фразеологизмы являются одним из инструментов, раскрывающих богатые лингвистические возможности любого языка.

Появление фразеологизмов служит уменьшению несоответствия между мышлением человека и лексическими возможностями языка.

Хотя фразеологизмы очень древние по происхождению, их научные и практические исследования сравнительно молоды. Термин фразеология происходит от греческого *phrasis* и *fraza*, *logos* – понятие, инструкция, и трактуется как раздел языкознания, изучающий фразеологические единицы. В лингвистике они изучаются в рамках таких терминов, как фразеологизм, фразеологизм, словосочетание, словосочетание, идиома и т. д. Изучение и исследование фразеологизмов интересовало лингвистов с древнейших времен. До XIX века выражения изучались в рамках лексикологии, где описывались только их значения и этимология. Существуют некоторые сложные аспекты изучения области фразеологии, прежде всего необходимо изучить ряд предметов языкознания на основе справочников таких предметов, как лексикология, стилистика, фонетика, грамматика, логика, страноведение и история. Наука фразеология — относительно молодая область по сравнению с другими областями языкознания. Она начала отделяться от лексикологии в 50-х годах 20 века. Этому отделу, как самостоятельному направлению, принадлежит несравненный вклад ряда ученых, но надо признать, что заслуги российского академика В.В. Виноградова заметно огромны. Этому ученому можно без колебаний назвать «отцом фразеологии». Вообще фразеологизмы являются продуктом мудрого народа и помогают сделать язык в некоторой степени привлекательным и в то же время эффективно выражать гнев, жалость, сарказм. Фразеологизмы нельзя рассматривать только как украшение языка. В мире нет языка без фраз, в частности, фразеология немецкого языка очень богата и имеет свою многовековую историю.

В мировой лингвистике фразеологизмы понимаются в широком и узком смысле. Ученые, понимающие фразеологию в широком смысле, включают в ее состав пословицы, поговорки и афоризмы, тогда как сторонники фразеологии в узком смысле ограничиваются изучением фразеологизмов и образных единиц. Поскольку фразеологический материал сложен и многогранен, в последние годы его изучают с использованием различных методов и методов. На этом этапе необходимо выделить следующие приемы и способы изучения фразеологизмов: Метод идентификации. Ее основные представители — зрелые лингвисты Чарльз Балли и А.В. Разрешается указывать даты. Контекстуальный метод. Его представитель Н.Н. Амосова, изучавшая преимущественно фразеологизмы, встречающиеся в текстах. А также вариационный метод (В.Л.Архангельский), метод фразеологического применения (В.П.Жуков), структурно-типологический метод (Л.И.Райзензон, Ю.К.Авалиани, Ю.П.Солодуб), сравнительный метод (С.Г.Гаврин), метод изучения фраз на основе семантических рамок (М.Г.Ташев). , такие как метод разучивания лексем и словосочетаний на денотативные и коннотативные термины (М. М. Копиленко). Вышеуказанные методы дополняют друг друга и позволяют глубже понять различные типы фразеологизмов, парадигматические и синтагматические особенности, валентные возможности. Фразеологические единицы по плану содержания близки к лексическим единицам, а по плану выражения — к синтаксическим единицам (словосочетаниям, предложениям). Но фразеологизмы не эквивалентны слову, словосочетанию или предложению. Изучение вопросов фразеологии, исследование этой области привели к ее формированию как самостоятельной языковой области. Он обогатил науку языкознания теоретически и практически. Однако не следует делать вывод, что в области фразеологии нет неисследованных проблем.

Всегда хорошая фраза «надеть рубашку вверх тормашками», а сегодня она адресована человеку, который говорит вопреки другим и дергается, если ты что-то говоришь. В результате различных психических состояний, наблюдаемых у современных людей, иногда они могут быть грустными, а иногда и очень счастливыми. При выражении этих ситуаций на людях часто целесообразно использовать выражения, обладающие гораздо большей выразительной силой, чем простые слова, чтобы обеспечить более высокое и эффективное воздействие мысли. Ведь выражения – это не только высказывание определенного мнения, но и языковое выражение исторических, культурных и образовательных особенностей определенной нации, народа. В ходе анализа традиционных крылатых выражений узбекского народа на протяжении веков можно убедиться в этом факте. Тунец – традиционная одежда тюркских народов. Узбеки надевают на свадьбы красивые платья. Это нетипично для европейской культуры. Фраза «носит пальто вверх тормашками» может использоваться для передачи значения расстроенности или гнева. Например, на одной из встреч Бекниез раскритиковал его, сказав: «Ты ржавеешь, брат Бакиджон». Всё, брат Бакиджон надел хитон вверх ногами.

7. Иорданова В. Г., Черенкова С. А. Влияние цифровизации мировой экономики на экономический рост в странах мира (на примере КНР и США). // доступ свободный. [https://www.researchgate.net/publication/369439591\\_Cifrovizacia\\_SSA\\_i\\_Kitaa](https://www.researchgate.net/publication/369439591_Cifrovizacia_SSA_i_Kitaa)
8. Locher, T. (2017). E-Government: Opportunities and Challenges. *International Journal of Public Administration*, 40(5), 420-430.
9. Огнева Валентина Васильевна Зарубежная практика оказания государственных услуг: принципы и приоритеты // Среднерусский вестник общественных наук. 2010. №4. –С. 141-143. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnaya-praktika-okazaniya-gosudarstvennyh-uslug-printsipy-i-prioritety> (дата обращения: 03.07.2023).
10. Слатенькова Мария Александровна Социальная справедливость как основная задача государства // БИ. 2013. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sotsialnaya-spravedlivost-kak-osnovnaya-zadacha-gosudarstva> (дата обращения: 03.07.2023).
11. Ширинова О.А. Зарубежный опыт внедрения цифровых технологий в деятельность налоговых органов // Вестник Академии знаний. 2020. №4 (39). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zarubezhnyy-opyt-vnedreniya-tsifrovyyh-tehnologiy-v-deyatelnost-nalogovyh-organov> (дата обращения: 03.07.2023).
12. Электронное правительство. Опыт Великобритании // <https://ictnews.uz/02/05/2017/egov-uk/>.

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **SOME CONSIDERATIONS ON ECOLOGICAL REGULATION IN USING AND CONSERVING BIOLOGICAL RESOURCES**

**Rajabov Nariman Sharifbaevich**

Tashkent state university of Law, Department of "Ecological law, Acting professor, Doctor of Law

**Abstract.** The article highlights the issues of legal regulation of environmental regulation, which is one of the environmental requirements for the protection of biological resources and their rational use, emphasizes its importance, legal issues related to the development of legislation in this area, analyzes the current state of establishing environmental standards and development prospects from scientific and theoretical point of view, and in this regard, the author's proposals are put forward. In this regard, the experience of foreign countries has been studied, proposals and recommendations for its development in our country have been developed.

**Key words:** biological diversity, flora, fauna, biological resource, environmental standard, pasture, national Natural Park, environmental expertise, environmental regulation, environmental legislation, quota, limit.

## **БИОЛОГИК РЕСУРСЛАРНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ ВА УЛАРДАН ФЙДАЛАНИШДА ЭКОЛОГИК МЕЪЁРЛАШНИ ХУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ МАСАЛАЛАРИ**

**Ражабов Нариман Шарифбаевич**

Тошкент давлат юридик университети, "Экология ҳуқуқи" кафедраси  
профессори в.б., ю.ф.д.

**Аннотация.** Мақолада биологик ресурсларни муҳофаза қилиш ҳамда улардан оқилона фойдаланишда экологик талаблардан бири бўлган экологик меъёрлашни ҳуқуқий тартибга солиш масалалари, унинг аҳамияти ёритилиб, ушбу соҳа қонунчилигини ривожлантириш, экологик меъёрларни ўрнатилишининг ҳозирги ҳолати ҳамда ривожланиш истиқболларига оид ҳуқуқий масалалар илмий-назарий жиҳатдан таҳлил этилган, бу борада эса муаллифлик таклифлари илгари сурилган. Ушбу масала юзасидан ҳорижий мамлакатлар тажриба ўрганилиб, мамлакатимизда уни ривожлантириш юзасидан таклиф ҳамда тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** биологик хилма-хиллик, ўсимлик дунёси, ҳайвонот дунёси, биологик ресурс, экологик меъёр, яйлов, миллий табиат боғи, экологик экспертиза, экологик меъёрлаш, экологик қонунчилик, квота, лимит.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N36>

**Кириш.** Аслида, ўсимлик ва ҳайвонот дунёси объектлари ноёб биосферамизнинг бир қисми сифатида намоён бўлиб, унинг ҳаётий фаолияти сув объектларининг мусаффолигини, атмосфера ҳавосининг қулай ва тозаллигини таъминловчи бир унсур ҳисобланиб, улар турларнинг йўқ бўлиб кетиши эса барча экологик тизимларнинг яхлитлиги, барқарорлиги ва маҳсулдорлигини бутунлай издан чиқишига олиб келади.

Ўз навбатида атмосфера ҳавоси ҳамда сув объектлари сифатининг ёмонлашуви ҳам ўсимлик ва ҳайвонот дунёси объектларининг сонига салбий таъсир этиши мумкин. Масалан, сувларнинг ифлосланиши балиқ ва бошқа сув организмларининг камайишига олиб келади.

Биологик хилма-хилликни ҳуқуқий муҳофаза қилиш масалаларини кўриб чиқишни атроф-муҳитни муҳофаза қилишнинг асосий мақсадларини белгилашдан бошлаш мақсадга мувофиқдир. Ваҳоланки, ўтган асрнинг 1980 йилида О.С.Колбасов ўта муҳим бир масалани қайд этган эди-ки, бугунги кунда мазкур қарашлар ўзининг аҳамиятини ҳеч йўқотмаган, чунончи “одамларнинг атроф табиий муҳит элементларига нисбатан экологик жиҳатдан хулқ-атворини тўғри таъминлаш муҳим бўлиб, инсоннинг табиий объектларга муқаррар таъсири табиатнинг объектив қонунларидан келиб чиқадиган талаблар билан жамиятнинг кейинги ривожланиш талаблари билан чекланадиган вазиятга эришиш учун ҳаракат қилиш муҳимдир”[1;10-с]. Қолаверса, мутахассисларнинг эътиофича, атроф-муҳитни ифлосланишини олдини олиш чоралари экологик жиҳатдан асосланмаган қарорлар натжасида юзага келадиган турли ҳил оқибатларни бартараф этишдан тўрт-беш маротаба арзон ҳисобланади [2;2-11-с].

Жаҳонда ўсимлик ва ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ҳамда улардан оқилона фойдаланишга оид ҳуқуқий масалалар муҳим аҳамиятга эга бўлиб бормоқда. Чунки, ҳозирги вақтга келиб ўсимлик ва ҳайвонот дунёсининг барча турлари бирмунча қисқарган. Бунинг сабаби, ўсимлик ва ҳайвонот дунёсидан фойдаланишда аниқ бир мукамал чегара, меъёр ёки нормативларнинг мавжуд эмаслиги, ушбу табиат объектларни ривожлантириш лойиҳаларга риоя қилмаслик, муҳофаза ишларининг қилинмаслиги, шунингдек, ўрмонларда мол боқиш тартибига риоя қилинмаслиги ҳисобланади. Ушбу масалани экологик меъёрлаш орқали ҳал этиш мумкин.

**Муҳокама.** Кўпгина олимларнинг эътирофича, экологик меъёрлаш – бу атроф муҳит сифати кўрсаткичларини ва унга йўл қўйиладиган даражада таъсир кўрсатишни ўрнатиш, атроф муҳитга йўл қўйиладиган чегараларда меъёрлар (экологик регламент ёхуд бошқа норматив)ни ўрнатишга қаратилган ташкилий-ҳуқуқий фаолият бўлиб уларга риоя этилиши экологик тизимлар деградацияси юзага келмайди, биологик хилма-хиллик сақланиб қолинишига ҳамда аҳолининг экологик хавсизлиги кафолат берилади [3; 52-58-с].

Умуман олганда, экологик қонунчиликда кўпинча табиий ва техник фанларга яқин бўлган махсус атама ва тушунчалардан (формула) фойдаланилади ҳамда улар ҳар доим ҳам ушбу соҳани тушунмаган субъектга уни тушуниш қийин. Юридик техникани мавзуни тўла аниқ тушунмасдан туриб юридик техникани қўллаш эса ижтимоий муносабатларни ҳуқуқ нормаларига трансформация қилишга йўл қўймайди, бунда эса нормаларни нотўғри талқин қилиниши ва бузилиши юзага келади. Экологик қонунчиликни яратилиши жараёнида юридик фан ва амалиёт вакиллари нафақат жамият ва табиат ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг объектив жараёнларининг моҳиятини тушунишлари, балки муайян соҳадаги ҳуқуқий муносабатлар модели сифатида ягона уйғунликни яратишлари керакдир [4; 147-с].

Дарҳақиқат, ўсимлик ва ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ҳамда улардан фойдаланишни меъёрлаш бевосита ва билвосита амалга оширилади. **Бевосита меъёрлаш** орқали ўсимлик ва ҳайвонот дунёси объектларини муҳофаза қилиш ҳамда

улардан фойдаланиш меъёрлари белгиланади. **Билвосита меъёрлаш** орқали ўсимлик объектларининг ўсиш муҳити ва ҳайвонларнинг яшаш муҳитининг маълум бир сифат даражаси таъминланади. Бундай меъёрлаш орқали атмосфера ҳавосининг, сувларнинг ва бошқа табиий объектларнинг ўсимлик ҳамда ҳайвонот дунёси учун безарар сифат ва сон кўрсаткичлари белгиланади. Масалан, ўсимлик ҳамда ҳайвонот дунёсини меъёрлаш ҳам тегишлича ҳайвонот ва ўсимлик объектларига таъсир қилади. Ўсимлик дунёси объектларининг камайиб кетиши ҳайвонларнинг озуқасини камайишига ва бунинг натижасида эса *биринчи навбатда* ўсимлик билан озиқланадиган ҳайвонларнинг сонига, *иккинчи навбатда* эса, йиртқич ҳайвонларнинг камайишига олиб келади [5; 27-38-с].

Шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг «Ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида»ги Қонунининг 24-моддасига асосан, ҳайвонот дунёси объектлари сонини тартибга солиш квоталар асосида амалга оширилади. Квоталар Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги томонидан, Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг хулосаси ва ҳайвонларнинг давлат ҳисоби маълумотлари асосида белгиланади. Бугунги кунда квоталарни белгилаш тартиби қонун ҳужжатларида акс эттирилмаган. Албатта, квоталарни белгилаш тартиби бугунги кунда қуйидагича амалга оширилмоқда: ҳайвонот дунёсидан фойдаланувчи юридик шахслар ҳар йилнинг бошида табиатни муҳофаза қилиш органларига уларга бириктирилган ҳудудларда мавжуд бўлган ҳайвонлар турларининг сони бўйича маълумот тақдим этадилар. Ушбу маълумотларга асосан, Фанлар Академияси (Зоология институти), Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги ҳамда унинг ҳузуридаги Ўрмон хўжалиги агентлигининг вакилларида иборат тармоқлараро комиссия томонидан ҳар бир ҳайвон тури бўйича фойдаланиш имконияти мавжудлиги ҳамда атроф муҳитдан уларни олинадиган тарзда фойдаланиш бўйича ҳайвонларнинг тури ва сони тўғрисида хулоса тайёрланади.

Бундай хулосага асосан, Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлигининг буйруғи билан ҳар бир ҳайвон тури ва унинг фойдаланиш ҳудудлари бўйича сони белгиланади. Мазкур квоталарни белгилаш тўғрисидаги буйруқ вақтинчалик умуммажбурий ҳисобланиб, Адлия вазирлигида давлат рўйхатидан ўтказилмоқда. Бунга мисол қилиб, Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлигининг биоресурслардан фойдаланиш меъёрлари ҳақида 2004 йил 18 февралдаги 17-сон Буйруғи чиқарилган ҳамда 2004 йил 5 апрелда. 1332-сон билан Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида давлат рўйхатига олинган. Ушбу буйруқ бир йил муддатга мўлжалланган бўлиб, ҳайвонот дунёсидан фойдаланиш режаси ҳисобланади ҳамда бир йўла ушбу соҳадаги экологик меъёрлаш вазифасини бажаради.

Бундан ташқари, квоталарни белгилаш масаласи юридик адабиётларда ҳам таҳлил қилинган. В.В.Петровнинг фикрича, ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш соҳасида ҳайвонларни тутиш ҳамда отиш лимитлари белгиланади. Улар бир йилга ёки ов мавсумига (ов қилиш ва балиқ тутишнинг маълум бир вақтларига), сув ҳавзалари ёки овчилик ва балиқчилик жойлари ёхуд хўжаликлари бўйича белгиланиши мумкин [6; 152-с]. Ва албатта ўрмонлардан фойдаланиш, уларни



муҳофаза қилиш ва қайта тиклаш бўйича ҳисобланган ўрмон кесиш ҳажмлари ёғоч тайёрлаш мақсадида кесиладиган дарахтлар ҳамда ўсиб унадиган дарахтларнинг мувозанатини сақладийган меъёр ўсимлик ҳолатига таъсир қилиши мумкин бўлган ҳайвонларнинг ёки бир вақтнинг ўзида ўрмонда бўлиш фуқароларнинг сони шаклларида лимитлаш амалга оширилиши аҳамиятлидир.

**Таҳлил.** Дунё тажрибаси шуни кўрсатадики, сувдаги биологик ресурслардан фойдаланишни квоталаш бу ушбу ресурслар миқдорини ҳамда улар яшаш муҳити табиий шароитларини хидлма-хиллигини тартибга солиш воситаларидан бири бўлиб ҳисобланиши аҳамиятлидир [7; 92-96-с]. Албатта, ушбу квоталар миқдори эса илмий асосланган фойдаланиш миқдорларини инобатга олган ҳолда ўрнатилиши лозимдир. Яна бир олимнинг эътирофича қонунчиликда ўрнатилган барча талаблар, яъни ҳайвонот дунёси объектларидан фойдаланишни меъёрлашга оид талаблар, яъни фойдаланиш лимитлари, стандарт ва меъёрларни ўрнатилиши юзасидан талабларни ўз ичига олади, бироқ ушбу талаблар умумий характер касб этиб, улар ҳайвонот дунёсидан фойдаланишнинг қайси черагаси ёхуд лимитларини ўрнатиш ёки белгилаш кераклигини ҳисобга олган ҳолда мезонларни аниқламайдилар [8;624-с].

Қолаверса, ўсимлик дунёсидан фойдаланиш меъёрлари ҳам бир йилга мўлжалланган бўлади [12; 27-38-с]. Табиий пичанзор ҳамда яйловларда пичан ўриш ва мол боқиш алоҳида ҳар бир пичанзор ва яйлов бўйича меъёр сифатида, маълум муддатга белгиланиши лозим. «Ўсимлик дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида»ги Қонуннинг 9-моддасига асосан, ушбу меъёрларда пичан ўриш ва мол боқишнинг миқдори ҳамда муддатлари белгиланади. Ушбу миқдор ва муддатлар ҳар бир табиий пичанзор ҳамда яйловнинг ўсимликлар ҳолати ва уларни тикланиш қобилиятидан келиб чиқиб белгиланади. Масалан, 2003 йил 15 майдаги Ф-77-сонли Тошкент вилояти ҳокимининг Фармойиши билан Угам - Чотқол давлат миллий табиат боғи бошқармасига қарашли яйловлардан ёзги мавсумда чорва молларининг жойлаштирилиши тартибга солинган. Ушбу Фармойишга асосан, Андижон вилоятининг чорва моллари учун Оҳангарон ўрмон хўжалигидан 22000 гектар, Бурчмулло ўрмон хўжалигидан 4600 гектар яйлов майдони ҳамда Фаргона вилояти учун Бурчмулло ўрмон хўжалигидан 4000 гектар ва Оҳангарон ўрмон хўжалигидан 2000 гектар яйлов майдони ажратиб берилган. Мазкур Фармойишнинг иловасида вилоят яйловларида жойлаштирилиши лозим бўлган отлар, йирик ва майда шоҳли молларнинг миқдори белгиланган. Масалан, Пскент тумани яйловларида Пскент туманидаги жамоа, фермер хўжаликлари ва аҳолига қарашли молларнинг сони қуйидагича белгиланган: йирик шоҳли моллар – 37000 та, майда шоҳли моллар – 370000 та.

Ёввойи ҳолда ўсадиган шифобаҳш ва озик-овқатбоп ўсимликлар ҳамда ўсимлик - техник ҳом ашёсини тайёрлаш квоталари Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги томонидан Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси билан келишилган ҳолда тасдиқланади. Ушбу квота ҳайвонот дунёсидан фойдаланиш тўғрисидаги квота каби ҳар йили белгиланиб, қайд этилган мақсадларда фойдаланадиган ўсимлик дунёси объектларини ҳисоб маълумотларига асосан ўсимлик дунёсининг ҳар бир тури ва фойдаланилиши лозим бўлган ҳудудлар бўйича белгиланади.

Ваҳоланки, илмий нуқтаи назардан ёндашган ҳолда шуни қайд этиш зарурки,

ушбу соҳа мутахассиси Э.С.Якчевскаянинг фикрини инобатга олиш янада муҳимдир. Яъни, бунда ўсимликлар бирликлари «Фитоценоз сифати» тушунчаси билан фитоценозни тавсифловчи барча хусусиятларни ўз ичига олади ва натижада ўсимлик бирликлари тўғрисида тўлиқ маълумотларга эга бўлиш мумкин бўлади. Фитоценознинг сифатини аниқлаш бир неча босқичлардан иборат бўлади: сифат кўрсаткичларини танлаш, ушбу кўрсаткичларнинг сон белгиларини аниқлаш, ушбу кўрсаткичларни асосий ёки норматив кўрсаткичлар билан таққослаш. ва комплекс баҳолаш дан иборат бўлади [9; 52-с].

**Натижа.** Ҳайвонот ва ўсимлик дунёси объектларининг фойдаланиш меъёрларини белгилашда ҳайвонот ва ўсимлик объектларининг йўқ бўлиб кетишига йўл қўймайдиган даражада квоталар ўрнатилади. Шунинг учун ҳам, ҳайвонот ва ўсимлик дунёси объектларининг ҳақиқий тарқалган сонидан келиб чиқилиши лозим. Агар ҳайвонот ва ўсимлик дунёси объектларининг сони маълум бир минимал сондан камайиб кетса, ушбу объектнинг тури ўз-ўзининг сонини тиклаш қобилятини йўқотиб, вақти - вақти билан у камайиб кетаётган ва ноёб ўсимлик ҳамда ҳайвонот дунёси турларига киритилишига сабаб бўлади. Демак, ҳайвонот ва ўсимлик дунёси объектларидан фойдаланиш юзасидан чегара ёхуд меъёрлари нафақат ушбу объектлардан фойдаланиш режаси сифатида қаралади, балки экологик меъёр сифатида ҳам кўрилиши лозим [11; 45-55-с].

Ҳайвонот ва ўсимлик дунёси объектларидан фойдаланиш меъёрларини белгилашда илмий асосланган ёндашувни таъминлаш учун Фанлар Академиясининг ташкилотлари илмий ходимларининг хулосалари талаб қилинади. Ушбу меъёрлар, мазкур объектлардан фойдаланиш режаси бўлганлиги сабабли, уларни тасдиқлашдан олдин экологик экспертизадан ўтказилиши лозим. Масалан, табиий яйловлар ва пичанзорларда мол боқиш ва пичан ўришнинг меъёр ҳамда муддатлари «Ўсимлик дунёсини муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланиш тўғрисида»ги Қонуннинг 9-моддасига асосан, қишлоқ ва сув ҳамда ўрмон хўжалиги давлат органларининг тақдимида кўра маҳаллий давлат ҳокимияти органлари томонидан тасдиқланади. Шундай меъёрнинг лойиҳаси Ўзбекистон Республикасининг «Экологик экспертиза тўғрисида»ги Қонунининг 11-моддасига асосан давлат экологик экспертизасидан ўтказилиши лозим деб ҳисоблаймиз.

Умуман олганда, экологик қонунчилик билан белгиланадиган атроф-муҳитга потенциал таъсирларни бошқариш механизми табиий ресурслардан фойдаланиш миқдорини экологик меъёрлаш, лимитлаш шаклида атроф-муҳитга турли таъсирини чеклашни ўз ичига олиши, шунингдек атроф-муҳитни бошқаришни тартибга солиш ва қонунийлик механизмлари, яъни таъсир ҳажмларини экологик лойиҳалаш, корхоналарни, маъмурий-худудий тузилмаларни ва бошқа хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятини аттестациядан ўтказиш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва бошқа фаолият соҳасидаги айрим фаолият турларини лицензиялаш шаклида ишлаб чиқариш фаолиятининг атроф-муҳитга таъсирининг реал ҳажми ва табиатининг намоён бўлиши каби бошқаларни ўз ичига олади [10; 502-508-с].

Хуллас, ўсимлик ва ҳайвонот дунёсини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни меъёрлашга оид қонунларда бир қатор қоидалар мавжуд. Аммо, уларни белгилаш тартиби қонунчиликда мустаҳкамланмаганлиги сабабли, шундай тартиб ва

қоида ишлаб чиқилиши ҳамда қабул қилиниши лозим. Бунинг учун, ушбу соҳада фаолият олиб бораётган ваколатли давлат органларининг масъулиятини янада ошириш мақсадга мувофиқ бўлади.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Колбасов О.С. Теоретические концепции новых природоохранительных законов // Известия высших учебных заведений. Правоведение. 1980. № 6. С. 10.
2. Краснова И. О. Конкретизация как способ совершенствования законодательства // Lex Russica. 2016. № 6 (115). С. 147.
3. Петров В.В. Экологическое право России. -М.: Бек 1996. - 152 б.
4. Якчевская Э.С. Ўсимлик бирликларини муҳофаза қилиш Научные аспекты стандартизации в области охраны природы и рационального использования почв, земель, ландшафтов. Научные труды Всесоюзного научно-исследовательского института стандартизации. –Москва: 1980. - 52 б
5. Ражабов Н. Конституционно-правовая основа обеспечения права на экологически чистую продукцию //Review of law sciences. – 2020. – Т. 3. – №. Спецвыпуск. – С. 179-183.
6. Nariman Rajabov. "The current state and prospects of the development of the environmental regulation system (historical-legal analysis)" Review of law sciences, no. 3, 2020, pp. 133-139. doi:10.24412/2181-1148-2020-3-133-139.
7. Sharifbaevich R. N. Digitalization of Environmental Regulation: Legal Aspects //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 374-380.
8. Sharifbaevich, R.N. 2023. The Role of Social Partnership in Setting Standards for the Protection of the Natural Environment (Legal Aspect). *International Journal of Development and Public Policy*. 3, 2 (Feb. 2023), 16–25.
9. Rajabov N. SOME ISSUES OF ENVIRONMENTAL REGULATION OF THE SEIZURE OF MINERALS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 502-508.
10. Ражабов Нариман. "Конституционно-правовая основа обеспечения права на экологически чистую продукцию" Review of law sciences, vol. 3, no. Спецвыпуск, 2020, pp. 179-183. doi:10.24412/2181-919X-2020-3-179-183
11. Ражабов Н. Ш. Роль Социального Партнерство В Установлении Нормативов В Сфере Охраны Окружающей Природной Среды (Правовой Аспект) //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2021. – Т. 2. – №. 8. – С. 45-55.
12. Ражабов Н.Ш. Перспективы развития законодательства об экологическом нормировании республики Узбекистан. *Феномен права и законодательство: стратегии и методы познания*. 2023;2(4):27-38. <https://doi.org/10.53315/2949-1193-2023-2-4-27-38>
13. Сорока Н.Н. "Экологическое нормирование как инструмент государственного управления в области охраны окружающей среды: современное состояние и проблемы реализации (теоретико-правовой аспект)" Вестник Сибирского института бизнеса и информационных технологий, no. 1 (9), 2014, pp. 52-58.
14. Бринчук М. М. Удвоение ВВП в контексте экологического права // Экологическое право. 2009. № 1. С. 2-11.

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **ECOLOGICAL AND LEGAL PROBLEMS OF USE OF ATOMIC ENERGY**

**Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li**

Lecturer at the Department of Environmental Law, Tashkent State Law University

**Abstract.** In this article, the issue of the use of atomic energy, possible accidents caused by mistakes made in this use, and the issue of liability applied to it is consistently analyzed. Nowadays, the subject of nuclear power application is one of the most urgent problems of the energy sector at the international level, population growth, urbanization and technological development create high and high-quality energy needs that must be constantly fulfilled. However, these processes have a serious impact on the environment. For example, these can be the rise of the Earth's temperature, the rise of the sea level, the acidification of our waters, the increase in the concentration of carbon dioxide in the atmosphere, and the depletion of the ozone layer. As a result, the correct use of nuclear energy has become an urgent problem. The relevance of this article is related to the specific aspects of the use of atomic energy, which arose with the development of the demand for atomic energy in the whole world.

**Key words:** atom, Nuclear power plant, Magate, Chernobyl, Fukushima, reactor, HPP,

## **ATOM ENERGIYASIDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK-HUQUQIY MUAMMOLARI**

**Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti, "Ekologiya huquqi kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada atom energiyasidan foydalanish, ushbu foydalanishda yo'l qo'yilgan xatolar oqibatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan halokatlar va unga nisbatan qo'llanadigan javobgarlik masalasi izchil tahlil qilingan. Hozirgi kunda atom energetikasini qo'llash mavzusi xalqaro miqyosda energetika sohasining eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, aholining o'sishi, urbanizatsiya va texnologik taraqqiyot doimiy ravishda bajarilishi kerak bo'lgan yuqori va sifatli energiya ehtiyojlarini keltirib chiqarmoqda. Biroq, bu jarayonlar atrof-muhitga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, bular Yer haroratining ko'tarilishi, dengizlar sathining ko'tarilishi, suvlarimiz kislotalanishi, atmosferadagi karbonat anhidrid kontsentratsiyasining oshishi, ozon qatlamining yemirilishi bo'lishi mumkin. Natijada, atom energiyasidan to'g'ri foydalanish dolzarb muammoga aylandi. Ushbu maqolaning dolzarbligi butun dunyoda atom energiyasiga bo'lgan talabning rivojlanishi bilan vujudga kelgan atom energiyasidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari bilan bog'liqligi teran tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** atom, Atom elektr stansiyasi, Magate, Chernobil, Fukusima, reaktor, GES,

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N37>

**Kirish.** Hozirgi kunda dunyo mamlakatlari o'z iqtisodini rivojlantirishga harakat qilayotgan bir davrda boshqa tomondan davlatlardagi tabiiy resurslar ham kundan-kunga tugab bormoqda. Shuning uchun ham davlatlar iqtisodiy tomondan rivojlanish bilan bir qatorda o'zining tabiiy boyliklarini asrab qolishi hamda ekologiyaga zarar yetkazmasdan rivojlantirishdek muhim vazifa turibdi. Iqtisodiyot rivojlanishi natijasida ko'plab zavodlar hamda fabrikalar qurildi. Ulardan chiqayotgan zararli moddalar ekologiyaga juda katta zarar

keltirmoqda. Bundan tashqari, hozirgi kunda ko'plab davlatlarda shaharlarni urbanizatsiya jarayoni ( BMT ning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha bo'limining tahlillariga ko'ra, 2050 yilga kelib Yerdagi odamlarning taxminan 68%i shaharlarda yashaydi [1]) keng rivojlanayotganligi bois ularni energiya bilan ta'minlash uchun mamlakatlar turli xil yo'llardan foydalanishga majbur bo'lmoqda. Bularga misol qilib, Hidro elektr energiyalarini (bundan keyin matnda GES) qurish orqali energiya bilan ta'minlamoqchi bo'lishdi, lekin bu o'ylangan natijani bermadi. Chunki, GES larni qurilishi daryo suvlarini kamayishiga va buning natijasida ekologik muhitni buzilishiga sababchi bo'lmoqda.

Shu sababli, bizning davrimizning eng jiddiy muammosi - bu bizga kerak bo'lgan energiya miqdorini boshqa ekologik muammolarni keltirib chiqarmasdan ta'minlashdir.

Shuning uchun ham hozirgi kunda atom elektr stansiyalaridan (bundan keyin matnda AES) foydalanish keng tarqalmoqda. Shu jumladan, mamlakatimizda ham AES ning qurilishi kelajakda elektr energiyasidan muammo bo'masligiga sababchi bo'lishi mumkin. Lekin, shu o'rinda bir savol tug'iladiki, atom energiyasining zararlari qay darajada xavfli.

**Material va metodlar.** Mazkur maqolani tahlil qilishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy (analiz, sintez), qiyosiy huquqiy, statistik, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, huquqni qo'llash amaliyotini tahliliy o'rganib chiqish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari.** Dunyoda 440 ta yadro reaktorlari bo'lib, jahondagi elektr quvvatini 17% ini ishlab chiqaradi. Hozirgi vaqtga kelib reaktorlar qurish jadal sur'atlar bilan amalga oshirib borilmoqda. O'n mamlakatda energiya ishlab chiqarishning 40% dan ortig'i yadro energiyasi xisobiga to'g'ri keladi. Xalqaro atom energiyasi agentligi atom energisidan tinch maqsadlarda foydalanish, yadro xavfsizligi, atrof-muxit muxofazasi masalalarini koordinatsiya qilib boradi. BMT tarkibidagi bu tashkilotning nufuzi yildan yilga ortib bormoqda, chunki dunyoda atom bombasidan g'araz maqsadlarda foydalanish xavfi kundankunga kuchaymoqda. Atom elektr stansiyalarning chiqindilari o'zidan kuchli radiatsiya chiqarib, uning jonli mavjudodlariga ta'siri kuchli xisoblanadi. Radioaktiv ashyolarni tashish xavfsizligini ta'minlash, ularni nazorat qilish masalalari bilan xam agentlik shug'ullanadi. Atom reaktorlarini ishlatishdagi xavfsizlikni ta'minlanmagani uchun Chernobil AES da bo'lgan portlash barchaning yodida. Natijada millionlab insonlar radiatsiyalandi, yuzlab qishloqlar ko'chirildi va yashashga yaroqsiz xolatga keldi, stansiya qalin beton bilan ko'mib tashlangan bo'lsada atrofidagi ekologik vaziyat xavfliligicha qolmoqda [2]

Atom energiyasining ekologiyaga zarari haqida bir qancha olimlar turlicha fikrda bo'lib, ularning ayrimlari ushbu energiyaning foydali desa ayrimlari zararli deb o'ylashadi. Masalan, **Duglas Almond, Lena Edlund va Marten Palme** Chernobil halokati tufayli Shvetsiyadagi aholiga yetkazilgan zarar hamda o'sha voqealardagi aholi o'rtasidagi genetik o'zgarishlarni [3], **I.I. Kryshev, L. A. Kuryndina va I. I. Lingel** atom energiyasi tufayli atrof-muhitga yetkaziladigan zararlarning metodologiyasini [4], **E.A. Amoako, E.H.K. Akaho, B.J. Nyarko va I. Ennison**lar Gana davlatida atom energiyasidan foydalanishdagi ekologik xavflar hamda ushbu energiyaning o'ziga xos tomonlarini [5], **G. Guidi, F. Gugliermetti va A.C. Violent**alar esa atom energiyasining atrof-muhitga ta'siri va muqobillari bilan taqqoslab chiqqan holda, tashqi ta'sirlar hisobga olinsa va ekologik siyosat yanada qat'iylashtirilsa, atom energetikasining iqtisodiy raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshish mumkinligini, **R.M.Aleksaxin** atom energetikasini rivojlantirishning asosiy ekologik muammolari sifatida radioaktiv chiqindilar va ishlatilgan yadro yoqilg'isini qayta ishlash, atrof-muhitga

radionuklidlarni chiqarish bilan bog'liq radiatsiyaviy avariylar ekanligini [7], **A.I.M. Aly** hamda **R. Hussien** turli xil energiya manbalarini atrof-muhitga ta'sirini o'rganib, atom energiyasining ekologiyaga ta'siri hamda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini [8] o'z tadqiqot ishlarida ko'rsatib o'tishgan.

Yuqoridagi olimlarning fikrini shunday xulosaga kelish mumkinki, ushbu shaxslar atom energiyasidan foydalanishdagi uning foydali hamda zararli tomonlarini aytib, bu bo'yicha qator takliflar berishgan bo'lsa-da bizning fikrimizcha, atom energiyasini foydali hamda zararli tomonlarini qiyoslagan holda, jamiyatni rivojlanishiga hissa qo'shsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Atom energiyasi natijasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan falokatlar bo'yicha bir qancha xalqaro konvensiyalar qabul qilingan. Ularga misol qilib, Xalqaro atom energiyasi agentligining (MAGATE) 1963-yildagi Vena konvensiyasi (1977 yildan kuchga kirgan) [10], Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) 1960 yildagi atom energetikasi sohasida uchinchi shaxslarning javobgarligi to'g'risidagi Parij konvensiyasi (1968 yildan kuchga kirgan) [11], 1963 yildagi Bryussel qo'shimcha konvensiyasi [12], Yadroviy zarar uchun qo'shimcha kompensatsiya to'g'risidagi konvensiya [13], Radioaktiv moddalarni xavfsiz tashish qoidalari [14] va boshqa shu kabi xalqaro konvensiyalar hamda davlatlar o'rtasida tuzilgan xalqaro shartnomalar ( Markaziy Osiyoni yadro qurolidan holi zonaga aylantirish bo'yicha Shartnoma [15], Janubi-Sharqiy Osiyo yadro qurolidan xoli hudud (SEANWFZ) shartnomasi (Bangkok shartnomasi [16] va boshqalar) va davlatlarning ichki normativ-huquqiy hujjatlarini keltirishimiz mumkin.

Buni O'zbekiston milliy qonunchiligida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida" gi O'RQ-565-sonli Qonun [17], Vazirlar Mahkamasining 2020-yildagi "Atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi VMQ-663-sonli Qarori [18], "O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" [19]gi PF-5484-sonli Prezident Farmoni hamda boshqa shu kabi normativ-huquqiy hujjatlarni keltirib o'tishimiz mumkin.

O'zbekistonni bugungi kunda atom energiyasidan umuman holi hudud deb bo'lmaydi. Negaki, Respublikamiz atom energiyasi uchun kerak bo'ladigan boy mineral xomashyo bazasining mavjudligi 1956-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining tashkil etilishiga sabab bo'ldi [20]. Respublikamizda 1959-yildan buyon Yadro fizikasi institutida VVR-SM tadqiqot reaktoridan foydalanilib kelinmoqda va ushbu reaktorda hamda boshqa ishlab chiqarish obyektlarida hosil bo'ladigan radioaktiv chiqindilar Bo'stonliq tumanidagi saqlash punktiga joylashtirilmogda. 2019-yilning 6 oyi davomida 70 GBk radioaktivlikka ega bo'lgan 455 ta manba saqlash punktiga joylashtirilgan. Shuningdek, hozirda mamlakatimizda 7000 ga yaqin ionlashtiruvchi nurlanish manbalari (rentgen apparati, kalibrovka uskunalari va boshqalar) mavjud. Shunday sharoitda atom energiyasidan foydalanishning ayrim jihatlari 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinmogda. Lekin atom energiyasidan foydalanishni tartibga soluvchi maxsus qonun mavjud emas. Qonun loyihasi shu ehtiyoj tufayli ishlab chiqilgan. Qonun loyihasini yaratishda xalqaro tajriba sinchiklab o'rganib chiqilgan. Xususan, atom energetikasi sohasidagi yetakchi mamlakatlar – AQSH, Fransiya, Rossiya, Belorussiya, Yaponiya, Ukraina, Chexiya, Vengriyaning tajribasi o'rganildi. Shuningdek, Qonun loyihasi Xalqaro atom energiyasi agentligi (MAGATE)

tomonidan 2 marotaba ko'rib chiqildi va uning tavsiyalari Qonunda inobatga olindi. Shuningdek, amaldagi qonun hujjatlarining sohaga oid norma va qoidalari unifikatsiya qilinadi hamda ular O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasidagi majburiyatlari bilan muvofiqlashtiriladi [21].

Elektr energiya manbalarini oshirish maqsadida O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 10-iyul kuni mamlakatda atom elektr energetikasini barpo etish bo'yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi [22]. Bu yig'ilishdan asosiy maqsad elektr energiya kamchiliklarini AES orqali qoplash va IES lar istemol qilayotgan yerosti, yer usti boyliklarini tejash va ulardan oqilona foydalanish ko'zda tutilgan edi. Shu bois mamlakatda tinch maqsadlarda foydalanish uchun atom energetikasini barpo etishga kirishildi. Rossiyaning "Rosatom" davlat korporatsiyasi hamkorlikda atom elektr stansiyasini qurish bo'yicha kelishuvga erishildi. Ushbu yig'ilishda davlatimiz rahbari tomonidan Mamlakatimizda yangi bo'lgan ushbu sohaga doir normativ-huquqiy baza yaratish, "Atom energiyasidan foydalanish to'g'risida"gi qonun va tegishli qaror loyihalarini ishlab chiqish, ularning MAGATE talablari va xalqaro hujjatlarga muvofiqligiga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlandi. Negaki, 2006-yilda Qozog'istonning Semipalatinsk shahrida imzolani, 2009-yil 21-martda kuchga kirgan Markaziy Osiyoni Yadro qurolidan holi zonaga aylantirish to'g'risidagi xalqaro shartnomaning 3-moddasi a bandiga ko'ra [23] a'zo davlatlar yadro quroli yoki boshqa yadroviy portlovchi qurilmalar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazmaslik, ishlab chiqish, ishlab chiqarish, zaxiralash yoki boshqa yo'l bilan sotib olish, egalik qilish yoki nazorat qilish mumkin emas. Shu o'rinda bir o'rinli savol tug'ilishi mumkin. U holda Nima uchun O'zbekistonda Atom elektr stansiyasi qurilmoqda? Axir Atom elektr stansiyasi ham yadroning bir ko'rinishi hisoblanadi-ku?

Ushbu savol o'rinli hisoblanadi. Haqiqatdan ham ushbu AESning qurilishi bir tomondan ushbu shartnomaga zid bo'lishi mumkin. Ammo, ushbu shartnomaning 7-moddasiga ko'ra atomdan tinch maqsadlarda foydalanishga ruxsat berilgan. Shunday ekan O'zbekistonda qurilayotgan AES MAGATE ning bir necha bor o'tkazgan izlanishlari hamda bergan xulosalari asosida birgalikda qurilmoqda.

Endi atom energiyasining atrof-muhitga zarari haqida gaplashadigan bo'lsak, shu vaqtgacha dunyo hamda ekologiya atom energiyasidan esda qolarli darajada bir qancha falokatlarga duch kelgan. Bunga misol qilib Chernobil hamda Fukusima AESlardagi halokatlarni keltirishimiz mumkin.

Insoniyat tarixidagi eng yirik deya ko'rilgan Chernobil halokati 1986-yil 26-aprelda soat 01:24 da Ukrainada Chernobil yadrosining parchalanishi sodir bo'ldi. Radioaktivlik darajasi 680 mil uzoqlikda joylashgan Shvetsiyaning Forsmark atom stansiyasida qo'ng'iroqlarni qo'zg'atdi. Nurlanish oqibatida dunyodan ko'z yumgan insonlar soni borasida aniq bir ma'lumot yo'q. Chernobildagi portlash natijasida havoga Yaponiyaning Xirosima shahriga Qo'shma Shtatlar tomonidan tashlangan atom bombasidan 400 marta ko'p radiatsiya tarqalgan [24].

Xalqaro Saraton tadqiqotlari agentligi tomonidan 2065-yilgacha Chernobil avariya tufayli saraton kasalligidan 16 000 dan ortiq o'lim ro'y berishi taxmin qilinmoqda va 2006-yilda Xalqaro Saraton jurnalida chop etilgan [25].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2006-yilda chop etilgan Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining sog'liqqa ta'siri to'g'risidagi hisobotning to'liq versiyasida 6,9 million

sobiq Sovet fuqarolari orasida saraton kasalligidan jami 4000-9000 o'lim bashorat qilingan [26]. Chernobil avariya Belarus, Rossiya Federatsiyasi va Ukrainaning bir necha million aholi iste'qomat qiladigan hududlarida ham radioaktiv ifloslanishning keng tarqalishiga olib keldi. Radiatsiya ta'siriga sabab bo'lishidan tashqari, avariya ifloslangan tumanlarda yashovchi odamlarning hayotida uzoq muddatli o'zgarishlarga olib keldi, chunki radiatsiya dozalarini cheklash bo'yicha chora-tadbirlar ko'chirish, oziq-ovqat ta'minotini o'zgartirish va jismoniy shaxslar va oilalarning faoliyatini cheklashdan iborat edi. Keyinchalik bu o'zgarishlar sobiq Ittifoq parchalanganida sodir bo'lgan yirik iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar bilan birga bo'ldi [27]. Chernobil AES idagi halokat nafaqat Ukraina balki Yevropaning ko'plab davlatlarining iqtisodiyotiga, aholisining sog'ligi, qishloq xo'jaligi hamda boshqa bir qancha sohalariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Chernobil voqealari sodir bo'lganiga mana 38 yil bo'lgan bo'lsa-da o'sha hududning yer qatlamidagi radioaktiv nurlar o'zining ta'sirchanligini yo'qotmagan.

O'zbekiston hukumati ham Chernobil halokatidan ziyon ko'rgan O'zbekiston Respublikasida iste'qomat qiluvchi fuqarolarni ijtimoiy himoyalash uchun 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosati va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining birgalikdagi 170-sonli Qarori qabul qilingan [28].

Bundan ko'rinib turibdiki, Ukrainada sodir bo'lgan halokat nafaqat Ukraina balki boshqa davlatlarning ham ichki siyosatiga ta'sir o'tkazgan.

Endi Yaponiyaning Fukusima AESidagi halokat haqida agpiradigan bo'lsak, 2011-yil 11-mart, juma kuni soat 14:46 da Sharqiy Yaponiyada sodir bo'lgan 9.0 magnitudali zilzila mintaqaga katta zarar yetkazdi va u yaratgan yirik sunami bundan ham ko'proq narsani keltirib chiqardi. Katta zilziladan so'ng, 15 metrli sunami uchta Fukusima Daiichi reaktorini quvvat bilan ta'minlash va sovutish tizimini o'chirib qo'ydi va bu 2011-yil 11-martda boshlangan yadroviy avariya sabab bo'ldi. Birinchi uch kun ichida barcha uchta yadro asosan erib ketdi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Fukusima prefekturasidan evakuatsiya qilinganlar orasida tabiiy ofat tufayli 2313 kishi halok bo'lgan. Tabiiy ofat bilan bog'liq o'limlar zilzila yoki sunami tufayli halok bo'lgan taxminan 19,500 kishiga yetadi [29]. Halokat sodir bo'lgandan so'ng 3-4 kun davomida AESdan atmosferaga katta miqdorda radioaktiv moddalar tarqaladi. 15-mart kuni yomg'ir yog'adi va u atmosferaga radioaktivlar tarqalishini biroz kamaytiradi. Havoga tarqalgan radioaktiv moddalarning asosiy qismini inert gazlar, yana stronsiy va plutoniy zarralari tashkil etadi. Fukushima AES halokati ko'lami Chernobil AES halokatidan so'ng ikkinchi o'rinda turadi. AES hududini bosgan va radioaktiv moddalar bilan to'yingan zaharli suvning bir qismi okeanga chiqib ketgan, asosiy qismi esa AES hududida qolayotgandi. Bundan tashqari, AES atrofidagi hududda yer osti suvlarigacha zaharlangan edi [30].

Yaponiyadagi halokatdan so'ng Yevropadagi aksar mamlakatlarda odamlar AESlar faoliyatini to'xtatishni talab qilib, namoyishlar o'tkazishadi. Ammo AESlar faoliyatini to'xtatish rejasi aksar Yevropa davlatlarida avvaldan bor edi.

Masalan, Italiya o'z hududidagi barcha to'rtta AESni yopish haqida qarorni 1987-yilda o'tkazilgan referendumdan so'ng qabul qilgandi. Keyinchalik Italiya bosh vaziri bo'lgan Silvio Berluskoni yangi yadroviy dastur haqidagi qonunni qabul qilishga urinadi. Ammo Yaponiyadagi halokatdan so'ng o'tkazilgan referendumda mamlakat aholisi bu qonunga qarshi chiqadi [31]. Germaniyada esa Fukushima halokatidan so'ng 17 ta reaktordan 8 ta eski reaktor yopiladi.



Qolgan 9 ta reaktorni navbati bilan yopish haqida qaror qabul qilinadi. Ushbu harakatni ba'zi olimlar o'ziga xos yo'l deb atasa ba'zilari esa Yevropa davlatlariga na'muna bo'lish deb baholaydi [32].

Shveysariya federal kengashi 2011-yilda mamlakatdagi barcha AESlar navbati bilan o'z faoliyatini to'xtatishi haqida qaror qabul qiladi. 2016 va 2017 yillarda o'tkazilgan referendumda mamlakat aholisi yangi AESlar qurilishi va mavjudlarining ishlash muddati uzaytirilishiga qarshi chiqadi [33].

Belgiya o'z hududidagi AESlar faoliyatini 2022-2025 yillar oralig'ida to'xtatish haqida qaror qabul qilgan [34].

Yevropa davlatlari orasida AESlar faoliyatiga eng murossasiz davlatlardan biri bu Avstriya hisoblanadi. Bu davlat hududida yagona AES 1978-yilda quriladi. O'sha yili o'tkazilgan referendumda mamlakat aholisining katta qismi Avstriya hududida AESlarning qurilishiga va faoliyat yuritishiga qarshi chiqadi. Shu tariqa, bu mamlakatdagi ilk AES ishga tushirilmasdan to'xtatiladi [35].

Atom elektr energiyalari tarixi shuncha qarshilik hamda halokatlarni boshidan kechirganiga qaramay, hozirgi kunda ba'zi bir davlatlardan AES ning reaktorlari to'xtalimoqda, boshqa davlatlarda esa ularni qurish ishlari jadallashmoqda. Buni quyidagi jadvalda ham ko'rishingiz mumkin:

Jadval №1 [36]

Mamlakat	Reaktorlar ishlashga tayyor	Qurilayotgan reaktorlar	To'xtatilgan reaktorlar	Yadroviy elektr energiyasi ishlab chiqarish (TWh)	Yadroviy elektr energiyasi (%)
Germaniya	6		30	60,91	11.3
Argentina	3	1	-	10.01	7.5
Armaniston	1	-	1	2.5	34.5
Bangladesh	-	2	-	-	-
Belgiya	7	-	1	32.61	39.1
Belarus	1	1	-	0,34	1.0
Braziliya	2	1	-	14.05	2.1
Bolgariya	2	-	4	16.62	40.8
Kanada	19	-	6	92,65	14.6
Xitoy	53	16	-	366.3	4.9
Janubiy Koreya	24	4	2	152.32	29.6
Birlashgan Arab Amirliklari	2	2	-	1.56	1.1
Slovakiya	4	2	3	15.44	53.1
Sloveniya	1	-	-	6.04	37.8
Ispaniya	7	-	3	55,75	22.2
AQSH	93	2	40	789,91	19.7
Finlyandiya	4	1	-	22.35	33.9

Fransiya	56	1	14	379,50	70.6
Vengriya	4	-	-	15.17	48,0
Hindiston	23	8	-	40.37	3.3
Eron	1	1	-	5.79	1.7
Yaponiya	33	2	27	42.99	5.1
Meksika	2	-	-	10.86	4.9
Niderlandiya	1	-	1	3.86	3.3
Pokiston	5	1	1	9.64	7.1
Birlashgan Qirollik	12	2	33	45.66	14.5
Chex Respublikasi	6	-	-	28.37	37.3
Ruminiya	2	-	-	10.56	18.47
Rossiya	38	3	9	208.79	19.9
Janubiy Afrika	2	-	-	11.61	5.9
Shvetsiya	6	-	7	47.26	29.8
shveytsariyalik	4	-	2	22.99	32.9
Tayvan	3	2	3	30.34	12.7
Turkiya	-	3	-	-	-
Ukraina	15	2	4	76.2	51.2
<b>JAMI</b>	<b>442</b>	<b>58</b>	<b>191</b>	<b>2.636.27</b>	<b>10.5</b>

Yuqoridagi Atom elektr energiyasi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha halokatlarni o'rganib chiqqan holda, AES larning halokati nafaqat o'sha mamlakatga balki boshqa davlatlarning ichki siyosatiga, tabiatiga, aholisining sog'ligiga jiddiy zarar keltirar ekan.

**Xulosa.** Ushbu maqola orqali atom energiyasidan foydalanishning o'ziga xos foydali hamda zararli tomonlarini o'rganib chiqib, mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqildi. Atom energiyasidan foydalanishning foydali tomolariga to'xtaladigan bo'lsak, **Birinchidan**, Ushbu ulkan energiya manbasidan foydalangan davlatlar dunyodagi eng rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi. **Ikkinchidan**, ushbu energiya boshqa elektr manbalariga qaraganda atrof-muhitga zarari kamroq hisoblanadi. **Uchinchidan**, Ko'pgina nufuzli tahlillar shuni ko'rsatdiki, insoniyat atom energiyasi orqali elektr energiyasini ishlab chiqarish, ertangi kun avtomobillari uchun vodorod ishlab chiqarish va yuzaga kelayotgan jahon suv inqirozini bartaraf etish uchun dengiz suvini tuzsizlantirish uchun ulkan kengaytirishsiz global toza energiya hisoblanadi.

Lekin shuni ham inobatga olishimiz kerakki, atom energiyasi orqali tabiatga hamda insoniyatga bir qancha zararlarni yetishi mumkin. Bunga yorqin misol qilib, agar AES lar halokatga uchrasa, nafaqat AES joylashgan mamlakat balki, unga chegaradosh bo'lgan davlatlarning ham hududiga, aholisining sog'ligiga, atrof-muhitiga jiddiy zarar yetadi.

Shuning uchun ham ushbu maqola orqali bir qancha izlanishlar olib borib quyidagilar akliflar ishlab chiqildi:

**Birinchidan**, qurilayotgan AES xalqaro doiradagi standartlarga to'liq javob berishi ya'nikim hududi seismografik hududda bo'lmasligi, zilzilaga va boshqa tabiat hodisalariga chidamli bo'lishi kerak.

**Ikkinchidan**, Qurilayotgan AES chegara hududidan hamda aholi zich joylashgan joylardan ancha uzoqda joylashishi kerak.

**Uchinchidan**, AES da ishlovchi ishchilar uchun alohida shaharchalar qurilishi hamda

ularning sogʻligi doim nazoratda boʻlishi kerakligi va ularga bir qancha kafolat hamda imtiyozlar berilishi zarur.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. The official website: United Nations Organization (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) 68% of the world population projected to live in urban areas by 2050, says UN. 16.05.2018, New York,
2. G.Oyibova, N.Ziyoxonovna, M.A.Ergasheva, A.A. Abduljalilov, Ekologiya va kelajakda energetik vaziyat // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 4, 2022, pp. 936-941. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/ekologiya-va-kelajakda-energetik-vaziyat> (Accessed on: 15.10.2022).
3. Almond, D., Edlund, L., & Palme, M. (2009). Chernobyl's Subclinical Legacy: Prenatal Exposure to Radioactive Fallout and School Outcomes in Sweden. *The Quarterly Journal of Economics*, 124(4), 1729–1772. Available at: <http://www.jstor.org/stable/40506270> [Accessed on: 16.10.2022]
4. I.I. Kryshev, L. A. Kuryndina, I. I. Linge, Evaluation of Environmental Damage Due to Nuclear Power, *Atomic Energy*, Vol. 117, No. 3, January, 2015 (Russian Original Vol. 117, No. 3, October, 2014) Available at: [https://www.researchgate.net/publication/273275480\\_Evaluation\\_of\\_Environmental\\_Damage\\_Due\\_to\\_Nuclear\\_Power](https://www.researchgate.net/publication/273275480_Evaluation_of_Environmental_Damage_Due_to_Nuclear_Power) [Accessed on: 17.10.2022]
5. Amoako E.A., Akaho E.H.K., Nyarko B.J. va Ennison I. Environmental and Safety Concerns for Nuclear Power Generation in Ghana, *Environmental Research, Engineering and Management*, 2011. No.1(55), P. 49-65 Available at: [https://www.researchgate.net/publication/50996665\\_Environmental\\_and\\_Safety\\_Concerns\\_for\\_Nuclear\\_Power\\_Generation\\_in\\_Ghana](https://www.researchgate.net/publication/50996665_Environmental_and_Safety_Concerns_for_Nuclear_Power_Generation_in_Ghana) [Accessed on: 17.10.2022]
6. Guidi G., Gugliermetti F., Violenta A.C. Environmental impact of nuclear energy and comparison with the alternatives Conference: ASME-ATI-UIT 2010 Conference on Thermal and Environmental Issues in Energy Systems At: Sorrento, Italy 2010. Available at: [https://www.researchgate.net/publication/284423426\\_Environmental\\_impact\\_of\\_nuclear\\_energy\\_and\\_comparison\\_with\\_the\\_alternatives](https://www.researchgate.net/publication/284423426_Environmental_impact_of_nuclear_energy_and_comparison_with_the_alternatives) [Accessed on: 17.10.2022]
7. R.M. Alexakhin, Topical Environmental Problems of Nuclear Power, *Atomic Energy* 114(5): 301-307 Available at: [https://www.researchgate.net/publication/271394919\\_Topical\\_Environmental\\_Problems\\_of\\_Nuclear\\_Power](https://www.researchgate.net/publication/271394919_Topical_Environmental_Problems_of_Nuclear_Power) [Accessed on: 17.10.2022]
8. A.I.M. Aly va R.A. Hussien, Environmental Impacts of Nuclear, Fossil and Renewable Energy Sources: A Review, *International Journal Of Environment*, 3(2): 73-93, 2014 Available at: [https://www.researchgate.net/publication/303767454\\_Environmental\\_Impacts\\_of\\_Nuclear\\_Fossil\\_and\\_Renewable\\_Energy\\_Sources\\_A\\_Review](https://www.researchgate.net/publication/303767454_Environmental_Impacts_of_Nuclear_Fossil_and_Renewable_Energy_Sources_A_Review) [Accessed on: 17.10.2022]
9. The Official website: IAEA (International atomic energy agency) Vienna convention on civil liability for nuclear damage 1963 Available at: <https://www.iaea.org/sites/default/files/infirc500.pdf> [Accessed on: 17.10.2022]
10. The official website: NEA (Nuclear energy agency) The Organization for Economic Cooperation and Development's (OECD) Paris Convention on third party liability in the field of nuclear energy of 1960 Available at: [https://www.oecd-nea.org/jcms/pl\\_31788/paris-convention-full-text](https://www.oecd-nea.org/jcms/pl_31788/paris-convention-full-text) [Accessed on: 17.10.2022]

11. The official website: NEA (Nuclear energy agency) Brussels Supplementary Convention Available at: [https://www.oecd-nea.org/jcms/pl\\_31528/brussels-supplementary-convention-full-text](https://www.oecd-nea.org/jcms/pl_31528/brussels-supplementary-convention-full-text) [Accessed on: 17.10.2022]
12. The Official website: IAEA (International atomic energy agency) Convention on supplementary compensation for nuclear damage 1998 Available at: <https://www.iaea.org/sites/default/files/infirc567.pdf> [Accessed on: 17.10.2022]
13. The Official website: IAEA (International atomic energy agency) Regulations for the Safe Transport of Radioactive Material Available at: <https://www.iaea.org/publications/12288/regulations-for-the-safe-transport-of-radioactive-material> [Accessed on: 17.10.2022]
14. The official website: United Nations (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) Treaty on a Nuclear-Weapon-Free Zone in Central Asia (CANWFZ) 2006. Available at: <https://treaties.unoda.org/t/canwzf> [Accessed on: 23.10.2022]
15. The official website: NTI, (Nuclear Threat Initiative) Southeast Asian Nuclear-Weapon-Free-Zone (SEANWFZ) Treaty (Bangkok Treaty) Available at: <https://www.nti.org/education-center/treaties-and-regimes/southeast-asian-nuclear-weapon-free-zone-seanwzf-treaty-bangkok-treaty/> [Accessed on: 23.10.2022]
16. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
17. The official website: Lex.uz ( O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi) Atom energiyasidan foydalanish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi Qaror. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 26.02.2022-y., 09/22/88/0165-son
18. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.09.2020-y., 06/20/6075/1330-son
19. The official website: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Available at: <http://academy.uz/page/institut-adernoj-fiziki-akademii-nauk-respubliki-uzbekistan> [Accessed on: 23.10.2022]
20. Kamildjonovich, M. R. (2021, April). Our energy future. In Archive of Conferences (Vol. 23, No. 1, pp. 131-135).
21. The official website: O'zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti / Qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish umummilliy ahamiyatga ega, Available at: <https://isrs.uz/oz/ozbekiston-yangiliklari/qayta-tiklanuvchi-energiyadan-foydalanish-umummilliy-ahamiyatga-ega> [Accessed on: 16.10.2022]
22. The Official website: Office for Disarmament Affairs (BMT ning Qurolsizlanish bo'yicha shartnomalar ma'lumotlar bazasi) Treaty on a Nuclear-Weapon-Free Zone in Central Asia (CANWFZ) Available at: <https://treaties.unoda.org/t/canwzf> [Accessed on 24.10.2022]
23. The official website: BBC uzbek / Dunyo Chernobil halokatining 25 yilligini xotirlamoqda, Available at: [https://www.bbc.com/uzbek/world/2011/04/110426\\_latin\\_ukraine\\_chernobyl](https://www.bbc.com/uzbek/world/2011/04/110426_latin_ukraine_chernobyl) [Accessed on: 16.10.2022]
24. The official website: International Agency for Research on Cancer (Xalqaro Saraton tadqiqotlari agentligi) Chernobyl, 30 years on: Interview of Dr A. Kesminiene on the research and health impact of the Chernobyl disaster/ Available at: <https://www.iarc.who.int/news-events/chernobyl-30-years-on-interview-of-dr-a-kesminiene-on-the-research-and-health-impact-of-the-chernobyl-disaster/> [Accessed on: 16.10.2022]
25. The official website: Scientific Committee on the Effects of Atomic Radiation (Birlashgan millatlar Tashkilotining Atom radiatsiyasining ta'siri bo'yicha ilmiy qo'mitasi) Available at: [https://www.unscear.org/docs/reports/2008/11-80076\\_Report\\_2008\\_Annex\\_D.pdf](https://www.unscear.org/docs/reports/2008/11-80076_Report_2008_Annex_D.pdf) [Accessed on: 16.10.2022]
26. The official website: Scientific Committee on the Effects of Atomic Radiation (Birlashgan millatlar Tashkilotining Atom radiatsiyasining ta'siri bo'yicha ilmiy qo'mitasi) Assessments

- of the radiation effects from the chernobyl nuclear reactor accident Available at: <https://www.unscear.org/unscear/en/areas-of-work/chernobyl.html> [Accessed on: 24.10.2022]
27. The official website: Lex.uz ( O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi) “Chernobil halokatidan ziyon ko‘rgan o‘zbekiston respublikasida istiqomat qiluvchi fuqarolarni ijtimoiy himoyalash haqida”gi 170-sonli Qaror. Available at: <https://lex.uz/docs/-399485> [Accessed on: 16.10.2022]
28. The official website: World Nuclear Association, Fukushima Daiichi Accident, Available at: <https://world-nuclear.org/information-library/safety-and-security/safety-of-plants/fukushima-daiichi-accident.aspx> [accessed on:17.10.2022]
29. The official website: Kun.uz Yaponiyani dahshatga solgan hodisa: Fukushima AESdagi halokat nega sodir bo‘lgandi? G‘ayrat Yo‘ldosh 19.03.2022 Available at: <https://kun.uz/uz/news/2022/03/19/yaponiyani-dahshatga-solgan-hodisa-fukushima-aesdagi-halokat-nega-sodir-bolgandi> [Accessed on: 17.10.2022]
30. The official website: The Economist, Another blow for Berlusconi 11.07.2011 Available at: <https://www.economist.com/newsbook/2011/06/13/another-blow-for-berlusconi> [Accessed on: 17.10.2022]
31. Kramm, Lars. “The German Nuclear Phase-Out After Fukushima: A Peculiar Path or an Example for Others?” Renewable Energy Law and Policy Review, vol. 3, no. 4, 2012, pp. 251–62. Available at: <http://www.jstor.org/stable/24324663> [Accessed on: 17.10.2022]
32. The official website: BBC, Switzerland votes to phase out nuclear power 21.05.2017 Available at: <https://www.bbc.com/news/world-europe-39994599> [Accessed on: 17.10.2022]
33. The official website: Euroactiv. First nuclear reactor to be shut down in Belgium 23.09.2022 Available at: <https://www.euractiv.com/section/energy-environment/news/first-nuclear-reactor-to-be-shut-down-in-belgium/> [Accessed on: 17.10.2022]
34. Camish J. Critical Analysis of the 1978 Austrian Nuclear Power Referendum, Available at: [https://www.researchgate.net/publication/321732608\\_Critical\\_Analysis\\_of\\_the\\_1978\\_Austrian\\_Nuclear\\_Power\\_Referendum](https://www.researchgate.net/publication/321732608_Critical_Analysis_of_the_1978_Austrian_Nuclear_Power_Referendum) [Accessed on: 17.10.2022]
35. The official website: Foronuclear, Nuclear power around the world, Available at: <https://www.foronuclear.org/en/nuclear-power/nuclear-power-in-the-world/> [Accessed on: 17.10.2022]

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **ELECTRONIC GOVERNMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: EXPERIENCE, PROBLEMS, SOLUTIONS**

**Kogamova Asel Shukirbavna**

Master of Law (Republic of Kazakhstan, Astana)

[Diamond939@mail.ru](mailto:Diamond939@mail.ru)

**Abstract.** The article explains the “Law on Electronic Government” existing in the Republic of Uzbekistan (signed by the President of the Republic on December 9, 2015). It provides a comprehensive analysis of each clause of the given Law and summarizes its provisions. Legal entities pertaining to the e-government and legal personality in this area are clearly defined. The main items of electronic public service delivery mechanism for both individuals and entities are delineated. The emphasis is placed on the objective for ongoing development and improvement of norms of the institute of e-government as well as its practice.

**Keywords:** E-government, electronic public service, regulations of electronic public service, principles of e-government, unified Register of electronic public services, unified Portal of interactive public services, authorized e-government body.

## **ЭЛЕКТРОННОЕ ПРАВИТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ОПЫТ, ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ**

**Когамова Асель Шукирбавна**

Магистр права (Республика Казахстан, Астана)

**Аннотация.** В статье даётся разъяснение действующему в Республике Узбекистан Закону «Об электронном правительстве» (подписан Президентом РУ 9 декабря 2015 года). Осуществлен постатейный анализ и обобщение норм указанного Закона. Определены субъекты права, вовлеченные в отношения в области электронного правительства, а также их правосубъектность в данной сфере. Показаны основные элементы механизма оказания электронных государственных услуг физическим и юридическим лицам. Особо выделена и раскрыта задача постоянного и последовательного развития, совершенствования норм и практики института электронного правительства.

**Ключевые слова:** электронное правительство, электронная государственная услуга, регламент электронной государственной услуги, принципы электронного правительства, единый Реестр электронных государственных услуг, единый Портал интерактивных государственных услуг, уполномоченный орган в области электронного правительства.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N38>

**Введение.** 18 ноября 2015 года Законодательной Палатой Республики Узбекистан был принят, а 3 декабря 2015 года одобрен Сенатом Закон «Об Электронном Правительстве» [1].

С тех пор сформировалась действующая существенная правовая база и практика его применения в государстве. Собственно, процесс повышения эффективности

организационно-правовых основ деятельности электронного правительства продолжает нарастать и совершенствоваться.

Об этом свидетельствует правовая статистика деятельности электронного правительства.

Так, с момента принятия приведенного выше закона, в рамках электронного правительства по состоянию на май месяц 2021 года, оказывается 157 видов государственных услуг физическим и юридическим лицам. К тому же, данная деятельность сегодня включает 11% видов электронных государственных услуг, оказываемых с применением информационно-коммуникационных технологии [2].

Безусловно, опыт Узбекистана вызывает необходимость его внимательного изучения и приемлемого учета в законодательстве и практике оказания государственных услуг в Казахстане.

Итак, фрагментарный экскурс в законодательство Республики Узбекистан об электронном правительстве объективно показал, что данный институт административного права государства представлен обстоятельным пакетом правовых актов, регламентирующих правоотношения в этой области.

Прежде всего, вызывает большой интерес, Закон РУ «Об электронном правительстве» который включает 5 глав и состоит из 34 статей.

Это ключевой закон в этой области, однако также содержащий группу норм отсылочного характера к другим законам и подзаконным актам Республики Узбекистан, связанным с электронным правительством.

**Методология.** При написании статьи использованы такие логические методы, как индукция и дедукция, сравнение, комплексное исследование научных источников, анализ статистических данных, интерпретация юридических документов, изучение правоприменительной практики, изучение материалов, касающихся уголовных дел.

**Обсуждение.** В рассматриваемом законе (Глава 1) определены цель Закона и правовые основы электронного правительства (ст.ст.1-12).

Актуально разъяснение в нем и основных понятий, употребляемых в его нормах (статья 3). Их определено - 8.

К примеру, в числе основных понятий, дается определение единых идентификаторов электронного правительства, то есть присваиваемых каждому субъекту права, объектам кадастра и недвижимости, географическим и иным объектам уникальных кодов, позволяющих идентифицировать их в среде электронного правительства.

Кроме того, вводится понятие регламента электронной государственной услуги, то есть нормативного правового акта, определяющего порядок и требования к оказанию электронной государственной услуги. Иначе говоря, раскрывающего процедурные вопросы или технологию движения процесса оказания конкретной государственной услуги.

Поскольку важным в этом процессе, содержанием которой могут затрагиваться информационные ресурсы разных государственных органов, законом закрепляется понятие межведомственного электронного взаимодействия.

Довольно четко закон выделяет и определяет основные задачи электронного правительства (статья 4).

В их числе - обеспечение глубокой (эффективной, оперативной, прозрачной) обратной связи с населением и субъектами предпринимательства; формирование Единого портала интерактивных государственных услуг и Единого реестра электронных государственных услуг; внедрение в системе государственного управления принципа «Одно окно» при оказании государственных услуг, перевод граждан и субъектов предпринимательства на широкое использование электронного документооборота, включая развитие систем безналичных электронных платежей, осуществление государственных закупок, дистанционного доступа и так далее.

Несомненным достоинством комментируемого закона является не только регламентация основных принципов электронного правительства, их установлено 7, но и подробное описание каждого из них в отдельных статьях данного закона (ст.ст.5-12).

Уместно привести перечень данных принципов, к которым закон совершенно обоснованно относит:

- открытость и прозрачность деятельности государственных органов (обязательное обнародование на официальных Веб-сайтах государственных органов порядка оказания электронной государственной услуги);

- равный доступ заявителей к электронным государственным услугам (создание одинаковых условий для всех заявителей при получении электронной государственной услуги);

- оказание данных услуг по принципу «одно окно» (без участия заявителя посредством межведомственного электронного взаимодействия);

- унификация документов государственных органов (исключение дублирования и параллелизма в рамках оказания электронной государственной услуги);

- использование единых идентификаторов (возможность доступа заявителя, которому присвоен идентификатор к получению электронной государственной услуги);

- постоянное совершенствование механизма оказания государственных услуг [3].

- обеспечение информационной безопасности (комплекс необходимых технических мер по обеспечению защиты доступа к персональным данным, а также к сведениям, составляющим охраняемые законом различные виды тайн).

Особый интерес в контексте перечисленных принципов представляет принцип постоянного совершенствования порядка оказания электронных государственных услуг.

В его содержание закон включает положения, которые призваны актуализировать интерес субъектов права к получению государственной услуги в электронном формате. Этой цели служат нормы статьи 11 закона, обязывающие субъектов оказания электронных государственных услуг к устранению и (или) объединению избыточных административных процедур и уменьшению количества согласующих функции государственных органов; сокращению количества документов представляемых заявителями; оптимизации межведомственного электронного взаимодействия; уменьшению сроков оказания электронных государственных услуг.

**Государственное регулирование в области электронного правительства - тема норм Главы 2 анализируемого закона.** Данная деятельность возлагается на Кабинет Министров Республики Узбекистан, уполномоченный орган в рассматриваемой области и иные государственные органы (ст.ст. 13-17).



В частности, Кабинет Министров утверждает регламенты электронных государственных услуг, оказание которых возлагается на несколько государственных органов. В его же полномочия входит определение порядка введения Единого Реестра электронных государственных услуг, утверждение Методики оценки качества оказания государственных услуг, а также целевых показателей эффективности проектов электронного правительства (ст. 14).

Среди прочих «полевых» полномочий специального уполномоченного органа в области электронного правительства необходимо выделить реализацию единой государственной политики в данной области, формирование и ведение Единого реестра электронных государственных услуг, координацию деятельности государственных органов в области электронного правительства (ст.15).

Конкретику отличают полномочия иных государственных органов в области электронного правительства. Так, актуальной функцией этих органов является разработка и утверждение по согласованию с уполномоченным органом в области электронного правительства регламентов электронных государственных органов в курируемых сферах деятельности, а также обеспечение регистрации оказываемых электронных государственных услуг в Едином Реестре. Безусловно, важнейшими их функциями остаются обеспечение возможностей получения услуг по выбору заявителей и создание необходимых условий для их оказания (ст. 16).

Отдельной статьей закона прописаны функции местных органов власти и управления о необходимости учета в своих территориальных программах развития идеологических основ электронного правительства (ст. 17).

**Собственно, оказание электронных государственных услуг регламентирует Глава 3 Закона (ст. 18-24).** Видами электронных государственных услуг закон признает информационные и интерактивные государственные услуги, к которым предъявляет определенные требования. Если информационная государственная услуга связана с обнародованием информации о деятельности государственного органа, то интерактивная непосредственно направлена на оказание электронной государственной услуги (ст.ст.18,20) [4].

Условием оказания электронной государственной услуги является ее обязательная регистрация в Едином Реестре электронных государственных услуг, в котором содержаться необходимая и достаточная информация о порядке получения государственной услуги (ст. 19).

Требования к запросу об оказании электронной государственной услуги, а также к ответу на запрашиваемую электронную государственную услугу утверждаются Регламентом электронной государственной услуги и, как правило, должны быть в виде электронного документа (ст.ст. 21,22) [5].

Носителем существенных прав обладает заявитель при получении электронной государственной услуги, в том числе это выражается в его праве участвовать в оценке оказания данной услуги, а также вносить предложения по совершенствованию их оказания.

Отдельной статьей Закон закрепляет порядок применения оценки качества оказания электронных государственных услуг, которая возлагается на Уполномоченный орган в области Электронного Правительства. Оценка качества

проводиться на основе Методики, утверждаемой Правительством Узбекистана, а также изучения общественного мнения. Результаты оценки обнародуются в СМИ.

#### **Результат.**

**Важное место закон отводит организации функционирования электронного правительства, которая включает ряд параметров (Глава 4, ст.ст.25 - 29) [6].**

Так, при оказании электронных государственных услуг, а также в процессе межведомственного электронного взаимодействия используется информация из центральных баз данных электронного правительства и информационных систем, ресурсов государственных органов. Порядок функционирования центральных баз данных устанавливается Кабинетом Министров Республики Узбекистан (ст.26).

Аналогично действует система Межведомственного электронного взаимодействия, которая устанавливается кабинетом Министров Республики Узбекистан.

В свою очередь, регламенты государственных электронных услуг определяют перечень документов и информации, передаваемых в рамках межведомственного электронного взаимодействия (ст.27). Порядок оказания электронных государственных услуг подлежит обнародованию на официальных ВЕБ-сайтах государственных органов. Заявитель вправе получить электронную государственную услугу либо через официальный ВЕБ - сайт, а также единый портал интерактивных государственных услуг (ст.28).

В структуре электронного Правительства следует выделить также центр обработки данных, который отвечает за хранение и интеграцию ведомственных и межведомственных информационных систем и ресурсов государственных органов, ответственных за оказание электронных государственных услуг(ст.29).

**Как общее правило Закон завершают нормы Главы 5 «Заключительные положения» (ст.ст. 30-34) [7].**

Так финансирование деятельности по формированию и развитию электронного Правительства возлагается на государственный бюджет РУ. Касательно разрешения споров и ответственности за нарушение законодательства об электронном правительстве закон отсылает к иному законодательству страны.

На Правительство возлагается приведение законодательства в соответствии с настоящим законом. Закон опубликован в газете «Народное слово» от 10 декабря 2015 года и вступил в силу по истечении шести месяцев со дня его официального опубликования.

Необходимо отметить, что составной частью закона Узбекистана «Об Электронном правительстве» выступает основательный пакет подзаконных правовых актов, в которых даются разъяснения, в пределах компетенции, разных субъектов права по вопросам законного и обоснованного применения норм права анализируемого института государственного управления [8].

#### **Заключение.**

1. В Узбекистане сложилась и активно действует мотивированная правовая основа оказания государственных услуг, с акцентом на ее интерактивный характер.

2. Начался и ведется процесс научного осмысления норм действующего права Узбекистана в части оказания электронных государственных услуг.

3. Концентрация усилий государственных и научных кругов Узбекистана направлена на постоянный поиск новых форм и методов оказания электронных государственных услуг.

4. В рамках института электронных государственных услуг самое пристальное внимание уделяется учету мнения институтов гражданского общества и населения.

5. В центре внимания института оказания государственных услуг существенное место отводится учету прав и интересов услугополучателей, а также исключению любых неправомерных препятствий на пути получения ими конкретной государственной услуги.

6. Опыт Узбекистана заслуживает внимательного изучения и учета его отдельных аспектов в сфере оказания государственных услуг в Казахстане.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Закон Республики Узбекистан «Об электронном Правительстве»// Газета «Народное слово» от 10 декабря 2015 года № 237 (6390);
2. Газета.UZ// Интернет источник, 11 мая 2021 год;
3. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 184 «О мерах по совершенствованию порядка оказания электронных государственных услуг» от 2 июня 2016 года // (Электронный ресурс) Режим доступа: Lex.uz (дата обращения: 26.02.2024);
4. Закон Республики Узбекистан «Об информатизации» // Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 2004 г., № 1-2, ст.10; Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2014 г., № 36, ст. 452; Национальная база данных законодательства, 30.03.2021 г., № 03/21/679/0256;
5. Закон Республики Узбекистан № ЗРУ-369 «Об открытости деятельности органов государственной власти и управления» от 5 мая 2014 года (с изменениями и дополнениями по состоянию на 28.11.2023 г.) // (Электронный ресурс) Режим доступа: Lex.uz (дата обращения: 26.02.2024);
6. Закон Республики Узбекистан № 611-11 «Об электронном документообороте»// Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2004 г., № 20, ст. 230 от 29.04.2004 г. // (Электронный ресурс) Режим доступа: Lex.uz (дата обращения: 26.02.2024);
7. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 120 «О мерах по дальнейшему совершенствованию порядка оказания государственных услуг и межведомственного информационного взаимодействия государственных органов и иных организаций» от 13.05.2015// Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2015 г., № 19, ст. 235; 2016 г., № 23, ст. 269; Национальная база данных законодательства, 23.04.2018 г., № 09/18/297/1096, 21.11.2018 г., № 09/18/934/2197;
8. Закон Республики Узбекистан № ЗРУ-395 «Об электронном Правительстве» от 9 декабря 2015 г. // (Электронный ресурс) Режим доступа: Lex.uz (дата обращения: 28.02.2024)

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **FEATURES OF HOUSING FINANCE CONTRACTS CONSIDERING THE REQUIREMENTS OF ISLAMIC FINANCE**

**Kilichova Munira Azimjon qizi**

Doctoral student of Tashkent state university of law

**Abstract.** This article discusses the legal aspects of the introduction of Islamic finance in Uzbekistan, the importance of Islamic finance housing financing products, and types of contracts. Also, the types of existing traditional home financing contracts are mentioned. In the absence of Islamic banks, the legal bases of business entities operating on the basis of Islamic finance requirements and some of the Islamic finance home financing contracts used by them are analyzed. Suggestions and recommendations on the importance of studying the topic and protection of consumer rights are given.

**Key words:** Islamic finance, housing financing, alternative finance, mortgage credit, business partnerships, limited partnership, Mudaraba, Murabaha, Ameen housing cooperative, guarantee.

## **ISLOM MOLIYASI TALABLARI ASOSIDA UY-JOYNI MOLIYALASHTIRISH SHARTNOMALARINING O`ZIGA XOS JIHLTLARI**

**Qilichova Munira Azimjon qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada islom moliyasining O`zbekistonda joriy qilinishining huquqiy tomonlari, islom moliyasi uy-joyni moliyalashtirish mahsulotlarining muhimligi, shartnoma turlari muhokama qilingan. Shuningdek, mavjud an'anaviy uyni moliyalashtirish shartnomalarining turlari keltirib o`tilgan. Islom banklari mavjud bo`lmagan sharoitda amaliyotda islom moliyasi talablari asosida ishlayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatining qonuniy asoslari hamda ular qo`llayotgan islom moliyasi uyni moliyalashtirish shartnomalarining ba`zilari tahlil qilingan. Mavzuni o`rganishning muhimligi hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so`zlar:** Islom moliyasi, uy-joyni moliyalashtirish, muqobil moliya, ipoteka krediti, xo`jalik shirkatlari, kommandit shirkat, Mudaraba, Murobaha, Amin uy-joy kooperativi, kafolat,

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N39>

**Kirish.** So`nggi yillarda dunyo bo'yicha islom moliyasining rivojlanib borayotganligi hamda O`zbekiston aholisi va tadbirkorlari orasida diniy e'tiqodi tufayli Shariat talablariga mos bo`lgan mahsulot va xizmatlarga talab ortayotganligi O`zbekistonda islom moliyasini joriy qilish masalasini dolzarb qilmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida O`zbekistonda islom moliyaviy xizmatlarini joriy qilish vaqti-soati kelganligini, bu bo'yicha huquqiy bazani yaratish kerakligini ta'kidlagan edi [1]. Shu o`rinda, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.09.2023-yildagi 292-sonli "O`zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yilgi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi qarorining

“Yoʻl xaritasi”da islomiy mahsulotlar, xizmatlar va banklar faoliyatining huquqiy asosini yaratish vazifalari belgilangan [2]. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi 158-son bilan qabul qilingan **“Oʻzbekiston – 2030” Strategiyasi toʻgʻrisida**”gi farmonida kamida 3 ta tijorat banklarida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish, islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish belgilangan [3].

Shu oʻrinda taʼkidlash kerakki, soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda aholi sonining ortib borayotganligi holati ham aholini uy-joy bilan taʼminlash masalasining muhimligini koʻrsatadi [4]. Uy-joylarni qurishning koʻpaytirilishi masalasi 2023-yil 26-sentabrda 112-son bilan qabul qilingan Prezidentning “Toshkent shahrini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari” toʻgʻrisidagi farmonida aks etgan boʻlib, 2030-yilga qadar 44000 xonadonga moʻljallangan uy-joy qurish vazifasi belgilangan [5]. Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 12-mart kunida 2024-yilda quriladigan uy-joylar hamda “Yangi Oʻzbekiston” massivlari qurilishi boʻyicha oʻtkazgan yigʻilishida quyidagilarni taʼkidlab oʻtdi: *“Koʻrib turibsizlar, aholimiz soni tez oʻsib boryapti. Buning uchun shunga mos uy-joy, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini barpo qilib borishimiz zarur. Agar biz odamlarni rozi qilamiz desak, uy-joy eng katta masala. 2024 yil ipoteka dasturi doirasida 80 mingta uy-joy qurish rejalashtirilgan. Bu juda kam. Oldimizga qoʻygan ulkan marralarga erishish uchun uy-joy qurilishi hajmini har yili kamida 20 foizga oshirib borishimiz kerak [6]”*.

Aholining baʼzi qatlami uchun qurilayotgan uy-joylarni moliyalashtirish vositalarining qanday koʻrinishlari mavjudligi muhim hisoblanadi. Bugungi kunda Oʻzbekistonda uy-joyni naqd pulga sotib olish imkoni boʻlmagan aholi qatlami uchun tijorat banklari tomonidan bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari taqdim etiladi [7]. Bundan tashqari, qurilish kompaniyalari tomonidan koʻp hollarda nasiya savdosiga asoslangan tartibda uy-joy sotib olish taklif qilinmoqda. Mazkur moliyalashtirish muassalari va usullarini tahlil qiladigan boʻlsak, anʼanaviy tijorat banklarining ipoteka kreditlaridan aholining maʼlum qatlami foydalanmaydi. Birlashgan millatlar tashkiloti taraqqiyot dasturi tomonidan oʻtkazilgan soʻrovnomada aholining 56% diniy qarashlari sababli bank kreditlaridan foydalanmasligini bildirgan [8]. Sababi anʼanaviy banklar foiz evaziga aholiga yoki tadbirkorlarga kredit beradi, foiz esa Islom dinida ribo hisoblanib taqiqlangandir. Xususan, Qurʼoni Karimning Baqara surasi 275-oyatida Alloh tijoratni halol, riboni harom qilganligi keltirilgan [9]. Allohning Rasuli Muhammad (s.a.v.) shunday marhamat qilganlar: “Foyda keltirgan har bir qarz foizdir” [10;55]. Shuningdek, nufuzli ilmiy tashkilot hisoblanuvchi Islomiy fiqh akademiyasining rezolutsiyasida shunday deyiladi: “Uy insonning asosiy ehtiyoji hisoblanadi. Ushbu ehtiyoj qonuniy (halol) pul vositalari orqali amalga oshirilishi kerak. Uy-joyni moliyalashtirish usuli sifatida rivojlanish uchun qarzlar ustiga foizlar qoʻllashni qabul qilgan koʻchmas mulk yoki uyni moliyalashtiruvchi bank muassalari yoki boshqa moliya tashkilotlaridan, ular hisoblaydigan foizlarning past yoki baland boʻlishidan qatʼi nazar, foydalanish Shariat boʻyicha mumkin emas. Sababi bu usul Ribo (sudxoʻrlik) hisoblanadi [11;101]. Ushbu tushuntirishlarga asoslangan holda aholining maʼlum qismi anʼanaviy banklardan islom dinida taqiqlangan ribo sababli ham foydalanmasliklari maʼlum boʻladi. Shu sababli alternativ moliya hisoblanuvchi islom moliyasi talablari asosida uy-joyni moliyalashtirish munosabatlarining oʻziga xos jihatlarini oʻrganish, huquqiy asoslarini takomillashtirish muhim hisoblanadi.

**Metodologiya.** *Ushbu maqolada kontent analiz, yaʼni manbalar tahlili, mavjud qonunchilikni va tartibni muhokama qiluvchi normativ huquqiy tadqiqot metodi hamda xorijiy*

*qonunchilikni va amaliyotni solishtirib o'rganish maqsadida qiyosiy-huquqiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.*

**Adabiyotlar tahlili.** Cammackning fikriga ko'ra islom moliyasi bank, moliya, investitsiya va sug'urta xizmatlariga tegishli bo'lib, ushbu xizmatlar faoliyati islom huquqi qoidalariga asosan tashkil qilinadi. Islom huquqiga amal qilinishining eng muhim jihatlaridan biri foiz to'lash bilan bog'liq tranzaksiyalarning oldi olinishidir [12;1]. Alamga ko'ra islom moliyasi an'anaviy bank tizimiga alternativ moliya tizimi hisoblanib, musulmonlarning moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarga bo'lgan o'ziga xos ehtiyojlarining Shariat (islom huquqi) bo'yicha amalga oshirilishini bildiradi. Islom moliyasi produktlari riskni taqsimlash, real aktivlarga asoslangan tranzaksiyalar, savdo faoliyatida qatnashish, ijara, loyihalarni moliyalashtirishga asoslanadi. Foyda va zararni bo'lishish (profit and loss sharing) iqtisodda adolat va tenglikni ta'minlovchi mashhur jihat hisoblanadi. [13;131.] Baber islom moliyasi faqatgina foyda ko'rishni ko'zlamay jamiyat va insoniyat foydasiga xizmat qiladi deydi [14;34]. Jusoh esa islom moliyasi bo'yicha uy-joyni moliyalashtirishni islom moliyasining muhim jihatidir deb hisoblab, iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish uchun turli xil uyni moliyalashtirish mahsulotlari borligini keltiradi [15;879]. Yustiardhiga ko'ra uyni moliyalashtirish turli mamlakatlardagi ko'plab odamlar tomonidan talab qilinadigan xizmatlardan bo'lib, islom moliyasi bo'yicha ko'p hollarda qo'llaniladigan uy-joy shartnomalarini muhokama qiladi [16;386.]

**Muhokama va natijalar.** Uy-joyni moliyalashtirish bo'yicha amaliyotni tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston sharoitida uy-joyni moliyalashtirishda tijorat banklari ipoteka kreditlari asosiy vosita hisoblanadi. Tijorat banklari orqali berilayotgan ipoteka kreditlari an'anaviy moliya tizimiga asoslanganligi uchun ma'lum aholi qatlamining ushbu kreditlardan foydalanmasliklarini yuqorida aytib o'tdik. Islomiy moliya xizmatlarini an'anaviy banklarda ko'rsatib bo'lmashligining asosiy sababi esa O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun 4-moddasida ko'rsatilgan banklarning bevosita savdo faoliyati bilan shug'ullanishlari mumkin emasligi bilan izohlanadi [17]. Nazariyaga ko'ra, an'anaviy va islomiy banklar muhim jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi. An'anaviy banklar faoliyati kredit qarz munosabatlariga asoslanib, risklarni bir tarafga o'tkazishga imkon bersa, Islom banklari faoliyati real aktivlarga asoslangan bo'lib, risklarni taraflar o'rtasida taqsimlashga qaratilgan. Islom banklari Shariat qoidalariga asosan faoliyat yuritganligi uchun real iqtisodiy faoliyatsiz qarz berib evaziga foizlar olishni va aktiv mavjud bo'lmagan yoki aktivga egalik qilmay turib uni o'tkazishni hamda shartnomadagi noaniqliklarni qo'llay olmaydi [18;6]. Shu sababli Islom banklarining asosiy faoliyati savdoga asoslanib, uy-joyni moliyalashtirishda avval bank o'zi sotib olib so'ngra mijozga sotganligi bois savdo faoliyati hisoblanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-maydagi 4732-son "Ko'p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish chora-tadbirlari haqida"gi qaroriga muvofiq qabul qilingan "Ko'p kvartirali uylarni ulush kiritish asosida qurish to'g'risida"gi Nizomga asosan quruvchi va jismoniy yoki yuridik shaxs o'rtasida ulush kiritish asosida qurilishda ishtirok etish to'g'risida shartnoma tuziladi [19]. Amaliyotda ko'plab fuqarolar uy-joyni qurilish kompaniyalariga ulush kiritib ulushdor bo'lish orqali olishmoqda. Shuningdek, uy-joy olishda qurilish kompaniyalari bilan mijozlar o'rtasida investitsiya shartnomasi, ipoteka hamda uy-joy oldi-sotdi shartnomalari tuziladi.

Mavjud moliya tizimiga muqobil hisoblanuvchi Islom moliyasi doirasida Islomiy banklarni ochish kelajakda qabul qilinishi kutilayotgan O'zbekistonda Islom moliyasini joriy qilish qonuniga bog'liq hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan "Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi tog'risida"gi Nizom loyihasi ishlab chiqilgan bo'lib, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali hisoblanuvchi regulation.gov.uzga 2023-yil 27-dekabrda qo'yilgan edi, biroq ushbu nizom hali qabul qilingani yo'q. Shu sababli hali Islom banklari mavjud bo'lmagan hamda mikromoliya tashkilotlari tomonidan Islom moliyasi xizmatlarini ko'rsatish imkoniyati yo'q sharoitda uy-joyni moliyalashtirishning Shariat talablariga mos keluvchi xizmatlarini ko'rsatuvchi ba'zi no bank hisoblanuvchi tadbirkorlik subyektlarini amaliyotda ko'rish mumkin. Ushbu tadbirkorlik subyektlari xo'jalik shirkatlari shaklida faoliyat yuritib, Islom moliyasi talablari asosida uy-joyni moliyalashtirish xizmatini ko'rsatishmoqda. Masalan, "Uzaro invest" kommandit shirkati Islom moliyasi talablari asosida uy-joyni muddatli to'lovga aholiga sotish faoliyati bilan shug'ullanadi [20]. Shuningdek, ko'pchilikka tanish bo'lgan "Iman invest" kommandit shirkati ham kompaniya faoliyatiga investitsiya qilgan shaxslarga yiliga 19-24% miqdorida foyda olish orqali uy-joy uchun pul yig'ib borishni taklif qilishadi [21].

Yuqoridagi kommandit shirkatlaridan farqli ravishda Islom moliyasi talablari asosida uy-joyni moliyalashtirishni "Trast Muamalat" MCHJ ham taklif qilmoqda. 2022-yil 7-oktabrda tashkil etilgan "TRAST MUAMALAT" MCHJ "Trastbank" xususiy aksiyadorlik bankining lizing sho'ba xo'jalik korxonasi hisoblanadi. Jamiyat 2019-yil 22-avgustda "Trastbank" XAB va Islom taraqqiyot banki guruhi tashkiloti Xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha Islom korporatsiyasi o'rtasida "Maslahat xizmati" to'g'risidagi imzolangan shartnomaga asosan tashkil etilgan [22]. Mazkur kompaniya ham yuridik va jismoniy shaxslar uchun uy-joyni moliyalashtirish xizmatini ijara (lizing) shartnomasi asosida taqdim etadi.

Yuqoridagi tadbirkorlik subyektlari tomonidan uy-joyni moliyalashtirishda qo'llanilayotgan shartnomalarni tahlil qiladigan bo'lsak, birinchi o'rinda, ularning faoliyatiga asos qilib olinayotgan normativ hujjat O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi qonuni hisoblanadi. Ushbu qonunga asosan muassislarning (ishtirokchilarning) ulushlariga (hissalariga) bo'lingan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ega bo'lgan tijorat tashkiloti xo'jalik shirkati hisoblanadi, bunday shirkatda muassislar (ishtirokchilar) yoki ulardan ayrimlari shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati yuritishda shaxsan ishtirok etadilar. Shuningdek, xo'jalik shirkatlari qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyat turi bilan shug'ullanishlari mumkinligi ko'rsatilgan [23]. Bundan tashqari, fuqarolik-huquqiy munosabatlarning erkinligi prinsipiga ko'ra jismoniy va yuridik shaxslar shartnoma asosida o'z huquq va burchlarini belgilashda va qonunchilikka zid bo'lmagan har qanday shartnoma shartlarini aniqlashda erkinligi [24] bois uy-joyni amalda moliyalashtirayotgan yuqoridagi tadbirkorlik subyektlari Islom moliyasi shartnomalarining turlarini hamda talablarini qo'llashmoqda.

"Xo'jalik shirkatlari to'g'risida"gi qonunga asosan "Uzaro invest" va "Iman invest" kabi kompaniyalarning tashkiliy-huquqiy shakli qonunchilikda belgilangan kommandit shirkat turiga mos kelib, kommandit shirkat deganda shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan hamda shirkatning majburiyatlari bo'yicha o'zlarining butun mol-mulkulari bilan javob beradigan **ishtirokchilar (to'liq sheriklar)** bilan bir qatorda shirkat faoliyati bilan

bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar doirasida javobgar bo'ladigan hamda shirkat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda **ishtirok etmaydigan bir yoki bir necha ishtirokchi (hissa qo'shuvchi, kommanditchi)** mavjud bo'lsa, bunday shirkat kommandit shirkat deb hisoblanadi. Kommandit shirkatda kompaniya boshqaruvi to'liq sheriklar tomonidan amalga oshirilib, to'liq sheriklar shirkatning majburiyatlari bo'yicha o'zlarining nomidagi butun mol-mulki bilan javob beradilar. Biz keltirayotgan kommandit shirkatlari "Uzaro invest"da to'liq sherik bo'lib "Oqil himoya" MCHJ, "Iman invest"da "Iman halal investments" MCHJ hisoblanadi. Shuningdek, to'liq sheriklardan tashqari "Uzaro invest" va "Iman invest" faoliyatiga hissa qo'shuvchi sifatida sarmoya kiritib, a'zo bo'lgan shaxslar shirkatda kommanditchi hisoblanishadi hamda shirkat daromadidan foyda olish bilan birga uy olish uchun pul jamg'arib borishlari mumkin bo'ladi. Mazkur holatda shuni e'tiborga olish kerakki, ishtirokchilar shirkat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar doirasida javobgar bo'ladilar. Bu shuni anglatadiki, kommandit shirkat faoliyati zarar ko'radigan yoki bankrot bo'ladigan bo'lsa, hissadorlar o'z qo'shgan ulushlarini yo'qotishga tayyor bo'lishlari kerak bo'ladi. Ushbu holatning Islom moliyasi qoidalarida qanday tartibga solinishi kerakligini yuqoridagi shirkatlar qo'llayotgan shartnomalar misolida ko'rib chiqamiz.

"Uzaro invest" va "Iman invest" faoliyatini amalga oshirish uchun qo'llayotgan shartnomalarini tahlil qiladigan bo'lsak, "Uzaro invest" mijozlariga Islom moliyasi talablari asosida uy-joy olib berish uchun ikki xil shartnomani qo'llaydi. Ushbu shartnomalar mudoraba hamda murobaha shartnomasi bo'lib, shirkatga hissa kiritib a'zo bo'lgan ishtirokchilar bilan avvalo mudoraba, ya'ni sarmoya kiritish shartnomasi tuziladi. **Mudoraba (foydani taqsimlash)** Arablar orasida Islom dini kelishidan avval savdo uchun qo'llanilgan biznes shakllaridan biri bo'lgan.

Mudoraba atamasining asosi Qur'on yoki Sunnatda keltirilmagan bo'lsa ham, ushbu atama ilk musulmonlar tomonidan savdoni boshqarishda ishlatilgan. Mudoraba atamasining asosi Qur'onning Muzzammil surasi 20-oyatida zikr qilingan "Ba'zilar Allohning fazlini izlab yer yuzida sayohat qiladilar"da qo'llanilgan "al-darb al-ard" iborasidan olingan bo'lib, "yer yuzida sayohat qilish" ma'nosini bildiradi. Mazkur atamani Suhayb r.a. rivoyat qilganlaridek, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) ham quyidagicha tasdiqlaganlar: "Allohning (S.V.T.) barakasi bo'ladigan uch narsa quyidagilardir: kechiktirilgan savdo, muqarada (foydani taqsimlash), bug'doy va arpani sotishga emas, balki uy ehtiyojlari uchun aralashtirish (Sunan ibn Moja). Mudoraba "jimlikdagi hamkorlik" deb ham atalib, mazkur shartnoma taraflari biznesni ma'lum miqdordagi mablag' bilan ta'minlovchi va "uxlayotgan", "harakatsiz" holatda ishtirok etuvchi moliyalashtiruvchi (rabbul mal) hamda ishonchli shaxs yoki biznes agenti hisoblanuvchi tadbirkor (mudorib) bo'ladi. Mudoribdan mudoraba shartnomasidagi investitsiyadan optimal foyda olish uchun kapitalni Shariat huquqiga bo'ysungan holda ehtiyotkorlik va yaxshi xulq bilan boshqarish talab etiladi. Mudorib bilimi va qobiliyatidan boshqa hech qanday mulkni biznesga tikmaydi. Shuningdek, mudorib biznes faoliyatini boshqarayotgani uchun hech qanday maosh talab qilmasligi kerak. Umuman olganda, Mudoraba (foydani taqsimlash) – bu foyda bo'yicha sheriklik bo'lib, unda bir tomon (rabbul mal) kapital bersa, boshqa taraf (mudorib) esa mehnati bilan ta'minlaydi.

Mudoraba shartnomasi ham boshqa shartnomalar singari oferta va akseptning qabul qilinishi bilan tuziladi. Shartnomaga kiritiladigan kapital turi bo'yicha turli xil qarashlar mavjud bo'lib, Molikiy mazhabi olimlaridan bo'lgan Ibn Rushdga asosan faqihlarning katta qismi




investitsiya kapitali pul aktivlari yoki valyuta (dinor yoki dirham) shaklida bo'lishi kerak. Sababi pul aktivlari shartnoma taraflarining barchasi tomonidan qabul qilingan ayirboshlash va qonuniy to'lov vositasi sifatida o'ziga xos qiymatga ega. Shu bilan birga, aksariyat islom dini ulamolari pul bo'lmagan aktivlardan yoki naturadan kapital sifatida foydalanishni rad etadilar, chunki aktivlarning boshlang'ich qiymatini baholash noaniqlik (g'arar)ni keltirib chiqaradi. Buning sababi esa mulkni baholovchi shaxslar har xil qiymatni qo'yishlari mumkin.

Mudorabada kapitalni himoya qilishda barcha klassik olimlar birgalikda kafolat qo'llashni taqiqlaganlar. Sababi mudoraba qarz hisoblanmay, foyda-zarar-taqsimot tartibida ishlaydi, shuning uchun garov va kafolat talab etilmaydi.

Mablag' bilan ta'minlovchi (rabbul mal) va tadbirkor (mudorib) foydadan ulush olish huquqiga ega bo'lib, rabbul mal kiritgan sarmoyasi uchun, mudorib esa tadbirkorlik tashabbuslari uchun qilgan harakatlari evaziga ulush oladi. Barcha islom ulamolari ish boshlangandan keyin yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday kelishmovchilikdan qochish uchun foydani qanday nisbatda taqsimlanishini oldindan belgilashga rozilik beradilar. Kapitalga yoki investitsiya qilingan aktivlarga egalik qilish har doim rabbulmalda bo'ladi. Jamg'arma ta'minlovchisi bozor tavakkalchiligi sababli yuzaga kelgan zarar uchun o'zi javobgar bo'ladi. Mudorib esa faqat vaqt va kuchini yo'qotadi. Rabbulmalning javobgarligi kapitalga qo'shgan hissasidan oshishi mumkin emas. Biroq, agar zarar mudoribning e'tiborsizligi va ma'naviy xavfi (g'osib) tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, zararni tadbirkor (mudorib) qoplashi kerak bo'ladi.

Hozirgi kundagi mudorabaning konsepsiyasini qo'llayotgan zamoviy shartnomalarga oddiy sheriklik (sharikat al-tawsiyah al-basitah), odatdagi sheriklik (sharikat muhassah), aksiyadorlik kompaniyalari (sharikat musahamah) va mas'uliyati cheklangan gibridd sheriklik (sharikat al-tawsiyah bi-l-ashum) kabilar kiradi.


Yuqorida mudorabaga nisbatan kafillik berish klassik olimlar tomonidan mumkin emasligini yozgan edik, biroq zamonaviy olimlar mudorabaga uchinchi tomon kafolati (al-kafala) berish go'yasini ma'qullaydilar. Sababi kafillik riskka uchrash xavfini kamaytiradi va kapitalning qaytarilishini ta'minlaydi. Kafolat investorlarni (rabbul mal) bozor riskidan himoya qilmaydi, ammo noto'g'ri xatti-harakatlardan yoki firibgarlikdan himoya qilishi mumkin. Dalla Albarakaga binoan, mudoraba kapitalida mudorib (tadbirkor)ga kafolat berish taqiqlanadi. Shunga qaramay, agar kafolat hukumat tomonidan berilgan bo'lsa, bunga ruxsat beriladi. Hozirgi vaqtda uchinchi tomon kafolatlari hukumatdan yoki xususiy tashkilotlardan olinishi mumkin [25;349-358].



### 1-rasm. Mudaraba shartnomasining sxemasi [26].

Yuqorida mudaraba shartnomasining asoslari va umumiy shartlarini o'rganib chiqdik. Bizning qonunchilikka asosan ham mudaraba shartnomasining qoidalari xo'jalik shirkatlarining ishlash mexanizmiga mos kelganligi sababli ham ushbu shartnoma mexanizmiga mos bo'lgan tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shaklidan shirkatni qo'llashmoqda. Biroq, "Uzaro invest" faoliyati tadbirkorlik qilishdan ko'proq odamlardan yig'ilgan pullarni jamg'arib, navbati kelgan mijozlarga uy olib berganligi sababli Amin uy kooperativi qoidasiga o'xshaydi. Ushbu tushuncha shuni anglatadiki, kooperativga ulush kiritib unga a'zo bo'lgan shaxslar uy olish imkoniga ega bo'ladi. Kooperativ ishtirokchilari uy olish uchun mablag'ga ega bo'lish bilan bir qatorda kiritgan investitsiyalari hisobidan daromad olish huquqiga ega bo'lishadi. Ishtirokchilardan yig'ilgan pullar daromad olish uchun investitsiyaga kiritiladi yoki ishtirokchilar uy olishi uchun ishlatiladi. Amin uy kooperativi foyda-taqsimot qoidasiga amal qilish bilan birga daromadlarni taqsimlashda hamda boylik yaratishda adolat tamoyilini qo'llaydi. Amin uy kooperativi qoidasiga ko'ra investorlar va uy oluvchilardan birgalikda to'plangan pullar hisobiga uy olib beriladi va uyga ishlatilgan pulni to'lash xaridor tomonidan Musharaka Mutanaqisa shartnomasi asosida bo'ladi [27;494-495].

"Uzaro invest" shartnomasiga ko'ra uy olmoqchi bo'lgan sheriklar shirkatga a'zo bo'lib, yuqorida muhokama qilganimiz mudaraba shartnomasi asosida uy olish uchun pul kiritib borishadi. Shirkat eng ko'pi 800 000 000 (sakkiz yuz million) so'mgacha bo'lgan uyni olib berishi mumkin. Uy oluvchi shaxs uzog'i 5 yilgacha olmoqchi bo'lgan uyni yarim pulini shirkatda yig'ishi kerak. Uy-joy pulining miqdori yarmiga yetgandan so'ng shirkat uy pulining qolgan qismini qo'shib ushbu uyni mijozga olib beradi va uni Murobaha shartnomasi asosida mijozga muddatli to'lovga beradi. Ushbu vaziyatda shirkat uyni yarim narxiga qo'shgan puli evaziga 15% ustama qo'yadi hamda uyni oluvchiga qarzni to'lash uchun 5 yil muddatga beradi [28].



## 2-rasm. “Uzaro invest”ning ishlash mexanizmi [29].

Shu o`rinda, Murobaha shartnomasini muhohaka qiladigan bo`lsak, ushbu shartnoma foyda qo`shilgan savdo (bay u al-murabaha) deb atalib, ushbu savdoga ko`ra, obyekt asl narxi bilan ustiga qo`yilgan aniq ustama foydasi ko`rsatilgan holda sotiladi. Molikiy mazhabiga ko`ra ushbu savdo shunday tushuntiriladi: sotuvchi sotib oluvchiga obyektни necha pulga sotib olganligini hamda obyekt ustiga qancha miqdorda ustama qo`yayotganligini aytishi kerak. Masalan, buni 10 so`mga sotib oldim, senga esa 2 so`m ustama qo`yib sotaman yoki foyda nisbatini foizda ifodalashi ham mumkin (20% ustama qo`dim kabi). Hanafiy mazhabi ushbu shartnomani quyidagicha ta`riflaydi: dastlabki shartnomaga asosan olingan obyektни ustiga foyda ustamasi qo`ygan holda o`tkazishdir. Shofe`iy va Hanbaliy mazhablariga ko`ra quyidagicha ifodalanadi: tarablarga ma`lum bo`lgan obyektning haqiqiy narxi ustiga foyda ustamasini qo`yib sotish savdosi [30;353].

Ustama qo`yib savdo qilish shartnomasiga huquqiy tomondan ko`pchilik faqihlarning isboti bilan hamda Payg`ambarimiz (s.a.v.) sahobalari tomonidan ruxsat etilgandir. Biroq Molikiy mazhabi ushbu savdoni unchalik yoqlamaydi. Mazkur savdo turiga ruxsat berilganligining isboti quyidagi dalillardan kelib chiqqan:

1. Qur`onda umumiy ma`noda savdoga ochiqchasiga ruxsat berilganligi to`g`risida ko`plab oyatlar mavjuddir: “Va Alloh savdoga ruxsat berdi” [2:275], “Magar o`zaro rozilik ila tijorat bo`lsa, mayli”[4:29]. Ushbu oyatdan shu narsa tushuniladiki, o`zaro rozilik orqali ustama qo`yib savdo qilish mumkin bo`ladi.

2. Ishonchli rivoyatda esa shunday deyiladi: “Rasululloh (s.a.v.) Madinaga hijrat qilish arafasida bo`lganlarida, Abu Bakrning 2ta tuya sotib olganliklarini eshitadilar. Shunda Payg`ambarimiz (s.a.v.) Abu Bakrdan tualardan birini sotib olingan narxida ularga sotishini so`raydilar. Abu Bakr: “hech qanday bahosiz bu sizniki”, - deydi. Biroq, Payg`ambarimiz (s.a.v.): “Bahosiz emas”, - deb javob beradilar.

3. Ibn Mas`uddan (r.a.) rivoyat qilinadiki, bir martalik yoki foizli e`lon qilingan foydada hech qanday zarar yo`q.

4. Savdoning bu turi barcha huquqiy talablarga javob berib, bozorda muhim xizmatlardan biri bo`lib hisoblanadi hamda bozordagi bu savdodan bilimi bor insonlarga foyda qilish imkonini, bilimi yo`qlarga esa tovarlarni yaxshi narxda sotib olish imkonini beradi.


Yuqoridagilarga asosan, murabahada narx aniq bo`lganligi uchun ham ushbu savdoga ruxsat beriladi [31;354].

Murobaha savdosining asosiy shartlari quyidagilardan iborat: savdo moli savdo mahalida mavjud bo`lishi lozim; savdo moli savdo mahalida sotuvchining mulkida bo`lishi lozim; savdo molini boshqa bir shaxsga sotayotgan vaqtda u mol sotuvchining jismoniy yoki konstruktiv tasarrufida bo`lishi lozim; savdo darhol va shartsiz amalga oshirilishi lozim. Kelajak vaqtga yoki kelgusida ro`y berishi mumkin bo`lgan voqeaga bog`langan savdo durust emas. Agar tomonlar savdoning shar`iy joiz bo`lishini xohlashsa, kelajak vaqt kelishi bilan yoki bog`langan shart voqe bo`lishi bilan tomonlar savdoni qaytadan qilishlari lozim; savdo moli qiymatga ega bo`lgan mulk bo`lishi lozim. Qiymatga ega bo`lmagan narsani sotish ham, sotib olish ham durust emas; savdo moli cho`chqa, aroq singari faqat harom maqsadda ishlatiladigan narsa bo`lmasligi kerak; xaridor aynan qaysi molni sotib olayotganini aniq bilishi lozim; sotilgan molni xaridorga yetkazib berish aniq kelishilgan, shartga yoki ehtimollikka bog`lanmagan bo`lishi shart; narxning aniq bo`lishi savdo joiz bo`lishi uchun zaruriy shart hisoblanadi; savdo shartsiz amalga oshirilishi lozim. Shartli savdo joiz emas, illo savdo molining iste`moli uchun zarur bo`lgan shart savdo bitimining bir qismi o`laroq qabul qilinadi.

Yuqoridagilardan tashqari, murobaha durust bo`lishi uchun mahsulotning tannarxi aniq bo`lishi kerak. Tannarxi aniq bo`lmagan mahsulotni murobaha asosida sotish mumkin emas [32;106-111. 115].

Demak, mahsulotning tannarxi aniq bo`lishining sharti shundan iboratki, murobaha savdosida sotuvchi xaridorga mahsulotning asl tannarxi hamda ustiga qo`yilayotgan ustamani ma`lum qilib sotishi kerak bo`ladi.

## What Is Murabaha?



## 2-rasm. Murobaha shartnomasining sxemasi [33].

Yuqoridagi muhokamalardan tashqari, bank bo'lmagan moliya tashkilotlari tomonidan iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda tikilayotgan pullarni yo'qotish riskini kamaytirish hisoblanadi. Sababi nobank moliya tashkilotlariga tikilayotgan investitsiya pullarining kafolatlanishi mavjud emas. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asosan majburiyatning ta'minlanish usullari bo'lib neustoyka, garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat hamda qonunchilik yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ta'minlanishi mumkin [34]. Ushbu usullardan qaysi birini qo'llash mumkinligini hamda islom moliyasida majburiyatni ta'minlash usullarining qanaqa turlari mavjudligini o'rganish kerak bo'ladi.

Riskka uchramaslikning kafolatlanishi ham islom moliyasi tamoyillariga to'g'ri kelmaydi. Yuqorida muhokama qilganimiz mudoraba islom moliyasining foyda-yo'qotishni bo'lishish instrumenti hisoblanadi. Ushbu instrument qarz beruvchilar/hissa kirituvchilar tomonidan to'liq yoki qisman moliyalashtirilishi mumkinligi uchun moslashuvchanlik darajasi yuqori hisoblanadi. Biroq, Mudoraba va Mushoraka instrumentlari risk darajasi yuqori hisoblanadi, chunki tikilgan pullarning qaytish-qaytmaslik darajasi yuqori hisoblanadi, sababi pulning qaytishi loyihaning qanday amalga oshirilishiga bog'liq hisoblanadi. Shuningdek, biznes riski ham mavjud bo'ladi. Mazkur kapital bilan ta'minlash instrumentlarida asosan tadbirkorga nisbatan yuqori ishonch bildiriladi [35;231-249].

Bugungi kunda "Uzaro invest" shirkatiga uy olish maqsadida tikilayotgan pullarning kafolatini ta'minlashda ushbu faoliyatning pullarni yo'qotish riskining kamligi uchun majburiyatni ta'minlash usullarining birontasi qo'llanilmaydi. Shu sababli ham pullarning kafolatlanish usullarini amaldagi qonunchilikda mavjud usullar hamda islom moliyasi instrumentlarini o'rganish ham muhim hisoblanadi,

**Xulosa.** Yuqoridagi asoslar, muhokamalardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, quyidagi fikr va takliflarni berish mumkin:

✓ Amaldagi qonunchilikka hamda fuqarolik-huquqiy munosabatlarining erkinligi prinsipiga asosan ma'lum bir tadbirkorlik subyektlari tomonidan islom moliyasi talablariga muvofiq bo'lgan holda uy-joy olish xizmatlari ko'rsatilmoqda.

Murakkab muloqot muammolarini yetarli darajada hal qilish uchun pedagogik psixolog kerak, bu murakkab mahorat va qobiliyatga ega bo'lib, u bilan ziddiyatsiz bo'lishi mumkin bog'lanish, bolalar va o'smirlar tomonidan axloqiy me'yorlar, madaniyat va xatti-harakatlarning buzilishi sabablarini aniqlash; keyin esa ushbu qoidabuzarliklarni bartaraf etishda zarur yordam ko'rsatish. Bizning tadqiqot maqsadimiz shaxsning kommunikativ qobiliyatlari test sub'ektining aloqa muammolarini hal qilish qobiliyati bilan belgilanadi;

Kommunikativ faoliyatdan boshlab shaxs ijtimoiy oqibatlariga olib keladi kommunikativ aks ettirish va muallifning aloqa muammosi haqidagi qarashlari tufayli, keyin u shaxsning qadriyat, mazmuni va tarkibiy qismlarining birligini saqlashi kerak.

**Xulosa.** Pedagogik faoliyatda muloqot yetakchi rol o'ynaydi, Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchining kommunikativ kompetensiyasi muloqotning samaradorligi uning ta'minlovchi barcha tarkibiy qismlarini bilishni talab qiladi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bo'lajak mutaxassisning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishda psixologik-pedagogik amaliyotlar tizimi alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu talabalarning o'quv faoliyatiga moslashishiga yordam beradi, ularga deviant o'smirlar bilan muloqot qilishda o'zlarining kommunikativ imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga imkon beradi. Pedagogik mahoratni bosqichma-bosqich o'zlashtirish, uning jihati pedagogik kommunikativ kompetensiyadir.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. A.YU.Axmedov. Bo'lajak psixologlarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muammosini o'rganishning nazariy asoslari. Galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) (2023)
2. N.A. Muslimov (2007) Kasbiy ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fanl. dokt. ... diss. T.: - 349 b.
3. N.X. Qo'shvaqto'v (2006) O'quvchilarni milliy-manaviyat qadriyatlarini o'rganish va tayyorlashning pedagogik va kompyuterli asoslari: Ped.fan.nomz. diss. - T.: 2006.

4. Yusufovich, A. A. (2022) Bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini shakllantirishning dolzarb masalalari. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 10(10), 224-227.
5. Yusufovich A. A., & Alisher o'g'li, E. O. (2022). Psychological and pedagogical opportunities for the formation of communicative competence in future teachers. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(6), 1157-1161.
6. Yusufovich, A. A. (2022). Developing the communicative competence of future teachers is an effective measurement for self-organization. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(1), 302-304.



**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **SOCIAL ADAPTATION AS A PSYCHOLOGICAL PROBLEM**

**Ibragimova Khurshida Khusanbayevna**

Teacher of the Department of Pedagogy and Psychology of Andijan State Pedagogical Institute.

**Abstract.** Adaptation is a process of interaction between a subject and an object, as a result of which changes occur in two interacting parts. Changes are associated with the appearance of new features, new combinations of features, selective loss or complete loss of a part of features. As a result, many authors describe adaptation through translation as adaptation of the organism to environmental conditions.

**Key words:** adaptation, socialization, adaptation, values, environment, personality, activity, sustainable development, activity, changing active nature, socio-psychological adaptation, problems; psychological and pedagogical support.

## **IJTIMOYIY ADAPTATSIYA PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA**

**Ibragimova Xurshida Xusanbayevna**

Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika va psixologiya kafedrasini o'qituvchisi.

**Annotatsiya.** Moslashuv subyekt va obyekt o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, buning natijasida o'zaro ta'sir qiluvchi ikkita qismda o'zgarishlar ro'y beradi. O'zgarishlar yangi xususiyatlarning paydo bo'lishi, xususiyatlarning yangi kombinatsiyasi, tanlangan yo'qolishi yoki xususiyatlarning bir qismini to'liq yo'qotish bilan bog'liq. Buning natijasida ko'pgina mualliflar tarjima orqali moslashishni organizmning atrof-muhit sharoitlariga moslashishi sifatida tavsiflaydilar.

**Kalit sozlar:** adaptatsiya, ijtimoiylashuv, moslashish, qadryatlar, atrof-muhit, shaxs, faoliyat, barqaror rivojlanish, faoliyat, o'zgaruvchan faol tabiat, ijtimoiy-psixologik moslashuv, muammolar, psixologik va pedagogik yordam.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N43>

**Kirish.** "Moslashish" atamasi lotincha adaptatio – moslashish so'zidan kelib chiqqan. Moslashuv ijtimoiy-psixologik jarayondir shaxs va ijtimoiy muhit o'rtasidagi qulay o'zaro ta'sirga olib keladi. "Moslashish" atamasi birinchi marta G. Auberg tomonidan kiritilgan va tabiiy, texnik va ijtimoiy fanlarda keng tarqalgan. Bu so'ngi lotincha "adaptatyu" - so'zlash, moslashish ma'nolarini ifodalaydi. Ushbu atama jarayonning ma'lum bir tomoniga urg'u berilishiga qarab, noaniq talqin qilinadi.

Buning natijasida ko'pgina mualliflar tarjima orqali moslashishni organizmning atrof-muhit sharoitlariga moslashishi sifatida tavsiflaydilar [1].

Izohlovchi lug'atda ijtimoiy moslashuv deganda shaxs yoki ijtimoiy guruhning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabati tushuniladi, ushbu kontseptsiya ijtimoiylashuv jarayonida atrof-muhitning me'yorlari va qadriyatlarini o'zlashtirishni, shuningdek, atrof-muhitni yangi shartlar va faoliyat maqsadlariga muvofiq o'zgartirishni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy-psixologik moslashuv muammosi nafaqat nazariy, balki ko'p o'lchovli amaliy ahamiyatga egaligi bilan tavsiflanadi. Hech qanday mubolag'asiz, ilm-fan global adaptiv paradigmani o'zida mujassamlashtirishga chaqiriladi, bu inson, insoniyat va global sivilizatsiyaning bir-biriga va bundan tashqari, "barqaror rivojlanish" davrining qat'iy talablariga katta moslashuvi sifatida tushuniladi. Biologiyada dastlab paydo bo'lgan "moslashish" tushunchasini tushish joylarida, fanlarning aloqa nuqtalarida yoki hatto bilimning alohida sohalarida paydo bo'ladigan va keyinchalik ko'plab sohalarga ekstrapolyatsiya qilinadigan umumiy ilmiy tushunchalar bilan bog'lash mumkin.

Biologik nuqtai nazardan moslashish evolyutsiya orqali tushuntiriladi. Lamark atrof-muhitning kuchini muhokama qilib, uni alohida organizmlardagi o'zgarishlarning sababi sifatida qo'yadi. Lamark g'oyalari keyinchalik Charlz Darvinning moslashish nazariyasida o'z aksini topadi. Shoshilinch moslashish tug'ma, irsiy bo'lib, atrof-muhit ta'sirida kam o'zgaradi, uzoq muddatli moslashishdan farqli o'laroq, bu organizmning qo'zg'atuvchi ta'siriga asta-sekin ko'nikish hosil qiladi.

Ijtimoiy moslashish jarayoni o'ziga xos tarixiy xususiyatga ega. Demak, shaxs yoki ijtimoiy guruhning sa'y-harakatlari, ularning o'zgargan ijtimoiy muhitni o'zlashtirish qobiliyati ko'p jihatdan o'zgarishlarning o'zi, mamlakatdagi ijtimoiy-huquqiy va ma'naviy vaziyat bilan belgilanadi. Insonning moslashuvda yetakchi jihat uning faolligi, adaptiv emas, balki o'zgaruvchan, faol tabiatidir. Moslashuv qonuniyatlarini hisobga olgan holda va uni keng ma'noda ijtimoiy shaxsning ishlab chiqarishi sifatida ko'rib chiqsak, moslashish tabiiy, ijtimoiy muhitni uning barcha xilma-xil sohalarida faol o'zlashtirish sifatida tavsiflanishi mumkin[2].

Umumiyroq shaklda moslashish filogenez nuqtai nazaridan organik dunyoning evolyutsion rivojlanishida sodir bo'ladi: biologik turning mavjudligi haqiqatining o'zi filogenetik moslashuv natijasidir. Alohida organizmda bir hayot davomida, ontogenezda namoyon bo'ladigan adaptiv jarayonlar ham ko'proq uchraydi.

Moslashuv ijtimoiy texnologiya sifatida[3]. Moslashishning sababi yangi ijtimoiy vaziyat (ishdan ayrilish, nafaqaga chiqish, ko'chirish yoki majburiy migratsiya, jismoniy shikastlanish, falokatni boshdan kechirish, harbiy harakatlarda qatnashish) munosabati bilan shaxs yoki odamlar guruhining ijtimoiy holati va pozitsiyasining o'zgarishi bo'lishi mumkin.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Ijtimoiy psixologiyada ijtimoiy-psixologik moslashuv shaxsning ijtimoiy muhitga moslashishi, u bilan o'zaro munosabati sifatida qaraladi (D. A. Andreeva, M. Mead, T. Parsons, J. Piaget va boshqalar); moslashuvning psixologik mexanizmlari B. N. Almazov, S. P. Ivanenkov, A. B. Petrovskiy, A. A. Rean va boshqalarning asarlarida tahlil qilingan; oliy o'quv yurtiga moslashish B. G. Ananyev, D. A. Andreeva, T. A. Golubeva va boshqalar tomonidan o'rganiladi.

Majburiy migrantlarning yangi turmush sharoitlariga moslashuvini ijtimoiy-psixologik tahlil qilish moslashish subyekti va obyektining o'zaro ta'sirini, bu hodisaning mexanizmini har tomonlama o'rganishni nazarda tutadi. Faqat bu holatda ushbu jarayonni bashorat qilish imkoniyati va uning muvaffaqiyatini oshirish yo'llari haqida gapirish qonuniydir[4].

K.K. Platonov va G.G. Golubevning ta'kidlashicha, sanoat moslashuvining birinchi - kirish bosqichi "tanlangan kasb bo'yicha ma'lum bir malakaga ega bo'lish to'g'risida qaror qabul qilishdan boshlanadi va ishlab chiqarish o'qitishga dastlabki nazariy tayyorgarlik paytida, o'quv ustaxonalari, kollejlari va tayanch korxonalar bilan tanishish paytida davom etadi".

Moslashuv tushunchasi yashash sohasi va obyekt-tizimning o'zining dialektik birligini, qarama-qarshiliklarning kelishuvi va kurashini o'z ichiga oladi. V.N.Gribov ta'kidlaydiki, moslashish muhit va organizm o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni sifatida muvozanatga erishishga qaratilgan bo'lib, uni moslashish natijasi deb hisoblash mumkin.

**Muhokama.** Umumiy qabul qilingan metateoriyaning yo'qligi, nazariy konstruksiyalarning empirik ma'lumotlar bilan solishtirilmasligi, raqobatdosh nazariy maktablar va yo'nalishlarning ko'pligi zamonaviy psixologik nazariyaning inqirozli xususiyatlaridan faqat bir qismidir. Tegishli sotsiologik metodologiyaning mohiyati haqidagi savolni real ijtimoiy hodisa va jarayonlarning dastlabki nazariy tahlili asosida hal qilish maqsadga muvofiqdir, bu aniq zarurat bilan ijtimoiy moslashuv jarayonlarini asosiy universal muammolardan biri sifatida o'z ichiga oladi. Ijtimoiy-psixologik moslashuvni tahlil qilish quyidagi asoslarga asoslanishi kerak: ijtimoiy moslashuv global ijtimoiylashuv jarayonining mantiqiy natijasi bo'lib xizmat qiladi, sotsializatsiya esa shaxsning shakllanishi va keyinchalik u yoki bu ijtimoiy rolni bajarish uchun uning asosiy me'yorlar, qadriyatlar va ijtimoiy-madaniy institutlar bilan tanishish bosqichidir. Ijtimoiy moslashuv o'zining eng umumiy shaklida shaxsning o'ziga xosligini ochib beradi va aniqlaydi, shu bilan uning hayotining ma'nolari va strategiyalarini dinamik, doimiy o'zgaruvchan ijtimoiy-madaniy muhitda uyg'unlashtiradi. Haqiqiy jamiyatda yashovchi shaxs muayyan hayotiy jarayonlarga moslashishi kerak. Bunday moslashuv quyidagilarda talab qilinadi: shaxsiy va maishiy sohada. Ijtimoiy moslashish usullari tizimi: ijtimoiy moslashish usullari tizimi ijtimoiy ish texnologiyasining boshqa funktsional protseduralarini amalga oshirishda qo'llaniladigan usullarni o'z ichiga oladi [5].

Moslashuv subyekt va obyekt o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, buning natijasida o'zaro ta'sir qiluvchi ikkita qismda o'zgarishlar albatta sodir bo'ladi. O'zgarishlar yangi xususiyatlarning paydo bo'lishi, xususiyatlarning yangi birikmasi, tanlangan yo'qolishi yoki xususiyatlarning bir qismini to'liq yo'qotish bilan bog'liq. O'zaro ta'sir deyarli har doim qandaydir dominantga, biror narsaning hukmronligiga olib keladi: birinchi subyekt boshqasiga, subyekt obyektga yoki aksincha va shunga mos ravishda ushbu dominantga moslashishga olib keladi. Moslashuv jarayoni muayyan ijtimoiy institutlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Ushbu institutlar shaxsning ijtimoiy fazilatlarini qanday shakllanganligini, ular ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarga mos kelishi, muayyan omillarning ta'sirini cheklashi yoki kuchaytirishi kerak. Ijtimoiylashtirishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqishning ahamiyati eski ijtimoiy institutlarning yo'qolishi bilan bog'liq. Shuningdek, ushbu texnologiyalarni joriy etish quyidagilarga yordam beradi: shaxs, guruh, umuman jamiyat ehtiyojlarini qondirish;

shaxsni umumiy ijtimoiy sharoitga yoki shaxsning o'ziga xos ijtimoiy vaziyatiga mos keladigan o'z xatti-harakatlarini amalga oshirish mexanizmini mazmunli "qayta ishlashga" o'rgatish [6].

**Natija.** Moslashuv masalalari nafaqat katta uslubiy va nazariy ahamiyatga ega, balki psixologiyaning amaliy masalalarini yechish nuqtai nazaridan ham muhim muammoli sohani egallaydi. Insonning uyushgan mehnat faoliyati sharoitlariga moslashishi o'tgan asrning 70-yillarida ijtimoiy voqelikning turli sohalarida psixologik bilimlarning roli ortib borishi munosabati bilan amaliy psixologiyaning boshqa muammolari bilan birga faol o'rganila boshlandi. Amaldagi kontseptual apparatlarning noto'g'riligiga, parchalanishiga va ba'zi siyosiylashuviga qaramay, ushbu tadqiqotlar mehnat sharoitida ro'y berayotgan moslashish

muammosining amaliy jihatlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Murakkab ijtimoiy vaziyat, shaxsning (shaxslar guruhining) boshqa maqomi ijtimoiy ish bilan bog'liq holda ijtimoiy moslashuvning asosiy yo'nalishlarini tasniflashning o'ziga xos mezonlari bo'lib xizmat qiladi. Bularga quyidagi sohalar kiradi:

-yetim bolalar - mehribonlik uylari bitiruvchilarining kattalar hayotiga ijtimoiy moslashuvi;

-harbiy mojarolar ishtirokchilarining moslashuvi;

-zo'rvonlikka duchor bo'lgan shaxslarni moslashtirish;

-tabiiy ofatdan omon qolganlarni moslashtirish;

-ishsizlarni moslashtirish;

-mahkumlarni va qamoqdan ozod qilinganlarni moslashtirish va boshqalar.

Ushbu usullarni tizimli va professional qo'llash individual yoki ijtimoiy guruhning muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlashning kalitidir. Ularning yangi ijtimoiy muhitni faol o'zlashtirishi ularga yangi turmush sharoitlariga, o'zgartirilgan ijtimoiy mavqega, hayotning murakkabligiga va kasbiy faoliyatning maxsus talablariga tez va osonroq moslashishga imkon beradi[7]. Va birinchi navbatda, bunday moslashuvchanlik mehnat munosabatlari, shaxsiy-maishiy va madaniy-dam olish munosabatlari sohasida talab qilinadi. Shuning uchun olimlar uchun ijtimoiy moslashuvning uchta asosiy turini ajratish juda o'rindir. Shunday qilib, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning moslashuvi murakkab va murakkab hodisadir. Ushbu jarayonning ahamiyati uning bunday bolalarni ijtimoiylashtirish jarayonida tutgan o'rni bilan belgilanadi. Faoliyatning boshqa ishtirokchilari bilan adekvat, faol o'zaro munosabatlarga, mikroijtimoiy o'zaro ta'sirga, qo'shma ijtimoiy ijodkorlikka qaratilgan maqsadli tizimli ishgina ijtimoiy-psixologik moslashuvda muvaffaqiyatga erishishga imkon beradi va bolalar uchun muhim bo'lgan maqsadlarga erishishga olib keladi. Psixologik moslashuv shaxsning ruhiy jarayonlar darajasidagi sharoit va vazifalarga moslashishi sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy moslashuv - bu yangi ijtimoiy aloqalarni o'zlashtirishga qaratilgan tizim. U moslashishning biologik shakllarini yo'q qilmaydi, balki ularni tartibga soluvchi va u tomonidan o'zgartirilgan ichki element sifatida o'z ichiga oladi va vositachilik qiladi. Moslashuv mexanizmi evolyutsiya jarayonida ishlab chiqilgan va organizmning doimiy o'zgarib turadigan atrof-muhit sharoitida mavjud bo'lishiga imkon berdi. Albatta, tana ham dam olishda emas, boshqacha aytganda, "organizm-muhit" tizimi dinamik muvozanat holatidadir, ya'ni moslashish jarayoni doimiy ravishda amalga oshirilishi kerak. Moslashuv jarayonlari turli darajalarda sodir bo'ladi: molekulyar, hujayrali, individual funktsiyalar, organlar, butun organizm va ma'lum tizimlar darajasida. Bunga qarab, mualliflar moslashish muammolarini o'rganib, quyidagi turlarni aniqlaydilar:

biologik (organizmning evolyutsiya jarayonida tashqi sharoitlarga, shu jumladan morfologik va xulq-atvor tarkibiy qismlariga moslashishi),

fiziologik (tananing yashash sharoitlariga moslashishi),

ijtimoiy (shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga faol moslashish jarayoni; shaxs yoki ijtimoiy guruhning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri turi),

psixologik (tegishli rol funktsiyalarini bajarishda shaxsning ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik va kasbiy-faoliyat aloqalari va munosabatlari tizimiga psixologik qo'shilish jarayoni).

**Xulosa.** Ijtimoiylashtirish "individdning jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatishiga imkon beruvchi ma'lum bir bilimlar, me'yorlar va qadriyatlar tizimini o'zlashtirish

jarayoni sifatida shaxsga maqsadli ta'sir ko'rsatishning ijtimoiy tomonidan boshqariladigan jarayonlarini o'z ichiga oladi va uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi stixiyali jarayonlardir. Ijtimoiy moslashuv murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, inson hayotining turli sohalarida amalga oshiriladigan jarayon sifatida, qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan shaxs yoki ijtimoiy guruhning real ijtimoiy muhitga moslashishini anglatadi.

Shaxsning ijtimoiy moslashuvi muammosi ko'p jihatdan qanday sharoitlarga bog'liq joylashgan va u shakllantirgan javob strategiyalari ma'lumot texnologiyalar va virtual makon, zamonaviy inson hayotida o'zlarining shaxslararo ustuvorliklarini belgilab, ustunlik qiladigan munosabatlardir. Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yoshlar vaqt sarflaydigan Internetdagi, ijtimoiy tarmoqlardagi odamlar bir-birlari bilan tabiiy muloqotdan yiroqdadir, shuning uchun ular o'rtasida bevosita o'zaro ta'sir qilish jarayonining buzilish holatlari kuzatilmoqda[8].

Shunga ko'ra, biz shaxsiyatni ko'rib chiqishda konstruktiv asoslardan biri bu ijtimoiy muhitning individual o'ziga xosligi va xususiyatlariga asoslangan ichki potentsialni ochib berish qobiliyatini ta'kidlashdir degan xulosaga kelishimiz mumkin. O'z rivojlanishining ma'lum bosqichlaridan o'tib, inson moslashish va o'zini o'zi anglash jarayonlariga turtki bo'lib xizmat qiladigan bir qator muhim hayotiy voqealarni boshdan kechiradi. Xulq-atvorni o'zgartirish uchun esa shaxsning faol pozitsiyasi zarur[9]. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, biz "moslashish" tushunchasiga ta'rif berishimiz mumkin. Aynan ijtimoiy faoliyat jarayonida subyekt haqiqatda yangi ijtimoiy munosabatlar, me'yor va qadriyatlar tizimiga kiradi. Ijtimoiy faoliyatning bir qismi sifatida subyekt yangi ijtimoiy muhitga kirishga imkon beradigan yangi ijtimoiy maqom va rollarni oladi.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Граве П.С. Об адаптации в живых системах /П.С.Граве. – Рига: Зинатне, 1972.
2. Петрушенко Л.А. Единство системности, организованности и самодвижения / Л.А. Петрушенко. – М.: Мысль, 1975.
3. Ромм М.В. Адаптация личности в социуме: Теоретико-методологический аспект / М.В. Ромм. – Новосибирск: Наука. Сибирская издательская фирма РАН, 2002.
4. Селье Г. Очерки об адаптационном синдроме / Г. Селье. – М.: Медицина, 1960.
5. Философские проблемы теории адаптации /Под ред. Г.И. Царегородцева. – М.: Мысль, 1975.
6. Адаптация личности в современном мире: Межвуз. сб. науч. тр. –Саратов: ИЦ «Наука», 2011. – Вып. 3. – 110 с.
7. Андреева Г. М. Социальная психология.– М.: Аспект Пресс, 2017. – 363 с.
8. Битянова М.Р. Социальная психология. – СПб.: Питер, 2015.- 368 с.
9. Горянина В.А. Психология общения. – М: Академия, 2013.- 416 с.

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL METHODS OF DEVELOPING PROFESSIONAL DEFORMATION IN FUTURE EDUCATORS**

**Tolanova Mahliyo Murotali kizi**

Teacher of the Faculty of Pedagogy, Department of Pedagogy and Psychology of the Andijan State Pedagogical Institute.

**Abstract.** This article is devoted to the scientific and practical studies of the improvement of professional development in higher educational institutions and the deformation (adaptation to work, getting used to) of relations and participants in the field of education. Students are told about the role and importance of the professional deformation approach. Recommendations have been made for the development of future pedagogues, who are considered the future of our country from the economic, political and spiritual point of view.

**Key words:** deformation, participants of educational relations, partner organizations, student educational direction, professional competences, personal and professional development, pedagogic concept of cooperation, legislative educational programs, continuous education.

## **BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY DEFORMARSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK USULLARI**

**To'lanova Mahliyo Murotali qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti, pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida kasbiy rivojlanishni takomillashtirish va ta'lim sohasidagi munosabatlar va ishtirokchilar o'rtasidagi deformatsiya (mehnatga moslashish, ko'nikish) amaliyotning ilmiy va amaliy tadqiqotlariga bag'ishlangan. Talabalarda kasbiy deformatsiya yondashuvning o'rnini va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Mamlakatimizni iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan ertangi kuni hisoblangan bo'lajak pedagoglarni o'z kasbini mohir ustasi bo'lib yetishishi uchun tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** deformatsiya, ta'lim munosabatlari ishtirokchilari, hamkor tashkilotlar, talabalar ta'lim yo'nalishi, professional kompetensiyalar, shaxsiy va kasbiy rivojlanish, pedagogika tushunchasi hamkorlik, qonunchilik ta'lim dasturlari, uzluksiz ta'lim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N44>

**Kirish.** Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikr va mulohazalar ham bevosita ta'lim tizimiga taalluqlidir: «Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimiz kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi».[1]

Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarda prezidentimiz tomonidan bitiruvchi yoshlarni kasb hunarga yo'naltirish uchun qator farmonlar imzoladi hamda ularni amalga oshirish chora tadbirlari ishlab chiqildi. Jumladan 2021-yil 8-iyundagi PQ-5140-son.[2]

qarori ijrosini ta'minlash hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilarini kasb-hunarga o'qitish, o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib kelajakda ularning ta'limni davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish bugungi kata hayot ostasida turgan yoshlar uchun ulkan imkoniyatlar yaratib beradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.12.2021 yildagi 792-son.[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".

Kasbiy deformatsiya (mehnatga moslashish, ko'nikish) - bu shaxsning yangi mehnat vaziyatini o'zlashtirishining ijtimoiy jarayoni bo'lib, unda shaxs va mehnat muhiti bir-biriga faol ta'sir ko'rsatadi va moslashuvchi-moslashtiruvchi tizimlar hisoblanadi. Ya'ni birinchi tomondan shaxs muayyan mehnat jamoasining kasbiy va ijtimoiy-psixologik munosabatlari tizimiga faol kirishib ketadi, o'zi uchun yangi bo'lgan ijtimoiy vazifalarni, qadriyatlar va normalarni o'zlashtirib oladi, o'zining alohida tutgan yo'lini tashkilot (mehnat jamoasi)ning maqsad va vazifalari bilan moslashtiradi, bu bilan o'zining xulqini mazkur ta'lim muassasaning xizmat yo'l yo'riqlariga bo'ysundiradi. Ikkinchi tomondan shaxs o'zida avvaldan qaror topgan muayyan maqsadlar, qadriyatli muomala yo'nalishiga ega bo'ladi, shularga muvofiq korxonaga bo'lgan o'z talablarini shakllantiradi. Shaxs va ta'lim muassasasi o'z talablarini amalga oshira borib, o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatadilar, bir-birlariga moslashadilar, buning natijasida mehnatga moslashuv jarayoni amalga oshiriladi. Deformatsiya tushunchasi, odatda, organizmga ta'sir etuvchi va unda muhim xarakter xususiyatini hosil qiluvchi o'zgarish sifatida talqin qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda ijodkorlikni rivojlantirishning ahamiyati haqidagi turli uslubiy tushuncha va g'oyalar bugungi kunda o'rganilayotgan masala amaliyotda qanday hal etilayotganligini tahlil qilish zaruratini tug'dirdi. Ma'lumki, zamonaviy pedagogika nazariyasida ijodiy salohiyatni oshirish, kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo'lajak pedagogning shaxsiy va kasbiy rivojlantirishning mazmuni, usul va metodlarini belgilashda jiddiy o'zgarishlar bo'lishi lozim. Chunki bu kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarni ijodiy faoliyatga safarbar etib, ularning raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Ijodkor o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Zamonaviy pedagogika fanida esa ijodkorlik shaxsni rivojlantirish mexanizmi sifatida V.I.Andreev, D.B.Bogoyavlenskaya, I.I.Kaloshina, V.I.Korotyaev, G.V.Kudryavtsev, N.Kulyutkinlar tomonidan tadqiq qilingan.

Shuningdek, bilish jarayonining ijodiy qirralarini V.S.Bibler, N.A.Berdyayev, A.V.Brushlinskiy, V.V.Davidov va L.S.Zankovalar asarlarida ochib berishgan; pedagogik ijodning mohiyatini V.V.Zagvyazinskiy, V.I.Ilyin, V.A.Kan-Kalik, N.D.Nikandrov, M.M.Potashnik, I.B.Bicheva, S.V.Desyatova, I.A.Sareva, V.D.Lobashev, A.A.Talix va F.N.Zimenkovalar o'z asarlari orqali belgilab berishgan. Shuni ta'kidlash kerakki, ijodiy pedagogik amaliyotning mustahkam poydevori sifatida taniqli rus psixologlari - L.S.Vygotskiy, Yu.N.Kulyutkin, A.N.Leontiev, Ya.A.Ponomarev, S.Г. Rubinshteyn va P.M.Teplovlar va chet el psixologlari - G.Ayzenk, M.Vertxaymer, D.Gilford, O.Selts, A.Koestler, L.S.Kyubi, G.Lindsy, E.Torens va Henry Agard Wallacelar tomonidan tadqiq qilingan.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda pedagogik ijod odatda ikkita jihatdan ko'rib chiqiladi: jarayonli va shaxsga oid. Shu tariqa o'qituvchi faoliyatining individual ijodiy uslubi

muammosi paydo bo'ladi. Bunda ko'pgina mualliflar - V.I.Andreev, V.I.Zagvyazinskiy, Z.S.Levchuk, A.K.Markova, va N.Yu.Postayuklar faoliyat uslubi mavjudligiga ishora qiladilar. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi ham (V.I.Andreev, N.M.Anisimov, A.I.Eremkin, I.A.Karpacheva, V.P.Kuzovlev, A.V.Muzalkov, N.Yu.Postalyuk) dolzarb muammolardan bo'lib, bu ko'pincha ijodkorliktushunchasi bilan belgilanadi.

Ijod - bu dunyoni moddiy va ma'naviy o'rganish jarayonida insonning o'zini-o'zi rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy hodisasidir. Kreativ faoliyat jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshiriladi, shuning uchun ham uning turli xil turlari, shu jumladan pedagogik ijod ham mavjud [4].

Rus psixolog-pedagoglari - S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, Ya.A.Ponomarev, T.I.Smirnova, A.M.Matyushkin, N.Y.Postayuk, I.B.Bicheva, S.V.Desyatova, I.A.Sareva, V.D.Lobashev, A.A.Talix, F.N.Zimenkovalar tomonidan ijodning mohiyati, uning rivojlanish mexanizmi va shartlarini ko'rib chiqishning fundamental asoslari ishlab chiqildi.

Rus pedagog olimlar - F.Barron, V.A.Kan-Kalik, A.S.Kosogova, A.N.Luk, N.D.Nikandrov, A.Z.Rahimov va V.S.Shubinskiylar ijodkor shaxs sifatlarini o'rgandilar. Shuningdek, rus tadqiqotchilari - M.Vertxaymer, D.Gilford, R.Tompson va K.Xallar esa ijodiy jarayonning tashkil etilishi, tuzilishi, samaradorligini oshiruvchi omillar va ijodiy faoliyatga xalaqit beradigan to'siqlarni o'rgandilar.

Yu.K.Babanskiy, L.Yu. Gordin, V.S.Ilyin, N.K.Sergeev, V.V.Serikov va V.V.Kraevskiylar ijodiy kasbiy faoliyatga tayyorlangan shaxsning rivojlanishi ta'lim jarayonining yaxlitlik darajasiga bog'liqligini aniqladilar.

T.N.Balabanova, E.U.Gutsalo, N.M.Borisenko, M.G.Yaroshevskiy, V.R.Petrulis va G.A.Medyaniklar ijodkorlikning kontseptual asoslarini ko'rib chiqishda ijodiy faoliyat mexanizmlari sifatida bo'lajak pedagogning ijodiy laboratoriyasini yaratish va bu jarayonning samaradorligini ta'minlovchi shart-sharoitlarni tadqiq qilishgan. V.Zagvyazinskiyning "O'qituvchining pedagogik ijodkorligi" kitobida ijodiy faoliyatga "yangi pedagogika tizimini yaratish, noma'lum qonuniyatlarni ochish, yangi g'oyalar, usul, vositalar; yangilik yaratish, insonning ichki mohiyati asosidagi kuchlarini uyg'otish orqali ijod qilish" ta'riflaydi. U pedagog ijodiyotining quyidagi farqli jihatlari ajratib ko'rsatiladi:

1. Vaqt jihatidan qat'iy belgilangan va chegaralangan. Agar darsda kutilmagan holat ro'y bersa, o'qituvchi qisqa muddat ichida yangi qaror qabul qilishi shart.

2. Pedagogik ijodiyot o'quv-tarbiyaviy jarayon bilan yaxlit tutash bo'lganligi sababli u har doim ijobiy natijalarga olib kelishi lozim. Salbiylari esa faqat xayoliy sinov va taxminlardagina bo'lishi mumkin.

3. Pedagogik ijodkorlik doimo hamkorlikdagi ijodiy ishdir.

4. Ijodiyotning sezilarli qismi odamlar oldida ommaviy tarzda (o'zining ruhiy holatini boshqara olish ko'nikmasi) amalga oshiriladi.

Ilmiy adabiyotlarda "ijodkorlik" tushunchasining juda ko'p talqinlari mavjud. Masalan, A.Z.Rahimov ijodkorlikni "muayyan muammoning yechimini mutlaqo yangi yoki modernizatsiya qilish kabi yangilikni takror ishlab chiqarishga qaratilgan inson faoliyati shaklidir", deb hisoblaydi.

A.Matejkoning fikricha, <<ijodkorlik axborotni baholashni uning manbasining vakolati bilan bog'lamasdan turib, mustaqil fikrlashga xosdir.



V.D.Lobasheva, A.A.Talix, F.N.Zimenkovalarning fikrlariga ko'ra, "ijodkorlikni bevosita o'rgatish mumkin emas, u asosan ilm olish usuli bilan belgilanadi: bilim esa ijodiy qayta yaratilgan, ya'ni insonning o'zi tomonidan qayta kashf etilgan ilm bo'lib, bunda rasmiy yoki begona, notanish tushuncha bo'lmaydi". O'rganilgan ilmiy-nazariy manbalar tahlili va pedagogikapsixologiya sohalarida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari bo'lajak pedagoglarini kasbiy tayyorlash mazmunini o'rganishda bir qancha yo'nalishlar mavjudligini ko'rsatdiki. Jumladan:

Birinchi yo'nalish nazariy bilimlar mazmuni va tizimini belgilovchi malaka tavsiflarining ishlab chiqilganligi bilan belgilanib, rus pedagoglari - I.P.Ivanov, R.I.Mitelman va A.J.Ovchinnikovalarning fikriga ko'ra, bu tizimda pedagogik mahorat va kompetentsiyalarni egallash uchun zarur bo'lgan fanlar ro'yxati keltiriladi. Shu o'rinda bo'lajak pedagoglarning kelajafdagi pedagogic faoliyatidagi vazifalari hamda kasbiy tayyorgarligi uchun "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi" katta ahamiyatga egadir.

Ikkinchi yo'nalish kasbiy tayyorgarlik jarayonida mutaxassisni shakllantirish muammosini o'rganish bilan tavsiflanadi. Bular N.M.Anisimova, E.P.Belozertseva, Z.V.Vidyakova, E.N.Gerasimova, L.N.Golubeva, F.N.Gonobolina, O.V.Dolzhenko, K.M.Duray-Novakova, A.I.Eremkina, V.N.Kartashova, V.F.Krivosheeva, B.P.Kuzovleva, N.V.Kuzmina, V.E.Medvedev, Yu.N.Merenkova, A.V.Muzalkova, S.A.Nikolaenko, A.J.Ovchinnikova, I.F.Pleteneva, N.G.Podaeva va V.A.Slasteninlarning tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning butun tizimi ijodkorning va asosan pedagogik faoliyatni amalga oshiruvchining pozitsiyasini juda kam hisobga olininishi e'tirof etilib, natijada motivatsiya pasayib, ijodkorlik qobiliyatlari rivojlanmasligi qayd etiladi. Shu munosabat kasbiy tayyorlash jarayonida, bo'lajak pedagog shaxsining kreativligiga qo'yiladigan yuqori kasbiy talablar bilan ta'limda kreativ faoliyat uchun tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarning etarli darajada rivojlanmaganligi o'rtasida qarama-qarshiliklar yuzaga keladi[4].

Ko'pgina tadqiqotchilar "Inson-Inson" tipidagi kasblarda kasbiy deformatsiyaning paydo bo'lishi va shakllanishini ta'kidlaydilar. Insonning muayyan mehnat muhitiga moslashuvi uning kundalik muomalasida, mehnat faoliyatining aniq ko'rsatkichlarida, mehnat samaradorligida, ijtimoiy axborot va uning amalda ro'yobga chiqarilishida, faollikda namoyon bo'ladi. Mehnatga moslashish birlamchi bo'lishi (xodimning mehnat muhitiga kirishida) va ikkilamchi (kasbni almashtirgan va almashtirmagan holda ish o'rnini almashtirishida yoki muhitning jiddiy ravishda o'zgarishida) bo'lishi mumkin. Ular murakkab tuzilishga ega bo'lib, quyidagi moslashuvlardan iboratdir:

1. Kasbiy moslashuv - shaxsning kasbiy ko'nikmalar va malakalarni muayyan darajada egallashida, unda ayrim kasbiy jihatdan zarur hislatlarning shakllanishida, xodimning o'z kasbiga nisbatan barqaror ijobiy munosabatda bo'lishining rivojlanishida ifodalanadi. Kasb sohasidagi ish bilan tanishuvida, kasb mahorati ko'nikmalarini, funktsional vazifalarni sifatli bajarishida va mehnat sohasidagi ijodkorlikda namoyon bo'ladi.

2. Ijtimoiy-psixologik moslashuv - ta'lim muassasasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'zlashtirishda, unda qaror topgan o'zaro munosabatlar tizimiga kirishda, uning a'zolari bilan o'zaro ijobiy hamjihat bo'lishda o'z ifodasini topadi.

3. Ijtimoiy-tashkiliy moslashuv - ta'lim muassasasining tashkiliy tuzilishi, boshqaruv tizimi va ishlab chiqarish jarayoniga, hizmat ko'rsatish tizimini, mehnat va dam olish rejimini o'zlashtirishni bildiradi.

4. Madaniy-maishiy moslashuv - bu mehnat tashkilotidagi turmush xususiyatlari va bo'sh vaqtni o'tkazish an'alarini o'zlashtirishdir. Bu moslashuv xususiyati ishlab chiqarish madaniyati darajasi, tashkilot a'zolarining umumiy rivojlanishi, ishdan bo'sh vaqtdan foydalanish xususiyatlari bilan belgilanadi.

5. Psixofiziologik moslashuv - bu xodimlar uchun mehnat vaqtida zarur bo'ladigan shart-sharoitlarni o'zlashtirish jarayonidir. Ushbu moslashuv jarayonlarida shaxsning individual-tipologik xususiyatlari, motivatsiyasi, yo'nalganligi, emotsional-irodaviy jihatlari, ehtiyojlarining turfa ko'rinishga ega ekanligi pedagog shaxsida "Kuyish sindromi", ya'ni doimiy emotsional zo'riqish bilan bog'liq bo'lgan emotsional, jismoniy va aqliy to'yinishni o'zida mujassamlashtirgan murakkab psixofiziologik fenomen vujudga kelishiga sharoit yaratadi[5]. Mazkur sindrom depressiv holat, charchoq hissi va loqaydlik, shijoat va entuziazmning yetishmasligi, o'z faoliyatining ijobiy tomonlarini ko'ra olmaslik ishga va umuman hayotga nisbatan munosabatda salbiy ustanovkalarda namoyon bo'ladi.

**Xulosa.** Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga samarali tayyorgarlikni amalga oshirish, talabalarni koperatsion (hamkorlik) yondashuv orqali kasbiy bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishdagi asosiy omil kasbiy sifatlarni rivojlantirish masalasi tadqiqot doirasidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Odatda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga moslashtirishda ularning ob'ektiv imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashish, tanlangan kasb va faoliyat talablariga shaxs imkoniyatlarining identifikatsiyalashuvi maqsadga muvofiq sanaladi. Shu boisdan ham, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirishda masalaning mazkur jihatlarni nazariy asoslash va bo'lajak mutaxassislarning kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: "O'zbekiston", 2016. 13-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.06.2021 yildagi PQ-5140-son
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.12.2021 yildagi 792-son4. G'oziyev E.G'. Oliy maktab psixosi. -T.: O'qituvchi, 1997. – 197 b. 4.K.B.Qodirov "Kasb tanlashga tayyorlashning psixologik jihatlari va professional loyihalar" Toshkent, 2001. – 36 b.
4. Tolipov O'Q Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma
5. hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari/ Monografiya. – T.: Fan, 2004.b – 73-80.

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **FORMATION OF PROPAGANDA SKILLS IN FUTURE PRIMARY EDUCATION TEACHERS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

**Kurbanova Nozima**

Teacher of the Department of Primary Education Methodology of Perfect University

**Abstract.** The article presents scientific-theoretical ideas about the pedagogical mechanisms of preparing future students of primary education to promote the development strategy, as well as about the wide reforms carried out by our country in the field of education. The preparation of primary education students of higher education institutions to promote the development strategy is seen as a pedagogical problem. In the coming years, the most advanced pedagogical experts are involved in this field, and the most advanced pedagogical experts are involved in this field. means that the problem is of national importance.

**Key words:** presents scientific-theoretical ideas, development strategy, pedagogical problem, pedagogical experts, primary education students, higher education, modern education.

## **OLIJ TA'LIM MUASSASALARINING BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARIDA TARG'IBOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

**Qurbanova Nozima**

Perfect universitetining Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedra o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak Boshlang'ich ta'lim talabalarining taraqqiyot strategiyasini targ'ibot qilishga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari hamda ta'lim sohasidagi davlatimiz tomonidan olib borilgan keng isloxtalar haqida ilmiy-nazariy fikrlar bildirilgan. Oliy ta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining taraqqiyot strategiyasini targ'ibot qilishga tayyorlashning pedagogik muammo sifatida ko'rilishi keying yillarda sohaning mavjud kamchiliklarini bartaraf etish uchun sohaning eng ilg'or pedagogik mutaxassislarini jalb qilinayotgani hamda kompleks tarzda yondashish ushbu muammoni davlat miqyosidagi muhimligini anglatadi

**Kalit so'zlar:** ilmiy-nazariy fikrlarni taqdim etadi, Taraqqiyot strategiyasi, pedagogik muammo, pedagogik mutaxassislar, boshlang'ich ta'lim talabarlari, Oliy ta'lim, zamonaviy ta'lim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N45>

**Kirish.** Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning bu so'zlarining tub mohiyati har bir sohada faoliyat yuritib kelayotgan rahbar xodim shu sohadagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda o'zining bilim salohiyatidan kelib chiqqan holda muammolarni tizimli tahlilini tashkil etish ushbu rahbarning kundalik vazifasiga kiradi.

"Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni – bu Bosh vazir yoki uning o'rinbosarlari bo'ladimi, hukumat a'zosi yoki hududlar hokimi bo'ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi kerak".

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'lgan "Harakatlar strategiyasi"ning davomi sifatida Prezidentimizning tashabbusi bilan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi loyihasi mamlakatimiz hayoti, ertangi kelajagi uchun muhimligi aniq reja va vazifalar bilan yoritib berilgan.

Bu jarayonni amalga oshirishda xorijiy tajribalardan samarali foydalanish va "Oliy ta'lim muassasasining eng yaxshi boshlang'ich ta'lim yunalishi pedagogi"tanlovining dastlabki bosqichlarini shakllantirish, shuningdek, jadal innovatsion o'zgarishlar sharoitida oliy ta'lim sohasida boshlang'ich ta'lim yunalishidagi muammolarini o'rganish ushbu mavzuning dolzarbligidan dalolat beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya:** Maqolada ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy o'rganish, tizimli tahlil qilish, pedagogik diagnostika, suhbat, ilmiy prognozlash, modellashtirish, monitoring, pedagogik eksperiment-test, nazariy, empirik va amaliy usullardan foydalanilgan.

I.P.Podlasiy o'qituvchining qobiliyatlarini bir necha guruhga ajratadi[6]:

- ✓ tashkilotchilik qobiliyati (ta'lim oluvchilarni uyushtirish, vazifalarni taqsimlash, ish bilan band qilish, ishni rejalashtirish, xulosalash);
- ✓ didaktik qobiliyat (o'quv material, ko'rgazmali jihozlarni to'g'ri tanlash va tayyorlash, o'quv materialini sodda qilib tushuntirish, o'rganish faolligini oshirish);
- ✓ psixologik qobiliyat (ta'lim oluvchilarning ma'naviy dunyosiga kira olish, psixologik xususiyatlarini bilish);
- ✓ kommunikativ qobiliyat (o'qituvchining o'quvchilar va ularning ota-onalari, kasbdoshlari bilan muloqot o'rnatish);
- ✓ shaxsiy qobiliyat (ta'lim oluvchilarga emotsional ta'sir o'tkazish);
- ✓ targ'ibotchilik qobiliyati (ilmiy-amaliy ishlarni bajarish).

**Muhokama.** Targ'ibot – tashviqotchilik faoliyatida auditoriya (tinglovchi, tomoshabin) bilan aloqada bo'lish jaryonida qadriyatlarini hisobga olish zaruriyati paydo bo'ladi. Kayfiyatlar his – tuyg'ular, sezgilar, idrok (tushunish, anglash) negizida yuzaga keladi. Kayfiyat shaxs psixik faoliyatining ko'pgina tomonlarini, ta'sirlanish, iroda va xulq – atvorini qamrab oladi. Masalan, kishining ko'tarinki kayfiyati odatda faollik (harakatchanlik) tug'diradi, fikrlash jarayonini faollashtiradi.

**Natijalar.** Innovatsion o'zgarishlar muhitida ta'lim sohasidagi islohotlarini amalga oshirishda qanday chora-tadbirlar ko'rilishidan qat'iy nazar, malakali mutaxassislar yetishmas ekan, qo'yilgan maqsadga erisha olmasligimiz mumkin. Salohiyatli mutaxassislarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarida boshlang'ich ta'lim yo'nalishini yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish vaqti keldi.

Fan, texnika va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi sharoitda mutaxassislar, xususan, pedagogik kadrlarning kasbiy tayyorgarligiga talablar ortmoqda.

Shu bois, ta'lim muammolarini hal qilishga ijodiy yondashadigan, targ'ibotchilik va izlanuvchanlik qobiliyatiga ega pedagogik kadrlarni tayyorlash kasb-hunar ta'limining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Zero, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi kadrlarning salohiyati, soha mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligi, tashabbuskorligi, bilimi, qobiliyati va ijodkorligiga bog'liq. Shunday ekan, bo'lajak mutaxassislarda yuksak kasbiy mahorat, ilmiy-targ'ibotchilik ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Oliy ta'lim muassasalarining kasb ta'limi

yoʻnalishi talabalarida targʻibotchilik koʻnikmalarini shakllantirish metodikasini ishlab chiqishda maʼlum didaktik talablarga tayaniladi.

Boʻlajak boshlangʻich taʼlim oʻqituvchilari kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda foydalaniladigan targʻibotchilik tamoyili oʻquv jarayonini shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda talabalar oʻzlari oʻrganayotgan fanlarda qoʻllaniladigan asosiy tadqiqot metodlari bilan tanishadilar, ular uchun oson boʻlgan targʻibotchilik metodlarini oʻzlashtiradilar va yangi bilimlarni mustaqil egallash koʻnikmalariga ega boʻladilar.

Boʻlajak boshlangʻich taʼlimi oʻqituvchilarini targʻibotchilik faoliyatiga tayyorlashda shunday shart-sharoit yaratiladiki, bunda ular oʻzlarining mustaqilligi, faolligi va ijodkorligini namoyon etish imkoniga ega boʻladilar. Talabalarni kasbiy va targʻibotchilik faoliyatiga tayyorlashning barcha bohqichlarida ularning bajarishlari uchun oson va oʻquv faoliyati bilan uzviy bogʻliq boʻlgan izlanishtadqiqot ishlari tanlanadi.

Izlanish-targʻibotchilik ishini tashkil etish tuzilmasi uch bosqichdan iborat:

1. Boshlangʻich bosqich.

2. Ilmiy-nazariy va eksperimental bosqich.

3. Ishlab chiqarish yoki oʻquv amaliyoti jarayonida izlanishtargʻibotchilik ishlarini bajarish bosqichi.

1. Boshlangʻich bosqich. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi: axborot resurs markazida bibliografiya, kataloglar va boshqalar bilan ishlash; darslik, oʻquv va va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash; zarur adabiyotlarni izlash va topish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash; elektron oʻquv-metodik majmualar, jadvallar, grafik va matn tahrirlari bilan ishlash; tadqiqotning predmet va obʻektini aniqlay bilish; tadqiqotning mazmun va maqsadini bilish va tushunish; masalani oqilona qoʻya bilish; oʻquv fanlarini oʻrganishda izlanishtargʻibotchilik xarakteridagi nazariy tadqiqotlarni oʻtkazish; amaliy masalalarni yechish, nazariy tadqiqotlarni bogʻlash; bajarilgan tadqiqotlar boʻyicha asoslangan va daliliy maʼlumotlar hamda xulosalar keltirish; tadqiqot natijalarini tanqidiy tahlil qilish va asoslash.

2. Ilmiy-nazariy va eksperimental bosqich quyidagilarni anglatadi: targʻibotchilik laboratoriyasida eksperimental ishlarni tashkil etish, ilmiy toʻgaraklarda ishtirok etish, ilmiy rahbar bilan tadqiqot yoʻnalishini faol hamkorlikda muhokama qilish, ilmiy munozaralarda ishtirok etish, turli darajadagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda maʼruzalar va xabarlar bilan chiqish, koʻriktanlovlarda ilmiy ishlarni taqdim etish, koʻrgazmalarda eksponatlarni taqdim etish.

Izlanish-targʻibotchilik ishining ikkinchi bosqichi asosan darsdan tashqari vaqtda amalga oshiriladi va birinchi bosqichdan koʻp jihatdan farq qiladi. Mohiyatiga koʻra, birinchi bosqich ancha murakkab boʻlgan ikkinchi bosqichni samarali davom ettirish uchun tayyorlanish hisoblanadi, xolos. Ikkinchi bosqichda boʻlajak kasb taʼlimi oʻqituvchilarida targʻibotchilik xarakteridagi quyidagi koʻnikma va malakalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi:

- oʻquv va va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash;

- amaliy dasturlar paketlari bilan ishlash;

- eksperiment maʼlumotlarini matematik va statistik qayta ishlash boʻyicha dastlabki maʼlumotlarni bilish;

- tadqiqot natijalarini tahlil qilish;

- eksperiment natijalari boʻyicha mulohaza va xulosalar qilish;

- tadqiqot natijalarini (referat, ma'ruza, eksponat ko'rinishida) rasmiylashtirish;  
 - o'qituvchilar yoki talabalarning ilmiy konferensiyalari, ilmiy to'garaklar yig'ilishlarida ma'ruzalar va umumlashtirishlar bilan chiqishlar qilish.

3. Ishlab chiqarish yoki o'quv amaliyoti jarayonida izlanish-targ'ibotchilik ishlarini bajarish. Ushbu bosqichda izlanishtarg'ibotchilik ishi ishlab chiqarish sharoitida amalga oshiriladi va ancha murakkab, ko'p bosqichli jarayonni o'z ichiga qamrab oladi. Bunda tadqiqot natijalari bevosita ishlab chiqarishga tatbiq etilishi mumkin. Ishlab chiqarish sharoitida tadqiqotning ahamiyati va natijaviyligi juda ham muhimdir. Bu ta'lim, tadqiqot va ishlab chiqarish jarayonlarining yaqinlashishiga imkon beradi. Shuni ham alohida eslatib o'tish joizki, talablarning bunday ishtiroki dasturdagi boshqa yuklamalar tufayli hozirgi sharoitda ancha cheklangan.

Zamonaviylashtirish konsepsiyasiga muvofiq, talabalarning kasbiy tayyorgarligi mazmunini ishlab chiqish va joriy etishga quyidagi tamoyillar asos hisoblanadi: umumiylik, integrativlik, olam manzarasining yaxlitligi, fundamentallik, variativlik, hamkorlikda o'qitish va ko'p bosqichlilik.

### 1-jadval. Talabalarning bo'lajak o'qituvchilarda targ'ibotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga munosabati.

Talabalarning munosabati	Kurslar. Talabalar.				O'rtacha qiymat
	1-kurs. 70 talaba	2-kurs. 60 talaba	3-kurs. 68 talaba	4-kurs. 75 talaba.	
Ijobiy	63.2%	64.4%	74.4%	72.5%	67.7%
Betaraf	28.6%	28.6%	24.1%	21.7%	25.7%
Salbiy	8.2%	7.0%	4.5%	6.2%	6.6%

Boshlang'ich ta'limi yo'nalishi talabalarida targ'ibotchilik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish ishlarini bir qancha yo'nalishda tashkil etish mumkin:

- ✓ o'quv fanlari bo'yicha ma'ruzalar o'qish;
- ✓ laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish;
- ✓ texnologik amaliyot;
- ✓ bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash;
- ✓ pedagogik amaliyot;
- ✓ mustaqil ishlarni bajarish;
- ✓ auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar (referatlar va kurs ishlarini bajarish, to'garak ishlari, loyihalar).

Talabalar bilan o'tkazilgan suhbatlardan ma'lum bo'ldiki, ular targ'ibotchilik jarayoni, tadqiqotlarni o'tkazish texnologiyalari haqida bilim egallashni istashadi va ko'nikmalarning kundalik hayotda ham, kasbiy faoliyatda ham foydali ekanligiga ishonishadi. Talabalarda targ'ibotchilik ko'nikmalarining shakllanganligi darajasini aniqlash maqsadida biz ularga qiyinlik darajasi ikki xil bo'lgan topshiriqlarni yechishni taklif etdik.

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, barcha talabalar birinchi darajadagi qiyin tadqiqot topshiriqlarini yecha oldilar. Tajriba-sinovda ishtirok etganlarning yarmi ikkinchi darajadagi qiyin masalalarni ham yecha oldilar. Natijalarni tahlil etish talabalarda targ'ibotchilik ko'nikmalarining ma'lum darajada shakllanganligini ko'rsatdi.

Talabalarda targ'ibotchilik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda quyidagi mezonlarga tayaniladi: bayon etishning soddaligi; o'quv materiallarini tushunishning osonligi va qisqa muddatda o'zlashtirish imkoniyati; targ'ibotchilik ishlarini faollashtirish va kuchaytirishning samaradorligi.

Talabalarda targ'ibotchilik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning samaradorligi, albatta, olingan bilimlarni amaliy qo'llash bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun majmuaviy dastur o'quv ustaxonalari va laboratoriyalarning imkoniyatini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim.

Talabalarda targ'ibotchilik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish mazmuniga bo'lgan talablarni bajarish uchun ma'lum shartlarga amal qilinadi.

Talabalarda targ'ibotchilik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish mazmuni quyidagi talablarga javob berishi kerak.

Bo'lajak pedagogga bo'lgan birinchi talab - unda pedagogik qobiliyatning mavjudligidir. Chunki pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati ko'p hollarda pedagog qobiliyatiga bog'liq.

Pedagogik qobiliyat shaxsning individualpsixologik xususiyati bo'lib, bir yoki bir nechta yo'nalishda pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, umumiy va maxsus qobiliyatlar mavjud bo'lib, ular pedagogik faoliyat jarayonida shakllanadi, rivojlanadi. Pedagogik qobiliyat, eng avvalo, egallangan bilim, ko'nikma va malakalarga bog'liq bo'ladi. Ammo umumiy va maxsus qobiliyatlar bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda shakllanishi mumkin.

Mamlakatimiz hayotida muhim sanalgan kadrlar siyosatini yanada tubdan takomillashtirish, ularning raqobatbardoshligini ta'minlash hamda bilim-ko'nikmali yetuk salohiyat egasi bo'lib yetishishida Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir. Chunki bugungi jadal rivojlanish asrida o'qituvchilar yetarlicha imkoniyatga ega bo'lishi, zaruriy shart-sharoitarni mavjudligi ularni o'z ustida ishlashini ta'minlaydi.

**Xulosalar.** Xulosa o'rnida shuni aloxida takidlab o'tishimiz joizki boshlang'ich ta'lim yunalishi talabalaridan davlatimizning rivojlanishi, ravnaqi va ertangi kelajagi uchun aloxida masuliyat hamda intilektual salohiyatli bilim talab qilinmoqda.

Talabalarda targ'ibotchilik ko'nikmalarini shakllantirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz:

- ✓ ayni mavzu bo'yicha doimiy ravishda tajriba almashish, suhbatlar, munozaralar o'tkazish;
- ✓ ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish bilan aloqasini faollashtirish;
- ✓ ayni muammoni yoritishga ommaviy axborot vositalarining imkoniyatidan foydalanish;
- ✓ iqtidorli yoshlar va murabbiylarni qo'llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqish;
- ✓ talabalarda targ'ibotchilik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha doimiy ravishda ko'rgazmalar tashkil etish;
- ✓ talabalarda targ'ibotchilik ko'nikmalarini shakllantirish ishlari va faoliyatini rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish;

talabalarda targ'ibotchilik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha o'quv filmlari va multimedialar yaratish va boshqalar.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маърузаси.
2. <https://lex.uz/docs> Ўзбекистон республикаси президентининг “2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60 28.01.2022 Фармони
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Танқидий таҳлил, Қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак” асаридан.
4. <https://strategy.uz/index.php?news=1316> Олий таълим муассасаларига қабул бўйича қандай янгиликлар кутилмоқда. “Тараққиёт стратегияси” маркази Ахборот хизмати.
5. ПЗ-20170929561 “Ёшларда инновацион тафаккурни шакллантириш ва миллий ғояга содиқлик руҳини кучайтиришда маънавий-маърифий тарғибот механизмларини такомиллаштириш” маълумотнома (2019 йил учун ҳисобот)
6. Подласый И.П. Педагогика. Новый курс: Учебник для студ. пед. вузов: В 2 кн. - М: Гуманит. изд. центр “ВЛАДОС”, 1999. Кн. 1: Общие основы процесса обучения. -С. 576.
7. Асқаров И.Б. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларида тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантириш босқичлари. // “Касб-хунар таълими” илмий методик журнали. Т., 2016, 1-сон. - 30-35-б.
8. Турматов Ж.Р. Ўқувчилар тадқиқотчилик фаолиятини ташкил этишга бўлажак касб таълими ўқитувчиси тайёргарлигини шакллантириш жараёнини моделлаштириш. // “Педагогик маҳорат” назарий ва илмий-методик журнали. Бухоро: БухДУ, 2012, 2-сон. -19-23-б.



**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASIS OF SPORTS COACHING**

**Abdullayeva Bahriniso Bakhtiyorovna**

Teacher of Termiz University of Economics and Service

E-mail: [abdullayeva@mail.ru](mailto:abdullayeva@mail.ru)

**Abstract.** In modern education, the role of sports coaches in the training of future physical education teachers is becoming more and more important. Proven technologies in the sports industry can be a powerful tool in producing highly qualified physical education professionals. In this article, we will consider the importance of using technology in the training of future physical education teachers and the main aspects of their implementation. Issues such as designing the educational process based on pedagogical technologies, organizing modern classes oriented to the individual through interactive methods, and ensuring active participation of students in physical education classes have been researched. In this article, in the process of physical education, the future physical education teachers should be taught movements based on sports coaches and the correct organization of educational principles and methods, during the transition from one stage to the next, the sudden increase of loads and their stabilization before jumping, in higher educational institutions future physical education teachers are provided with information and conclusions on the organization of lessons and training in oral, demonstration, and practical methods, as well as the organization and conduct of competitions and games.

**Key words:** Stabilization, principles and methods, training materials, adaptation to the effects of loads, waveforms, linear, intensity of loading.

## **BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI SPORT MURABBIY ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI**

**Abdullayeva Bahriniso Baxtiyorovna**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Zamonaviy ta'limda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda sport murabbiylarining roliga e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Sport industriyasida isbotlangan texnologiyalar yuqori malakali jismoniy tarbiya mutaxassislarini yetishtirishda kuchli vosita bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada biz kelajakda jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati va ularni amalga oshirishning asosiy jihatlari ko'rib chiqamiz. Ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida loyihalash interfaol uslublar orqali shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy mashg'ulotlarni tashkil qilish, talabalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida faol ishtirokini taminlash kabi masalalar tadqiq etilgan. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya jarayonida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari sport murabbiylari asosida harakatlarga o'rgatish va jismoniy mashqlar texnikasini egallashlari vaqtida ta'lim tamoyillari hamda uslublarini to'g'ri tashkil etilishni, bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish vaqtida yuklamalar keskin ortishi va sakrashga qadar ular stabillashib borilishini nazorat qilib borishni, oliy o'quv yurtlaridagi bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari darslar va mashg'ulotlarni og'zaki, ko'rgazmali, amaliy uslublarda tashkil etish hamda musobaqa va o'yinlarni tashkil etish va o'tkazishga oid ma'lumotlar va xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Stabillashib borish, tamoyillar hamda uslublar, o'quv materiallari, yuklamalar ta'siriga moslashish, to'lqinsimon shakllar, to'g'ri chiziqli, yuklamaning miqdori intensivligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N46>

**Kirish.** Jismoniy tarbiya jarayoni ko'p qirralidir. Bu jarayonda ta'lim ham, tarbiya ham beriladi. Jismoniy tarbiya jarayonida ta'lim berish harakat ko'nikmalari, malakalarini hosil qilish, takomillashtirishga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan birga, shug'ullanuvchilarni jismoniy sifatlarini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatiladi. Tarbiyaning hamma turlarining birligi, ularning o'zaro bir-biriga ta'sir o'tkazishi tub pedagogik qonuniyatlaridan biridir. Aqliy, axloqiy va estetik tarbiyaning ma'lum tomonlari jismoniy tarbiya jarayoniga uzviy ko'shib ketgan. Jismoniy tarbiyaning insonni mehnat va harbiy tayyorgarlik, sog'lomlashtirish hamda har tomonlama rivojlantirish tamoyillari jismoniy tarbiyaning umumiy tamoyillari hisoblanadi. Shu bilan birga jismoniy tarbiya jarayonining ta'lim va tarbiya tamoyillari ham qabul qilingan.

Ta'lim va tarbiya qonuniyatlarini ifodalovchi eng muhim boshlang'ich qoidalar **tarbiya tamoyillari** deb ataladi. Jismoniy tarbiya jarayonida umumiy pedagogik tamoyillar tadbir qilinishi mumkin, chunki bu jarayon ta'lim va tarbiyaning xususiy hodisasidir. Jismoniy tarbiya soxasida xususiyatini aks ettirib, alohida ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotimizda** jismoniy mashqlarni va harakatlarni bir xil tizimda oddiydan murakkabga qarab rivojlantirib borish masalalari tahlil qilindi. Yangi o'quv materiallarida o'rganilgan jismoniy mashqlar bog'lanadi va mustahkamlanadi. Dastur asosida avval oddiy mashqlar o'rganilsa, sekin asta murakkab mashqlar texnika va taktikasi shakllantiriladi. Har xil darajadagi mashqlarni o'rgatishda mashqlar oddiydan murakkabga qarab rivojlantirib boriladi. Shu bilan birga ular har bir mashg'ulot davomida o'zgartirilib turiladi.

Organizm yuklamaga birdan ko'nikib qolmaydi, har xil muddatlar talab qilinadi. Yangi yuklamalar ta'siriga moslashish uchun hamma vaqt ma'lum muddat talab qilinadi. Bunda funksional va tarkibiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Yuklama dinamikasi o'zining izchilligi bilan karakterlanadi. Bunda yuklamani asta-sekin oshirib borishning xilma-xil shakllari: to'g'ri chiziq bo'ylab oshib boruvchi, bosqichma-bosqich oshib boruvchi, to'liqsimon shakllari bo'lishi mumkin.

Yuklamaning to'g'ri chiziqli ortib borishida, yuklama har haftada bir o'lchovda ortib boradi. Asta-sekinlik yuklamaning bir xil me'yorda ortib borishi ham mashg'ulotlar o'rtasidagi katta vaqt bilan ta'minlanadi.

Yuklamaning Bosqichma-bosqich o'sib borishi, mashg'ulotlar davomida birxillashtirish bilan ta'minlanadi. Yuklamaning sakrashi paytida, ya'ni bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishida yuklamalar keskin ortadi va sakrashga qadar ular stabillashib boradi.

Yuklamaning to'liqsimon ortishi, talablarni asta-sekin keskin oshirib so'ngra pasaytirib borish bilan karakterlanadi. Bu shakldagi yuklamaning miqdori intensivligi va izchilligi katta bo'ladi.

Jismoniy yuklamalarning to'g'ri chiziqli va bosqichma-bosqich ortib borishi jismoniy tarbiyaning uncha uzoq bo'lmagan jarayonlarida foydalanilsa katta samara beradi. Yuklamaning to'liqsimon ortib borish esa malakali sportchilar tomonidan mashg'ulotlar jarayonlarida ko'plab foydalaniladi.

Jismoniy tarbiya jarayonida o'qituvchilar o'quvchilarni xarakatlarga o'rgatish va jismoniy mashqlar texnikasini egallashda ta'lim uslublari yordamida ta'lim bosqichlari vazifalarini hal etadilar. Maktabda jismoniy mashqlarga o'rgatish jarayoni ta'lim tamoyillari va uslublarining tug'ri tashkil etilishiga bog'liq. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va darslarida shuni ko'rish mumkinki, mashqlarni ko'p marotaba har xil talablar asosida takrorlash va

mustahkamlash jismoniy mashqlar texnikasini bajarishda hech bir qiyinchilik bo'lmashligini ta'minlaydi. Bu bilan harakat malaka va ko'nikmalari takomillashib boradi. [3]

Jismoniy tarbiya jarayonida faqatgina jismoniy fazilatlar emas, balki axloqiy sifatlar: jamoatchilik, do'stlik, botirlik, qat'iylik, xamkorlik, vatanparvarlik xislatlari ham tarbiyalanib boradi. Shuningdek, talabalarni tartib - intizomga rioya qilish, tashabbuskorlik va faollilik kabi sifatlar ham shakllanadi. Jismoniy tarbiya amaliyotida ta'limning ko'plab turli uslublari va uslubiy shakllari qo'llaniladi.

Tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, oliy o'quv yurtlari talabalari nazariy darslar va amaliy mashg'ulotlarni og'zaki, ko'rgazmali, amaliy uslublardan foydalanib o'tsalar mashqlarni bajarish va o'zlashtirish davomida o'quvchilar qiynalmasliklari aniqlandi.

**Tadqiqotimizda sport mashg'ulotlari jarayonida sport murabbiylari og'zaki uslubdan foydalanib** jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida mashqlarni tushuntirish va o'zlashtirish bo'yicha suxbatlar, munozaralar, muhokamalar hamda tahlil etish shakllaridan foydalandilar va bu uslubni bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilariga xam tadbiq yetish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tushuntirish uslubi orqali bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislari mashqning mohiyatini ochib beradi, o'quvchilarda harakat haqida tasavvur xosil qiladi. Tushuntirish davomida o'quvchilar ham mashqlar va harakatlarga oid bo'lgan yangi so'zlarni o'rganib boradilar. Qiyin mashqlarni tushuntirishda esa bolalar diqqatini asosiy maqsadga yo'naltirish kerak. Ko'rinib turibdiki, tushuntirish og'zaki uslubining asosiy shakli xisoblanadi va bo'lajak kadrlar o'rgatishi kerak bo'lgan materiallar haqida o'quvchilar ongida to'la tasavvur xosil qilinadi.

Suhbat savol-javob shaklida o'tkaziladi. Suxbat o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muammolarning qulay shakli bo'lib, o'rganiladigan o'kuv materiallarini, o'tilgan o'quv materiallari bilan bog'lab bolalar tushunishlari darajasini aniqlashda hamda ularni diqqatini faollashtirish maqsadida foydalaniladi. Suxbat doimo o'z mavzusiga yunaltirilgan va qiziqarli bo'lishi kerak. [4]

Murabbiy buyruq va qarorlar asosida boshqarish va masalalarini hal etish maqsadida foydalanadilar. Buyruqlar bolalarda harakatlarni bajarishda bo'ladigan ta'sir sifatida shakllanadi. Murabbiyning buyruqlari aniq, lo'nda, qisqa bo'lishi bilan birga oxangli bo'lishi kerak.

Jismoniy tarbiyaning og'zaki uslubidan yana bir shakli ko'rsatma va tavsiyalardir. Ular jismoniy mashqlar texnikasini egallashda, xatolarni bartaraf etishda hamda yangi mashqlarni o'zlashtirish davomida berib boriladi.

**Ko'rgazmali qurollardan** jismoniy tarbiya mashg'ulotlari davomida rasm, jadval, devoriy gazeta, maket, plakat hamda o'qitishning texnik vositalari, ya'ni tag'dimotlar va videofilm kabilardan foydalanish ham ta'lim tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishga katta xissa qo'shadi. Mashg'ulot davomida xarakterlar haqida to'g'ri tasavvur xosil qildirish uchun ko'pincha ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi, bundan tashqari mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda mustaqil ravishda ko'rib chiqish mumkin. Jismoniy tarbiya jarayonida mo'ljalga olish uchun moslamalardan foydalanish juda qulay bo'lib, ma'lum bir balandlikka buyum yoki jism o'rnatilib shuni muljalga olib harakatlar bajariladi. To'pni to'g'ri otish, sakrash, to'pga tegish mashqlari shunday vaziyatda oson o'rganiladi.

**Muhokama.** Hozirgi zamonaviy axborot vositalari takomillashgan davrda videofilmlardan o'quv jarayonida samarali foydalanish asosiy o'rinni egallamokda. Tajribali murabbiylar rahbarligida o'tkaziladigan dars, trenirovka mashg'ulotlari videotasmalarga yozib olinib shu mavzuga oid mashg'ulotlarda namoyish etilishi mumkin. Shu bilan birga sport turlari buyicha musobaqalarning video yozuvlaridan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida

samarali foydalanish mumkin. Video yozuvlarning qulayligi har qanday vaziyatni tasmaga tushirish va kerakli jarayonlarni ko'p marotaba takror va sekinlashtirilgan holda ko'rish, muhokama etish imkonini beradi. [2]

**Mashqni amalda bajarib ko'rsatish usuli** jismoniy tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ta'lim uslublari ichida eng tushunarli ko'rsatish uslubi hisoblanadi. Ko'rgazmali uslublarda mashqlarni ko'rsatish yetakchi o'rinni egallaydi. Tadqiqotimizda ko'rgazmalilikni qo'llash, xususan ko'rsatish bo'lajak kadrlarni yanada salohiyatini o'sishiga zamin bo'ldi. Ko'rsatish juda samarali bo'lish uchun shug'ullanuvchilar diqqatlarini bir joyga qaratib, ular kuzata olishlari uchun sharoit yaratilishi lozimligini qo'rsatdi. Mashqlar shug'ullanuvchilarga yaxshi ko'rinadigan joyda, bajarilib ko'rsatilishi kerak. Mashqlarni namoyish etishda murabbiy faol sportchi o'quvchilardan foydalanishi mumkin. Bu usul talabalarga ijobiy ta'sir etadi. Mashqlarni bir necha marotaba takrorlab ko'rsatish zarur. Birinchi ko'rsatishda mashq tug'risida umumiy tasavvur berish kerak.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirish: sonlarda tahlil qilish.

**Natija.** Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining samarali tayyorlanishi turli kasbiy ko'nikmalarni, jumladan, jismoniy tayyorgarligini, o'qituvchilik mahoratini, taktik fikrlash va psixologik chidamlilikni rivojlantirishni talab qiladi. Ushbu tahlil ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishda turli yondashuvlarning samaradorligi haqida aniq ma'lumotlarni taqdim etadi.

- Mavjud ilmiy nashrlar tahlili.

- Jismoniy tarbiya kafedralari o'qituvchilari va talabalari bilan so'rovnomalar va suhbatlar.

- Bitiruvchilarning o'quv va kasbiy faoliyati natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish.

Tadqiqot natijalari

1. Jismoniy tarbiya

Jismoniy tarbiya jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasining asosidir.

- Jismoniy tayyorgarlik darajasi: Muntazam sport turlarining joriy etilishi o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasini 25 foizga oshiradi.

- Talaba qoniqishi: 85% talabalar jismoniy tayyorgarlik ularning kasbiy mahoratini oshiradi, deb hisoblaydi.

2. O'qituvchilik mahorati

O'qitish ko'nikmalariga o'qitish metodikasi, talabalar bilan munosabatda bo'lish va o'quv jarayonini boshqarish kiradi.

- Ta'lim usullarini takomillashtirish: 70% o'qituvchilar sport mashg'ulotlari usullarini qo'llash orqali o'quvchilarning o'qitish mahorati 20% ga yaxshilanganligini ta'kidlaydilar.

- Talabalar bilan samarali muloqot: Sport trenerligi usullari bo'yicha o'qitilgan talabalar o'quvchilar bilan muloqot qilishda 15% yaxshi qobiliyatlarini ko'rsatadi.

3. Taktik fikrlash

Taktik fikrlash darslarni rejalashtirish, o'qitish strategiyasini ishlab chiqish va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish uchun zarurdir.

- Darsni rejalashtirish: Taktik rejalashtirish elementlarini joriy etish talabalarning samarali darslarni ishlab chiqish qobiliyatini 30% ga oshiradi.

- O'zgarishlarga moslashish: Talabalarning 60% sport murabbiyligi texnikasi tufayli sinfdagi turli vaziyatlarga yaxshiroq moslashish qobiliyatini namoyish etadi.

4. Psixologik tayyorgarlik

Aqliy tayyorgarlik aqliy mustahkamlikni, stressni boshqarishni va motivatsiyani rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

- Aqliy mustahkamlik: Psixologik trening dasturlari o'quvchilarning aqliy mustahkamligini 20% ga oshiradi.

- Stressni boshqarish: Talabalarning 75% ta'kidlashicha, stressni boshqarish bo'yicha treninglar ularga sinfdagi keskin vaziyatlarni engishga yordam beradi.

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda sport murabbiyligi usullarini integratsiyalash ularning kasbiy mahoratini sezilarli darajada oshiradi.

Har bir o'quvchi jismoniy mashq bajarish jarayonida xatolarga yo'l qo'yadilar. Bu xatolarni bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari kuzatib borishi, aniqlashi, tahlil etishi hamda bartaraf etishi bo'yicha uslubiy, amaliy tavsiyalar berishi kerak. Shuning uchun murabbiy jismoniy mashqlarni o'rgatayotganda ularni bajarish texnikasi va unga qo'yiladigan talablarni batafsil tushuntirishlari kerak. Jismoniy mashqni bajarishda sodir bo'ladigan xatoni oldindan aytish va unga e'tibor qaratish kerakligi kayd etiladi. Tadqiqotimiz davomida jismoniy mashqlarni bajarishda yo'l qo'yiladigan xatolar quyidagi hollarda sodir bo'lishi aniqlandi:

1. Yetarli jismoniy tayyorgarlik bo'lmaganda;
2. Mashqlar texnikasini yaxshi o'zlashtirilmaganlarida;
3. Jixoz va buyumlar nosoz bo'lganida;
4. Shug'ullanuvchilarning charchash yoki kasal bo'lgan holatlarida;

Xatolarni bartaraf etish uchun yuqorida ko'rsatilgan holatlarga e'tibor qaratish kerak.

Mashqlarni amalda bajarish uslublari quyidagi variantlardan birini qo'llash tavsiya qilinadi:

1. Mashq namoyish qilinadi, so'ng tushuntiriladi.
2. Mashq tushuntiriladi va namoyish qilinadi.
3. Mashq namoyishi tushuntirish bilan birga bajariladi.

Ta'limning asosiy vazifasi shug'ullanuvchilarda mustahkam harakatlanish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Amaliy uslubni yaxshi tarafi o'quvchilar har bir harakatni amalda bajaradilar, ko'rsatadilar, takrorlaydilar. Bu vazifalarni hal etish uchun o'rganiladigan harakatlarni ko'p martalab takrorlash zarurligini ko'rsatadi.[6]

**Xulosa.** Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlashda sport murabbiyligi texnologiyalaridan foydalanish bu boradagi ta'lim sifatini oshirishda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Bu zamonaviy dunyo chaqiriqlariga tayyor bo'lgan, o'quvchilarni sog'lom turmush tarziga, sport va jismoniy tarbiya bilan faol shug'ullanishga undash va undashga qodir mutaxassislarni shakllantirish imkonini beradi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini jismoniy harakatlarni o'rgatishni yangi uslublarini ishlab chiqish va o'quvchilarni jinsi, yoshi hamda funksional holatiga qarab mahsus adaptatsion mexanizmlarini shakllanishi va takomillanishi bilan belgilanadi. Bu mexanizmlar organizmning tinch holati va muskul faoliyati natijasida gomeostazini saqlashga qaratilgan. Shuning uchun bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini birinchi bosqichdayoq malakali sport murabbiylari bilan ishlashi, bolalarni yoshligidan jismoniy yuklamalarni to'g'ri berib borib ularni kuzatiladigan o'zgarishlarni oldini olish, o'quvchilarning sog'lom va bilimli bo'lib rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda jismoniy mashqlarni takomillashtirish va o'quvchilarda harakat faolligi normasini ishlab chiqish, hozirgi zamon fiziologiyasini eng murakkab muommolaridan hisoblanadi.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr (O'RQ-637 son).
2. Qurbonova N.S. "Jismoniy tarbiyaning nazariy asoslari". O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2020. – 104 b
3. Bobomurodov A.E. "Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati" (Jismoniy sifatlarning umumiy tavsifi). O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2020. – 157 b.
4. Abdullayev M.J., Radjapov U.R., Muxametov A.M. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" 2-qism. – Toshkent: Turon-iqbol, 2020. – 278 b.
5. Salomov R.S. Sport mashg'ulotning nazariy asoslari – Toshkent., O'quv qo'llanma O'zDJTI, 2005 yil - 238 b.
6. Mahkamdjanov K.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Iqtisod – moliya, 2008. – 300 b.
7. Шарипов, Х. А., & Пирназаров, Ш. М. (2020). Бошланғич синф ўқувчилари жисмоний тарбиясида ўзбек миллий ўйинлардан фойдаланиш усуллари ва педагогик имкониятлари. *Интернаука*, (17-3), 81-82.
8. Бегимкулов, О. Ж. (2019). Вопросы организации сетевого взаимодействия как всей системы непрерывного образования в целом. *Мир педагогики и психологии*, (10), 22-28.
9. Urolovich, B. C. (2024). Using the Game in Teaching Physical Exercises to Primary Class Students. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(3), 780-783.
10. Egamberdi, K. (2023). An Integrated Approach to Training Sports Techniques Basketball And School. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 644-653.
11. Esanova, G. (2023). O 'ZBEKISTONDA AYOLLAR FUTBOLI TARIXI VA ISTIQBOLLARI. " *Science Shine" International scientific journal*, 3(3).
12. Menglimurod o'g'li, E. E. (2024). METHODOLOGICAL ASPECTS OF COMPETENT APPROACH TO DEVELOPING THE CREATIVITY OF STUDENTS IN THE FUTURE PROFESSIONAL PEDAGOGICAL HIERARCHY OF PHYSICAL CULTURE EDUCATION. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 24, 57-59.
13. Urolovich, B. C. (2023). Pedagogical Principles of Using Activity and National Games in the Physical Education of Student Girls. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(12), 575-579.
14. Egamberdi, K. (2023). Use of Special Exercises in Improving the Special Physical Fitness of Basketball Players. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(10), 651-655.
15. Boyboriyevna, E. G. (2023). Developing the Physical Qualities of Young Football Players outside the Class and Preparing them for Competitions. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 257-260.
16. ESHQOBILOV, E. (2023). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL PEDAGOGICAL CREATIVITY OF FUTURE PHYSICAL EDUCATION TEACHERS ON THE BASIS OF A COMPETENT APPROACH. *International Bulletin of Engineering and Technology*, 3(3), 201-204.
17. Urolovich, B. C., & Panji ogli, A. S. (2022). JISMONIY MADANIYAT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSIYON PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH YOLLARI. *World scientific research journal*, 4(2), 126-131.
18. ougli Baxriyev, J. E. (2024). BOXING AS A HEALTH SYSTEM IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES AT A UNIVERSITY. *Modern Scientific Research International Scientific Journal*, 2(3), 101-106.

19. Esanova, G. (2024). YUQORI NATIJALARNI TA'MINLASH UCHUN SPORT MAKTABLARIDA SPORTCHILARNING AXLOQIY MADANIYATINI SHAKILLANTIRISH. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 166-169.
20. Эшкobilов, Э. (2024). KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 4(1).
21. Erkin o'g'li, B. J. GENERAL AND SPECIAL PHYSICAL FITNESS OF BOXER ATHLETES. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 178.
22. Zarina, R. (2023). PATRIOTIC EDUCATION OF DISABLED STUDENTS THROUGH PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 304-307.
23. Tashmamat, A. (2023). Methods of Using Non-Traditional Means in the Training of Wrestlers. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(4), 133-136.

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **MANAGEMENT OF THE PREPARATION PROCESS IN FOOTBALL AND ASSESSMENT OF PHYSICAL QUALITIES USING TESTS ISSUES**

**Esanova Gulchehra**

Teacher of the Department “Physical Culture and Methodology” of Termiz State Pedagogical Institute  
E-mail: gulchehraesanova05@gmail.com

**Abstract.** This article discusses the issues of managing the training process in football and assessing physical qualities using tests. The effectiveness of managing the process of long-term sports training aimed at training highly qualified athletes is directly related to the issues of pedagogical control and assessment of the level of training with the help of appropriate tests.

**Key words:** Young players, technical and tactical preparation, training period, speed, endurance, dexterity, agility.

## **FUTBOLDA TAYYORGARLIK JARAYONINI BOSHQARISH VA TESTLAR YORDAMIDA JISMONIY SIFATLARNI BAHOLASH MASALALARI**

**Esanova Gulchehra**

Termiz davlat pedagogika institute, Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada futbolda tayyorgarlik jarayonini boshqarish va testlar yordamida jismoniy sifatlarni baholash masalalari muhokama qilingan. Zero, yuqori malakali sportchilarni tayyorlashga qaratilgan uzoq muddatli sport mashg'ulotlari jarayonini boshqarish samaradorligi bevosita pedagogik nazorat, tayyorgarlik darajasini tegishli testlar yordamida baholash masalalari bilan bog'liq.

**Kalit so'zlar:** Yosh o'yinchilar, texnik-taktik tayyorgarlik, mashg'ulot davri, tezkorlik, chidamlilik, epcillik, chaqqonlik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N47>

**Kirish.** Yangilanayotgan O'zbekistonda jismoniy tarbiya sport sohasini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. So'nggi yillarda sohani sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish borasida bir qator qonun va hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, 2018-yil 5-martda O'zbekiston Respubikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, 2017-yil 16-iyundagi “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, shuningdek 2018-yil 16-martdagi “Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respubikasi Prezidentining qarori qabul qilinishi soha rivoji uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.



Ayniqsa keyingi yillarda futbolni ommalashtirish, yoshlar o'rtasida ushbu sport turiga qiziqishni rovojlantirish, soihaga malakali pedagogik texnologiyalarni joriy etish kun tartibiga ko'tarildi. Bu jarayonni sifatli va samarali tashkil etish pedagogik nazoratni uslubiy-texnologik jihatlardan to'g'ri olib borish, muayyan sport turining xususiyatlariga mos testlarni tanlash, ulardan to'g'ri foydalanish, olingan natijalarni to'g'ri hisoblash va xolisona baholashga asoslanadi. Bu borada tayyorgarlik jarayonida boshqaruvni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun tayyorgarlik jarayonini boshqarish uch bosqichdan iborat:

- boshqaruv obyekti va obyekt ishlayotgan muhit haqida ma'lumot to'plash;
- to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish;
- qaror qabul qilish va rejalashtirish.

O'yin davomidagi oqilona va shaxsiy yo'nalishni hisobga olgan holda, yosh futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirish, sog'lig'ini mustahkamlash maqsadida o'yin natijalaridan foydalanish samaradorligini isbotlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun esa quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

1. Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorgarligini baholash uchun maxsus testlarni qabul qilish. Ularning jismoniy va taktik tayyorgarligini ilmiy va amaliy jihatdan baholash, jismoniy kuchini, chidamliligini, tezliligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berish;

2. Yosh o'yinchilarning boshlang'ich mashg'ulot davridagi jismoniy mahorat ko'rsatkichlarini tekshirish;

3. Yosh futbolchilarni mashg'ulotlarda texnika va taktikasini o'rgatish bo'yicha mashqlar o'tkazish hamda murabbiy ko'rsatmalarini har tomonlama tahlil qilish. [1]

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Maqolada maxsus ilmiy-metodik adabiyotlarning nazariy tahlili, anketa, pedagogik kuzatish, matematik statistika usullaridan foydalanildi. Mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, tadqiqotlar olib borilganda yosh futbolchilarning harakat sifatini oshirishga qaratilgan uslublar yetishmayotgani kuzatildi. Xususan, shu yo'l bilan milliy harakatli o'yinlarning tanlab olinishi va amalga oshirilishini yangilik sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Tadqiqot davomida yosh futbolchilarning harakat sifatlarini rivojlantirish asoslari aniqlandi. Mashg'ulotlar davomida yosh o'yinchilarning harakat sifatlarini rivojlantirish uchun harakatli o'yinlardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Futbolda tayyorgarlik jarayonini boshqarish va testlar yordamida jismoniy sifatlarni baholashda murabbiy quyidagi turdagi vaziyatlarni hisobga olishi kerak: barqaror, joriy va tez. [2]

Barqaror holat nisbatan uzoq vaqt davomida saqlanadi – bu bir necha oygacha davom etishi mumkin. Masalan, ko'plab mashg'ulotlar davomida shakllangan sport formasi shunday holatda saqlanadi. Barqaror holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar o'quv jarayonining istiqbolini rejalashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Hozirgi holat - mashg'ulotlar seriyasini tugatgan sportchining holati hisoblanadi. Bu vaqtda yuz beradigan o'zgarishlarning chuqurligi va tabiati hozirgi holatni ifodalaydi va keyinchalik mashg'ulotni batafsil rejalashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tez holat - sportchi tanasining bir qator mashqlarni bajargandan so'ng kiradigan holati hisoblanadi. Bular bitta mashq yoki bitta mashg'ulot paytida yuzaga keladigan tanadagi o'zgarishlar hisoblanadi. [3]

Bo'linishning ma'nosi shundaki, ularning har biri tahlil qilish uchun o'z nazorat mashqlarini talab qiladi. Shuning uchun uch turdagi vaziyatlarni baholash uchun amalda uchta nazorat turini qo'llash tavsiya etiladi: bosqichli, joriy va tezkor boshqaruv.

Bular orasida bosqichni nazorat qilish eng muhimidir. Bosqichli nazorat testlar yordamida amalga oshiriladi. Test - bu shaxsning aqliy rivojlanishini, irodasini, harakat qobiliyatlarini va boshqa jihatlarini aniqlash uchun qo'llaniladigan standart shakldagi (og'zaki, rasm yoki jismoniy mashqlar shaklida ifodalangan) topshiriq shaklidir. Ammo har bir nazorat mashqlari ham sinov hisoblanmaydi. Har qanday nazorat mashqlari kamida ikkita talabga javob berishi kerak: birinchidan, u ishonchli bo'lishi kerak. Ishonchlilik test natijalarining takrorlanuvchanlik darajasi bilan belgilanadi, ya'ni o'yinchilarning normalar bo'yicha natijalari takroriy o'lchovlarda bir xil bo'lishi kerak, shunda test ishonchli deb hisoblanadi. Ikkinchidan, testning eng muhim xususiyati informativlikdir. Bu shuni anglatadiki, har bir maxsus test biz o'lchamoqchi bo'lgan sifatni aniq o'lchashi kerak. Misol uchun, agar biz o'yinchining tezligini baholash uchun testdan foydalansak, test kuch yoki chidamlilikni emas, balki tezlikni o'lchashiga ishonch hosil qilishimiz kerak. [4]

Har qanday testning informativligi va ishonchliligi tekshirilishi kerak. Agar test bunday tekshiruvdan o'tmagan bo'lsa, unda test natijalari bizga hech qanday ma'lumot bera olmaydi. Bundan tashqari, biz noto'g'ri ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin, chunki o'lchash kerak bo'lgan o'yinchi sifatidan boshqa har qanday narsani baholash mumkin. 100 metr masofani bosib o'tish uchun ketadigan vaqtdan kelib chiqib, futbolchining tezlik imkoniyatlari haqida xulosa chiqarish mumkin. Lekin musobaqa davomida o'yinchilarning harakat faolligini kuzatish ular 8 m dan 40-30 m gacha tebranish va tezlanishlarni bajarishlarini ko'rsatadi. Bu shuni anglatadiki, o'yinchiga 8, 10, 15, 20, 30 m masofalarda yaxshi tezlik kerak. 100 metrlik yugurish vaqti tezlikka chidamlilik haqida ko'proq ma'lumot beradi.

Sinovning ishonchliligini takroriylik koeffitsientini hisoblash orqali raqamli texnologiyalar vositasida aniqlash mumkin. Bunday holda, birinchi ustundagi birinchi urinish yaxshiroqdir, bir vaqtning o'zida ham masofani, ham aniqlikni talab qiladigan testlardan foydalanish kerak. [5]

Tepish testi o'ng va chap oyoq bilan amalga oshiriladi. Bir joyda turgan to'pga zarbalar beriladi, yo'lakning kengligi 5 m. Yo'lakning kengligi ustunlar va bayroqlar bilan belgilanadi.

Shuningdek, tayyorgarlik jarayonini boshqarishda chaqqonlik muhim sifatlardan hisoblanadi. Zero, chaqqonlik boshqarish uchun eng qiyin harakat sifatidir. Bunday vaziyatning asosiy sababi uning o'lchovidir. Ulardan asosiylari:

1. Harakat vazifasini muvofiqlashtirish murakkabligi.
2. Vazifani aniq bajarish.
3. Vazifani tez bajarish.

Bundan tashqari, chaqqonlik o'lchovlari diqqatni taqsimlash va o'zgartirish qobiliyatini o'z ichiga olishi mumkin (bu ko'rish analizatorlarining ishlashiga bog'liq). Bu periferik ko'rish bilan bir xil holat hisoblanadi. Chiziq ko'rish keskinligi va chuqurligini bildiradi. Masalan, o'yin vaziyatlarida taktik vazifalarni hal qilish periferik ko'rish kengligiga, texnik harakatlarni bajarish esa ko'rish keskinligiga bog'liq.

Nazorat mashqlarini tanlashda yuqorida qayd etilgan barcha o'lchamlarni bir vaqtning o'zida baholash kerakligini hisobga olsak, bu juda qiyin ekanligi aniq ko'rinadi. Shu bilan bir qatorda, yosh futbolchilarning jismoniy va taktik tayyorgarligida quyidagi jihatlariga etibor

qaratish lozim: yosh futbolchilarga nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki taktika tushunchasini ham yoshligidan o'rgatish kerak.

Mashg'ulotlarda umumiy jismoniy tayyorgarlikni oshirish sportchining umumiy tayyorgarligini, tanlagan sport turiga xos bo'lmagan, lekin sport faoliyatida muvaffaqiyatga erishishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadigan har tomonlama jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalashga mo'ljallangan. Futbolchining jismoniy tayyorgarligi sport mashg'ulotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Bu ularning jismoniy sifatlarini - kuch, chidamlilik, moslashuvchanlik, tezkorlik, chaqqonlikni rivojlantirishga qaratilgan jarayondir. [6]

Har bir futbolchining umumiy jismoniy tayyorgarligi yuqori natijalarga erishishning poydevori hisoblanadi. U o'yinchi organizmini har tomonlama barkamol rivojlantirish, uning funksional imkoniyatlarini oshirish, jismoniy sifatlarini rivojlantirish, salomatlik darajasini oshirish, kuchli mashg'ulotlar va raqobatbardosh yuklamalar vaqtida faol dam olishdan to'g'ri foydalanish kabi vazifalarni hal qilishni ta'minlaydi. Ya'ni umumiy jismoniy tayyorgarlik maxsus tayyorgarlik uchun zamin yaratadi. Shuningdek, tanlagan sport turi bo'yicha mukammallikka erishish uchun zarur shart-sharoit sifatida kuch-quvvat, tezkorlik, chidamlilik, epchillik, chaqqonlikni har tomonlama rivojlantirishga imkon beradi. [2]

Yosh sportchilarni tayyorlashda harakat funksiyasining ikki o'zaro bog'liq tomoniga alohida e'tibor beriladi:

- sportchini texnik-taktik mahoratga o'rgatish va ularni takomillashtirish;
- sportchining jismoniy sifatlarini tanlagan sport turining xususiyatiga mos ravishda tarbiyalash.

Masalaga shu tarzda yondashish oddiy odamning (shu jumladan sportchining) salomatligini shakllantirish nuqtai nazaridan maqsadga muvofiqdir. Albatta, bu "katta" sportda ham zarur. Biroq, bunday amaliyot va unga asoslangan mashg'ulot usuli malakali sportchilarni tayyorlash va yuqori musobaqa natijalariga erishish samaradorligini pasaytirishi mumkin. [4]

**Xulosa.** Har bir sport turi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli, bir sport turida chidamlilik sifati yetakchi rol o'ynaydi yoki uchinchi sport turida moslashuvchanlik sifati birinchi darajali ahamiyatga ega. Biroq, aytib o'tilgan nuqtai nazardan, ma'lum bir sport turida ma'lum bir jismoniy sifat juda zarur. Aksincha, har bir sifat muayyan sport turida ozmi-ko'pmi muhim "ulush"ga ega.

Yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligida chidamlilik va tezkorlik sifatlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, mashg'ulotlar jarayonida bu sifatlarni harakatli o'yinlar yordamida shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Abdullayev M.J., Radjapov U.R., Muxametov A.M "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" 2-qism Toshkent., darslik "Turon-iqbol" 2020 yil - 278
2. Mahkamdjanov K.M. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi Toshkent., darslik "Iqtisod -moliya" 2008 yil - 300 b.
3. O.A. QURBONOV „FUTBOL“Olimpiya zahiralari sport kollejlari uchun darslik TOSHKENT – 2012
4. Salomov R.S. Sport mashg'ulotning nazariy asoslari – Toshkent., O'quv qo'llanma O'zDJTI, 2005 yil - 238 b.
5. Салимов Ў.Ш. Жисмоний маданият назарияси ва тарихи. Ўқув қўлланма. Термиз. "Сурхон-нашр". 2021 йил.

6. Шарипов, Х. А., & Пирназаров, Ш. М. (2020). Бошланғич синф ўқувчилари жисмоний тарбиясида ўзбек миллий ўйинлардан фойдаланиш усуллари ва педагогик имкониятлари. *Интернаука*, (17-3), 81-82.
7. Бегимкулов, О. Ж. (2019). Вопросы организации сетевого взаимодействия как всей системы непрерывного образования в целом. *Мир педагогики и психологии*, (10), 22-28.
8. Dusyarov, S. (2023). EFFECTIVENESS OF ACTION GAMES IN THE PROCESS OF COMPLEX TRAINING OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(5), 142-146.
9. Elmurad, E. (2023). System of Development of Professional and Pedagogical Creativity of Future Physical Education Teachers on the Base of a Competent Approach. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 261-264.
10. Urolovich, B. C. (2023). Pedagogical Principles of Using Activity and National Games in the Physical Education of Student Girls. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(12), 575-579.
11. ougli Baxriyev, J. E. (2024). BOXING AS A HEALTH SYSTEM IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES AT A UNIVERSITY. *Modern Scientific Research International Scientific Journal*, 2(3), 101-106.
12. Menglimurod o'g'li, E. E. (2024). METHODOLOGICAL ASPECTS OF COMPETENT APPROACH TO DEVELOPING THE CREATIVITY OF STUDENTS IN THE FUTURE PROFESSIONAL PEDAGOGICAL HIERARCHY OF PHYSICAL CULTURE EDUCATION. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 24, 57-59.
13. Абдураимов, Ш. (2021). Активизация партнерского взаимодействия семьи и школы в воспитании детей младшего школьного возраста. *Общество и инновации*, 2(10/S), 328-334.
14. Эшкobilov, Э. (2024). KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 4(1).
15. Erkin o'g'li, B. J. GENERAL AND SPECIAL PHYSICAL FITNESS OF BOXER ATHLETES. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 178.
16. Zarina, R. (2023). PATRIOTIC EDUCATION OF DISABLED STUDENTS THROUGH PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 304-307.
17. Tashmamat, A. (2023). Methods of Using Non-Traditional Means in the Training of Wrestlers. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(4), 133-136.

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **COMPLEX TRAINING OF YOUNG BASKETBALL PLAYERS**

**Kurbanmuradov Egamberdi**

Teacher of the Department "Physical Culture and Methodology" of Termiz State Pedagogical Institute

E-mail: [equrbonmurodov@gmail.com](mailto:equrbonmurodov@gmail.com)

**Abstract.** This article describes an approach to the complex training of young basketball players, which includes training in the physical, technical and tactical aspects of the basketball game. The author discusses the importance of balanced athlete development, focusing on exercise and skill development, as well as understanding tactical strategies and game situations. The approach presented in the article is aimed at creating optimal conditions for the formation of highly qualified athletes and successful team performance in competitions.

**Key words:** Physical, tactical and technical training of basketball players, basketball club, Primary training group, Junior group, training session - various action games, relays, competition.

## **YOSH BASKETBOLCHILARNI KOMPLEKS TAYYORLASH**

**Qurbonmurodov Egamberdi**

Termiz davlat pedagogika instituti, Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada basketbol o'yinining jismoniy, texnik va taktik jihatlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan yosh basketbolchilarni kompleks tayyorlashga yondashuv tasvirlangan. Muallif jismoniy mashqlar va mahoratni rivojlantirishga, shuningdek, taktik strategiyalar va o'yin vaziyatlarini tushunishga e'tibor qaratib, muvozanatli sportchi rivojlanishining ahamiyatini muhokama qiladilar. Maqolada keltirilgan yondashuv yuqori malakali sportchilarni shakllantirish va musobaqalarda muvaffaqiyatli jamoaviy chiqish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Basketbolchilarning jismoniy, taktik va texnik tayyorgarligi, basketbol to'garagi, Boshlang'ich tayyorlov guruhi, O'smirlar guruhi, o'quv mashg'ulotida - turli xildagi harakatli o'yinlar, estafetalar, musobaqa.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N48>

**Kirish.** Bugungi kunga kelib mustaqil respublikamizda sportning barcha sohalarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mana shunday sport turlaridan biri basketboldir. Basketbol dunyodagi eng mashhur va raqobatbardosh sport turlaridan biridir. Yosh o'yinchilarni samarali tayyorlash nafaqat jismoniy ko'nikmalarni rivojlantirish, balki o'yin texnikasini takomillashtirish va kortda taktik tushunchalarni tushunish va qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada yosh basketbolchilarni tayyorlashga kompleks yondashuv, jumladan, jismoniy tayyorgarlik, texnik mahorat va taktik tayyorgarlik ko'rib chiqiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Mavzu yuzasidan ilmiy adabiyotlar va o'tkazilgan tadqiqotlar tahlil qilinganida 13-15 yoshdagi bolalarning basketbol sport turiga oid texnik, taktik hamda jismoniy tayyorgarligi va jismoniy sifatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan metodlarning kamligi kuzatildi. Ayniqsa, bu yo'lda basketbol sport turiga oid maxsus mashqlarni tanlab olish va ularning amaliyotga tadbiiq qilinishini yangilik sifatida ko'rsatishimiz mumkin. Tadqiqot davomida basketbolchilarning jismoniy tayyorgarligining rivojlanish asoslari aniqlandi. Ilmiy tadqiqot ishni uyushtirish hamda o'tkazishda nazariy tahlil va umumlashtirish, pedagogik kuzatish, tadqiqot mavzusiga oid maxsus ilmiy, o'quv va uslubiy materiallar tahlili, suhbat, savol – javoblar orqali, so'rovnomalar, o'quvchi va sport to'garaklarida qatnashuvchi basketbolchilarning o'zlashtirishi, davomati, intizomi, sog'ligi, tibbiy pedagogik nazorat, pedagogik tajriba va matematik – statistik qayta ishlash usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Basketbol texnikasini ikkita katta bo'limga: hujum texnikasi va himoya texnikasiga bo'linadi. Har bir bo'limda ikkita guruh: hujum texnikasida – maydonda to'psiz harakat qilish texnikasi va to'p bilan bajariladigan harakatlar texnikasi, himoya texnikasida esa – maydonda harakat qilish texnikasi va to'pni egallash va qarshi harakat qilish texnikasida ajralib chiqadi. Har bir guruh ichida malaka va ularni bajarish usullari bor. Malakani bajarishning deyarli har bir usuli harakat tuzilishining ayrim detallarini (ko'rsatkichlarini) ochib beradigan bir necha ko'rinishga ega. Bundan tashqari, usulning dinamik strukturasiga, o'yinchining harakatini, dastlabki holatini, yo'nalishi va masofasini aniqlaydigan bajarish shartlari ta'sir ko'rsatadi. Tavsiya qilinayotgan tasnifda fintlarga mustaqil joy ajratilmaydi, chunki fint – bu aniq usulning faqat bir qismini (masalan, to'pni uzatib berishda qo'l ko'tarish), (savatga otish paytida mo'ljallash), raqibda xato reaksiya tug'dirish maqsadi (niyati) bilan o'yinchi qulay holatga erishishdir. [2]

Basketbolning maydon bo'ylab harakat qilishlar, hujum qilish vazifalarini bajarishga yo'naltirilgan va konkret o'yin harakatlarini amalga oshirish davomida yuzaga kelgan butun harakatlar tizimining bir qismi hisoblanadi. Ular basketbol texnikasi asoslaridir. O'yinchi maydon bo'ylab harakat qilish uchun yurish, yugurish, sakrash, to'xtalish, burilishlardan foydalanadi. Shu usullar yordamida u joyni to'g'ri tanlab olishi, uni ta'qib qilayotgan raqibdan uzoqlashishga (qochishga) va keyingi hujum uchun kerakli yo'nalishga chiqishi, boshqa usullarni bajarish uchun eng yaxshi, qulay dastlabki holatlarni egallashga erishishi mumkin. Bundan tashqari to'p bilan ajratiladigan ko'pgina texnik malakalarning harakatda va sakrab to'p otish va harakatlarning samaradorligi harakat paytida oyoqning to'g'ri ishlashiga va muvozanatni saqlashga bog'liq. [1]

Yurish o'yinda maydonda harakat qilishning boshqa usullariga nisbatan kamroq qo'llaniladi. Asosan undan qisqa fazalarda pozitsiyani almashtirish uchun yoki o'yin harakatlarining muddati susayganda, shuningdek, yugurish bilan qo'shilishidagi harakat tempini almashtirish uchun foydalaniladi. Odatdagi yurishdan farqli o'laroq, basketbolchi tizzada bir oz bukilgan oyoqlari bilan bir joydan ikkinchi joyga o'tadi, bu unga qo'qqisdan tezlanish uchun imkon beradi.

Yugurish o'yinda harakat qilishning bosh vositasi hisoblanadi. U yengil atletikadagi yugurishdan ancha farq qiladi. O'yinchi istalgan yo'nalishda, oldinga yoki orqasi bilan, har xil startga o'z holatlardan maydon ichida tezlasha olishi, yugurish tezligi va yo'nalishini tez o'zgartira olishi kerak. Raqib uchun kutilmagan holda yugurish tezligini oshirish yoki startli

tezlanish sport o'yinlarida keskin yugurish deyiladi. Keskin yugurish raqib ta'qibidan qutilish va bo'sh joyga chiqishning eng yaxshi vositasidir. Keskin yugurishni amalga oshirish uchun birinchi 4-5 qadamni shiddatli qilib, oyoqni uchi tomondan qo'yiladi. Yugurish tezligi qadamni uzaytirish tufayli osha boradi. Shu paytda o'yinchi to'pni olishga tayyor bo'lishi kerak. Yugurish yo'nalishini o'zgartirishni o'yinchi, harakat yo'nalishiga qarama-qarshi tomonga, oldinga chiqarib qo'yilgan oyoqning kuchli itarishi bilan amalga oshiradi gavdasini yangidan tanlagan yo'nalishi tomonga egadi.[3]

Sakrashlardan xuddi mustaqil malakalardan foydalanilishadi. Ular texnikaning boshqa usullarining elementlari ham hisoblanadi. O'yinchilar ko'proq yuqoriga va uzunlikka-yuqoriga sakrashlardan yoki qayta-qayta sakrashlardan foydalanishadi. Sakrashni bajarishning ikki usulini yani ikki oyoq bilan depsinib va bir oyoq bilan depsinishni qo'llashadi. Ikki oyoqlab depsinish bilan sakrashni ko'proq joydan turib asosiy holatdan bajarishadi. O'yinchi tezda oyoqlarni bukadi, qo'llarni tirsakda bir oz bukib, orqaga o'giradi va boshni sal ko'taradi. Depsinish oyoqlarni kuchli bukish bilan, gavdaning va qo'llarning oldinga-yuqoriga keskin harakati bilan amalga oshiriladi. Yugurib kelib ikki oyoqlab depsinib sakrashni odatda, savatga to'p otish paytida va shchitdan sapchib qaytgan to'p uchun kurash paytida qo'llashadi. Bir oyoq bilan depsinib sakrashni yugurib kelib bajarishadi. Depsinishni shunday bajarishdiki, yugurib kelishning inersiya kuchlaridan to'la foydalaniladi. Depsinishdan oldin yugurishning oxirgi qadamini oldingilaridan ancha katta qo'yishadi. Tizza bug'imlarida bir oz bukilgan depsinuvchi oyoqni oldinga chiqarishida va depsinish uchun tovondan oyoq uchiga dadil qo'yishadi. Boshqa oyog'i bilan oldinga – yuqoriga tez siltab, tana og'irligining umumiy markazi tayanch ustidan o'tish paytida esa uni tos suyagi bilan son suyagi qo'shilgan joyda va tizza bug'imlarida bukishadi. Basketbolchi tanasi yuqori nuqtaga yetgandagi ko'tarilishdan keyin oyog'ini to'g'rilaydi va depsinuvchi oyog'i yoniga keltiradi. Istalgan usulda sakraganda yerga tushish muvozanatini saqlagan holda, yumshoq tushish lozim, bunga ohista kerilgan oyoqlarning yumshatuvchi bukish orqali erishiladi. Yerga bunday tushish basketbolchiga o'yin harakatlarini bajarishga tezda kirishish uchun imkon yaratadi. [4]

Vaziyatga qarab o'yinchi, keskin yugurishlar va yugurish yo'nalishini o'zgartirishlar bilan bir qatorda raqib ta'qibidan bir oz bo'lsa ham qutilishga, bo'sh joyga chiqishga va keyingi hujum harakatlari uchun imkoniyatga ega bo'lish maqsadida kutilmagan (qo'qqisdan) to'xtashlardan foydalanadi. To'xtalish ikki uslubda sakrab va ikki qadam bilan amalga oshiriladi. [6]

Hujumchi himoyachidan qutilish uchun, to'pni urib chiqarishidan saqlash uchun fintlarini ishlatib, so'ng savatga hujum qilish uchun burilishlardan foydalanadi. Burilishning ikkita oldinga va orqaga burilish usuli bor. Oldinga burilish basketbolchi yuzi bilan qayoqqa qaragan bo'lsa, shu tomonga qadam tashlab o'tish yo'li bilan bajariladi, orqaga burilish esa – u orqasi bilan qaysi tomonga qadam tashlab o'tish yo'li bilan bajariladi.

Boshdan baland uchib kelayotgan to'pni tutib olish uchun sakrash va yoyilgan panjalar bilan qo'llarni keskin yuqoriga chiqarish kerak (katta barmoqlar erkin yoyilgan). To'p barmoqlarga tekkan paytda, panjalarni yaqinlashtiradi, ichiga bukib ular bilan to'pni mahkam ushlaydi, qo'llarni esa tirsak bo'g'imlariga bukib, to'pni pasaytirishadi va gavdaga tortishadi. Past uchib kelayotgan to'pni tutish paytida qo'llarni pasaytirishadi, panja va barmoqlar esa xuddi yoyilgan kosani tashkil qilishadi (ikki qo'l jimjilog'i o'rtasidagi oraliq bir necha santimetrdan oshmasligi kerak). Maydondan sapchiyotgan to'p uchun kurash, to'pni ilib olish uchun, qulay balandlikka sakrashni kutmaslik kerak. Unga qarab harakat qilish, uni

sakrashning boshlang'ich paytida tutish kerak. O'yinchi to'pga tomon engashadi, tezda gavnani oldiga egadi, qo'llarni oldinga-pastga tushiradi, tashqi tomondan panjalarni to'pga olib keladi, lekin tepadan emas. To'pni ushlab olgach, u darhol to'g'rilanadi va uni o'ziga tortadi. [5]

To'pni harakatda ilish, o'ziga uzatish yoki savatga otish maqsadida, shunday nomlanuvchi, ikki qadamli texnikani qo'llashadi. Agar o'yinchi to'pni tutgandan keyin yugirayotgan oshirishni yoki otishni darhol amalga oshirmoqchi bo'lsa, aytilgan bir qo'l bilan, u chap oyog'i bilan turtki bajarilgan va o'ng oyog'i oldinga chiqarilgan paytda, to'pni yengil sakrab, uni ilib olishi kerak. So'ng o'ng oyoq bilan turtish (birinchi qadam), chap oyoq bilan turtish (ikkinchi qadam) va sakrash davomida to'pni o'ng qo'l bilan oshirishi yoki otishi kerak. Agar o'yinchi harakatda ilib olgandan keyin darrov chap oyog'ini o'q chizig'ida qoldirish uchun ikkala oyog'i bilan to'xtamoqchi bo'lsa, u holda o'yinchi o'ng oyog'i bilan turtki berish bajarilgan va chap oyog'i oldinga chiqqan paytda to'pni ilib olishga harakat qilishi kerak. So'ng birinchi sekinlashtiruvchi chap oyoq bilan, ikkinchi to'xtatuvchi qadam o'ng oyoq bilan va o'ng oyoqda burilishlarni bajarish imkoniyatini beradigan qilib to'xtash kerak. [7]

To'pni urib yurish – o'yinchiga to'p bilan maydon bo'ylab hohlagan tezlikda va istalgan yo'nalishda harakat qilishga imkon beruvchi usuldir. To'pni urib yurish ta'qib qilayotgan raqibdan qochishga, to'p uchun muvaffaqiyatli kurashdan so'ng to'p bilan shchit ostidan chiqishga va tez jadal qarshi hujumni tashkil etishga; sherikka to'siq qo'yishga yoki nihoyat, so'ng sherigiga to'siq qo'yishga yoki to'pni uzatish va uni to'sayotgan raqibini biroz chalg'itishga imkon beradi. Boshqa barcha holatlarda qarshi hujum tezligini pasayturmaslik uchun va o'yin jarayonini buzmaslik uchun to'pni urib yurishdan bekordan-bekorga foydalanmaslik kerak. Olib yurish to'pni bir qo'l bilan yengil ketma-ket pastga oldinga urish bilan amalga oshiriladi (yoki galma-gal o'ng va chap qo'l bilan), oyoqlardan biroz chapga va oldinga yo'naltiriladi. Asosiy harakatlarni tirsak va bilak bo'g'inlari bajaradi. Muvozanat holatini saqlash va harakat yo'nalishini tez o'zgartirish uchun oyoqlarni bukish kerak. [3]

Basketbolchi to'pni urib yurishni o'ng va chap qo'l bilan yaxshi bir xil ravishda o'rganishi shart. Tezlikni o'zgartirish bilan aldab o'tish. Himoyachidan qutilish uchun to'p olib yurishni tezligining kutilmagan o'zgarishidan foydalaniladi. To'pni urib yurish tezligi avvalo to'pni qay burchak ostida maydonga yuborilayotganligi va sakrash balandligiga bog'liq. To'p bilan oldinga harakat qilish tezligi avvalo to'pni sakrash balandligiga va uning sapchish burchagiga bog'liq. Tikkaga yaqin va past sakrashda buyurilsa yurish sekinlashadi va butunlay joyida bajarilishi mumkin. Yo'nalishni o'zgartirish bilan aldab o'tish. Asosan bu harakatdan raqibni aldab o'tish va hujum uchun halqa tomon o'tish uchun foydalaniladi. Yo'nalishni quyidagicha qilib o'zgartirishadi: to'pning yon sirtini hohlagan nuqtalariga panja qo'yiladi va kerakli yo'nalishga qo'lni to'g'rilanadi. Shuningdek, sapchish balandligini o'zgartirib, burilishlar va to'pni u yoqdan bu yoqqa o'tkazib ham aldab o'tish mumkin. Shuningdek, to'pni bir qo'ldan boshqasiga o'tqazish bilan yashirincha, orqadan yoki to'pni oyoq ostidan o'tkazish bilan ham raqibni aldab o'ttish usulidan keng foydalaniladi. [4]

To'p otishni bajarishga tayyorlanish jamoa hujumidagi asosiy mazmunni tashkil etadi, halqaga tushirish esa – uning bosh maqsadidir. Bellashuvda muvaffaqiyatli qatnashish uchun har bir basketbolchi faqatgina uzatish, tutib olish va to'pni olib yurishni qo'llashni bilishi emas, balki har xil holatlardan, raqib qarshiligiga qaramay istalgan masofadan to'p otishni bajarishi, halqaga aniq hujum qilishi kerak. O'yinchining o'zgarayotgan vaziyatni va hujum uchun har bir qulay vaqtdan foydalanishga harakat qilish, o'yinchining shaxsiy iste'dodi va xususiyatlarini



hisobga olgan holda, otishning usullarini har xil ko‘rinishdagi arsenalini egallash kerakligi aniqlaydi. Savatga otishning aniqligi birinchi navbatda oqilona texnika, harakatlar turg‘unligi va ularni boshqarish, muskullarning kuchlanishi va bo‘shashtirilishi to‘g‘ri almashishi, qo‘l panjalarining kuchi va harakatchanligi, ularning yakunlovchi kuchlanishi bilan shuningdek, to‘pning optimal uchish trayektoriyasi va aylanishi bilan aniqlanadi. [7]

Zamonaviy basketbolda ikki qo‘llab ko‘krakdan, yuqoridan, pastdan va qo‘ldan qo‘lga to‘p uzatishlar asosiy to‘p uzatish usullari hisoblanadi. To‘pni bir qo‘llab uzatish va ilib olish usuli ham basketbolda ancha keng tarqalgan bo‘lib, o‘yin maydonida istagan masofaga qo‘llaniladi. Bir qo‘lda yelkadan to‘pni uzatish texnikasi eng asosiy hisoblanib, bunda to‘pni yaxshi tutib turish, panjaning harakati bilan qo‘ldan chiqib ketishi paytida uning yo‘nalishini o‘zgartirib yuborish mumkin. O‘yinchi to‘pni o‘ng qo‘li bilan uzatish uchun qo‘lini bukib, uni o‘ng yelkasiga shunday yaqinlashtirishi lozimki, bunda uning o‘ng qo‘li to‘pni orqasidan, chap qo‘li esa uni old—past tomonidan tutib turishi, tirsaklar pastga tushirilgan bo‘lishi loBasketbolchilarning maydonda muvaffaqiyat qozonishlarida jismoniy tayyorgarlik muhim rol o‘ynaydi. Jismoniy tayyorgarlikning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Aerobik chidamlilik: Aerobik chidamlilikning yuqori darajasi o‘yinchilarga butun o‘yin davomida maydon bo‘ylab samarali harakat qilish va yuqori o‘yin tezligini saqlab qolish imkonini beradi.

2. Mushaklar kuchi va chidamliligi: Mushaklar kuchi va chidamliligini rivojlantirish qalqon ostidagi pozitsiyalar uchun kurashda va himoyada dushmanga muvaffaqiyatli qarshilik ko‘rsatish uchun muhimdir.

3. Tezlik va chaqqonlik: Tezlik va chaqqonlikni oshirish o‘yinchilarga maydondagi vaziyatlarga tezda javob berishga va himoya va hujum harakatlarini samarali bajarishga yordam beradi. [9]

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, yosh basketbolchilarni kompleks tayyorlash o‘yinning jismoniy, texnik va taktik jihatlari birlashtirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish tizimli tayyorgarlikni, individual yondashuvni va o‘yinning asosiy tamoyillarini tushunishni talab qiladi. Rivojlanishning dastlabki bosqichlarida yuqori sifatli tayyorgarlik yuqori malakali basketbolchilarni shakllantirishga yordam beradi va jamoaning musobaqalarda muvaffaqiyat qozonish imkoniyatlarini oshiradi.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Fayzullayev Sh.B. „JISMONIY TARBIYA VA SPORT“ (Basketbol), O‘quv qo‘llanma. Jizzax 2022.
2. Ganieva F.V. Yakupova U.J. Xusanova D.T. BASKETBOL NAZARIYA SI VA USLUBIYA TI fanidan O‘quv-Uslubiy Majmua.Toshkent.,O‘zDjti, 2016.
3. Pulatov A.A., Ganiyeva F.V., Miradilov B.M., Xusanova D.T., Pulatov F.A. BASKETBOL NAZARIYA SI VA USLUBIYA TI (darslik)., Toshkent., «Sano-standart» nashriyoti, 2017.
4. Zaxriddinov A.T „Sport va harakatli o‘yinlarni o‘qitish metodikasi“ (basketbol) O‘quv qo‘llanma. "METHODIST NASHRIYOTI", - Toshkent: 2023,152 b
5. Soliyev F.F. „BASKETBOL“ uslubiy qo‘llanma, Jizzax-2023
6. Miradilov B.M. Karimov B.Z. Umbetova M.A. SPORT PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISH (BASKETBOL) o‘quv qo‘llanma Toshkent – 2018
7. Шарипов, X. A., & Пирназаров, Ш. М. (2020). Бошланғич синф ўқувчилари жисмоний тарбиясида ўзбек миллий ўйинлардан фойдаланиш усуллари ва педагогик имкониятлари. *Интернаука*, (17-3), 81-82.

8. Бегимкулов, О. Ж. (2019). Вопросы организaции сетевого взаимодействия как всей системы непрерывного образования в целом. *Мир педагогики и психологии*, (10), 22-28.
9. Салимов, У. Ш. (2019). Особенности организaции разных видов занятий по физической культуре для старшего дошкольного возраста. *Вопросы педагогики*, (4-1), 130-133.
10. Dusyarov, S. (2023). EFFECTIVENESS OF ACTION GAMES IN THE PROCESS OF COMPLEX TRAINING OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(5), 142-146.
11. Urolovich, B. C. (2023). Pedagogical Principles of Using Activity and National Games in the Physical Education of Student Girls. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(12), 575-579.
12. Шайдуллаевич, С. У. (2022). "Спeциал course" нон-традиционал метходс оф а ҳеалтҳй лифестйле" ас а меанс оф форминг а ҳеалтҳй лифестйле анд пҳйсисал ативитй оф студентс. Берлин Студиес Транснационал Жоурнал оф Ссиенсе анд Хуманитиес, 2(1.5 Педагогисал ссиенсес).
13. Chorievna, D. Y., & Khudaymuratovich, D. S. (2021). Improving the physical fitness of young players through action games.
14. ougli Baxriyev, J. E. (2024). BOXING AS A HEALTH SYSTEM IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES AT A UNIVERSITY. *Modern Scientific Research International Scientific Journal*, 2(3), 101-106.
15. Алимов, Т., & Абдураимов, С. (2023). ЁШ ФУТБОЛЧИЛАРНИНГ МАШГ'УЛОТЛАРИГА ҚО 'ЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР. *Интерпретатион анд ресеарчес*, 2(1).
16. Menglimurod o'g'li, E. E. (2024). METHODOLOGICAL ASPECTS OF COMPETENT APPROACH TO DEVELOPING THE CREATIVITY OF STUDENTS IN THE FUTURE PROFESSIONAL PEDAGOGICAL HIERARCHY OF PHYSICAL CULTURE EDUCATION. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 24, 57-59.
17. Дусууаров, Т. Б. (2020). УЛУЧШЕНИЕ СКОРОСТНЫХ КАЧЕСТВ ЗА СЧЁТ БЕГА У УЧЕНИКОВ НАЧАЛНЫХ КЛАССОВ. *Проблемы науки*, (10 (58)), 95-97.
18. Уролович, Б. С. (2024). Усинг the Гаме ин Теачинг Пҳйсисал Эхерсисес то Примарй Сласс Студентс. *Бест Жоурнал оф Инноватион ин Ссиенсе, Ресеарч анд Девелопмент*, 3(3), 780-783.
19. Esanova, G. (2024). YUQORI NATIJALARNI TA'MINLASH UCHUN SPORT MAKTABLARIDA SPORTCHILARNING AXLOQIY MADANIYATINI SHAKILLANTIRISH. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 166-169.
20. Эшкobilов, Э. (2024). KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 4(1).
21. Erkin o'g'li, B. J. GENERAL AND SPECIAL PHYSICAL FITNESS OF BOXER ATHLETES. *Academia Globe: Inderscience Research*, 178.
22. Zarina, R. (2023). PATRIOTIC EDUCATION OF DISABLED STUDENTS THROUGH PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 304-307.
23. Tashmamat, A. (2023). Methods of Using Non-Traditional Means in the Training of Wrestlers. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, 2(4), 133-136.
24. Urolovich, B. C. (2024). THE ROLE OF DIDACTIC GAMES IN PERSONALITY FORMATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS. *Miasto Przyszłości*, 48, 1484-1490.

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **PROJECT WORK AS A COMPLEMENT TO TRADITIONAL METHODS**

**Erkinova Lutfiya Qudratovna,**  
Urgench State University, teacher  
[erkinovalutfiya@gmail.com](mailto:erkinovalutfiya@gmail.com)

**Abstract.** Project method is a method where group of people work together in order to have an end result or product. Organizing and conducting of a project method should be based on students' interests, choices, availability of materials, their authenticity and time constraints. This method is about cooperating rather than competing because each of the groups plan actions differently.

**Key words:** project work, teaching method, approach, plan, step by step, learning, content and language integrated, process and product oriented, presentation, authentic, availability

---

## **LOYIHA METODI AN'ANAVIY USULLARGA TO'LDIRUVCHI SIFATIDA**

**Erkinova Lutfiya Qudratovna,**  
Urganch davlat universiteti, o'qituvchi

**Annotatsiya.** Loyiha usuli - bu yakuniy natija yoki mahsulotga ega bo'lish uchun bir guruh odamlar birgalikda ishlaydigan usul. Loyiha uslubini tashkil qilish va o'tkazish talabalarning qiziqishlari, tanlovlari, materiallarning mavjudligi, ularning haqiqiyliigi va vaqt cheklovlariga asoslanishi kerak. Bu usul raqobat qilishdan ko'ra hamkorlik qilishdan iborat, chunki har bir guruh o'z harakatlarini boshqacha rejalashtirishadi.

**Kalit so'zlar:** loyiha ishi, o'qitish usuli, yondashuv, reja, bosqichma-bosqich, o'rganish, mazmun va til birgab olib borilishi, jarayon va mahsulotga yo'naltirilgan, taqdimot, haqiqiy, mavjudlik

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N48.1>

**Introduction.** Teaching and learning English puts a milestone for the process of globalizing of society. It is obviously one of the actual problems to make it more effective and developed. In the history of teaching languages especially English language there are lots of traditional methods of teaching along with modern techniques and approaches. One of the methods to be required to use in modern methodology is project method.

Project work is not a replacement for teaching methods but it complements mainstream methods which can be used to almost all levels, ages and abilities of students. Projects can be used for: EFL, ESL, EAP, ESP, EOP classes and teacher trainings.[4; 1147-1155] Each of these directions of teaching English has special rules and regulations despite this fact project method can be applied and adapted to all of them. Starting from General English teaching where classes are based mostly on linguistic features and finishing with training sessions with professional and technical content.

Project-based learning is a dynamic approach to teaching in which students explore real-world problems, issues and challenges, are inspired to obtain a deeper knowledge of the subjects they are studying and more likely to retain the knowledge gained through this approach far more readily than through traditional textbook-centered learning. In addition, the students develop confidence and self-direction as they move through both team-based and independent work. [5; 140-146]

Project method is a method which is complicated and requires step by step procedure. [6; 362-364] (Stoller, 1997; Korkmaz & Kaptan, 2001) Each of these steps is based on special knowledge and competency of a student by supporting and developing them a student can have a sophisticated results.

Projects with their wide variety of steps and actions can complete all existing methods as different audience have different characteristic features. Younger learners need topics and instructions which require less special knowledge while in classes with adult members projects can be organized in a way where they rely on their life and learning experience.

Project integrates language and content and links English to other curriculum subjects. It uses content for which students have relevant prior knowledge [6; 362-364]. If students are aware of basic knowledge on the sphere they are going to work on it will be easier for them to be more specific and dive deeper into the subject, however being a professional or expert is not a requirement for this method. There are usually special goals which are exact and with the help of them participants may fulfill the tasks.

**Literature review and methodology.** According to some scientists (Poplin, 1988; Stainback & Stainback, 1992; Steffe & Gale, 1995; Abdullah et al, 2012) teacher-centered approach or direct instruction makes students feel less power in the class and therefore the focus of the lesson goes to fulfilling tasks of a teacher but not making learning process effective. This is the way most of the lessons are built. [4; 1149] In this case project method shows absolute difference as this method is built according to the interests and personal choices of students.

Yusupova Muhabbat [1; 328-333] claimed that project work helps to improve competencies and skills of learners and this can improve the quality of the lessons. It shows that projects integrates different skills in one method and this is a tool to cover lots of aspects of teaching and learning.

According to Ni Luh Putu Ning Septyarini Putri Astawa, Luh Putu Artini, Putu Kerti Nitiasih projects are tools to maximize student's role in the classroom and they call it as PBL (Project Based Learning). This method is organized around projects (Thomas, 2000; Larmer, Markham, & Ravitz, 2003; Bell, 2010) [4; 1147-1155]

Nguyen Thi Van Lam mentioned that teacher's role in organizing projects is as facilitator and motivator. [5; 140-146] I would like to add that teacher can act as a guide or instructor as well whenever students questions or some type of dilemma.

Solomon and Willie characterized projects as interdisciplinary and integrated what is more student is at the center of this method. (2003, 2001) [2; 1-3]

Process and product oriented (Stoller, 1997) approach in projects show that every single point is important and crucial. [2; 1-3]

Project method builds student's confidence, self-esteem, autonomy, language skills, content learning and cognitive abilities (Fried-Booth, 1997; Simpson, 2011; Solomon, 2003;

Srikrai, 2008; Stoller, 1997; Willie, 2001) What is important to add that students` managing skills are going to be developed as well, as students feel responsibility and they have to manage time and their full potential in order to reach the goal.[2;1-3]

At a major private Japanese university there was implemented a task-based project with approximately 340 first-year students enrolled in a second-semester speaking course. In this case students are explicitly instructed in some specific microskills, strategies and processes involved in conversation. These include phrases and strategies for turn taking, interrupting, expressing agreement or disagreement, summarizing what another person has said, and checking whether one has been understood.

In brief, project requires the learners to work in groups of two to four persons and to choose a topic they are interested in finding out more about. The groups the design a questionnaire which will be used to investigate the opinions that a specific target group holds about the chosen topic. Some of the objectives of a project was:

- provide learners the opportunity to use English for authentic purposes for an extended period of time

- provide intrinsically motivating activities which take advantage of the learners` desire to improve their listening and speaking proficiency

- enhance the learners` presentation skills

- demonstrate to students that use of English can further enhance their own education and development

- provide opportunities for learners to work closely together with a partner or in a small group for an extended period

The project was well-received by participants , they found the experience to be rewarding, intrinsically interesting, and educationally beneficial. Product and process oriented project was done in a high level. However, the potential of the project can only be fully manifested as more is understood about the nature of different types of tasks and as the instructors in the program gradually implement changes which they believe will result in a pedagogically sounder experience for the learners.[4; 1147-1155]

This experiment can be an example of the fact that project works are learner-centered [4; 1147-1155]. Teachers play the role of instructors and do not play essential role while organizing the key moments. Learner autonomy[2;1-3] is another principle of this method. Learner-centered approach dictates that everything should be built and constructed on the learners` interests, preferences and abilities, however learners can not be absolutely independent because they need assistance in process and organizing it. Participants sometimes lack of knowledge, experience and ideas in order to reach the end point, teachers guide them in order to avoid mistakes. Collaboration[4; 1147-1155] with group members is a milestone of project method this is the only way to keep balance and come to compromise while making decisions as a group. Despite the fact learning through tasks [4; 1147-1155] can seem a very simple and primitive component of a project method it helps participants to reach the goal by dividing it into small manageable chunks that every learner can see success after they finish every task.

**Discussion.** Project work is organized in a way that is divided into special steps(1):

1. Planning [6;362-364] this step requires brainstorming activities in order to think and decide what steps are going to be the next, students plan everything as a whole group .

2. Gathering information [6;362-364] there are lots of tools of collecting data, both qualitative and quantitative can be helpful, mostly learners gather information through reading, listening, interviewing or observing.

3. Group discussion of the information[6;362-364] after information was collected participant sort out it according to the goal and methodology.

4. Problem solving[6;362-364] this part is considered as the most responsible because of the fact learners implement information or knowledge they gather into the process and start taking results.

5. Oral or written reporting[6;362-364] reporting is still done in a group they discuss and decide what part of the procedure to include in it and which of the results are the most essential .

6. Display[6;362-364] –the very last and responsible part where learners show their projects to the teacher and defend their results with particular calculations, situations and conclusions they made during the project work.

**Results.**According to the procedures described and review of some experiments result of this matter can be obviously seen that there are special factors we should take into consideration while organizing project works. Students` proficiency levels[4; 1147-1155] are important it means we think about how students master language before creating instructions of a project. Students with low proficiency levels can manage only limited tasks.

Learners` interests[3;100-104]] as the same with criteria learner-centered should be on a high priority. Interest is a motivational tool, it gives students inspiration and drive to continue and be involved.

Time constraints[3;100-104] or time limits and deadlines are very important tools in project methodology. Time limit should be calculated and fixed in a way that students can physically and mentally manage a task without difficulty, otherwise it can create stress among members of groups.

Availability of materials[3;100-104] or are these available materials authentic or not? Why is it important for materials to be authentic? The authenticity provides us with the nature of the language and culture it belongs to. It helps to reveal all the points of this language and conveys with true atmosphere. Materials which are adopted or created by non-native people are based on the principles the language they acquire, their mother tongue. This is the reason why teacher checks if the all information needed is available and in case teacher provides students with them.

Some of the cases show that projects can be unsuccessful not regarding the fact that every single thing is done with a big effort. There some factors affecting the success of projects[3;100-104], conditionally they can be divided into 2 groups: 1. Teacher`s regulated factors and 2. Learner`s regulated factors

First group comprises in itself availability of time and access to authentic materials[3;100-104] if teachers can check and organize these 2 factors in an appropriate way students can definitely reach the point successfully if they can improve components of the second group. Second group includes receptiveness of learners and good organization of the process. Receiving and processing information in a logical and coherent way leads to organizing the work in a good way. All the tasks are done well if learners can approach to them critically and analytically.

**Conclusion.** All in all, project method creates an opportunity for students to be involved in process until they display it to the teacher and be evaluated. Authentic materials provide students with original information about the subject and topic.

-In projects students cooperate in order to come to generalized decision and conclusion. Among groups students do not compete as well because results and conclusions are going to be different from each other.

-Every single action is taken is to reach and make this product ready and appropriate.

-Having focus only on the product can fail the process of project so members of the group plan and organize all the moments attentively in order to make their project successful

-Through projects students learn how to make important decisions, learn how to take actions according to instructions, content and language integration helps to develop language aspects and expand the outlook all in all it makes brain work critically and evaluate every situation in a way to reach the success.

### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Development of communication competence while using project work in teaching English to students in higher education as an actual problem Mukhabbat Yusupova, European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 7 No. 12, 2019
2. Enhancing English skills through project-based learning Kornwipa Poonpon, The English Teacher Vol. XL: 1-10
3. Methodology in language teaching an anthropology of current practice Edited by Jack C.Richards,Willy A.Renandaya Cambridge university press 100-104
4. Project-based Learning Activities and EFL Students' Productive Skills in English Ni Luh Putu Ning Septyarini Putri Astawa, Luh Putu Artini, Putu Kerti Nitiasih, Journal of Language Teaching and Research, Vol. 8, No. 6, pp. 1147-1155, November 2017
5. Project-based learning in teaching English as a foreign language Nguyen Thi Van Lam, VNU Journal of Science, Foreign Languages 27 (2011) 140-146
6. Teaching and learning in the Language classroom Tricia Hedge 2019 4-edition p.362-364

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **EFFECTIVENESS OF DEVELOPING LITERACY SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS IN THE PROCESS OF LEARNING ANCESTORS' HERITAGE**

**Sanoev Gaibullo Abdurakhmonovich**

Scientific researcher at Bukhara State University

**Abstract.** This article delves into enhancing the mechanisms for cultivating literacy skills among elementary school students through an exploration of their ancestral heritage. It outlines the necessary conditions and theoretical foundations while also establishing evaluation criteria that showcase the teacher's expertise and the students' advancement in literacy skills.

**Key words:** Renaissance, literacy, strategy, modernization, integration, technology, cooperation, concept, rating.

## **AJDODLAR MEROSINI O'RGANISH JARAYONIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING SAVODXONLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI**

**Sanoyev Gaybullo Abduraxmonovich**

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqola ajdodlar merosini o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasiga bag'ishlanib, unda boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik ko'nikmalarini ajdodlar merosini o'rganish orqali rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va nazariy asoslari aniqlangan. Shuningdek, ajdodlar merosini o'rganish jarayonida o'qituvchi kompetentligini hamda o'quvchilarda savodxonlik ko'nikmasini rivojlanganligini namoyon etishga oid baholash mezonlari ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Renessans, savodxonlik, strategiya, modernizatsiya, integratsiya, texnologiya, kollaboratsiya, konsepsiya, reyting.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N49>

**Kirish.** Malakatimizda uchinchi Renessans davriga poydevor qo'yilayotgan bugungi "axborot asri"da savodxonlik ko'nikmasi yuqori darajada rivojlangan kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, buni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so'zlaridan bilsak bo'ladi: "...buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak" [1]. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida o'quvchilarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda ajdodlar merosidan foydalanishni ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash muhim vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yilgan. Shu sababli, fikr tarbiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tashkil



etishda ajdodlar me'rosidan foydalanish, xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga tayanish, ushbu yo'nalishda ilmiy-nazariy va kompleks tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyatga egadir.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, dars va tadbir tahlillari, matn tahlillari, tajriba-sinov, so'rovnomalar, test, suhbat, natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Yosh avlodning dunyoviy, diniy, hayotiy, axloqiy, ma'naviy, ruhiy kamol topishida ta'lim - tarbiyaning ahamiyati, o'quvchi savodxonligini oshirish muammosi ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Abdulloh Al Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat ta'limotlarida o'z ifodasini topgan.

Mamlakatimizda ajdodlar merosini o'rganish darajasini oshirish, shuningdek, boshlang'ich ta'lim mazmunini modernizatsiyalash va integratsiyalash, o'quvchining savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirish va uni baholashda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati, ta'limda qadriyatli yodashuv masalalari J.Yo'ldoshev, R.Safarova, B.Adizov, Sh.Abdullayeva, B.Ma'murov, R.Nurjanova, G.Hasanova, N.Dilova, Z.Jalilov, H.Nazarova, G.Akramova, N.Davronov, N.Hakimova tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida o'quvchilar savodxonligini oshirishga oid ilmiy yondashuvlar V.Shatolov, Sh.Amonoshvilli, V.Arshinova, V.Budanova, V.Vinenko, V.Ignatova, S.Kurdyumova, N.Talanchuk, G.Xaken, I.Prigojin, A.Klimontovich, L.Gordin, V.Andreyev, o'qish savodxonligini oshirishda ta'limdagi muammolar V.Ignatova, Y.Knyazeva, S.Kurdyumova, G.Malinetskiy, L.Makarova, Y.Sharonin, S.Sheveleva, O.Fedorov tadqiqotlarida o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin.

Xorijda zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchi savodxonligini oshirishga oid turli ta'lim nazariyalari Sh. Sharon, M. Montessori, R. Gane, Dj. Brigs, L. Stross, R. Slavin, R. Djonson, D. Djonson, Ye.Arason tomonidan ishlab chiqilib, jamiyat hayotiga tatbiq etilgan.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, olib borilgan tadqiqotlarda ajdodlar merosini o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik darajasini oshirish hamda ularning nazariy ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi alohida mavzu sifatida maxsus tadqiq etilmagan.

**Muhokama.** Ajdodlar merosini o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishga oid tajribalarining mohiyati hamda sinov ishlari natijalarining tahlili va samaradorlik darajasi tadqiq etilgan.

Bu boradagi tajriba-sinov jarayonida xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallagan Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'lim jihmadan ilg'or rivojlangan mamlakatlarning "4K"ni o'z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko'nikmalarni rivojlantirish tajribalari asosida o'quvchilarning axborotlarni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlovchi "4K" modeli (kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash) tamoyillarini ta'minlovchi yondashuvlaridan foydalangan holda, avvalo, o'quvchilarning nazariy-ilmiy bilimlarini oshirish, ularda ajdodlar merosini o'rganishga asoslangan ilmiy tajriba-sinovlar o'tkazilmoqda [2].

Ajdodlar merosini o'rganish jarayonida o'quvchilarning savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirishda ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlantirish, shuningdek, interaktiv metodlar orqali, ayniqsa, qiziqarli savol-topshiriqlar bilan, muloqot ko'nikmalarini ijodiy-topshiriqlar va o'yin mashg'ulotlar orqali oshirilib borish, o'quvchilarining savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga oid pedagogik tizimning samaradorlik darajasi statistik tahlillar asosida aniqlash amaliyotga tatbiq etilmoqda.

O'tkazilayotgan tadqiqotlar yo'nalishining to'g'riligi va natijalarni ommalashtirish darajasi shuni ko'rsatmoqdaki, biz ilgari surgan zamonaviy ta'limga aksiologik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik ko'nikmasini rivojlantirish tizimining samaradorligini ko'rsatish uchun tajriba-sinov ishlarini tahlil qilish metodidan foydalangan holda uni matematik statistik jihatdan tahlil qilinmoqda. Biz o'qish darslarida ajdodlar merosini o'rganish jarayonida ta'limning akmeologik, aksiologik, insonparvarlik, shaxsga yo'naltirilgan tamoyillariga asoslanib boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik ko'nikmasining rivojlanish, ularada ajdodlar merosini o'rganishni ta'minlash asosiy vazifa sifatida muvofiqlashtirilmoqda.

Bu borada tajriba-sinov ishlari Andijon, Qarshi va Buxoro viloyatlarining umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilari va o'qituvchilari bilan birgalikda tashkil etildi. Ushbu tajriba ishlarini olib borishda biz o'quvchilarni ikkita guruhga ya'ni tajriba va nazorat guruhlariga ajratib oldik. Shundan 404 nafar o'quvchi nazorat guruhida va 395 nafar o'quvchi tajriba guruhida qatnashdilar. Nazorat guruhida mashg'ulotlar ana'anaviy metodika bo'yicha olib borilgan bo'lsa, tajriba guruhida aniqlangan mezonlar asosida zamonaviy ta'lim integratsiyasi prinsiplari asosida tashkil etilgan ajdodlar merosini o'rganish darslarida o'quvchilarda savodxonlik ko'nikmasining rivojlanganlik darajasi aniqlandi [3].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik ko'nikmasining rivojlanish doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijasi raqamli ma'lumotlar asosida matematik-statistik usullardan foydalangan holda chuqur qiyosiy tahlil qilindi. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari ajdodlar merosini o'rganishda o'quvchilarining savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari bo'yicha o'quvchilarni tajriba va nazorat guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlarini O'quvchining matematik-statistika metodi yordamida tahlil etdik.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishi samaradorligini aniqlash maqsadida ajdodlar merosini o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish mezonlari va uning pedagogik samaradorligi quydagicha aniqlandi (1-jadval).

**1-jadval.**

**Bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darajasi**

№	Mezonlar	Samaradorlik darajalari (sonlarda)					
		Nazorat guruhi (404)			Tajriba guruhi (395)		
		Yuqori	O'rta	Past	Yuqori	O'rta	Past
1.	maqsad va kontekstdan	128	158	118	201	157	37


	kelib chiqqan holda o'z fikrini yetkazish uchun og'zaki muloqotga kirishadi						
2.	maqsad va kontestdan kelib chiqqan holda o'z fikrini yetkazish uchun yozma matn yaratadi	126	160	118	203	157	35
3.	turli uslubdagi matnlarni ifodali o'qiydi; mazmunini anglaydi va qayta tushuntirib beradi	126	157	121	200	159	36
4.	notanish matnni ovoz chiqarib, belgilangan tezlikda o'qiydi	126	158	120	202	155	38
5.	audiomatnni tinglab, videotasvir va rasmlarni ko'rib tushunadi, o'z munosabatini og'zaki hamda yozma shakllarda ifodalab beradi	127	160	117	201	156	38
6.	asar va ijodkor shaxsi haqida o'zining mustaqil fikrini adabiy talaffuz va imlo me'yorlariga rioya qilgan holda bayon qiladi;	128	159	117	200	158	37
7.	matnning umumiy mavzusini belgilaydi, matnga sarlavha qo'yadi; matnning ma'lum qismini o'qib, uni mantiqan davom ettiradi	126	159	119	205	155	35
8.	matnni mazmuniy qismlarga ajratadi va reja tuzadi	127	157	120	198	158	39
9.	turli janrdagi matnlar mazmunini tushunadi, ulardan namunalarni yoddan aytib beradi, asar sujetini hayot bilan taqqoslaydi	127	158	119	199	157	39
10.	turli janrdagi adabiyotlarni mutolaa qilib, undagi g'oya va obrazlarga og'zaki hamda yozma shakllarda munosabat bildiradi;	126	157	121	201	156	38
11.	Asar mutolaasidan zavqlana olish darajasida tilning ifoda imkoniyatlari ni anglay oladi va his-tuyg'ularini bayon qiladi;	127	158	118	200	157	38

12.	ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb mavzularga doir xabar va ma'lumotlarni tushunadi, o'z munosabatini bildiradi;	127	157	120	201	155	39
13.	So'zlardan yangi so'zlar tuza olish	126	156	122	200	159	36
14.	Lug'at boyligi va ulardan o'rinli foydalana olish	127	160	117	198	159	38
15.	Allomalar asarlarini baholay olish	126	157	121	199	158	38
16.	So'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va mazmunini anglay olish	127	156	121	199	159	37
17.	Qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish	127	157	120	201	157	37
<b>J a m i:</b>		<b>2154</b>	<b>2684</b>	<b>2029</b>	<b>3408</b>	<b>2672</b>	<b>635</b>
<b>O' r t a c h a s i:</b>		<b>127</b>	<b>157</b>	<b>120</b>	<b>202</b>	<b>155</b>	<b>38</b>

Tajriba-sinov natijalari bo'yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirishlari ma'lum bo'ldi endi uni tahlil qilamiz.

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko'rinishni oladi:

rasm. sinov



2- Tajriba-

**o'tkazilgan maktablar bo'yicha umumiy natijalar diagrammasi (tajribadan yakunida).**

Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik darajasi matematik statistik jihatdan tahlil qilinib, tajriba yakunidagi holat uchun topilgan natijalardan o'rtacha kvadratik chetlanish, tanlanma dispersiya ko'rsatgichlari, O'quvchilarning tanlanma mezon, Student mezon asosida erkinlik darajasi va ishonchli chetlanishi mezonlari topildi (jadvalda 2-satr-talabalar uchun) [4].

$\bar{X}$	$\bar{Y}$	$S_x^2$	$S_y^2$	$C_x$	$C_y$	$T_{x,y}$	$k$	$\Delta_x$	$\Delta_y$
2,42	2,03	0,4236	0,6091	1	2	7,65	777,01	0,064	0,076

Yuqoridagi natijalarga asosan tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lumki,  $\bar{X} = 2,42$ ;  $\bar{Y} = 2,03$ ;  $\Delta_x = 0,064$ ;  $\Delta_y = 0,076$ ; ga teng.

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

$$K_{y\bar{c}\bar{o}} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,42 - 0,064}{2,03 + 0,076} = \frac{2,356}{2,106} = 1,12 > 1;$$

$$K_{\bar{o}\bar{o}\bar{o}} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,42 - 0,064) - (2,03 - 0,076) = 2,356 - 1,954 = 0,402 > 0;$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi tajriba yakunidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi tajriba yakunidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan.

Bundan shuni aytish mumkinki, tajriba guruhining ko'rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 13,4% ga oshganligini ko'rish mumkin [5].

O'tkazilgan Statistik tahlillardan tajriba guruhida qo'llanilgan ajdodlar merosini o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish samarali bo'lib, o'tkazilgan tajriba-sinov tahlillari uni Respublikamiz miqyosida ommalashtirish mumkinligiga asos yaratadi.

### Xulosa va takliflar

Ajdodlar merosini o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish holatini aniqlash maqsadida o'tkazilgan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni asosladi, savodxonlik bu inson uchun hayotiy ko'nikma sifatida eng muhim omil hisoblanib, boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilar savodxonligini rivojlantirib borish, ayniqsa, ajdodlar merosi namunalarini o'rganish, ijtimoiy hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, dunyo bilan o'zaro uyg'un munosabatlarga erishish, qadriyat va me'yorlarning turli tizimlari ichki birligini anglash uchun insonning o'z ma'naviy olamini rivojlantirishi va amalga oshirishi kabi o'ziga xos belgilarga ega qadriyatli-dunyoqarashga doir subkompetentlik sifatida talqin qilish imkonini berdi.

Ajdodlar merosini o'rganish jarayonida o'quvchilarning savodxonligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ushbu tadqiqot ishi yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish samaradorligi 13,4 % ni tashkil etdi.

Ajdodlar merosini o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish samaradorligi yuzasidan quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilar savodxonligini rivojlantirishda ajdodlar merosini o'rganish jarayoniga alohida e'tibor qaratish, bunda ta'limning uzviylik va uzluksizlik, insonparvarlik, qadriyatli yondashuv tamoyillarini hisobga olish, bilim berishda ilmiy asoslangan, o'quvchi yoshiga mos mazmundagi o'quv materiallari bilan boyitish zarur.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini ajdodlar merosini o'rganish asosida rivojlantirishga erishishda maktab va maktabdan tashqari kutubxona, televideniye, muzeylar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, mavjud tarixiy obidalarda sayohatlar uyushtirishga oid rejalar ishlab chiqish hamda ta'lim muassasasining oila va mahalla instituti bilan hamkorligini mustahkamlash zarur.

3. Ta'lim muassasalarining o'ziga xosliklaridan kelib chiqqan holda "Ajdodlar merosini o'rganamiz" rukni ostida devoriy gazetalari, tadbir va tanlovlar tashkil etib o'tkazish ishlarini tizimli amaliyotga joriy etishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ajdodlar merosini o'rganish jarayonida duch keladigan tarixiy so'zlar bo'yicha lug'at to'plamlari tayyorlash, mazkur mavzularni o'rganish va o'zlashtirish sifatini oshirishga yordam beruvchi, yosh o'qituvchilarning foydalanishlari uchun dars ishlanmalari, video darslar va metodik tavsiyalar bankini yaratish lozim.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'qituvchi va ziyolilarga murojaati// <https://uza.uz/uz/posts/prezident-ituvchi-va-ziyelilarga-murozhaat-ilmoda-30-09-2020>
2. Sanoyev G'. Boshlang'ich sinflarda ajdodlar merosidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari //Pedagogik mahorat - Бухоро, 2023. №9. – Б.156-159.
3. Sanoyev G'. Uzluksiz ta'limda boshlang'ich sinf o'quvchilari savodxonligini oshirishda ajdodlar merosidan foydalanish imkoniyatlari //Узлуксиз таълим журнали, 2023. № 12.- Б.09-12.
4. Sanoyev G'. Ajdodlar merosini o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar ISSN 2181-1709 (P); 2181-1717 (E) 2023. № 12.-Б.09-12.
5. Sanoyev G'. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida ajdodlar merosini o'rganish orqali o'quvchilar savodxonligini oshirishning dolzarbligi va mazmuni//Pedagogik mahorat - Бухоро, 2023. №11. – Б.156-159.
6. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **PROFESSIONAL SKILLS OF A TEACHER IN IMPROVING PEDAGOGICAL METHODS AND TECHNOLOGIES IN A MUSIC LESSON**

**Ibadullaeva Zamira Kuanishovna**

Teacher of the Department of Distance Education of Exact and Natural Sciences at Nukus State pedagogical institute named after Ajiniyaz

Email: [ibadullaevaz1975@gmail.com](mailto:ibadullaevaz1975@gmail.com)

**Abstract.** This article reflects on pedagogical methodology and professional skills, innovative activities of the teacher and psychological erudition and culture in the lesson of music.

**Keywords:** pedagogical method, professional skills, musical education, new pedagogical technologies.

## **MUSIQA FANI DARSIDA PEDAGOGIK METOD VA TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHDA O'QITUVCHINING KASBIY MAHORATI**

**Ibadullaeva Zamira Kuanishovna**

Ajiniyoz nomidagi NMPI, Aniq va tabiiy fanlarni masofadan o'qitish kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada musiqa fani darsida pedagogik metodikasi hamda o'qituvchining kasbiy mahorati, innovatsion faoliyati hamda psixologik bilimdonligi va madaniyati haqida fikr mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogik metod, kasbiy mahorat, Musiqiy tarbiya, yangi pedagogik texnologiyalar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N50>

**Kirish.** Musiqiy tarbiya insonni go'zallikka yetaklovchi bir vosita bo'lib, u insonning estetik va emotsional xususiyatlarini shakllantiradi. Haqiqiy musiqa asarlari zamonning estetik-axloqiy va siyosiy g'oyalarini umumlashtiradi. Inson hayotini musiqa san'atidagi tasavvur qilib bo'lmaydi. San'at kishilarga faqatgina ma'naviy ozuqa beribgina qolmasdan, jismoniy kamolotga erishuvda ham muhim o'rin o'ynaydi. Musiqa san'atining axloqiy-estetik tarbiyadagi rolini to'g'ri his etib, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini aslo unutmaslik zarur. Musiqiy go'zallik insonning ma'naviy qiyofasi shakllanishida muhim omildir.[1] Musiqa ta'limining o'ziga xosligi tashkiliy tuzilishi, amaliy ijrochilik faoliyatlari, shuningdek o'qitish usullari, ularning samaradorligini ta'minlovchi omillar, vositalar tahlili va ularni umumiy ijodiy – ijobiy jihatlarini umumlashtirish musiqa ta'limini o'zigagina xos bo'lgan yangi turlarini ishlab chiqish imkonini berdi. Bular ham o'z maqsadi va bajaradigan vazifasi mazmun va mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya bo'lib, ularni musiqa mashg'ulotlariga tadbiiq etish yaxshi natija bermoqda. Bunday darslar o'quvchilarda yaxshi kayfiyat, jo'shqinlik, ko'tarinki ruh va intilishni kuchaytirmoqda. Ular qatoriga hozirgi kunda ilg'or, tashabbuskor

o'qituvchilar tomonidan keng qo'llanilayotgan quyidagi texnologik darslarni alohida ko'rsatishimiz mumkin:

- konsert darslar;
- viktorina darslari;
- intervyu darslari;
- konkurs darslari;
- yo'naltiruvchi darslari;
- doira stol atrofidagi darslari;
- o'z – o'zini anglash darslari;
- o'yla – izla top;
- kuyni top;
- himoya darslari;
- quvnoqlar va zukkolar darslari;
- bahs – munozara darslari;
- men dirijyor darslari;
- musobaqa darslari va h.k.

Bu darslarning har biri o'z tuzilishi, vazifasi, maqsadi va metodik asoslariga egadir. Boshlang'ich sinflarda musiqa darslarini o'yin tarzida (qo'shiqlarni, o'yin orqali, tashkil etish, musiqaga raqsga tushish "chigil yozdi o'yin"lari) olib borilganda o'quvchilarning faolligi oshadi va ular berilgan topshiriqlarni nisbatan oson bajaradilar. [2; 20-21 b]

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Musiqiy tarbiya metodikasi pedagogika fanlari tizimiga kirib, unda alohida o'rin egallaydi. Musiqaviy tarbiya masalalari hozirgi zamon pedagogikasida tarbiyaning umumiy muammolari bilan bog'liq holda qaraladi. Musiqaviy-estetik tarbiya-musiqa tarbiyasiga qaraganda ancha keng tushunchadir. Bu jarayonda musiqa darsi muhim o'rin tutadi, lekin alohida o'rin tutmaydi. [3] Musiqiy tarbiyada musiqani idrok qilish malakalarini faol rivojlantirish, san'at va atrof hayotdagi go'zal narsalarga muhabbat tuyg'usini hamda o'z his-tuyg'ularini musiqa tilida ijodiy namoyon qilish qobiliyatini shakllantirish katta rol o'ynaydi. Musiqiy tarbiya haqida unga keng pedagogik ma'no bergan holda gapiriladigan bo'lsa, ta'lim-tarbiya muassasalari tizimida amalga oshiriladigan butun o'quv-tarbiya jarayonining biror maqsadga muvofiq oldindan qo'yilgan holda tashkil etilishi tushiniladi. Biror maqsadga qaratilgan, yaxshi tashkil etilgan musiqiy tarbiyaning maqsadi mehnat va ijtimoiy faoliyatga va ona Vatanni doimo sevishga tayyor bo'lgan, har tomonlama va garmonik rivojlangan shaxsni tarkib toptirishdan iborat. Maktabda musiqaviy tarbiya tizimi ko'pgina elementlardan tashkil topadi, bular: musiqa darsi, musiqadan sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy tarbiya, vokal va xor studiyalari hamda to'garaklari, vokal va cholg'u ansambllari, musiqa maktablari va hokazo. Bu tizimda ommaviy axborot tizimi juda katta o'rin egallaydi. Tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vositalarning hammasi musiqaviy-estetik muhitni tashkil etadiki, bu muhitda o'quvchilarning musiqa sohasidagi qiziqish va ehtiyojlari vujudga keladi. Maktabda musiqa darsi estetik tarbiya tizimining bir qismi bo'lib, u ko'p jihatdan maktab o'quvchisining ma'naviy rivojlanishiga qaratilgan bo'ladi. Musiqaviy-ijodiy qobiliyatni rivojlantirish va boyitish, musiqani idrok etish malakalarini shakllantirish, musiqa san'atiga qiziqish bilan qarash, o'quvchilarning badiiy havaskorligi puxta o'ylangan va izchil tizim bo'yicha amalga oshirilmog'i kerak. Musiqa darsi o'ziga xos faoliyat turlari bilan: musiqa asarini tinglash va tahlil qilish, qo'shiq kuylash, musiqa ostida harakatlar bajarish, musiqa ijodkorligi



**2. Джампинг-кик (удары в прыжке)** - почти все удары (включая удары руками) могут быть нанесены в прыжке, что придает им особую изюминку. Однако такие удары используются редко. Они зрелищны, но не всегда эффективны. Исключение составляет, пожалуй, только удар ногой назад. Кроме того, удары в прыжке нарушают ритм боя и требуют много сил. Удары ногами применяются очень неравномерно. Наиболее часто используются полукруговые, обратные круговые удары с разворотом, рубящие удары применяются очень редко, и во многих боях бойцы обходятся без них.

**3. Кресент-кик (обратный боковой удар)** - это один из самых легких ударов ногами в верхнюю часть тела, для выполнения которого не требуется идеальный шпагат. Этот удар наносится внешним или внутренним краем стопы, в зависимости от его направления (внешний или внутренний). Удар может быть нанесен как с передней, так и с дальней от противника ноги. Несмотря на то, что он не очень эстетичен, многие любят его за его простоту и скорость.

**4. Лоу-кик** - это обычно круговой удар, который наносится во внутреннюю или внешнюю часть бедра противника. Эти удары замедляют движение оппонента и при правильном выполнении могут травмировать нижние конечности, что может привести к окончанию боя. Лоу-кик не разрешен во всех правилах кикбоксинга, но если его использовать, то он может быть очень эффективной техникой, способной нокаутировать. Этот удар быстр и стабилен, что позволяет включать его в любые комбинации и начинать им атаку. Однако иногда забывают об этой простой технике, не видя всего многообразия способов и моментов для ее применения.

**5. Раунд-кик (раундхаус-кик)** - это круговой удар с разворотом, который обычно наносится в голову, позволяя использовать силу сгибания ноги. Это создает трудности в защите от этого удара, поскольку нога может обойти блокирующую руку. В начале удара верхняя часть тела разворачивается по траектории удара, после чего происходит доворот опорной ноги на 90° (иногда на 180°), колено согнутой ноги поднимается к груди, и разгибанием колена наносится удар подъемом ступни или голенью. Удар может наноситься на любой уровень, в этом случае слово «раунд» не произносится, а добавляется приставка (хай-кик - высокий, миддл-кик - средний, лоу-кик - низкий). По технике нанесения удар может быть легким, но быстрым («щелчком»), и может быть более медленным, но более мощным («с проносом»).

**6. Сайд-кик (боковой удар)** - в начале удара колено ударной ноги поднимается на уровень груди с одновременным сгибанием ее в коленном суставе. Удар производится вращательным движением ноги с одновременным ее разгибанием в коленном суставе. При этом таз, двигаясь вперед и в сторону удара, усиливает и удлиняет удар, увеличивая импульс, идущий от толчка опорной ноги. В конечной позиции удара внешняя поверхность ударной ноги (бедро и голень) обращена вверх. Ударная нога и туловище должны быть в одной вертикальной плоскости. Ударным местом при нанесении этого удара может быть пятка, подошва или «ребро стопы». Этот удар может наноситься как в голову, так и в туловище, как с дальней от противника ноги, так и с ближней. В последнем случае он чаще наносится с подшагиванием дальней от противника ногой. [2]

**7. Экс-кик (удар сверху)** - это удар, который наносится пяткой сверху вниз, подобно топору, и имеет большую амплитуду. Несмотря на то, что его сложно

использовать для нокаута, он может сбить с толку и напугать противника. Этот удар выглядит зрелищно, особенно когда его исполняют профессионалы, и напоминает растяжку на продольный шпагат. Этот прием часто вводит противников в заблуждение, поскольку быстро опускающаяся сверху вниз нога часто остается незамеченной. Если удар выполнен правильно, есть шанс сломать ключицу соперника. Удар может наноситься с разворотом, подобно хук-кику, но в конце удара нога будет двигаться вертикально, а не горизонтально. В этом случае удар может наноситься и в прыжке, хотя в этом случае поражающий момент будет слабее.

**8. Фронт-кик (прямой удар)** - на ринге сложно пробить противника прямым ударом ногой или ударом в сторону из-за правил, которые запрещают любой удар в низ живота, а также из-за тренированности бойцов, которые могут как отбивать, так и принимать такие удары. [6]

Эти удары можно наносить в голову, но чаще они используются для контроля дистанции с противником, останавливая его атаки и начиная свои. Удар наносится пяткой или подушечкой стопы. В зависимости от направления удар может быть восходящим, горизонтальным или нисходящим, в последнем случае обычно наносится «лягающий» удар в голову.

В этом случае удар получается очень сильным. Сначала боец поворачивается в направлении удара, скручивая корпус и фиксируя цель, затем выносит согнутое колено ударной ноги вверх и вбок, переступая на опорной ноге или проскальзывая на носке стопы, затем распрямляет колено, продолжая импульс за счет скручивания корпуса и поворота таза, и затем резко подключает мышцы ягодиц и мышцы-сгибатели бедра, нанося удар со сгибанием колена. Удар совершается с дальней от противника ноги (правой в данном случае) и с разворотом по часовой стрелке. После нанесения удара нога продолжает движение по заданной траектории, завершается поворот на 360°, и спортсмен снова занимает положение привычной боевой стойки. [7]

Необходимо помнить, что эффективность удара во многом зависит от ситуации в бою, а также от уровня подготовки и стратегии бойца. Кроме того, эффективность удара может значительно увеличиваться с помощью правильной тренировки и техники.

Таблица 1

**Анализ эффективности различных ударов в контексте соревновательного кикбоксинга**

Вид удара	Скорость (из 10)	Сила (из 10)	Точность (из 10)	Применение в бою
Бэк-кик (задний удар)	5	9	6	Эффективен для контратаки, когда противник находится сзади.
Джампинг-кик (удары в прыжке)	6	7	5	Используется для атаки с высоты, но требует хорошего контроля и баланса.

Кресент-кик (обратный боковой удар)	6	8	6	Эффективен для атаки сбоку, особенно при блокировании ударов противника.
Лоу-кик	8	7	8	Быстрый и точный удар, целью которого является ноги противника.
Раунд-кик (раундхаус-кик)	6	8	7	Мощный удар, который можно нанести с любого расстояния.
Сайд-кик (боковой удар)	7	7	7	Универсальный удар, который можно использовать как в ближнем, так и в дальнем бою.
Экс-кик (удар сверху)	5	8	6	Эффективен для атаки сверху, но требует хорошего контроля и баланса.
Фронт-кик (прямой удар)	7	6	8	Быстрый и точный удар, который можно использовать для контроля дистанции.
Хук-кик (удар-крюк)	6	8	6	Мощный удар, который можно использовать для атаки сбоку.

В ходе нашего исследования мы проанализировали различные виды ударов ногами в кикбоксинге. Каждый удар имеет свои уникальные характеристики и может быть эффективным в определенных ситуациях боя.

Прямые удары и фронт-кики оказались быстрыми и точными, что делает их идеальными для дистанционной атаки и контроля дистанции в бою. Однако они не так сильны, как некоторые другие удары, и могут быть менее эффективными против защищающихся противников.

Удары с разворота и бэк-кики были наиболее сильными среди анализируемых ударов. Они могут быть очень эффективными для нанесения значительного урона, но требуют больше времени для выполнения и могут быть менее точными.

Удары коленями и лоу-кики оказались эффективными в ближнем бою. Они могут быть очень сильными, но менее точными и быстрыми.

Сайд-кики и хук-кики оказались универсальными ударами, которые можно использовать как в ближнем, так и в дальнем бою. [3]

Важно отметить, что эффективность удара во многом зависит от ситуации в бою, а также от уровня подготовки и стратегии бойца. Кроме того, эффективность удара может значительно увеличиваться с помощью правильной тренировки и техники.

**Заклучение.** Наше исследование подчеркивает важность разнообразия и эффективности ударов в кикбоксинге. Мы проанализировали различные виды ударов, их технику, скорость, силу и точность, а также их применение в бою.

Мы обнаружили, что каждый удар имеет свои уникальные характеристики и может быть эффективным в определенных ситуациях боя. Эффективность удара во многом зависит от ситуации в бою, а также от уровня подготовки и стратегии бойца. Это знание может быть полезно для тренеров и спортсменов, стремящихся улучшить свои навыки и производительность. Оно также может способствовать развитию кикбоксинга как спорта, позволяя бойцам и тренерам лучше понимать и использовать различные удары.

### Адабиётлар/Литература/References:

1. Агафонов А. И. Методика обучения технике ударов ногами в кикбоксинге, основанная на биомеханическом анализе //Физическое воспитание и спортивная тренировка. – 2014. – №. 2. – С. 5-10.
2. Никулин Д. В. Совершенствование силы удара ногами у юношей-кикбоксеров на тренировочном этапе подготовки : дис. – Сибирский федеральный университет, 2021.
3. Турманидзе В. Г. и др. Дифференциация технико-тактической подготовки квалифицированных кикбоксеров на современном этапе //Современные проблемы науки и образования. – 2018. – №. 6. – С. 178-178.
4. Щеглов И. М. Особенности и различия техники ударов ногами в кикбоксинге и тхэквондо //Ученые записки университета им. ПФ Лесгафта. – 2022. – №. 9 (211). – С. 501-505.
5. Михайлов А. С. и др. Анализ соревновательной деятельности кикбоксеров в дисциплинах "фулл-контакт" и "лоу-кик" //Ученые записки университета им. ПФ Лесгафта. – 2023. – №. 3 (217). – С. 310-315.
6. Сергеев И. С. Совершенствование техники удара ногой в корпус с разворота «бэк-кик» у кикбоксеров 12-14 лет : дис. – Сибирский федеральный университет, 2016.
7. Белых С. И., Еременко В. В., Марабян А. В. Совершенствование тренировочного процесса кикбоксеров //Слобожанський науково-спортивний вісник. – 2007. – №. 11. – С. 119-122.
8. Салимов У. Ш. Инновационные технологии и спортивный менеджмент в современной спортивной подготовке студенческой молодежи //“O‘zbekistonda og‘ir atletika sport turini ommaviylashtirishning zamonaviy yo‘llari va yechimlari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumani to‘plami.-Chirchiq.: 2023.-249 b. – 2023. – С. 175.
9. Салимов У. Сурхондарё вилояти ОТМ талабаларининг соғлом турмуш тарзи ва жисмоний фаолликга муносабати таҳлили //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/S. – С. 155-159.
10. Салимов У. Психологические компетенции учителей физической культуры и спорта в контексте сотрудничества школы и родителей учащихся //Журнал Педагогики и психологии в современном образовании. – 2024. – С. 793-797.
11. Urolovich, B. C. (2024). THE ROLE OF DIDACTIC GAMES IN PERSONALITY FORMATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS. *Miasto Przyszłości*, 48, 1484-1490.
12. Urolovich, B. C. (2024). Using the Game in Teaching Physical Exercises to Primary Class Students. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(3), 780-783.

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **THE IMPORTANCE OF USING LITERATURE IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE**

**Kayimova Nargiza**

The teacher, Shakhrisabz Pedagogical Institute

E-mail: [qayumova.90@mail.ru](mailto:qayumova.90@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada chet tili darslarida adabiy manbalardan foydalanishning ahamiyati o'rganilgan va tadqiqot mobaynida xorijiy til sinflarida to'g'ri tanlangan adabiy materiallardan foydalanishning ahamiyatini o'rganish va ta'kidlashga asosiy diqqat qaratilgan. Adabiyot chet tilini o'qitishning muhim va foydali vositasi hisoblanadi. Adabiyotdan foydalanish jarayonida o'qish, yozish, tinglash va gapirish kabi to'rtta asosiy til ko'nikmalarini kompleks tarzda o'rgatish kerak. Og'zaki va yozma muloqotni nafaqat og'zaki va yozma nutqning bir jihati sifatida emas, balki tildan foydalanishning ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqish lozim. Til o'qitish jarayonida til ko'nikmalarini o'z ichiga olgan manbalarfdan foydalangan holda o'rganuvchilarning til o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkil etishga erishish mumkin va bu jarayonda ular xorijiy tilda ishlatiladigan so'zlar, iboralar va jummalarni real kontekstda foydalanishini o'rganadilar.

**Kalit so'zlar:** xorijiy til sinflari, adabiy materiallar, real kontekst, madaniyatlar o'zaro muloqot, qisqa hikoyalar, til ko'nikmalari

## **CHET TILI O'QITISHDA ADABIYOTDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

**Qayimova Nargiza**

Shahrissabz pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada chet tili darslarida adabiy manbalardan foydalanishning ahamiyati o'rganilgan va tadqiqot mobaynida xorijiy til sinflarida to'g'ri tanlangan adabiy materiallardan foydalanishning ahamiyatini o'rganish va ta'kidlashga asosiy diqqat qaratilgan. Adabiyot chet tilini o'qitishning muhim va foydali vositasi hisoblanadi. Adabiyotdan foydalanish jarayonida o'qish, yozish, tinglash va gapirish kabi to'rtta asosiy til ko'nikmalarini kompleks tarzda o'rgatish kerak. Og'zaki va yozma muloqotni nafaqat og'zaki va yozma nutqning bir jihati sifatida emas, balki tildan foydalanishning ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqish lozim. Til o'qitish jarayonida til ko'nikmalarini o'z ichiga olgan manbalarfdan foydalangan holda o'rganuvchilarning til o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli tashkil etishga erishish mumkin va bu jarayonda ular xorijiy tilda ishlatiladigan so'zlar, iboralar va jummalarni real kontekstda foydalanishini o'rganadilar.

**Kalit so'zlar:** xorijiy til sinflari, adabiy materiallar, real kontekst, madaniyatlar o'zaro muloqot, qisqa hikoyalar, til ko'nikmalari

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N54>

**Kirish.** So'nggi yillarda ingliz tilini o'qitishda adabiyotning asosiy tarkibiy qismi va haqiqiy manba sifatidagi o'rni tobora kuchayib bormoqda. Til o'qituvchilari orasida adabiyotni xorijiy til o'quv dasturiga qanday, qachon, qaerda va nima uchun kiritish kerakligi haqida qizg'in bahs-munozaralar mavjud. Adabiyot va xorijiy tillarni o'qitish qanday qilib birgalikda

ishlashi va o'quvchilar va o'qituvchilar manfaati uchun o'zaro ta'sir qilishi mumkinligi haqidagi qizg'in muhokama qiziqarli g'oyalari, o'rganish va barcha uchun ta'limni yaxshilashga olib keldi.

Collie va Slaterning fikriga ko'ra, til o'qituvchisiga darsda adabiyotdan foydalanishga yordam beradigan to'rtta asosiy sabab bor. Adabiy manbalar – hikoya, roman, she'r, dramalar turli xil ijtimoiy va mintaqaviy kelib chiqishiga ega bo'lgan turli qahramonlar taqdim etilishi mumkin bo'lgan to'liq va rang-barang muhitni ko'rsatadi [1; 56b]. Talabalar o'zga madaniyatni o'rganishlari mumkin bo'lgan bunday adabiy asarlarda qahramonlar o'zlarining his-tuyg'ulari, urf-odatlarini, xatti-harakatlari, e'tiqodlari, bir necha joylarda va vaziyatlarda qanday gapirishlari va o'zini tutishlarini tahlil qiladilar. Asosiy o'qish o'qituvchi tomonidan tayyorlanishi mumkin va talabalardan katta hajmdagi va qiyin vazifani bajarishni talab qilmasligi kerak. Muhimi, o'quvchilarni o'qish qiziqtiradi va ko'plab zerikarli va katta hajmdagi vazifalarni bajarishdan ularni xalos qiladi, ularga adabiyotdan parcha bilan tanishish va natijalarni tahlil qilish imkoniyatini beradi yoki matn haqidagi zerikarli umumiy savolga javob beradi. Chet el adabiyotini o'qitishning dastlabki bosqichlarida o'quv dasturiga taniqli mualliflarning mumtoz asarlari kiritildi.

**Tadqiqod maqsadi.** Ushbu adabiyotlardan parchalar asosan tarjima maqsadlari va o'qishni tushunish bo'yicha vazifalar uchun ishlatilgan. Bu olimlarga lug'atda mavjud bo'lgan har bir xorijiy so'zni adabiy kontekstda o'rganish imkoniyatini beradi. Chet tillarini o'qitishda adabiyot o'zining interfaol kompetentsiyani rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi va talabalarni tegishli mamlakat madaniyati va jamiyati haqida xabardor qiladi. Xorijiy pedagogikadagi adabiyotning ta'lim maqsadi talabalarni maqsadli tildagi adabiy matnlarni tushunish va sharhlash bilan tanishtirish uchun turli strategiyalarni taklif qiladi.

**Tadqiqod vazifalari.** Darsda qo'llaniladigan interfaol o'yinlar adabiy parchaning manbasida bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada bunday adabiy manbalarni xorijiy til darslarida qo'llash usullari va kutiladigan natijalar muhokama qilinadi. Asosan adabiy manbalarning to'rtta til ko'nikmalari rivojlanishidagi ta'siri muhokama qilinadi. Dars davomida o'qituvchi talabalarga adabiy manbalar haqida qisqacha ma'lumotnomani o'qishni aytishingiz mumkin. siz munozara uyushtirasiz yoki ulardan bu asar qanday qilib dunyoga mashhurligini qisqacha so'raysiz.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, tadqiqot jarayonida tahliliy, taqqoslash va kuzatish metodlaridan foydalanilgan. Ingliz tilida badiiy adabiyot o'qish o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, turli an'anaviy va tarixiy voqealarni o'rganish, o'quvchilarning faol va passiv so'z bazasini mustahkamlash, ham lingvistik, ham umumiy madaniy bilimlarni oshirish imkonini beradi. Ingliz tilida o'qish madaniyatlararo muloqotiga hissa qo'shadi, talabalarni boshqa madaniyat, boshqa xalqlar va millatlarga xos bo'lgan ma'lumotlar bilan tanishtiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Adabiyotning til o'qitishdagi ahamiyati yillar mobaynida izlanuvchi va olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Helton va Asamani ga ko'ra, adabiyot yaxshi yozish uchun yaxshi namuna bo'lib xizmat qiladi; bu esda qolarli, qiziqarli mavzu bo'yicha ma'lumotlarga to'la va ko'p qirrali, shuningdek, tilning ritmlarini o'zlashtirishga yordam beradi; shuningdek, madaniyatlararo muloqot va sezgirlikni oshirishga yordam berish kabi adabiyotning xususiyatlari bizni adabiyotga qiziqishimizni oshiradi [4; 9-11b].

Adabiyotning afzalliklari faqat yozish mahoratini rivojlantirish, shuningdek, til o'rgatishda an'anaviy yondashuv ni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmasligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, adabiyot shakl va nutqni yaxshilashga yordam beradi, deb da'vo qilinadi, ya'ni so'z boyligini kengaytirish va o'qish qobiliyatlari bilan birga qayta ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, Helton aytganidek, til o'qitishda kommunikativ yondashuvning paydo bo'lishi bilan adabiyot jonlandi o'quvchilarni haqiqiy, yoqimli va madaniy materiallar bilan ta'minlash imkoniyati tug'ildi[4; 47b].

Stern va boshqalar til o'rgatish uchun adabiyotdan foydalanishning asosiy jihatini taklif qiladi. Birinchi afzallik tilning kontekstualizatsiyasini ko'rib chiqadi. Talabalar adabiy asarni o'qiyotganda tilning turli sharoitlarda qo'llanilishi bilan tanishadilar[9; 112b].

Obediat ga ko'ra, adabiyot o'quvchilarga maqsadli tilda kompetentsiyani olishga, idiomatik iboralardan foydalanishni o'rganishga, to'g'ri gapirishga va maqsadli tilda yanada ravon va ijodiy bo'lishga yordam beradi[8; 15b]. Shuningdek, Custodio va Sutton ta'kidlaganidek, adabiyot imkoniyatlar eshiklarini ochadi va o'quvchilarga so'rash, tanqid qilish va tekshirish imkonini beradi[2; 25b]. Qisqacha aytganda, adabiyot o'quvchilar uchun haqiqiy materialning boy manbasini ifodalaydi. Agar o'quvchilar ushbu materialga erishsalar, ular tilni yuqori darajada o'zlashtirishlari mumkin bo'ladi [1; 82b].

Yuqorida keltirilgan mulohazalardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, adabiy matnlarning roman, qisqa hikoya, sh'er kabi namumalari til o'rgatish jarayonida o'quv dasturi yoki kurs rejasiga kiritilishini asoslash uchun ham foydalanish mumkin. Adabiy matnlar, o'z navbatida, til faoliyatini rag'batlantiradigan boy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Buni tasvirlash uchun, masalan, adabiy matnning bir turi sifatida romanni o'qish jarayonlarini takomillashtiradi va o'quvchilarning til bilimlarini kuchaytiradi[2; 246b]. Badiiy matnlardan foydalanishning keyingi afzalliklariga kelsak, til faoliyati, Maleyga ko'ra adabiyotdan foydalanish uslublari va registrlarning keng doirasini o'rganish imkoniyatini beradi. chinakam qiziqarli va rag'batlantiruvchi mavzular talabalar e'tiborini jalb qilishga ularni muhokamaga chorlashga xizmat qiladi[7; 78].

**Muhokama.** Chet tillarni o'qitish jarayonida o'qituvchi muhim rol o'ynaydi. Birinchidan, o'qituvchi til o'rgatish maqsadini o'quvchilarning zaruriyati va maqsadlari bilan bog'liq holda aniqlab berishi kerak. So'rovni tarqatish yoki o'quvchilar bilan suhbat o'tkazishda o'qituvchi chet tillarini o'rgatishning maqsadi va ustuvorliklarini qo'yishi kerak. Adabiyot o'quvchilarni rag'batlantiradi, chunki u ularning tashqi dunyosi bilan o'zaro bog'liq bo'lgan mavzularni o'rganadi. Bundan tashqari, adabiyot o'quvchilarga o'sha tilda so'zlashuvchilar foydalanadigan turli xil tillarni taqdim etadi. Bundan tashqari, adabiyot o'quvchilarning o'zga madaniyat, boshqa xalq va millatlarga xos bo'lgan voqelik haqidagi dunyoqarashini kengaytira oladi.

Tarjima adabiyoti talabalarga boshqa kurslarda olgan leksik, sintaktik, semantik, pragmatik va stilistik bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini berganligi sababli, tarjima ham til o'rgatishda to'rtta asosiy ko'nikmani qamrab oluvchi qo'llanish sohasi sifatida ham, beshinchi ko'nikma sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Keyingi bo'limda nega til o'qituvchilari chet tili darslarida badiiy matnlardan foydalanishlari va chet tili darslarida mos badiiy matnlarni tanlashning asosiy mezonlari o'quvchini til o'qituvchilarining foydalanishi va tanlashining asosiy sabablari va mezonlari bilan tanishtirish uchun ta'kidlanadi.

Til bilish darajasi yuqori bo'lgan talabalarga o'z tillarida o'z adabiy bilimlarini oshirishlari uchun romanlarning asl shakli berilishi mumkin. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak,



talabalar badiiy matnlarda maqsadli tilning obrazli va kundalik qo'llanilishini amalda o'rganadilar va yuqori darajadagi adabiyotning turli janrlari (ya'ni she'rlar, hikoyalar, pyesalar va boshqalar) bilan tanishadilar. Spektakl yoki qissadagi qahramonlar o'zlarining kommunikativ niyatlarini ifodalash uchun o'xshatish, metafora, metonimiya va h.k. kabi nutqiy birliklardan qanday foydalanishini kuzatgan holda, talabalar ingliz tilini yanada aniq, ijodiy va kuchliroq yozishni o'rganadilar.

Ingliz tilini o'rgatish jarayonida o'qish uchun adabiy matnlardan foydalanish intellektual va kognitiv qobiliyatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Yangi olingan lingvistik va ijtimoiy-madaniy bilim va ko'nikmalar til o'rganuvchilarning motivatsiyasi darajasini sezilarli darajada yaxshilaydi va ularning tilni bilish darajasidan qat'i nazar, ingliz tilidan foydalanishda o'zlarini ishonchli his qilishlariga yordam beradi. Ingliz tilini o'qitish ingliz madaniyati va adabiyotini o'rganish bilan chambarchas bog'liq. Klassik va zamonaviy adabiyotning eng samarali namunalari bilan tanishish, shubhasiz, o'rganilayotgan til mamlakatlari madaniyati bilan yaqinlashish imkoniyatini beradi. Badiiy adabiyot inson shaxsini shakllantirishda juda muhim rol o'ynaydi. Badiiy adabiyotda ko'p avlodlar tajribasi, asosiy axloqiy va ma'naviy qadriyatlar yotadi. O'qish orqali o'quvchilar axloqiy xulq-atvor va axloq normalalarini o'zlashtiradilar. O'qish jarayonida shaxsning kognitiv va hissiy sohalarini ishtirok etadi.

**Natijalar.** Adabiyot haqiqiy materialdir. Adabiyotning aksariyat asarlari til o'rgatish maqsadida yaratilmagan. Haqiqiy hayot kontekstlarida tilning ko'plab haqiqiy namunalari (masalan, sayohat jadvallari, shahar rejaları, shakllar, risolalar, multfilmlar, reklamalar, gazeta yoki jurnal maqolalari) yaqinda ishlab chiqilgan kurs materiallariga kiritilgan.

Shunday qilib, sinf kontekstida o'quvchilar haqiqiy hayot / real hayotning haqiqiy til namunalari bilan tanishadilar. Adabiyot bunday materiallarga foydali qo'shimcha bo'lishi mumkin, ayniqsa til o'rganishning dastlabki darajasidan o'tganda. Badiiy matnlarni o'qishda o'quvchilar ona tilida so'zlashuvchilar uchun mo'ljallangan til bilan ham shug'ullanishlari kerakligi sababli ular juda ko'p turli lingvistik shakllar, kommunikativ funktsiyalar va ma'nolar bilan tanishadilar.

Adabiyot o'quvchilarga hissa qo'shish, muhokama qilish uchun qiziqarli vaziyatlarni taqdim etadi va rag'batni oshiradi, ya'ni adabiyot maqsadli tilni o'zlashtirish uchun samarali vositadir. Bundan tashqari, adabiyot yashirin ma'nolarni o'z ichiga olganligi sababli, u hissiyotlar, his-tuyg'ular, shuningdek, nuqtai nazar va munosabatlarni almashishni talab qiladigan sinf faoliyatini rivojlantirishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, adabiyot tilni o'rganishni o'quvchilar zavqlanadigan vaziyatlar va mavzularni o'rganish, so'ngra yashirin ma'nolarni izlash orqali javob almashish jarayonidir. Chet tilini o'rganish chet el adabiyotida tilning keng ko'lamli usullari va turlarini taklif qiladi. Badiiy matnni o'qish mobaynida o'quvchi ijodiy ish olib boradi leksik birliklarni sharhlaydi, matnlarni lingvistik tahlil qiladi, uni o'zining lingvistik muloqoti bilan taqqoslaydi.

O'quvchining hayotiy tajribasi, his-tuyg'ulari yoki orzulariga mos keladigan kitoblarni tanlash katta ahamiyatga ega. Til qiyinligini ham hisobga olish kerak. Agar asarning tili sodda bo'lsa, bu adabiy matnning tushunarli bo'lishini osonlashtirishi mumkin, ammo bu o'z-o'zidan eng muhim mezon emas. Qiziqish, jozibadorlik va dolzarblik asosiy o'rinda turadi. Rohatlanish; odamlarning tashvishlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar haqida yangi tushuncha; o'zining g'ayrioddiy san'at asarida aniq ifodalangan o'z fikrlari yoki vaziyatlari bilan uchrashish zavqi; aksincha, bir xil fikrlar, his-tuyg'ular, his-tuyg'ular yoki juda yangi nuqtai nazar tomonidan

taqdim etilgan vaziyatlarni payqashning teng zavqi: bular o'quvchilarga kamroq jalb qilingan materialda juda katta deb hisoblanishi mumkin bo'lgan lingvistik to'siqlarni hal qilishga yordam beradigan motivlardir.

**Xulosa.** Mening fikrimcha, so'zma-so'z matnlarni o'qish orqali til o'rganish o'quvchilar uchun zerikarli bo'lishi mumkin. Biroq, o'qituvchilarning vazifasi o'quvchilarga ushbu muammoni hal qilishda yordam berishdir. Chunki u o'quvchilarga til, madaniyat va an'analar haqida yaqin tasavvurga ega bo'lishga ko'maklashadi.. Adabiyot hayotning muhim qismi bo'lishi mumkin. Tilni adabiyot orqali o'rganish ikki xil madaniyatdagi o'xshashliklarni izlash imkoniyatini yaratadi va bu talabalarning so'z boyligini yaxshilashga va til imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanishga imkoniyat yaratadi. Ingliz tili adabiyoti talabalarga boshqa madaniyatlarning tarixi, an'analari va ijtimoiy turmush tarzini o'rgatadi. Bu hikoya haqida o'z fikrlari va his-tuyg'ularini baham ko'rish orqali talabalarni boshqalar bilan muloqot qilishga undaydi. Talabalar muallif yoki qahramonlar tomonidan bildirilgan munosabat va fikrlar bilan shug'ullanadilar. Bu o'quvchilarning o'zligini, axloqiy me'yorlarini, dunyo haqidagi tushunchalarini rivojlantirishga yordam beradi.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Collie, J. and S. Slater. 1990. Literature in the Language Classroom: A Resource Book of Ideas and Activities. Cambridge: CUP. 87
2. Custodio, B. and M. Sutton. 1998. "Literature-Based ESL for Secondary School Students" in TESOL Journal. Vol 7, No.5, p.p: 19-23..
3. Elliot, R. 1990. "Encouraging reader-response to literature in ESL situations" in ELT Journal. Vol 44, No. 3, p.p:191-198
4. Helton, C.A, J.Asamani and E.D.Thomas. 1998. "A 'Novel' Approach to the Teaching of Reading". Tennessee State: Tennessee State University, p.p: 1-5,
5. Hiller, J.P. 1983. "Teaching Poetry in the Foreign Language Classroom: Theory and Practice." Unpublished PhD Dissertation. Stony Brook: State University of New York.
6. Lenore, K.L. 1993. The Creative Classroom A Guide for Using Creative Drama in Classroom. U.S.A.: Elsevier
7. Maley, A. 1989. "Down from the Pedestal: Literature as Resource" in Literature and the Learner: Methodological Approaches. Cambridge: Modern English Publications.
8. Obediat, M. 1997. "Language vs. Literature in English Departments in the Arab World" in English Teaching Forum.
9. Stern, S. 1991. "An Integrated Approach to Literature in ESL / EFL" in Teaching English as a Second or Foreign Language. ed. Murcia, M. Boston: Heinle & Heinle Publishers.

**Received:** 05 June 2024  
**Accepted:** 15 June 2024  
**Published:** 25 June 2024

*Article / Original Paper*

## **CHARACTERISTICS OF INTELLECTUAL AND EMOTIONAL DEVELOPMENT DURING ADOLESCENCE**

**Ismoilov Erkin Mengnimurotovich**

Teacher of the Department “Humanities and Socio-Economic Sciences” of the Termiz Institute of Engineering Technology  
E-mail:ismoiloverkin390@gmail.com

**Abstract.** In this article, the author discusses mental, physiological, physical and other changes of children during adolescence, as well as the formation of personal characteristics such as worldview, beliefs, principles, self-awareness, evaluation, and communication and cooperation activities during adolescence. held.

**Key words:** Adolescence, period, intellect, emotion, mental development, ability, ability, communication, norm, speech, attention, characteristic, activity.

## **O‘SMIRLIK DAVRIDA INTELLEKTUAL VA EMOTSIONAL RIVOJLANISHNING XUSUSIYATLARI**

**Ismoilov Erkin Mengnimurotovich**

Termiz muhandislik texnologiya instituti gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiyot fanlar kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada muallif tomonidan bolalarning o‘smirlik davridagi ruhiy, fiziologik, jismoniy va boshqa o‘zgarishlar shuningdek o‘smirlik yoshida dunyoqarash, e‘tiqod, prinsip, o‘zligini anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlarining shakllanishi hamda muloqot qilish va hamkorlikdagi faoliyati haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘smirlik, davr, intellekt, emotsiya, psixik rivojlanish, layoqat, qobiliyat, muloqot, meyor, nutq, diqqat, xususiyat, faollik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI4Y2024N55>

**Kirish.** O‘smirlik – bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma‘naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O‘smirlik balog‘atga etish davri bo‘lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taallukli chigal masalalarning paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi. Og‘iz bo‘shlig‘i va halqumdagi o‘zgarishlar oqibatida tovush tembri ham o‘zgaradi. [1]

Bu o‘g‘il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko‘prok darajada sodir bo‘ladi. O‘g‘il bolalarning tovushi vazminrok bo‘lib qoladi, do‘rillaydi. Garchi bu davrda mushaklar tez sur‘at bilan o‘ssa ham, mustahkamlashsa ham, lekin baribir oyoq va qo‘l suyaklarining o‘sish sur‘ati orqada qoladi. O‘smirlarda bu xususiyat ularning beso‘naqay xatti-harakatlarida, yurish-

turishlaridagi qo‘pollikka, katta-katta odim tashlashlariga sabab bo‘ladi. Fiziologik o‘zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog‘liq ravishda tanadagi barcha a‘zolarining mukammal rivojlanishi va o‘sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashida namoyon bo‘ladi. Organizmdagi o‘zgarishlar bevosita o‘smir endokrin sistemasining o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir. Bu davrda ichki sekretsiya bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyasi faollashadi. Ko‘krak qafasi ham gavdaning bo‘y o‘sishiga nisbatan sekin rivojlanadi. Buning natijasida ayrim o‘smirlarning elkasi, ko‘kragi tor bo‘lib qoladi, bu esa o‘z navbatida kislorod etishmasligiga, nafas qisishiga olib keladi. Kislorod etishmasligi natijasida ruhiy faoliyatga putur etadi. Bu davrda yurak kengayishi bilan qon tomirlari ham yo‘g‘onlashadi. Qon aylanish sistemasining qayta qurilishi, vegetativ nerv sistemasidagi barqarorlik qon aylanishini buzadi va o‘smirda ba‘zi qon bosimining ortishi ro‘y beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Psixologiyaning fan sifatida shakllanishi qadimgi olim-mutafakkirlar – Platon (Aflotun), Aristotel (Arastu), Geraqlit, Demokrit, Gippokrat, Galen va vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy nomlari bilan, va nihoyat rus olimlari I.M.Sechenov, I.P.Pavlovlar bolalardagi yoshga doir o‘zgarishlar haqida ko‘plab ma‘lumotlarni keltirib o‘tganlar. [2]

Hozirgi zamon olimlari o‘smirlar o‘zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o‘zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma‘lum darajada o‘rtoqlari va o‘qituvchilariga ko‘rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo‘li bilan ham osongina ko‘rish mumkin deb hisoblaydilar. O‘smirlik davri «**o‘tish davri**», «**krizis davr**», «**qiyin davr**» kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan xarakterlanadi. Bunday malumotlarni juda ko‘plab adabiyotlar tahlili natijasida ko‘rishimiz mumkun. [3]

**Tahlil va natijalar.** Kichik maktab davridan so‘ng bola alohida olingan shaxs sifatida o‘z-o‘ziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki bosqichni boshidan kechiradi. Bu bosqichlar o‘smirlik yoshini ikki xil davrga - kichik o‘smirlik davri va katta o‘smirlik davrlariga to‘g‘ri keladi. Birinchi bosqichda o‘smir o‘zini ”bola”lardan ajratib, endi o‘zini kattalar olamiga mansubligini ta’kidlamochidek bo‘ladi. Kattalar hayotiga kirishga qiziqish o‘smirlarning asosiy xarakteristikalarini hisoblanadi. Bu davr uchun kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o‘zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bo‘lishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog‘liq bo‘lib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir. Ikkinchi bosqichda o‘smir endi o‘zining yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o‘zligini aniq anglay boshlaydi, o‘z shaxsini ulug‘lab, o‘ziga xos harakatlar qila boshlaydi. O‘smirlarni o‘z shaxslari haqidagi fikrlar ko‘prok qiziqtiradi, ular o‘zlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakat qiladilar. [4]

Endi o‘smirlar o‘yin hamda damga kamroq vaqtlarini ajratgan holda ko‘proq jiddiy ishlar bilan shug‘ullana boshlaydilar va ularda bilish jarayonlari jadal rivojlana boshlaydi. Maktab ta’limi o‘smir bilish jarayonlarini rivojlanish yo‘nalishini sifat jihatidan o‘zgarishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘qish o‘smirlar hayotida katta o‘rinni egallaydi. Ular uchun mashg‘ulotlarning mustaqil shakllari yoqadi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o‘smirlarning fanlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari, qiziqishlarining ortishi, o‘qituvchining o‘quv materialini tushuntira olish mahoratiga bog‘liq. O‘qish faoliyati asosida o‘smirning o‘z-o‘zini anglash darajasi kengayadi, boshqa odamlar, atrof olam haqidagi bilimlari chuqurlashadi. Psixik rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. Bilim o‘rganish ehtiyojlari

asosida asta-sekinlik bilan o'quv fanlariga nisbatan qat'iy ijobiy munosabat shakllanadi. Bu davrda o'qishning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu motivlar o'smirning, hayotiy rejalari, kelajak kasbi va ideali bilan bog'liq bo'lgan holda bilish jarayonlari rivojlanish xarakteriga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Aynan o'smirlik davridan boshlab, bolalar hayotiy, ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga alohida ehtiyoj sezadilar va bunga harakat qiladilar. Bilimli bola tengdoshlari orasida hurmatga sazovor bo'ladi. Bilim o'smirlarga alohida quvonch bag'ishlaydi va uning tafakkur qilish layoqatini rivojlantiradi.

Bilish jarayonlarining rivojlanishida nutq og'zaki va yozma mavjud bo'lishi bilan kuchli vosita hisoblanadi. Maktabdagi o'quv jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan o'smir nutqining to'g'ri rivojlanishiga qulay sharoit yaratiladi. Nutqni o'zlashtirishga harakat bu o'smirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirishiga ehtiyoj va intilish hisoblanadi.

O'smirlik davrida **nutqning** rivojlanishi bir tomondan so'z boyligining oshishi hisobiga bo'lsa, ikkinchi tomondan tabiat va jamiyatdagi narsa, voqea va hodisalarning mazmun-mohiyatini anglashlari hisobiga bo'ladi. Bu davrda o'smir til yordamida atrof-borliqni aks ettirish bilan bir qatorda inson dunyoqarashini ham belgilab berish mumkinligini his qila boshlaydi. Aynan o'smirlik davridan boshlab, inson nutq bilish jarayonlarining rivojlanishini belgilab berishini tushuna boshlaydi. O'smirni ko'pincha muomalada so'zlarni ishlatish qoidalari – «Qanday kilib to'g'ri yozish kerak?» «Qanday kilib yaxshiroq aytish mumkin?», «Nima deyish kerak?», kabi savollar juda qiziqtiradi. O'smirlar maktabdagi o'qituvchilar, kattalar, ota-onalar nutqidagi kamchiliklariga, kitob, gazeta, radio va televidenie diktorlari xatolariga tez e'tibor beradilar. Bu holat o'smirning bir tomondan o'z nutqini nazorat etishga o'rgatsa, ikkinchi tomondan kattalar ham nutq qoidalarini buzishlari mumkinligini bilishlariga va o'zida mavjud xatoliklarni birmuncha barham toptirishlariga olib keladi. [5]

Agar kichik maktab davrida ixtiyorsiz diqqat ustunlik qilsa, o'smirlik davrida bola o'z diqqatini o'zi boshqara oladi. Dars davomida intizomning buzilishi aksariyat hollarda o'quvchilar diqqatsizligidan emas, balki ijtimoiy sabablar bilan belgilanadi. O'smir o'z diqqatini to'la ravishda o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan va yuqori natijalarga erishishi mumkin bo'lgan faoliyatlarga qarata oladi. O'smirning diqqati yaxshi boshqariladigan va nazorat etiladigan darajada rivojlangan bo'lishi mumkin. Bolaning rivojlanayotgan ixtiyoriy diqqati o'qituvchi tomonidan doimo qo'llab-quvvatlanishi juda zarurdir. Pedagogik jarayonda ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy diqqat darajasiga ko'tarish uchun bir qancha uslublar ishlab chiqilgan. Shuningdek, o'smirning dars jarayonida o'z tengdoshlari orasida o'zini ko'rsatishi uchun sharoitni yaratilishi ham o'smirdagi diqqatni ixtiyorsizdan ixtiyoriyga aylanishida zamin bo'lib xizmat qilishi mumkin.

O'smir o'z faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqta -nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O'smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Psixologlar o'tkazgan tadqiqotlardan ko'rinadiki, o'smirlarning ko'pchiligi qat'iyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylik, dilkashlik kabi ma'naviy, ahloqiy tushunchalarni to'g'ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida barqaror e'tiqodiy va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zaminida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi.

Ma'lumki, o'smirlik davrida o'smirning «men»i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofidagilari ayniqsa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlarini yo'nalishi keskin o'zgaradi.

O'smir yoshdagi bolani birinchi galdagi intilishi, u o'zini endi kichkina bola emas, balki katta bo'lib qolganligini atrofdagilarga ishontirishdan iboratdir. Mustaqil ishlar qilishga uringan o'smir shunday qilishga xaqqi borligiga o'zini-o'zi ishontiradi, Chunki men endi "katta bo'lib qoldim" deb o'ylaydi. Shuning uchun xam psixologlar "katta bo'lib qolganlik tuyg'usi"ni shaxsning o'smirlik yoshidagi eng asosiy yangilik sifatida talqin qiladilar.

O'smirlik yoshida, taxminan 13-14 yoshlarda, bolalarni emotsional kechinmalarida katta o'zgarishlar boshlanadi. Shu yoshdagi bolalarda ta'lim ta'siri ostida abstrakt-mantiqiy va tanqidiy tafakkur ancha o'sadi. O'smirlarda xayol kuchli ravishda o'sadi. Hislarning o'zi xayolning o'sishiga yordam beradi. va xayolning o'zi ham xilma-xil chuqur emotsional kechinmalarining manbai bo'lib qoladi. Kelajak to'g'risidagi orzular, qaxramonlik, romantika- shularning hammasi emotsional kechinmalarining manbaidir. Bu yoshda o'z-o'ziga baho berish hissi kuchli ravishda o'sadi.

O'smir yoshidagi bolalarning aloqa doirasining kengayishi va ularda ijtimoiy-siyosiy masalalarga qiziqish o'sishi tufayli axloqiy hislar o'smirlar hayotida katta o'rin egallaydigan bo'lib qoladi, ularda vatanparvarlik hissi yorqin namoyon bo'ladi. Shu yoshda organizmda fiziologik o'zgarishlar sodir bo'lishi sababli emotsional qo'zg'alishlarning xarakterida ham o'zgarish ro'y beradi. Hislar kuchli ravishda namoyon bo'laveradi, lekin ko'pincha bu hislar barqaror bo'lmaydi. Boshqa yoshdagi bolalarga qaraganda o'smirlarda injiqlik va arazlash ko'p bo'ladi. [6]

O'smirlik davrida etakchi faoliyat - bu o'qish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir. O'smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi - bu do'stlik, o'rtoqlikdagi elementar normalarini aniqlash va egallashdir. O'smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u to'la o'rtoqlik kodeksiga bo'ysunadi. O'smirlarni o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishi g'oyat katta ahamiyatga egadir. O'smirlar do'stlik, o'rtoqlik va o'zaro yordamlashishni hamma narsadan yuqori qo'yadilar: ana shunday o'zaro munosabatlar, o'spirinlik yillarida ham davom etaveradi. Bunda o'smirlar va ilk yoshdagi o'spirin o'quvchilarniig xulq-atvorlariga do'stlari ota-onalar va pedagoglarga nisbatan bir necha marta kuchlirok ta'sir etadilar. Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, o'smir bolaning etilmaganligi va tajribasizligi uni tevarakatrofdagi kimsalardan madad axtarishga majbur kiladi. O'smir bolaga uning istaklarini tushunadigan va ularni amalga oshirishga yordam beradigai do'st kerak. O'smirning do'stlari bilan muloqoti ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tengdosh bolalar bilan prinsipial tenglik holatidagi munosabatlar muhitiga nisbatan o'smirda alohida qiziqish bo'ladi. Bu hol o'smirda yuzaga keladigan shaxsiy kattalik hissining etik mazmuniga mos keladi. Kattalar bilan muloqotda bo'lish tengdoshlari bilan bo'lgan muloqotning o'rnini bosa olmaydi.

O'smir uchun tengdoshlari bilan bo'lgan muloqot u mustaqil harakat qiladigan o'zining shaxsiy munosabatlari muhitiga ajraladi. U bunga haqqim bor, deb o'ylaydi, o'z huquqlarini himoya qiladi va aynan Shuning uchun ham o'rtoqlari bilan bo'lgan munosabatga kattalarning o'rinsiz, qo'pol aralashuvi o'smirning xafagarchiligiga va noroziligiga olib keladi.

O'smirda tengdoshlar bilan muloqot qilish va hamkorlikdagi faoliyatga intilish yaqqol namoyon bo'ladi. Jamoa hayoti bilan yashash, yaqin o'rtoqlar, do'stga ega bo'lish xohishi - do'stlar tomonidan qabul qilingan, tan olingan, hurmat qilingan bo'lishdek kuchli xohishdir. Bu o'smirning muhim talabiga aylanib boradi. O'smir uchun eng yoqimsiz vaziyat - jamoa va

o'ртоqlarining noroziligi, muloqot qilishni istamaslik, eng og'ir jazo esa – ochiq yoki nooshkor aloqa uzish, gaplashmaslikdir. O'smirlar do'stlik kodeksining muhim me'yorlari – sha'nini hurmat qilish, tenglik, sodiqlik, do'stga yordam, to'g'ri so'zlik. [7]

Do'stlik me'yorlarini egallash bolaning o'smirligidagi muhim yutug'idir. Agarda u bunday do'stni qarindoshlari va pedagoglari orasidan topa olmasa, unday paytda u o'z qiziqishlari va intilishlarini qo'llab-quvvatlaydigan hamda undagi kamchiliklarni nimalar bilandir to'ldira oladigan odamni begona katta kishilar yoki o'z tengqurlari orasidan albatta topadi. O'z tengdoshlari bilan tenglik asosida qilingan munosabat asosida o'smir alohida bir ijtimoiy munosabatlar maktabini o'taydi. O'zaro qiziqishlar, atrof dunyoni, bir-birlarini o'zligini anglashlari va tushunishlari ular uchun juda qimmatlidir.

**Xulosa.** Xulosa qilganda o'smir yoshdagi bolalarning o'z-o'zini hurmat qilish tuyg'usini shakllantirish uning shaxsi rivojida muhim hisoblanadi. Bunda o'qituvchi bolaning sinf va maktab jamoasi oldidagi obro'sini ko'tarish yo'llarini izlashi turli sohalardagi yutuqlarini ko'pchilikka ma'lum qilib, xato va kamchiliklarini yo'qotishda donolik bilan harakat qilishi uning o'z kuch va imkoniyatlariga ishonishiga zamin yaratadi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Davis S. F. Handbook of Research Methods in Experimental Psychology. – Blackwell Publishing Ltd, 2013. – 515 p.
2. Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2014. - P.910
3. James W, Kalat, "Intoduction to psychology" 2013.
4. Kelvin Seifert and Rosemary Sutton, "Educational Psychology", 2013.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Darslik. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2012. – 176 b.
6. Zuvarova M.E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: " O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" – 2010.
7. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2010. 400 b.
8. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
9. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
10. G'oziyev E.G'. Psixologiya fani XXI asrda. – Toshkent: Universitet, 2002.
11. Eshqobilov, E. (2024). КОМПЕТЕНСИЯВИЙ YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *Izhtimo-gumanitar fanlarning muammolari/Actual Problems of Humanities and Social Sciences.* , 4 (1).
12. Исмаилов Эркин Мегнимуротович, Абдуллаева Насиба Исмаиловна. (2023). СОДЕРЖАНИЕ ОСНОВ ДИАГНОСТИКИ И ПСИХОКОРРЕКЦИИ ВЗАИМОСВЯЗЕЙ В КОГНИТИВНЫХ ПРОЦЕССАХ. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 328–330.
13. Исмаилов Эркин Мегнимуротович. (2023). Физиологические основы эмоциональных состояний. *Американский журнал публичной дипломатии и международных исследований (2993-2157)*, 1(10), 272–275.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/4(4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).